
JAHON ADABIYOTI DURDONALARI

DUNYODAGI ENG BAXTLI ODAM



DUNYODAGI ENG BAXTLI ODAM

МАЖБУРИЙ НУСХА

(Jahon hikoyalari)



„O'QITUVCHI" NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2017

UO'K: 821(100)-32 - Жаҳон адабиёти
KBK 84(0)
D 88

Tarjimonlar:

QANDILAT YUSUPOVA

1986- yili Andijon viloyatida tavallud topgan. 2008- yilda O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetining ingliz filologiyasi fakultetini tamomlagan. „Ko'zlaringdan qo'rqaman, she'rim", „Tor sehri", „Yorug' kunlar xumori", „Ohu faryodi" nomli she'riy hamda O. Genri hikoyalaridan tashkil topgan „Ishbilarmon kishilar" tarjima kitoblari nashr qilingan. Jahon adabiyotidan roman, hikoya, esse va she'riy tarjimalari matbuotda muntazam chop etib kelinmoqda.

NODIRABEGIM IBROHIMOVA

1989- yil 18- iyulda Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida tavallud topgan. 2007 — 2011- yillarda O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Qissa, hikoya, maqolalar yozadi hamda ingliz tilidan jahon adabiyoti durdonalarini tarjima qiladi. Ijodiy ishlari „Sog'lom avlod", „Turkiston", „Oila davrasida", „Bekajon", „Kitob dunyosi", „O'zbekiston adabiyoti va san'ati", „Yoshlik", „Sharq yulduzi" va boshqa nashrlarda chop etilgan.

ISBN 978-9943-22-117-8
© Q. Yusupova, N. Ibrohimova
© „O'qituvchi" NMIU, 2017

QANDILAT YUSUPOVA
tarjimasi

Irving SHOU
(AQSH)

YOZGI KO'YLAKDAGI QIZLAR

Ular Brevutni tark etib, Vashington maydoni tomon yayov yurib ketayotganlarida beshinchi ko'cha saxiy quyosh nurlari ostida yorishib yotardi. Hatto, noyabr kelganiga qaramay, hali kun ancha iliq, atrofda esa yakshanba tongi nafasi ufurar edi: ravon g'uvullagancha oqayotgan avtobuslar oqimi, po'rim kiyinib olgancha juft-juft bo'lib qo'ltiqlashgan yoshlar va boshqa odamlar, nihoyat, osuda dam olmoqlik uchun deraza-tuynugi mahkam tambalab olingan jimjit binolar — bularning bari hordiq chiqarish kunining yorqin lavhalari bo'lib, butun tevarak-atrofga maroqli kayfiyat va yoqimli huzur bag'ishlab turardi.

Mana shunday zarrin oftob nurlari ostida shahar chetidan o'tib borisharkan, Maykl Frensisning qo'lidan mahkam ushlab oldi. Yoshlar kayfiyati rosa chog' bo'lib, yuzlarida tinmay nimtabassum jilva qilar, negaki kecha kechqurun uyquga biroz kech yotishganiga qaramay, tiniqib uxlab, yaxshilab nonushta qilishgan, buning ustiga, bugun yakshanba edi. Maykl yo'l-yo'lakay paltosining tugmalarini yechib tashladi va kiyimi mayin kuz shamolida hilpirab ketishiga qo'yib berdi. Har ikkisi ham bir so'z demay, jim ketishar, Nyu-Yorkning aholisi eng ko'p, gavjum joylarida hatto tanish yosh chehralar ro'para bo'lgan kezlarda ham og'iz ochishmasdi.

– Hoy, ko‘zingga qarasang-chi, – dedi Frensis to‘satdan ular sakkizinchi ko‘chani kesib o‘tayotgan mahal, – bo‘yningni sindirib olmagin tag‘in.

Maykl qizning bu gapiga birdan qattiq kulib yubordi, Frensisning o‘zi ham unga qo‘shilib kuldi.

– Baribir unchalik ko‘zni oladigan darajada jonon emas ekan-ku, – deya davom etdi Frensis kulib, – har holda, unga qarayman, deb ortingga o‘girilib, bo‘yningni sindirib olishga loyiq ketvorgan emas-da! Axir, buncha qaramasang unga?!

Maykl tag‘in kuldi. U bu gal oldingisidan qattiqroq kuldi, lekin kulgisi unaqa tabiiy chiqmadi. Chunki uning ko‘z oldida boyagina ko‘rgani – kuz kunlarida ham yengil yozgi ko‘ylagini hilpiratgancha o‘tib ketgan soddagina hurkak qiz paydo bo‘lgandi.

– Qo‘ysang-chi bunaqa bema’ni gaplarni! Qolaversa, u qiz unaqa xunuk emas, popukdekkina edi. Oddiy bir qishloqi oyimqiz ekan-da, nima qipti shunga? Xo‘sh, unga qarayotganimni sen qayerdan bila qolding?

Frensis javob berish o‘rniga boshini bir yonga silkidi-da, chetlari ajabtovur tarzda bezatilgan shlapasi ostidan eriga yovqarash qildi:

– Mayk, azizim...

Maykl xuddi kichkina bolakayga jo‘rttaga yengilib bergan katta odam kabi yupatuvchi ohangda kuldi. – Mayli, mayli, juda soz, – dedi u xotini ko‘nglini og‘ritadigan bironta gap aytishdan cho‘chib. – Izohga o‘rin yo‘q. Meni kechir. U shunchaki bir qiz edi, xolos. U sen Nyu-Yorkday ulkan shaharda ko‘rib yuradigan doimiy oliy toifa chehralardan emasdi. Kechir meni.

Frensis erining qo‘liga yengilgina urib qo‘ydi-da, uni tortqilagancha Vashington maydoni tarafga sudrab ketdi.

– Bugun ajoyib tong, – deya xitob qildi u birozdan so‘ng, – qara, bu eng ajoyib tong! Bilasanmi, sen bilan ertalabki nonushtani birgalikda qilsam, butun kun davomida maza qilib yuraman.

– Aha, bu senga tetiklantiruvchi eng zo‘r vosita ekan-ku-a? – sho‘x ovozda hazillashdi Maykl xotiniga yuzlanib. – Tonggi pardoz ham. Mayk bilan shirin pahlavalar hamda qaynoq qahva sening kunlaringni xush o‘tkazish uchun eng zo‘r vosita! Qoyil!

— Ayol kishi uchun bu eng katta baxt-ku, axir. Sen tun bo'yi uxlading, men esa seni yo'qotib qo'ymaslik uchun arqondek eshilib chor-atrofingni o'rab yotdim.

— Haa, osuda shanba oqshomi, — dedi cho'zib Maykl o'tgan tunni eslashga uringan qiyofada, — mayli, bunaqa tizginlaringga izn beraman. Faqat o'zing qiynalib qolmasang bo'ldi.

— Menga qiyin bo'lgani — sen kundan kunga ayiqdek semirib ketyapsan. Axir, bu ketishingda menga atrofingni qo'riqlash oson bo'lmay qoladi.

— Nahotki? Rost aytyapsanmi? Nima, sen bir vaqtlar Ohiodan kelgan ko'rkam yigitni esingdan chiqardingmi?

— Nega endi? Esimda turibdi, — dedi Frensis boshini mag'rur ko'targancha hazil aralash, — faqat, menga xuddi o'sha yer ma'qul kelgandi-da!

— Va menga ham! Xuddi o'sha xotin ma'qul edi, — javob qildi Maykl ham bo'sh kelmasdan.

— Kallamga bir fikr kelib qoldi, Mayk, — dedi Frensis birdan jonlanib.

— Mening xotinimda fikr uyg'ondi. O'sha ko'rgan qizim haqida emasmi tag'in?

— Kel, — dedi Frensis erining gaplariga e'tibor bermasdan, o'zining qizg'in fikrini o'zi bajon-u dil quvvatlagan holda, — kel, Mayk, bugun biz kun bo'yi hech kimni ko'rmaymiz, ko'zlarimiz faqat bir-birimizda bo'ladi! Faqat sen-u men... Hech kim bilan ishimiz bo'lmaydi, atrofga zig'ircha ham parvo qilmaymiz, boshqalar nima qilyapti, nima deyapti, ko'rmaymiz, eshitmaymiz, bugun faqat ikkimizgina yashaymiz. Nima deysan, sen gaplarimga tushunding-a, Mayk?

— O-hoo! — dedi Maykl xotinining yangi g'oyasidan behad ajablanib. — Oliy g'oyalar hukmdori! Nahot atrofdagi odamlar biz uchun hech kim bo'lmasa? Nahot biz tanigan va bilgan yoxud yoqtirgan odamlarimizni indamay befarq qoldirib ketaversak?

— Unaqa emas, aqlli bo'lsang-chi, Mayk! — dedi Frensis astoydil ranjib. — Men jiddiy aytyapman, axir.

— Yaxshi, men ham jiddiy eshityapman.

– Men o‘z qaylig‘im bilan kun uzog‘i sayr-u sayohat qilmoqchiman. Men uni tanho mengagina gap qotishini va, shuningdek, yolg‘iz menigina tinglashini istayman! Axir, buning nimasi yomon? Sen meni zig‘ircha ham tushunmayapsan, chunki doim o‘zingni o‘ylaysan...

– Xo‘p, bizni bundan nima to‘xtatyapti? – dedi Maykl xotini yosh boladay xafa bo‘lganidan ensasi qotib. – Kim meni yakshanba kunlari o‘z xotinimga qarashimga monelik qiladi? Gapir-chi, kim?

– Jin ursin o‘sha Stivensonlaringni! – deb yubordi Frensis qizishib, – ular bizni naq yarim tungacha uxlatishmadi, ustiga-ustak butun qishloq qizlarini bazmga yig‘ib kelishibdi.

– Haa, yaramas Stivensonlar, – dedi Maykl birdan ma’yus tortib, – yashashni bilishar ekan yaramaslar. Bemalol hushtak ham chalishar ekan, bemalol qattiq kulib, xaxolashar ekan. Birov ayb qilmasin, deb nafasiniyam o‘ta madaniy tarzda olishmas ekan, bizga o‘xshab. Ozod va erkin Stivensonlar! Lekin biz boshqacha odam, oliy davra kishilarimiz. Men va xotinim ulkan Nyu-Yorkda kiborlardek yashab, to ko‘nglimiz aynib ketgunigacha faqat bir-birimizdan ko‘z uzmay, butun umrimizni ana shu tarzda o‘tkazishimiz kerak.

– Nima, bu hayot emasmi? – dedi Frensis erining yuziga hayron bo‘lib boqqancha.

– Hayot, – dedi Maykl xotiniga qaramasdan.

Shunda Frensis bo‘ynini cho‘zdi-da Mayklning qulog‘i uchidan ohista o‘pib qo‘ydi.

– Hayotim, – dedi Maykl miyig‘ida achchiq kulimsiragancha, – axir, biz yana beshinchi ko‘chaga borib qolibmiz-ku!

– Oh! Shoshma, shoshmay tur, – dedi Frensis hovliqqan ko‘yi, – mana, hozir men qaytadan yangi reja tuzib chiqyapman. Mana, qara, sevishgan ikki yosh uchun Nyu-Yorkda tashkil etilgan yakshanba kunlari! Eng muhimi, ularning bemalol yayrashlari uchun pullari ham ko‘p! Qalay, Mayk?

Maykl bu gal kulmadi, u endi anchagina jiddiy tortib qolgandi. Yigit ayolga biroz jim tikilib turdi-da, keyin qat’iyat bilan javob berdi:

– Yo‘q, bu yorug‘ dunyoda pulsiz ham muhabbat bor.

Simona Gabriela KOLETT

(Fransiya)

YAQIN-BEGONA AYOL

– Ikki kishilik dasturxonmi? Qani, mana bu yoqqa marhamat qilsinlar, hurmatli janob. O, xonimingiz nihoyatda latofatli ekan! Siz uchun ataylab deraza oldidagi joyni tanladik, ko'rfaz manzarasidan bahuzur bahra olib o'tirasizlarda! Qalay, ma'qulmi?

Alisa eriga suyunib qaradi:

– Ha, albatta! Bo'lmasam-chi! – dedi ayol quvonchdan ko'zlari chaqnab. – Mark, azizim, bu yerda biz o'zimizni xuddi dengizda, qayiq ichida tushlik qilayotganday his etamiz! O, qanday ajoyib! Bu yerni...

Ayolning gapi og'zida qolib ketdi. Eri imi-jimida xotinining qo'lini qattiq qisdi.

– U yerdan sal beriroqdagi joy ancha tuzukroq ko'rinadi, chamamda.

– Anavi yoqdagi, deysanmi? Naq odamlarning qoq o'rtasida-ya? Lekin menga ko'proq...

– Alisa, jonginam, iltimos.

Mark ayolining qo'llarini yanayam mahkamroq qisdi. Bu gal u shunday harakat qildiki, Alisa beixtiyor eriga o'girilib qaradi.

– Nima gap? Senga nima bo'ldi?

– Tsss... – dedi Mark ohista barmog'ini labiga bosib. Ayni damda u xotiniga bor vujudi bilan tikilib turardi. U Alisani tamaddixona o'rtasidagi stol tomon boshladi.

– Nima gap, Mark? Tinchlikmi? – xavotirlanib so'radi Alisa tag'in.

– Keyin aytib beraman, azizam. Kel, avval taom buyurtma qilib olaylik. Xo'sh, nima yeymiz? Dengiz mayda qisqichbaqasiga tobing qalay? Yo qovurilgan tuxum xohlaysanmi?

– Istaganing, azizim, menga farqi yo'q.

Ikki yosh bir-biriga mehr bilan jilmayib qo'yishdi. Keyin birpas yonlarida terga pishib, goh jazava ostida tinmay raqsga tushayotgan bir to'da odamlarni maroq bilan kuzatib o'tirdilar.

— Unday bo'lsa, birinchisiga mayda qisqichbaqadan bo'la qolsin, — deb xulosa qildi Mark. — Keyin tuxum va tuzlangan cho'chqa go'shti ham yeymiz. Yana jo'ja kabob bilan italyancha salat olsak. Bugun bir maza qilib o'tiraylik, a, Alis? Shu kun ayni o'z uyimizdagiday o'tiramiz! Shoshmang, — dedi u shunda ofitsiantga yuzlanib, — yodimdan ko'tarilayozibdi, yana ikkita qora qahvadan ham olib kelsangiz. — Shunday dedi-da, yana Alisaga qarab gapida davom etdi: — haydovchimiz ham tushlik qilayotgandir hozir. Demak, taxminan ikki soatlardan so'ng ketsak ham bo'ladi. Bu yog'idan tashvishga hojat yo'q. Ikki soat davomida bemalol dam olishimiz mumkin. Alis, jonim, ichimliklarga tobing qalay? Hmmm... Kel, yaxshisi, shampan vinosidan totib ko'rsak, nima deysan?

Bir muddat shunday gaplar bilan o'zini chalg'itgan Mark nihoyat yengil xo'rsinib, go'yo ichidagi og'ir bir toshni sal bo'lsa-da qo'zg'atgandek biroz yengil tortdi. So'ngra u oftob shu'lasiga limmo-lim to'lgan rangdor dengiz sathiga, qushlar charx urib aylanayotgan musaffo osmon qo'yniga va, nihoyat, qarshisida butun umrining bor mazmuni va baxtiga aylangan, chiroyli shlapasi ustidan shol ro'molini nafis tang'ib olgan eng go'zal xilqat — o'zining umr yo'ldoshiga ichki bir dard to'la nigohlarini qadadi.

— Sen juda dilbarsan, hayotim! — dedi u rafiqasining nurli chehrasidan ko'zini ololmay. — Mana bu dengiz suvi esa sening jozibali ko'zlaringga ajib zangorlik bag'ishlab, husningni yanayam oshirgan. O'zing ham bir ko'rgin-a, Alis! Buning ustiga sayohatma-sayohat yuraverib, ancha vazn tashlagansan. Qomating sambitday[1] bo'lgan, jonginam. Faqatgina... Sen o'zing ham shu malohatni o'z qalbing bilan xuddi menikiday his qila olishing kerak, faqat his qilishing kerak, Alis, eshityapsanmi?!

Ayolning ixcham, olmaday ko'kraklari faxr bilan entikib turardi. U erining so'zlarini maroq bilan tinglar ekan, unga tomon stol osha tobora yaqinlashib borardi.

---

[1] **Sambit** — tik o'suvchi tol.

Mark ortiq o'zini o'zi aldashni istamadi. U to'satdan jiddiy tortib, ayolga sinchkov ko'zlarini tikdi.

– Alis, bilasanmi, sen hozir bu yerda senga notanish bo'lgan, ammo menga judayam tanish bo'lgan bir odam bilan bitta yerda, bitta tamaddixonada o'tiribsan.

– Menga notanish bo'lgan odam?

– Ha... ya'ni, o'sha odam – mening sobiq xotinim.

Shu payt ayolning ko'zlari hayratdan katta-katta ochilib ketdi, u qanday kalima bilan ayni damda ichida kechayotgan kuchli g'alayonni ifodalashni bilolmay, so'zsiz qotib qoldi.

– Xo'sh, nima qipti?.. – deb og'iz ochdi u, nihoyat. – Uning bu yerda ekanligining bizga nima ahamiyati bor? Axir... u sen uchun ortiq muhim emas-ku, Mark...

Alisa shunday deb o'zini biroz chalg'itgani bilan baribir barcha ayollarga xos bo'lgan qizg'in qiziquvchanlik ichida erini qochib qutulib bo'lmaydigan bir dunyo savollarga ko'mib tashladi:

– Uning o'zi seni ko'rdimi? Yo sening unga qara-ganingni payqab qolmadimi? U qani hozir, qayerda turibdi? Mark, o'shani menga shundoq ko'rsatib yuborolmaysanmi?

– Hozir emas, iltimos. U bizlarni kuzatayotgan bo'lishi ham mumkin... Mana bu yerdan zimdan nazar tashla, huv, ana – jigarrang sochli, shlapasiz ayol. Ko'rdingmi? U shu mehmonxonada turgan bo'lsa kerak. Bitta o'zi, yolg'iz...

– Hmmm, tushunarli.

Alisa bir qancha turli-tuman shlapali boshlar orasidan „o'sha"ni axiyri, ko'rib olishga erishdi. U ayol erining o'n besh oy muqaddam turmush o'rtog'i bo'lgandi.

– Bema'nilik, – dedi Mark g'ashi kelib. – Menga bu hol umuman yoqmayapti... Turgan-bitgani bema'nilik, axir! To'g'ri, bizlar tarbiyali kishilarday do'stona, jimgina, janjalsiz ajralishgan edik. Keyin mening hayotimga farishta misol sen kirib kelding. Men seni sevib qoldim va sen ham men bilan bir umrga baxtiyor bo'lishni istading. Bizning baxtimiz, Alis, atrofdagi har qanday g'alamislar galasi-yu hasadgo'ylar hiylasidan omon qoladi! Menga ishon, azizam!

O‘sha boshyalang, jigarrang sochlari yelkasini qoplab, to‘zg‘itib yotgan ayol hech kim bilan ishi yo‘q, parvoyi falak, ko‘zlarini yarim yumgancha sigara tortib o‘tirardi. Alisa undan ko‘zlarini oldi-da, eri tarafga o‘girildi.

Dasturxondagi qisqichbaqa bilan saryog‘ga titroq qo‘llarini uzatdi-da, shoshilmay yeya boshladi. Oraga bir necha soniyalik sukunat cho‘kdi. Oxiri Alisa taraddudlanib so‘radi:

– Nega sen menga uning ko‘zlari ko‘k ekanligini aytmading?

– Buni qara, buni aytish hech ham kallamga kelmagan ekan!

Mark xotinining non savati tomon uzatilgan qo‘llarini olib, ohista o‘pdi, Alisa xotirjam qiyofaga kirdi va xiyol qizardi.

Asta-sekin tamaddixonani shom nafasi chulg‘agach, atrof tobora quyuq qorong‘ilik bag‘riga singib, devorlarda uzun-qisqa soyalar o‘ynay boshladi. Alisaning ham ko‘nglini qandaydir xiralik bosib borar, nimadandir qattiq tashvishlanar, joyida hech tinch o‘tirolmasdi. Uning ko‘zlari hadeb ko‘pchilik bo‘lib raqs tushayotgan odamlar orasidan jigarrang sochli, sigara tutatib o‘tirgan shirakayf ayolni qidirardi.

Biroq Alisa ayni chog‘da eriga ham minnatdorlik bilan termilib qolardi. Mark turmush qurganlaridan buyon unga qildek ham yomonlik qilmagan, bor-budi bilan Alisani xursand qilishga urinardi.

Ular ancha payt bir-birlariga churq etmay, yaxshilab ovqat yeyishdi, to‘yib shampan ichishdi, miriqib o‘tirganday bo‘lishdi, ammo har ikkisining ham xayoli o‘sha „jigarrang soch“da edi. Ora-orada Alisa qattiq kulib yuborar (albatta, buni jo‘rttaga qilardi), Mark bo‘lsa uning har bir xatti-harakatidan hushyor o‘tirar, Alisaning bosh burishlari-yu qayerga ko‘z tashlashlarigacha nazaridan qochirmasdi. Ular buyurtma qilgan qahvalarini uzoq vaqt kutib qolishdi, yana jim qotishib sal naridagi deraza ortida yastanib, ufq shu’lasi taftida jimirlab yotgan poyonsiz dengiz sathiga so‘zsiz tikilib qolishdi. Chindan ham dengiz ko‘zni qamashtirguday darajada yal-yal tovlanib turardi.

– Mark, – dedi shu payt Alisa eriga biroz sarosima aralash qarab. – U hali ham shu yerda.

– Bu seni bezovta qilyaptimi? – so'radi Mark xotinining vahimasini pisand qilmaslikka tirishib. – Qahvamizni boshqa biron xoliroq yerga borib ichaylikmi yo? Nima deysan?

– Yo'q, yo'q! Aslo! U menga nimaga xalal bersin? Menimcha, boyoqish bu yerda yomon dam olmayotgan ko'rinadi, raftorini ko'ryapsan-ku o'zing! Nima, endi o'shaning bemalol kayf-u safo qilishi uchun shunday shirin o'tirishimizni buzishimiz kerakmi? Hech ham-da!

– Ha, menimcha ham u bevafo lazzat og'ushida chog'i, – deb qo'ydi Mark kesatib. – Mana bunday qilib o'tirganidan keyin...

– Qanday, qanday? – Alisa sevinch va shoshqaloqlik bilan eridan uning qilig'ini qayta ko'rsatib berishini so'radi.

Mark sigarasini olib tutatdi-da, xuddi ayni damda sobiq xotini chekayotgani singari burun kataklaridan pag'a-pag'a tutun chiqarib, uzun qilib esnadi. Alisa erining tomoshasidan zavqlanib, chapak chalib qahqah otdi.

– Voy, rostdan ham xuddi shunday, ha-ha-ha!

Shu payt Mark to'satdan jiddiy tortdi. U endi hech narsani yashirmay, bor jinoyatini fosh qilish fursati yetganini anglagan aybdor kabi so'zlay ketdi:

– Yo'q... Yo'q, – dedi u o'ychan bosh chayqab. – To'g'risini aytganda, u men bilan sira ham baxtli bo'lolmadi. Ehtimol, men o'zim u kutgan baxtni berolmagandirman? Ehtimol, u men tufayli baxtsizdir...

– O, sen uning yurish-turishiga bir qara! G'irt taka-saltang-ku! Nega sen o'zingni gunohkor his qilishing kerak ekan, azizim?

Mark yuzlari kuchli hayajondan qizarib, nozik barmoqlari asabiy titrayotgan xotinining butun vujudiga mehr-muhabbat to'la ko'zlarini qadadi.

– Mening butun fikr-u xayolimni o'g'irlagan „jinoyatchi" bu sensan, jonim... Men jinni bo'lib qolaman, bilasanmi?.. Sen... Sen naq farishtaning o'zginasisan... Sening sevging?.. Sening sevgi to'la nigohlaringni har on ko'rganimda benihoya

g'ururlanib ketaman. Sening nigohlaring bo'lakcha, Alis... U esa... Uni men qanday qilib sendek mas'ud qilishni bilolmadim, bor-yo'g'i shu, xolos. Uni xushbaxt qilishni men bilolmadim...

– Uning o'zi shunga munosib ekan!

Alisa yana asabiylashib, yengil qaltiray boshladi, yana o'sha jigarrang sochli tannoz xonimga tez-tez alamnok qaradi. U ayol bo'lsa hamon hech kim bilan ishi yo'q, parvoyi falak, baland kursisi orqasiga boshini tashlagancha, hali ham sigara tortib o'tirardi. Uning nigohlarida cheksiz horg'inlik, loqaydlik va alam izlari aks etardi.

– Sen haqsan, – deb iqror bo'ldi Mark Alisaga yuzlanib. U begunohday bosh chayqab, yelkalarini qisib qo'ydi.

– Nima ham derdim? Baxtiqaro odamlarga faqat achinish kerak, xolos, – dedi u ta'kidlagannamo. Keyin esa ayricha bir g'urur bilan xotiniga baland ovozda xitob qildi:

– Biz esa baxtiqaro emasmiz! Biz juda-juda xushbaxtmiz! Shunday emasmi, hayotim?

Alisa indamadi. U g'ayrishuuriy holda erining yuziga sinchkov tikilib qolgandi. U Markning chehrasidan o'zi uchun xufiya bir belgini, nosamimiy biror alomatni qidirar, erining qalin, qora sochlari-yu oppoq, uzun-uzun barmoqlariga ziyraklik bilan boqar ekan, ich-ichini ayovsiz qiynoq timdalab o'tirardi. U ilk marotaba shuncha vaqt ardoqlagan, ishongan eridan shubha qildi. Qandaydir xavf borday, to'satdan hushyor tortib, o'zidan so'radi: ehtimol, birinchi xotini hali ham erining ko'yida yurgandir?..

Nihoyat, ular bu kutilmagan ko'ngilsizliklarga makon bo'lgan tamaddixonani tark etishdi. Mark hisobni to'lagan zahoti haydovchisini chaqirdi. U go'yo hech nima yuz bermaganday yo'l bo'yi haydovchisi bilan nimalardir xususida chaqchaqlashib ketdi. Alisaning xayolidan esa o'sha sigara tortib o'tirgan Markning shirakayf sobiq xotini ketmas, u har nafas „Balki u erimni qidirib, ortimizdan quvib kelayotgandir", degan vahimada ortiga tinmay o'girilib qarar, yuragi tashvishli urib turardi.

Albert MALS

(AQSH)

DUNYODAGI ENG BAXTLI ODAM

Jessi yig'lab yuborishga ham tayyor edi. U Tomni telefondan bo'shashini kutaverib xunob bo'lib ketdi. Tom uning pochchasi. Holi xarobligidan o'zining ham yuragi ezilib o'tirardi.

To'g'ri, ular besh yildan buyon bir-birlarini ko'rishmagandi, ammo Tom hozir besh yoshga ulg'ayganday ko'rinardi, bor farq shunda, xolos. U hali ham Tomligicha turibdi-ku. Xudoyim-ey! Yo u shunchalar o'zgarib ketganmikan?

Nihoyat, Tom Braket telefon go'shagini joyiga qo'ydi. U o'rindig'iga yastangancha o'tirarkan, gumondor va sovuq boquvchi kichkinagina tiniq moviy ko'zlari bilan Jessiga bir qur ko'z yugurtirib chiqdi. U qirq besh yoshlardagi basavlat erkak bo'lib yetilgandi. Braket o'tkir biznesmenga o'xshab ko'rinar – uning asl kasbi ham shunday edi. U Jessiga vaqtini ketkazishga arzimaydigan odamga qaraganday sovuq bepisandlik bilan ko'z tashladi.

– Xo'sh? – deb qoldi Braket to'satdan. – Xizmat?

– Meni tanimading chog'i, Tom, – deb o'ng'aysizlandi Jessi. – Men Jessi Fultonman. Ella senga salom aytib yuborgandi.

Braket o'rnidan turdi-da, chaqirilmagan mehmoni bilan yuzma-yuz bo'lish uchun u tomonga bir-bir bosib keldi. U esiga tushgan qiyofani topishga harakat qilib Fultonni boshdan oyoq ko'zdan kechirdi.

– Ha, rostdan ham Jessi ekansan, – dedi Braket oxiri. – Lekin juda ham o'zgarib ketibsan.

– Yo Rabbim, axir oradan besh yil o'tib ketadi-yu, o'zgarmay bo'larkanmi? – dedi Jessi. – Buning ustiga sen meni faqat bir-ikki bor ko'rgan bo'lsang kerak. O'zgarmay qolarmidim? Hamma ham o'zgaradi-ku, to'g'rimi?

– Sening qarashlaring jiddiy edi, – deya so'zida davom etdi Braket mayin, ajabsingan ohangda. – Sezishimcha, biroz ozgandaysan?

Jessi miq etmadi. U Braket uning jig'iga tegish uchun o'zini har ko'yga solayotganini fahmlab turardi. Biroq burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirishdan foyda yo'qligi sababli o'zini og'irlikka olardi. Sukunat cho'zilgan sayin Jessining ichini it tataladi. Braketning vijdoni uyg'ondi chog'i, tuyqusdan mulozamat yo'liga o'tib oldi:

– Qani, o'tir-chi. Yaxshi kelibsan-da, kuyov, – u Jessining qo'lidan tutib, qisib qo'ydi. – Seni ko'rganimdan xursand bo'ldim; hech narsani o'ylama! Negadir ko'zimga siqilganroq bo'lib ko'rinyapsan.

– Hammasi joyida, – deb ming'illadi Jessi. U stulga o'tirarkan, barmoqlari bilan jingalak sochlarini taroqlagan bo'ldi.

– Nimaga oqsoqlanyapsan?

– Bitta toshni bosib olgandim; qirrasi tuflimning tagini teshib yubordi.

Jessi oyoqlarini stulning tagiga tortdi. U tuflilaridan uyalayotgandi.

Braket bo'lsa Jessining oyoqlaridan ko'zlarini uzmay o'tirardi. U kuyovining ko'nglidan nimalar kechayotganini anglab turar, unga qarab yuragini achinish hissi qoplab borardi.

– Ha, mayli, qulog'im senda, – deya so'z boshladi Braket, – hayotingdan gapir. Ella qalay?

– O, u o'ynab-kulib yuribdi, – deb javob berdi Jessi parishonxotirlik bilan. Uning mayin boquvchi kulrang ko'zlari bilan uyg'unlashib ketgan yumshoq, itoatkorona, anchagina tortinchoq ohangli ovozi bor edi.

– Bolalar-chi?

– O, ular ham zo'r... Bilasanmi, – endi biroz qat'iyat bilan ilova qildi Jessi, – kenjatoyimiz tasma (ikki yelkasidan o'tkazilib shimga taqiladi) taqadigan bo'lib qolibdi. Bilasan, u o'zi pul topolmaydi. Ammo juda ham uddaburon. Rasmlar soladi, u-bu ish qo'lidan keladi, bundan sening ham xabaring bor.

– Ha, – deb ma'qullab qo'ydi Braket. – Bu ishlari yaxshi. U ikkilanib qoldi. Oraga bir nafaslik jimlik cho'kdi. – Jessi, Ella menga ishlaring yomonligi haqida aytganida ehtimol senga yordam bergan bo'larmidim.

– Xudo sendan rozi bo‘lsin, – Jessi mayin ohangda minnatdorlik bildirdi. – Sening ham ishlaring boshingdan oshib yotibdi-ku, to‘g‘rimi?

– To‘g‘ri. – Braket o‘rindig‘i orqasiga suyandi. Uning qizg‘ish yuzlari g‘amgin va achinarli tus oldi.

– Tom, quloq sol, – deya muddaoga o‘tdi Jessi. – Men bir maqsad bilan bu yerga kelgandim. U yana barmog‘i bilan sochini tarab qo‘ydi.

– Menga yordam berishingni istayman.

Braket shu gapni kutayotgandi.

– Men ko‘p pul berolmayman. Haftasiga o‘ttiz besh dollar topaman, xolos, bungayam o‘lganim kunidan shukur qilib, bir amallab yashab kelyapman.

– Albatta, bilaman, – hayajonlanib ta’kidladi Jessi. Uni tag‘in tong-sahardan beri yuragini egallab yotgan yovvoyi g‘ulg‘ula chulg‘ab oldi.

– Bilaman, sen bizga pul tomonlama ko‘mak berolmaysan. Lekin biz sening qo‘lingda ishlaydigan bir kishi bilan ko‘rishib qoldik! U bizning shahrimizga kelgan ekan. O‘sha kishi seni menga birorta ish topib bera oladi deb aytgandi!

– Kim aytgandi?

– O, nima uchun shuni menga sen o‘zing aytmaganding? – Jessi mana endi ginaxonlik bilan yorildi. – Nimaga aytmading, axir men bu gapni eshitganim zahoti yo‘lga chiqqandim. Mana, ikki haftadirki, xuddi devonaga o‘xshab yo‘l yurib keldim.

Braket baland ovozda ingrab yubordi.

– Sen meni ish bera oladi, degan umid bilan Kanzas Sitidan ikki hafta ichida yetib keldingmi?

– Bo‘lmasam-chi, Tom, albatta-da. Qo‘limdan boshqa nima ham kelardi?

– Jessi! Hozir o‘lik mavsum. Ustiga-ustak, sen bizning ishimizni neft bilan bog‘liq ekanligini ham tushunmaysan. Bu esa juda muhim. Mening bu yerda ham do‘stlarim bor, biroq ular ayni damda hech narsa qilib berisholmaydi. Men senga imkoniyat tug‘ilishi bilanoq ish aytgan bo‘lardim, shu o‘y sening ham kallangga kelmadimi?

Jessi dod deb yubordi.

– Lekin sen quloq solsang-chi, o‘sha odam seni odam

yollaydi, deb aytdi! U sening qo'lingda yuk mashinasini haydarkan! Senga har doim erkaklar kerak bo'lar ekan!

– Oh!.. Sen idoramni nazarda tutyapsanmi? – deb so'radi Braket past ovozda.

– Ha, Tom. Shuni aytyapman!

– O, yo'q, sen idoramda ishlashga chiday olmaysan, – Braket unga o'sha past ovozda man qildi. – Sen uning nima ekanligini bilmaysan ham.

– Yo'q, bilaman, – Jessi o'z fikrida qat'iy turib olgandi. – O'sha erkak menga barini tushuntirib berdi, Tom. Sen yuk jo'natuvchisan, shundaymi? Sen chetga dinamit ortilgan yuk mashinalarini chiqarasanmi?

– Sen aytayotgan o'sha odam kim edi, Jessi?

– Everet, Everet edi, yanglishmasam.

– Egbertdir balki? Mening gavdamdagi erkakmi? – deb so'radi Braket ohista.

– Ha, Egbert ekan.

– Albatta, ish bor. Agar istasang, hatto o'sha Egbertning ham joyi bo'sh turibdi.

– U ishdan ketdimi?

– Yo'q... o'ldi!

– Oh!

– Ish paytida o'ldi, Jessi. Judayam bilging kelayotgan bo'lsa, bu ish o'tgan tunda sodir bo'ldi.

– Oh!.. Nima bo'lsa bo'lavermaydimi, lekin menga baribir!

– Unday bo'lsa, meni eshit! – dedi Braket. – Men senga kelishingdan avval so'rashing lozim bo'lgan bir-ikkita narsalarni aytib qo'yay. Sen haydaydigan yuk mashinasidagi dinamit emas. U nitroglitserin!

– Lekin bundan mening xabarim bor edi, – dedi Jessi uni tinchlantirib. – O'sha Egbert menga maslahat bergandi, Tom. Meni hech narsadan xabari yo'q ekan, deb o'ylama.

– Bir daqiqaga ovozingni o'chirib tursang-chi, – deb buyurdi Braket g'azab bilan. – Eshit! Sen shunchaki bu nitroglitserin sho'rvasiga bir nazar solib ko'rding, tushundingmi? Sen shunchaki qattiq yo'talganding, shundan keyin bu sho'rva qaynab, mana endi toshib ketyapti.

– Meni eshitsang-chi, Tom.

– Hozir, bir lahzaga shoshmay tur, Jessi. Bilaman, ishga o'lguday muhtojsan, biroq sen tushunib olishing kerak. Bu mahsulot faqatgina maxsus mashinalardagina ketadi. Qoq tunda! Ular maxsus yo'nalish bo'yicha qatnaydi! Birorta ham shahar ichidan o'tisholmaydi! Buning qanday ish ekanligiga aqling yetib turibdimi?

– Men ehtiyotkorlik bilan haydayman, – dedi Jessi. – Men yuk mashinasini qanday qilib boshqarishni bilaman. Sekin haydayman.

Braket oh tortdi.

– Sen Egbertni ham ehtiyotkorlik bilan haydamagan yoxud yuk mashinasini qanday boshqarishni bilmagan deb o'ylayapsanmi?

– Tom, – dedi Jessi shiddat bilan. – Sen meni qo'rqitolmaysan. Men miyamga faqat bitta gapni mixlab oldim! Egbert aytdiki, u bir mil masofa yo'l uchun bir dollardan ishlar ekan. U „Yarim oylik xizmatim uchun bir oyda besh yuz-olti yuz dollardan topardim", deb aytdi. Men ham aynan shunday haq olamanmi?

– Albatta, shunday olasan, – dedi Braket unga vajohat bilan. – Bir mil uchun bir dollar. Juda oson-a. Biroq nima sababdan sen kompaniyani buncha ko'p to'lashi kerak deb o'ylayapsan? Osonligini qara – xuddi Egbertga o'xshab old chiroqlarni yoqquningcha qandaydir toshni bosib ketasan. Yoki bo'lmasam, ko'zingga nimadir kirib ketadi-da, g'ildirak aylanib ketib, mashinaga shikast yetkazasan! Xudo biladi, tag'in yana qanday ko'rgilik yuz beradi! Biz Egbertga qanday kor-hol yuz berganini aniqlayolmadik. Biror-bir dalil beruvchi hech qanday mashina yo'q edi. Hech qanday murda ham topilmadi. Hech vaqo yo'q! Ehtimol, erta bir kun kimdir makkajo'xori dalasidan bir parchagina majaqlangan po'lat topib olar. Lekin baribir biz hech qachon haydovchini topolmaymiz. Bor bilganimiz, u jadval bo'yicha yetib kelmadi. Keyin politsiya bizni chaqirishini kutib turdik. O'tgan tunda qanday voqea yuz berganini tushundingmi? Ko'prik ustida qandaydir bir ishkallik chiqibdi. Balki Egbert tajang bo'lib

turgandir. Balki u bir tomonga mashina g'ildiragining qanoti bilan borib solgandir. Endi bo'lsa hech qanaqa ko'prik ham yo'q, mashina ham yo'q, Egbert ham yo'q. Endi tushungandirsan? Bir mil yo'l uchun o'sha Xudo urgan bir dollarni qanday qilib topish yo'li shu bo'ladi!

O'rtaga bir lahzalik sukunat cho'kdi. Jessi uzun, ingichka barmoqlarini bukib-yozgancha jim o'tirardi. Uning og'zi ochilib qolgan, yuzi esa alamdan burishib ketgandi. Bir mahal ko'zlarini yumdi-da, ohista so'zlay boshladi:

– Meni nima balo bo'lgani bilan ishim yo'q, Tom. Sen hammasini tushuntirib berding. Endi esa menga bir saxovat ko'rsatib, ish bersang.

Braket qo'lini tugib, stoli ustiga qahr bilan qattiq musht tushirdi.

– Yo'q.

– Quloq sol, Tom, – dedi Jessi bechora holda, – Sen shunchaki tushunishni istamayapsan-da. U ko'zlarini ochdi. Uning ko'zlari yosh bilan to'lib qolgandi. Bu nigoh Braketni undan yuzini o'girishga majbur qildi. – Menga bir qaragin-a, Tom. Senga iltijolarim kamlik qildimi? Tom, men ortiq bu ahvolda yashayolmayman, tushunsang-chi, axir!

– Sen aqldan ozibsan, – deb ming'illadi Braket. – Har yili beshta haydovchidan bittasi o'ldiriladi. Bu o'rtacha ko'rsatkich. Shuni havas qilib keldingmi?

– Ayni damdagi mening hayotim havas qilgulikmidi? Biz uyda shundoqqina ochlikdan qurbon bo'lyapmiz, Tom!

– Buni menga ilgariroq aytishing kerak edi, – deya xitob qildi Braket cho'rt kesib. – Bu sening aybing. Odam oilasi och turganida soxta dabdaba bilan yurishga aslo haqqi yo'q. Men birontasidan ozroq pul qarz olib turaman-da, uni Ellaga telegraf qilib jo'natib yuboramiz.

– Xo'sh, keyin nima bo'ladi?

– Keyin kutib turasan. Sen qarib qolganing yo'q. Bu hayotingdan yuz burib ketishga haqqing ham yo'q. Biror kun ish ham topib olarsan.

– Yo'q! – Jessi o'rnidan sapchib turib ketdi. – Yo'q!

Oldinlari bunga ishonardim. Ammo endi ishonolmayman, – baqirdi u kuyib-yonib. – Sen yuragimdagi birdan bir umidimsan.

– Aqldan ozyapsan, – ming'illadi Braket yana. – Men bunday qilolmayman. Xudo haqi, bir lahzaga bo'lsin, Ellani ham o'ylasang-chi axir.

– Uni deb qayg'urayotganimni bilmayapsanmi? – so'radi Jessi ma'yus. U Braketning yengidan tortdi.

Braket oyoqqa qalqdi.

– Sen Ella to'g'risida o'ylayapman, deyapsan. O'lib ketsang, uni qay holga tushishini ham o'ylayapsanmi?

– Balki o'lib ketmasman, – iltijo qildi Jessi. – Ba'zan omadim ham kulib turadi.

– Hamma ham shunaqa deb o'ylaydi, – javob qildi Braket e'tiborsizlik bilan. – Bu ishni boshlashing bilan omading ham so'roq belgisi bo'lib qoladi. Bir narsa aniqki, ertami-kechmi, baribir seni o'ldirib ketishadi.

– Unaqa bo'lsa ham mayli, roziman, – deb baqirdi Jessi unga javoban. – Lekin bu orada biror nimali bo'lib qolarman, to'g'rimi? Jilla qursa, bir juft oyoq kiyimi sotib olarman. Menga qara! Bitta kastum qancha turadi? Sigara chekishga pulim yetar, hech bo'lmasa. Bolalarim uchun biror shirinlik xarid qilarman. O'zimning og'zimga ham biror nima tegib qolar. Ha, Xudo haqi, biroz shirinlik yegim kelyapti. Kunda bir mahal bir stakan pivo ichishni xohlayman. Ellani yasantirib qo'yishni ham. Unga haftada uch marta, ehtimol to'rt marta go'sht yedirishni istayman.

Braket joyiga o'tirdi.

– Oh, bo'ldi qilsang-chi, – dedi u.

– Yo'q, – dedi Jessi unga mahzun, ammo jo'shqin ohangda, – sen meni to'xtatib qololmaysan. Eshit, Tom, – u o'tinib so'ray boshladi, – men hammasini o'ylab ko'rdim. Oyiga olti yuz dollardan topsam, qara, qancha pul jamg'arar ekanman! Atigi uch oygina ishlab qo'ysam, qara, qancha pul bo'ladi – ming dollar-a, balki undan ham ko'proq yoki kamroq ishlarman. Balki ikki yil ichida Ellaga haqiqiy hayot lazzatini in'om etarman!

– Bu sening fikring, – deya uning gapini bo'lib qo'ydi Braket. – Taxminimcha, sen „Bunaqa ishda ekanman, u maza qilib yashaydi", deb o'ylaysan-da?

– Men hammasini o'ylab bo'lganman, – javob berdi Jessi hayajonga to'lib. – U bu haqida sira bilmaydi, tushunyapsanmi? Men unga faqat qirq dollar ishlab topayotganimni aytaman. Sen qolgan pulni uning bankdagi hisobiga o'tkazib turasan, Tom.

– Ey, bas qil, – urishib berdi Braket. – Baxtli bo'laman deb o'ylayapsanmi? Har daqiqada, uyg'onganingda ham, uxlayotganingda ham „Ehtimol, ertaga o'lib ketarman", degan xavotir ichida azoblanib yashaysan.

Jessi kulib yubordi.

– Men baxtli bo'laman! Tashvish qilma, men shu qadar baxtli bo'lamanki, hatto kuylab yuboraman. Xudo guvoh, Tom, yetti yil mobaynida birinchi marta o'zimdan o'zim faxrlanib ketyapman!

– Ey, bas qil, bas qil! – deb baqirdi Braket.

Oraga tag'in jimlik cho'kdi. Braket ikkala qo'lini ham boshi uzra ko'tarib, kaftlarini chakkalariga bosdi.

– Tom, Tom, – dedi Jessi.

Braket uh tortdi.

– Oh... yaxshi, seni ishga olaman, Xudo mening mushkulimni oson qilsin. Agar shu kecha yo'lga tayyor bo'lsang, bugun tunda mashina haydaysan.

Jessi javob bermadi, berolmasdi ham. Braket unga qaradi. Jessining yuzidan ko'z yoshlari dumalab tushardi.

– Soat oltida bu yerga qaytib kel, – dedi Braket. – Mana senga ozroq pul. Tuzukroq ovqat olib, yeb olgin.

– Rahmat!.. Rahmat, Tom! – dedi Jessi. – Ha, aytgancha, Tom.

– Nima deysan?

– Men shunchaki, – Jessi gapirishdan to'xtab qoldi. Braket uning yuziga boqdi. Jessining ko'zlari hamon yosh bilan yaltirab turar, biroq yuzi endi yashnab ketgandi.

Braket undan yuzini o'girdi.

– Men bandman.

Jessi ko'chaga chiqdi. Ko'zlaridagi nam ko'rishiga xalal berar, biroq butun dunyo hozir unga tilladay bo'lib yarqirab ko'rinardi.

– Men dunyodagi eng baxtli odamman, – deb shivirladi o'ziga o'zi. – Men butun yer yuzidagi eng... eng baxtli odamman!

Alan MARSHAL

(Avstraliya)

QUYOSH QO'SHIG'I

– Anavini qarang-a, o'rdak emasmi?

– Qani?

– Hozirgina suv betiga kelib qo'ndi. Bir daqiqa shoshmang. Mana endi ko'rsangiz bo'laveradi.

Quyosh nurida toblanib yotgan erkak uzala tushgan joyidan xiyol ko'tarildi.

Ikkinchi jahon urushida qatnashgan avstraliyalik askar kiyimi erkak yonida yoyilib yotardi.

Bir bolakay askardan biroz narida qaddini tik tutgancha uzoqlarga termilib turardi.

– O'rdaklar bitta yoki ikkita ekanmi? – deb so'radi erkak.

– Bittaga o'xshaydi.

– Chindan ham o'rdak ekanmi o'zi?

– Bo'lmasam-chi, naq o'rdakning o'zi-ku!

– Sal kichkinaroq ko'rinmayaptimi?

– O'rdak suzayotganida doim shunaqa bo'lib ko'rinadi. Borib, qurolingizni olib kelsammikan-a?

Shu topda bolakayning yuragi qaynab toshardi.

– Xo'sh... Ha, mayli. Olib kelsang olib kela qol, – izn berdi erkak ohista. U bir necha masofa naridagi o'rdakka tobora qiziqishi ortib, ko'z uzmay tikilib qolgandi.

– Voajab, hamma narsaga o'ta ishtiyoq bilan qarar ekanmi? Boshini qanday burishini qarang. Hech narsani nazaridan qochirmaydi-ya. Ishonchim komil, u aniq o'rdak bolasi, – derdi o'ziga o'zi.

– Endi qurolni olib kelaveraymi? Bolakayning sabri chidamay, borgan sari oyog'ini qo'ygani joy topolmay, turgan yeridatinmay tipirchilardi.

– Kel, uni yana bir lahza bo'lsa ham tomosha qila qolaylik, – deya uning shashtini pasaytirdi erkak. – Qara, u qanday baxtiyor. Xuddi urushdan katta sog'inch ila uyiga qaytib kelayotgan peshanasi yorug' askarga o'xshaydi. Sen uning yerga qo'nganini ko'rding-a?

– Ha-da. U avval anavi joyda uchib yurgandi. Keyin men uni suvga yaqinlashayotganini ko'rib qoldim. Endi qurolingizni olgani ketsam ham bo'lar?

– Mayli, mayli, – dedi erkak. – Borib kela qol. Ungacha men o'rdakchani tomosha qilib o'tiraman.

Bolakay avval asta-sekinlik bilan qadam tashlab, keyin esazipillaganchatepalik ustidagi bekat tomon chopib ketdi.

Erkak qaddini rostladi. Jajjigina o'rdakcha unga shu damda urushning qonli lavhalarini eslatib yuborgandi.

Xo'p, yaxshi, bu-ku bitta qush ekan, bu mitti mavjudot bir askar boshiga tushajak ko'rgiliklardan zig'ircha ham tashvishga tushmaydi. Uning uchun hayot va baxt – ozod parvoz! U Bobo Quyoshning haroratli qo'shig'ini tinglash uchun o'zining jimitdekkina jonini ko'targancha osmon-u falaklar bo'ylab uchib ketaveradi... Hatto ajal nafasi ufurib turgan quyuq chakalakzorlar ustidan ham qulochlarini keng yoygancha emin-erkin uchib o'taveradi...

Hozirgina bo'lib o'tgan voqeani yosh askar yana bir marta o'z quloqlari bilan eshitib, o'z ko'zlari bilan ko'rib guvohi bo'ldi. Yaponlar qoq tunda kelib bo'lishgan ekan. Ular allaqachon yerga qo'nib, askarlar tomon hujumga o'tgandilar; zim-ziyo kechada dushman askarlari birin-ketin suv betidan bosh chiqarib, ko'payib borishardi. Ular bir daf'a bo'lsa-da ortga chekinishmadi. O, bu na'ralar... o'ldirishlar... ko'tarilayotgan va yiqilayotgan odamlar...

Keyin ular yashiringan qalin chakalakzor va uy tomon eltuvchi adoqsiz yo'l askar ko'z oldida jonlandi.

Oh! Yana o'ldirishlar, o'ldirishlar! O'ldirishlar!

Sobiq askar ortiga o'girilib, haligi bolakay qo'lida qurol

bilan halloslagancha yugurib kelayotganiga ko‘zi tushdi. Askar yana o‘rdak tomonga boqdi.

O‘rdakcha ochiq suv quchog‘ida bemalol, bexavotir suzib yurardi.

Shunda askar yerdan bitta toshcha oldi-da, o‘rdakcha yoniga tushadigan qilib uloqtirdi.

O‘rdakcha cho‘chib suvdan ko‘tarildi-da, baland parvoz qilib uchib ketdi, bir nafasdan so‘ng yana olisroqdagi suv betiga qo‘rqa-pisa qo‘ndi.

– Nima qilib qo‘ydingiz? – dedi bolakay yig‘lamoqdan beri bo‘lib. – Biz endi uni sira ham tutolmaymiz!

Askar indamasdan yerda yotgan kiyimini yig‘ishtirib oldi-da, shoshilmay kiyina boshladi.

– Yo‘q, – dedi u xotirjam. – Biz uni hech qachon tuta olmas edik.

Virjiniya VULF

(Angliya)

MOVIY VA YASHIL

Yashil

Barra maysalarning zangor rangga bo‘yalgan uchlari baxmal misol yerga bosh egib, ohista-ohista tebranishadi. Ko‘zgu yuziga nogoh urilgan nur asta sirg‘alar-u yam-yashil hovuz qa’riga singib ketar. Butun kun bo‘yi tinib-tinmagan zilol suv atrofini qurshab turgan marmartoshchalar ustiga o‘zining tip-tiniq, zangor tomchilarini sho‘x-shodon sachratib hech charchamaydi. Shu chog‘da baland palma daraxtiga makon qurgan yashil patli to‘tiqush ham uzun dumlarini quyosh shu’lasida keng yoygancha, yaltiroq, zangori patlarini oftob tig‘ida yanayam yaltiratib, o‘zicha sollanadi.

Atrof benihoya go‘zal, atrof yam-yashil. Butun tabiat zangorlikka burkangan. Birdan siz qo‘lingizga katta toshoyna olib, uni silliq, taroshlanganday tep-tekis marmar-toshchalar ustiga solib ko‘rgingiz keladi; shunda go‘yo yam-yashil hovuzlar yaydoq sahro qumlari ichra muallaq qotib turganday, o‘sha qum va suv oralab baland-baland o‘rkachli

tuyalar lapanglab kelayotganday, tub-tubida sip-silliq toshchalar ko'rinib yotgan zangori hovuz tegrasida uchlari qirrador qamishlar ko'kka bo'y cho'zgancha adl o'sib yotganini ko'rasiz, bo'liq suv o'tlari orasidan unda-bunda oppoq-oppoq gullar ham yuz ochib qoladi, o'ynoqi qurbaqalar o'sha gullarning yaproqlari ustida sakrab-irg'ishlab o'ynashadi, butun kun bo'yi shu manzara takrorlanib turaveradi, bari yaralmishlar harakatda, ular dono tabiat sehri ila ajoyib va g'aroyib go'zalliklar yaratishadi. Ko'zgu ichidagi tasvirlar sizga ro'yirost so'zlaydi. Go'yo tasavvur va xayol birga kelishgan holda ajib tasvirlar zanjirini ulab boraveradi. Keyin oqshom kirib kela boshlaydi, kechki ko'lankalar hatto behudud mavjlanib yotgan ummon yuzasini-da bir zumda qora tusga bo'yab qo'yadi. Shunda maftunkor zangorlik ham o'z-o'zidan g'oyib bo'ladi. Poyonsiz ummon sathida na bir kema, na biror qayiq suzib yurmaydi – tun butun hukmronligini bemalol yoyib yuborgan bo'ladi. Bo'm-bo'sh osmon ostida qadrdon sohillari tomon bemaqsad urilgancha kelib-ketayotgan kurashuvchan to'lqinlarning beozor shovqinigina osoyish oqshom tinchini buzib turadi. Tun cho'kadi, butun borliq moviy sukunat qa'riga g'arq bo'ladi. Yashillik oromga ketadi.

Moviy

Fazo cheksiz. Fazo benihoya fusunkor. Moviylikka qorishib ketgan besarhad makondir u. Go'yokim behudud ummon bag'ridan ikki shoxli bahaybat mavjudot butun tevarak-atrofga suv purkab chiqqan-u o'sha sachratgan suvi bilan bir nafasda ana shu hududsiz samo ko'ksini moviy rangga bo'yab qo'yganday bo'lib ko'rinadi. Qandaydir tilsim yashirinday bu yerda go'yo. Axir, bu naqadar go'zal, naqadar maftunkor manzara! Moviylik, moviy makon, moviy manzara... Hatto dengiz quchog'ida suzib yurgan jajji qayiqchaning rangi ham moviy, ajabo, naqadar latif ko'rinish! O'z sohillari tomon urilib-urilib, shoshilib-shoshilib kelib-ketayotgan yuguroq to'lqinlar mavjida-da ajib moviylik jilva etadi. Jami moviy lavhalar atrofida mitti-mitti qo'ng'iroqchalar yangroq jarang-

lab, misoli bu benazir go'zalliklarni ko'z-ko'z etib jaranglayotganday bo'lib tuyulaveradi. Sho'xchan shamollar moviy liboslarini yengil hilpiratgancha oppoq, momiq bulutlar atrofida aylana-aylana uchib-o'ynaydilar.

Butun ro'yizamin yam-yashillikka burkangan. Musaffo osmon esa tip-tiniq moviylik ila qoplangan.

Bu ikki egiz ranglar tabiatning eng a'lo husni, uning bor jilvasini oshiruvchi betakror olmos jilolaridir.

Yashil ham, moviy ham birday go'zal. Olam go'zal.

Oldes XAKSLI

(Angliya)

PUSHTI RANG UPA

Nihoyat Soufi o'z xonasida dam olib o'tirar edi.

U o'lguday toliqqandi. Kun juda og'ir o'tgan; xuddi kechagi kunday, xuddi kechadan oldingi kunday og'ir o'tgandi. Aslida-ku, har bir kun shunday og'ir tarzda o'tar va bu kunlar Soufining yana bir yoshini asta-sekinlik bilan undan uzoqlarga olib ketmoqda edi. Yana ikki yil o'tgach, Soufi ham ellik yoshni urib qo'yadi. U uchun har bir kun borgan sari og'irlashib borardi.

Pastdagi yo'lak bo'ylab taralayotgan beka bilan xo'jayinning g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozi oqsochning qulog'iga chalindi. Bekaning g'azab otiga mingani yaqqol sezilib turardi. Eri bilan gaplashganida uning tepa sochi tikka bo'lishi odatiy holga aylanib qolgandi.

Qo'ng'iroq chalinishi bilan Soufi dik etib o'rnidan turdi-yu, koridor tomon halloslagancha yugurib ketdi. Obbo, qo'ng'iroq tag'in chalindi. Beka kutishni yoqtirmasdi.

– O, Xudoyim-ey, Soufi! Qorangni endi umrbod ko'rmas ekanmanmi, deb o'ylagandim!

Soufi miq etmadi. Nima ham desin? Beka eshigi ochiq kiyim javoni oldida kuymalanardi. U qo'liga bir dasta qilib ko'ylaklarini ilib olgan, yana allaqanchasi karavoti ustida yoyilib, sochilib yotardi.

– Ertaga, Soufi, – dedi beka shoshilayotganidan nafasi bo‘g‘ziga tiqilib, – bizlar Rimga jo‘nab ketamiz. Ertaga ertalab. Demak, ayni daqiqadanoq tayyorlanishimiz zarur.

– U yoqda qancha vaqt bo‘lasizlar, xonim?

– Bunisini bilmayman. Ehtimol, ikki yoki uch hafta bo‘larmiz.

– U holda kattaroq chamadonni tayyorlaganimiz ma’qul emasmikan? Men hozir borib o‘shani olib kelaman.

– Kel, senga qarashib yubora qolay, Soufi, – dedi beka oqsochi zil-zambil chamadonni keltirishi bilan. Odatda, beka atrofida qari ayol uymalanib yurishini jini suymasdi. Ammo Soufi o‘z ishini ko‘ngildagidek ado etardi.

Keksa oqsoch narsalarni joylashtirish bilan band ekan, ko‘ngli negadir cho‘kib borardi.

– Butun kuni divanda, – deya o‘y surardi u, – aynan xonimniki singari kattagina rohatijon karavot ustida o‘tkazish. Faqat uxlash, dam olish, yana xonim to‘g‘risida va uning qaysi topshiriqlarini bajarish haqida zig‘ircha tashvish qilmaslik – shunaqasi ham bo‘larkanmi?

– Uning so‘nggi o‘yinidan keyin, – beka eri haqida so‘zlab ketdi, – o‘zining aytishicha, bir tiyini ham qolmagan emish. – „Biror donayam yangi kiyim sotib ololmayman“, dedi u. – Beka derazadan tashqariga bir qarab oldi. – Boz ustiga, – deya gapida davom etdi, – erimning qari otasi ham peshanamga kelib olgan. – „Shunday shoir ering bilan faxrlanishing kerak“, deydi-ya qariya tushmagur. Yuziga qarab xaxolab yuborishdan o‘zimni zo‘rg‘a ushlab qoldim. – Beka qah-qah otib kulib yubordi. – O, o‘zimning Soufiginam-ey, nechanchi osmonlarda uchib yuribsan-a? Manavi almisoqdan qolgan yashil ko‘ylakni joylashingga balo bormi?

Soufi indamasdan ko‘ylakni garderobga ilib qo‘ydi.

– Nima uchun bu aynan shu kecha qovoq-tumshug‘ini osiltirib olibdi? – deb o‘ylardi beka ichida. – Yuzlari ham sarg‘ayib, tishlari ko‘karib ketibdi. Bunchalik xunuk bo‘lmasa. Yaxshisi uxlagani jo‘natib yubora qolay. Ammo nima qilib bo‘lsa ham ish yakunlanishi kerak-da. Nima qilsam ekan-a? Beka o‘z-o‘ziga achinib ketdi.

Beka „Hayot og'ir-da, – deya o'y surganicha divani ustiga cho'kdi. – Sarg'aygan yuz va ko'kargan tishlar! Chindan ham o'ta yoqimsiz!" Soufining afti bekani kasal qilayozdi.

– Hayot og'ir-da, – deya yana takrorladi beka. U oqsochini xonasiga ketkazib yuborsa ham bo'lardi. Biroq lash-lushlarini hozirlashni bir o'zi eplolmaydi. Ustiga-ustak, ertaga saharlab Rimga ketishlari kerak. Beka eriga sayohatga keta olishini aytganida, u ishonqiramay miyig'ida kulib qo'ygandi.

– Soufi, – dedi xonim nihoyat bir chora topganday, – borib, mening pardoz stolim ustini bir qaragin-a. O'sha yerda pushti rang bir upa turibdi. O'shandan yonoqlaringga ozgina surtib ol. Yana o'sha joyda qandaydir lab bo'yog'i ham bor.

Keksa Soufi o'rnidan turib, pardoz stoliga borguni-cha va aytilgan topshiriqni adog'iga yetkazgunicha beka ko'zlarini yumib turdi. Obbo, bu xotin buncha ivirsimasa... Nihoyat, Soufi imillagancha joyiga qaytib kelib, narsalarni joylashda davom etdi. Xonim ko'zlarini ochdi. „Voy, shunisi yaxshiroq bo'ldi, sal bo'lsa-da odambashara bo'ldi-qoldi".

– Rahmat, Soufi. Tuzukkina odamga aylanding-qo'y-ding. – Beka o'rnidan turdi. – Qani endi, chaqqon-chaqqon qimirla, mana bu narsalarni tez joylab olaylik.

Uilyam SAROYAN

(AQSH)

PIANINO

– Har gal pianinoni ko'rsam yuragim hapqirib ketadi, – dedi Ben to'lqinlanib.

– Shunday degin? – dedi Emma. – Sabab?

– Bilmadim, – deb javob berdi Ben. – Mana shu magazinga kirib, burchakdagi pianinoni biroz chalib o'tirsak qarshi bo'lmaysanmi?

– Sen chalishni bilasanmi? – so'radi Emma hayratlanib.

– Qanday kuy chalishimni buyursang, bas, – dedi Ben mag'rurlanib.

– Nima qilmoqchisan o'zi?

– Hozir ko'rasan, – deb qo'ydi Ben sirli tarzda.

Ular do'kon ichkarisiga kirib, burchakda turgan pianino yoniga borishdi. Emma yigitning jilmayayotganini sezdi. Ben tik turgan ko'yi pianinoga termilib qolgandi. Qiz shunday xayolga bordiki, Benning qulog'iga qachonlardir ajoyib bir pianino ijrosi kirgan-u, u o'sha musiqani sevib qolgan va aynan shu sababdan ham har gal klavishlar-u pianino qiyofasini ko'rdi deguncha xotirasida o'sha musiqa qayta va qayta jonlanaveradigan bo'lib qolgan.

– Chala olasanmi? – deb so'radi qiz. Ben atrofiga alangladi. Xizmatchilar o'zlari bilan o'zlari ovoradek bo'lib ko'rinishdi.

– Uddalay olmasam kerak, – deb qo'ydi Ben.

Qiz uning barmoqlari oq va qora klavishlar uzra xuddi chinakam pianinochinikiday ohista harakatlanayotganini kuzatib turdi.

Ben bir-ikkita mayin akkordlarni[1] ijro qilib ko'rdi. Xizmatchilardan hech kim biror nima sotaman, deb ularning oldiga o'ralashib kelmadi, shunday ekan, Ben hamon tik oyoqda turgancha qiz hali tinglamagan kuylardan chalishni boshladi.

Ajabo, qiz uchun bularning bari haqiqiy mo'jiza edi.

Yigit atigi yarim daqiqacha u-bu chalib berganday bo'ldi. Bir mahal to'satdan Emmaga qarab: – yaxshi chiqarkan-a? – deb so'radi.

– Ajoyib-ku, – lol qotdi Emma.

– Men o'zim chalgan kuyni nazarda tutmadim, – deb e'tiroz bildirdi Ben. – Men pianinoni aytyapman. Pianinoning o'zi yaxshi ekan, deb aytdim. Ohanglari zo'r chiqarkan, ayniqsa shunday kichkinagina pianinoniki.

Shu payt bir o'rta yoshli magazin xizmatchisi ularning yoniga kelib qoldi va „Yaxshimisiz?" deb so'rashgan bo'ldi.

– Salom, – dedi unga javoban Ben ham.

– Bu rosa mashhur asbob, – pianinoga izoh berdi xizmatchi. – Ayniqsa, xona uchun soz buyum. Biz bunaqasidan bir dunyosini sotganmiz.

---

[1] **Akkord** – turli balandlikdagi bir necha uyg'un tovushlarning hamohang birligi.

– Bu pianino qancha turadi o'zi? – deb so'radi Ben qiziqsinib.

– Ikki yuz dollar, – deb javob berdi xizmatchi. – Ma'lum bir muddatgacha qarzga olib tursangiz ham bo'ladi.

– Qayerda ishlangan? – so'radi Ben qiziqsinib yana.

– Anig'ini bilmayman, – dedi xizmatchi. – Filadelfiyada bo'lsa kerak. Men buni sizga aniqlab beraman.

– O'zingizni urintirmang, – dedi Ben. – Siz chalishni bilasizmi?

– Afsuski, yo'q, – dedi xizmatchi bosh chayqab.

U Ben pianinoda yanada ko'proq kuy chalish xohla-yotganini payqadi.

– Davom etavering, – dedi u.

– Men chalolmayman, – dedi Ben xijolatomuz.

– Chalganingizni eshitdim-ku, – ta'kidladi xizmatchi jilmayib.

– Chalish bunaqa bo'lmaydi, – deb rad etdi Ben. – Men notani o'qiyolmayman.

– Har holda menga tinglaganim yoqdi, – deb o'z so'zini quvvatladi magazin xizmatchisi.

– Menga ham, – deb qo'shildi Emma. – Birinchi to'lov qancha bo'ladi?

– O, buni o'ylamay qo'ya qoling, – dedi xizmatchi beparvo. – Nari borsa qirq yo ellik dollar bo'lar-da. Siz chalaversangiz-chi, – dedi u gapida davom etib. – Men ko'proq sizning ijroyingizni tinglamoqchi edim.

– Agar bu joy aynan xona singari bo'lganida edi, – deya orzuladi Ben. – O'shanda men pianinoni soatlab-soatlab chalgan bo'lar edim.

– Shu yerda ham chalavering, – deya xizmatchi uni tinmay chalishga undardi. – Hech kim e'tiroz bildirmaydi.

Shunday deb xizmatchi o'rindiqni Ben tomonga surib qo'ydi, Ben esa unga o'tirib hali quloq eshitmagan kuylardan chala boshladi. U o'n besh-yigirma lahza ichi garangsib turdi-da, keyin ohangga o'xshash nimadir kashf qilib, ikki daqiqa o'sha kuy bilan ovora bo'ldi. Musiqa qancha avj olgan sayin xizmatchiga pianino to'g'risida gapirishdan to'xtamadi. Oxiri chalishdan to'xtab o'rnidan turdi.

– Minnatdorman sizdan, – deya rahmat aytdi xizmatchiga yuzlanib. – Qani edi, xuddi shunaqa pianino sotib olsam.

– Xudo xohlasa, niyatingizga yetasiz, – deb tilak bildirdi xizmatchi.

Ben bilan Emma magazindan tashqariga chiqdilar. Ko'cha bo'ylab ketisharkan Emma so'z qotdi:

– Men bu haqida hali hech nima bilmagan ekanman, Ben.

– Nima haqida? – deb so'radi Ben hayron bo'lib.

– Sen haqingda-da.

– Menga nima qilibdi?

– Sen shunaqamiding? – deb hayratlanardi Emma.

– Bu mening tushlik soatim edi, – deya izoh berdi Ben. – Kechqurunlari mening eng yoqtirgan mashg'ulotim ham pianinoli bo'lishim to'g'risida xayol surishdir.

Ular chog'roq bir restoranga kirib, buterbrod bilan qahva buyurishdi.

– Sen chalishni qayerda o'rgangansan? – deb savol berib qoldi Emma.

– Hech qachon o'rgangan emasman, – javob qaytardi yigit. – Ammo qayerda pianino ko'rsam, albatta bir chalib ko'raman. Bu mashg'ulotimni go'daklik davrimdan buyon hech kanda qilmayman.

U qizga qarab jilmayib qo'ydi. Salgina avval pianino oldida turib jilmaygani kabi nim jilmaydi.

Yoshlar restoranni tark etib, qiz ishlaydigan magazin tarafgacha ikki kvartalni piyoda bosib o'tishdi.

– Xo'p bo'lmasa, ko'rishguncha endi, – deya xayrlashdi Ben.

– Ko'rishguncha, Ben, – deb xo'shlashdi Emma ham.

Yigit ko'chaning bir cheti bo'ylab yurib ketarkan, qiz magazinga kirib qoldi. Emma yuragidan shuni anglab yetdiki, bir kunmas bir kun, albatta, bechora Benning pianinosi bo'ladi va o'shanda barcha orzulari, shubhasiz, ro'yobga chiqadi.

Anjela KAFLAN

(Angliya)

ONAIZORIM

Men doimo borliqni oq va qora ranglarda ko'raman. Boshqa hech qanday xira tuslar bu tasavvurimni berki-tolmaydi. Tiriklik bulog'i oqib turar ekan, insonlar chirkin ranglar bilan umrlarini bulg'amasliklari kerak. Sizga bir ajoyib umr bayonini aytib beray.

Bu gapim bilan hamma shunday yashashi kerak demayapman. Ammo men hayotga hamisha ana shunday nazar bilan boqib kelganman. Biroq mening onam doimo hayotni o'zining o'sha qadrdon atirgul rangli ko'zoynaklari orqali kuzatardi. Nurijahonim har qanday jiddiy muammo yoki yoqimsiz insondan ham bir yaxshilik qidirardi. Hayot qozoni mehribonim uchun hamma vaqt yarim to'la bo'lgan, yarim bo'sh emas. U har doim xushchaqchaq yashagandi.

Bunday ko'tarinkilik insondagi tug'ma bir qobiliyatmi yoki boshqa – buni men hech qachon bilolmaganman. Ehtimol, volidamdan so'rashim kerak bo'lgan yagona savolim ham shu bo'lgandir.

– Carpe diem (inson yashash uchun yaratilgan) butun hayotga tatiydi, – balki u shunday deb javob bergan bo'lardi.

Onam shunday naqllarga ishqiboz edi. Bolaligimda uning so'zlariga maftun bo'lganimni, „Onam o'tkir aql sohibasi", deya o'ylaganimni ko'p eslayman.

Hatto yomg'ir yog'ayotganda ham onam bizlarni hamon dengiz bo'yida olib yurardi. Qumsaroylarimiz xandaqlari esa oqayotgan suvdan ko'ra ko'proq yomg'ir suvlari bilan to'lib qolardi.

– Bolalar, kelinglar, – derdi mehribonim. – Buterbrodlaringiz ho'l bo'lmasidan burun yeya qolinglar.

Hech qanday yomg'ir uning tabassumini yuvolmasdi. Bizning oqayotgan burunlarimiz bo'lsa goho qattiq qaynagan tuxum oqlariday qotib qolardi. Onam uchun esa bularning bari baxtiyorlik nashidasi edi.

Hatto hozir ham men onamni soyabon tagida, suv chetida eshkak eshib o'tirganini tasvirlab berolaman. Cho'mila-

yotganimizda, u yoqdan bu yoqqa sakrab, unga suv sachratayotgan paytimiz onam yubkasini bel tasmasiga tiqib olardi.

Endi bu haqda o'ylasam, qanday qilib o'shanda shamollab qolmaganimizga taajjublanaman. Bu hol o'zimda sodir bo'lganida men qizlarimga hech qanday davo topolmagandim. Menda sabr-toqat, balki jasorat yetishmagandir. Bunga ishona olasizmi? Bir marta onam, uning yopiqligini bila turib ham, bizni hayvonot bog'iga olib borgandi. U bizga devor osha ham ayrim hayvonlarni ko'rish imkoniyatimiz borligini aytgandi. Qasam ichib aytamanki, bu rost edi. Hayratlanarlisi shundaki, biz bir lahzaga bo'lsa-da, jirafaning boshini ko'rib qoldik. Yana ham to'g'rirog'i, uni ko'rgan onam bo'ldi.

Endi esa ko'nglim o'ksinadi, o'sha nurijahonim qani? Nechun men o'z onamni umrim bo'yi asrab qololmadim?

Maktab kunlarimga xayolan qaytsam, sira o'yinlarga aralashmagan ekanman. Onam aytardiki, maktabdagilar jamoada menga o'xshagan yaxshi olqishlovchi qarsakchiga muhtoj bo'lishgan ekan. Unga ishonaman.

Boshqa onalar majlislarda faol edilar. Ular maktab uchrashuvlarida muntazam qatnashishar yoki sport kunlari bebosh jo'jalarga o'xshab shunchaki aylanib yurishardi. Ular bolalari uchun qo'shimcha o'qitishni bir umr munozara qilgan bo'lishardi. Mening mehribonim bo'lsa dunyodagi bedavo dardlardan meni asrashi haqidagi o'ylari ichiga g'arq bo'lib, uyda mazali kekslar va limonad tayyorlash bilan ovora bo'lardi. Onam o'zgachaligidan ogoh bo'lganimda o'n bir yoshda edim. Bir kuni boshqa onalar onamni shunday atashganini eshitib qoldim. Bu so'z nimani anglatishini bilmasdim, biroq „o'zgacha" so'zi men uchun betakror so'z bo'lib qoldi.

Onam chinakam ona edi. Biz uni dunyolarga alishmasdik. Goho zerikib, uy ichida haddan ortiq shovqin-suron ko'tarardik. U esa bizlarga televizor ko'rishni taklif qilardi.

– Hech narsa bo'lmayapti-ku! – deya baqirardik biz.

– Mana, bo'lyapti! – derdi onam ham qichqirib, televizorni yoqarkan. – Bu ajoyib ranglarga qarang.

Ajablanarlisi, biz onamning so'ziga ishonardik-da, o'tirib test kartasini tomosha qilardik.

Takror o'zimdan so'rayman, o'sha mehribonim qani endi? Nechun men onamni umrim bo'yi asrab qololmadim?

O'n yetti yoshida onam menga homilador bo'lgan ekan. Yillar o'tib, hech qachon men volidamdan uni o'smirlik yillaridan judo qilganligim to'g'risidagi arz-dodini sira eshitmadim.

Yigirma yoshida o'gay otamga turmushga chiqdi va ikki nafar farzand ko'rdi. Dadam ham, ya'ni men shunday deb bilishim kerak bo'lgan odam, hayotga juda xush nazar bilan qarardi. Ular bir-biriga munosib edi. „Ikkalasi janjallashganida biz – bolalar uchun rosa qiziqarli bo'lib chiqadi", deb o'ylardik.

– Agar turmushimiz o'zgarmasa, shundayligicha qolib ketaveradi, – der edi onam.

– Agar turmushimiz yaxshilansa, demak, bu yaxshiroq bo'ldi, degani, – javob berardi dadam.

Hammamiz kulib yuborardik. Aytishadiki: „Ko'p yoshlar ota-onalaridan uyalib o'sishadi. Ular uyga do'stlarini olib kelishdan qochishadi". Menda esa butunlay buning aksi bo'lgan. Do'stlarim mening devona onamni yaxshi ko'rishar va biznikiga kelishni yoqtirishardi. Onam uchun esa baland chalingan musiqa gilamlarning to'kilgan kola bilan bo'kishini anglatardi. Yotar paytimizgacha shunday to's-to'polon davom etardi.

Meni, ayniqsa, onamning ta'biri bilan aytganda „jononlar to'g'risidagi suhbat"imiz ko'proq qiziqtirardi.

– Ona, meni kutayotganingizni sezganingizda nimani his etgansiz? – deb so'ragandim bir paytlar.

Men onamdan qo'rquvlari haqida gapirib berishini, o'sha paytlarda turmushga chiqmagan onam uchun uyat bo'lgani to'g'risidagi gaplarni kutgandim.

– Eh! – degandi onam javoban, ovozi titrab. – Men qizaloq bo'lishingga umid qilganman. Ulg'ayib, shifokor bo'lishingni hech kutmagandim.

– Unda men sizda umidsizlik tug'dirgan bo'lsam kerak, ona, – deya xo'rsingandim men.

– Umidsizlik? Hech qachon!

Keyin volidam atirgul rangiga bo'yalgan ko'zoynaklarini to'g'rilab qo'ymasa, boshqa hech narsani qo'shimcha qilmagandi.

O‘shanda u rostini gapirganmidi yoki bu o‘z umidsizliklarini yashirishning g‘ayrioddiy yo‘li bo‘lganmidi?

Attang, o‘sha narsa men hech qachon bilolmagan sir bo‘lib qoldi. Afsuski, hozir onam xayolimdagina yashayotganiga bir necha yillar bo‘ldi. So‘nggi safari yaqinlashganda ham onam mening qo‘limdan ushlagandi, men onamnikini emas. Agar volidam menga so‘nggi orzusini taqdim eta olganida edi, balki onamni qaysidir ma’noda saqlab qololgan bo‘larmidim...

Bugun esa onam haqida o‘ylab men o‘zimni topdim, chunki o‘tgan tunda qizim sim qoqib, hafta oxirida tibbiyot maktabidan uyga kelayotganini aytdi.

– U, mabodo yomg‘ir yog‘sa ham, buvim xokini dengiz bo‘yiga olib borolamizmi? – deb so‘radi.

Men qizimdan juda faxrlanib ketdim. O‘ylaymanki: onam ham, albatta, undan mamnun bo‘lgan bo‘lardi.

Ernest XEMINGUEY

(AQSH)

YOMG‘IRDA QOLGAN MUSHUK

Mehmonxona oldiga kelib tushgan amerikaliklar atigi ikkitagina er-xotin muhojirlar edi. Ular o‘z xonalari tomon yo‘l olishar ekan, yo‘llarida, zinalarda uchratgan odamlaridan hech qaysisini tanimadilar. Muhojirlarning ko‘m-ko‘k dengiz tomon yuz tutgan xonasi ikkinchi qavatda joylashgandi. Yana katta bog‘ bilan bitta urush yodgorligi ham xonaga ro‘para yerda edi. Bu ulkan bog‘ ichida o‘sib yotgan bahaybat palma daraxtlari hamda yo‘lkalar chetiga o‘rnatilgan o‘rindiqlar bog‘ ko‘rkiga yanada ko‘rk bag‘ishlab turardi. Havo soz bo‘lgan chog‘lar bu yerda kichkinagina ko‘rgazma taxtasini ko‘tarib olgan qandaydir rassom paydo bo‘lib qolar, osmonga behadik bo‘y cho‘zib ketgan salobatli palma viqori hamda bepoyon bog‘ bilan dengizga yuzlanib turgan mehmonxona binosining yarqiroq ranglari unga juda manzur bo‘lardi. Boyagi urush yodgorligini tomosha qilish uchun ham bu yerga uzoq-yaqindan ko‘plab italiyaliklar kelib turishardi. Haykal bronzadan ishlangan bo‘lib, yomg‘ir ostida yanada yarqirab ko‘rinardi. Ayni chog‘da havo tund, sharros yomg‘ir quyardi. Palma yaproqlari uchidan ham yomg‘ir

tomchilari bir-bir tomchilab tushardi. Bog'dagi shag'al yo'lak uzra yomg'ir suvlari katta-kichik halqoblar hosil qilgandi. Bir tomondan cheksiz dengiz betaskin to'lg'onib yotar, jala ostida qolgan asov to'lqinlar dam o'rindiqlargacha urilib kelar, dam o'tmay shashtlaridan qaytib, tag'in ortga chekinib ketardi. Urush yodgorligi yonida joylashgan maydon ichida turgan turli sayyohlarning yengil mashinalari ham bir zumda bu yerni tark etib jo'nab ketishdi. Chetdagi qahvaxona ostonasida paydo bo'lgan bir oshxona xizmat-chisi kimsasiz maydon sathi uzra termilgancha turib qoldi.

Shu payt boyagi amerikalik ayol ham derazadan tashqarini kuzatib turardi. Tashqarida, shundoqqina deraza tagida esa qayoqdandir kelib qolgan kichkinagina bir mushuk o'sha yerda turgan yagona yashil stol ostida shumshaygancha zorlanib o'tirardi. Jonivor shalabbo bo'lmaslik uchun zo'r berib g'ujanak bo'lib olishga urinardi.

– Men pastga tushib, anavi mushukchani olib chiqaman, – deb qoldi ayol birdan.

– Men olib chiqa qolay, – taklif qildi karavotida yot-gan eri.

– Yo'q-yo'q, o'zim. Bechora mushukcha yomg'irdan qochib, stol ostiga o'tirvolibdi, sho'rlik o'zini quruq saqlashga chunonam harakat qilyaptiki!

Eri indamay karavotning oyoq tomonidagi bir juft yostiq ustiga yastanib olgancha yana kitob o'qishda davom etdi.

– O'zing bilasan, faqat ivib ketmagin, – deb qoldi u xotinining orqasidan.

Ayol pastga tushishi bilan mehmonxona xo'jayini u yonidan o'tib ketayotgan vaqtda xonimga bosh egib ta'zim qildi. Xo'jayinning ish stoli mehmonxonaning eng uzoq burchagida joylashgandi. U novcha bo'yli, yoshi o'tinqirab qolgan bir erkak edi.

– Hozir bu ishni qanday uddalaganimni ko'rasizlar, – deb hovliqdi ayol xo'jayinga qarab qo'yib, negaki mehmonxona sohibi xonimga bir ko'rishdayoq ma'qul bo'lgandi.

– Si, si, signora, brutto tempo[1]. Bunaqa ob-havoda tashqariga chiqib bo'lmaydi axir.

[1] Lekin, sinyora, havoning avzoyi buzuq (italyancha).

Xo'jayin dim xonaning bir burchagidagi stoli ortida javragancha qolib ketaverdi. Xonim uning gapiga quloq solmasdan yugurgancha tashqariga chiqib ketdi. Shunday bo'lsa-da, ayolga xo'jayin va ayniqsa uning har qanday shikoyat-u noroziliklarni ham o'ta jiddiy qabul qilishi, salobati va mulozamati, mehmonxona sohibi bo'lish g'ururi, hattoki, qari, semiz yuzi bilan bahaybat qo'llarigacha juda yoqib qolgandi.

Mehmonxona egasidan mamnun bo'lgan holda ayol eshikni zarb bilan ochdi-yu, tashqariga qarab qoldi. Yomg'ir yanayam avj olgan edi. Charm yomg'irpo'shiga mahkam o'ranib olgan bir erkak kafe tomonga qarab bo'm-bo'sh maydonni shoshilgancha kesib o'tdi. Haligi mushuk shu atrofda, taxminan o'ng tarafda bo'lishi kerak. Ehtimol, bechoragina birorta o'simlik ostida g'ujanak bo'lib o'tirgandir. Xonim hamon ostonada qadalib turar ekan, boshi ustida soyabon ochilganini payqadi. Orqasida ularning xonasiga xizmat ko'rsatuvchi oqsoch ayol soyabon ko'tarib turardi.

– Siz ivib ketmasligingiz kerak, – deb jilmaydi u italyancha so'zlab. Shubhasiz, oqsochni mehmonxona egasi yuborgan edi. Xonim boshi uzra soyabon tutib turgan shu oqsoch bilan to o'zining derazasi ostiga yetib kelgunicha shag'al yo'lakcha bo'ylab birga ketishdi. O'sha yashil stol hamon shu yerda turar, u yomg'irda yuvilib, yanada yashil tusda jilolanardi, ammo uning tagidagi mushuk shu tobda qayoq-qadir g'oyib bo'lgandi.

Xonim birdan ma'yus tortdi. Oqsoch ayolga xavotirlanib qarab qo'ydi:

– Ha perduto qualque cosa, signora?[1] – deya asta so'radi u.

– Anavi yerda mushuk bor edi, – dedi bazo'r amerikalik xonim.

– Mushuk?..

– Si, il gatto[2].

– Voy, mushuk deysizmi? – oqsoch qah-qah otib kulib yubordi. – Yomg'irda qolgan mushuk?

– Ha, – dedi xonim g'amgin, – anavi stol tagida o'tirgandi. –

---

[1] Biror narsangizni qo'ydingizmi, xonim?

[2] Ha, ha, mushuk bor edi.

Keyin u to'satdan ingrab yubordi. – O, men uni shunchalar xohlagan edimki! O'sha mushukchani shunchalik istovdimki!.. – ayol qattiq afsuslangancha inglizchalab gapirar, oqsoch esa uning niyatini tushunolmay hadeb yuzini tirishtirardi.

– Yura qoling, sinyora, – dedi u. – Ichkariga kirishimiz kerak. Axir, ivib ketasiz.

– Ha, boshqa ilojimiz ham yo'q, – dedi amerikalik ayol nochor.

Ular yana shag'al yo'lakcha uzra ortlariga qaytib, eshikdan kirib ketdilar. Oqsoch soyabonni yig'ib olish uchun bir daqiqa tashqarida qoldi. Ingliz xonim yonidan o'tib ketayotgan onda mehmonxona sohibi unga avvalgiday ta'zim qilib qo'ydi. Lekin bu safar ayolga uning qilig'i erish tuyulib ketdi. Shu bilan birga xo'jayinning bu odati yosh xonimga boyagina qilmoqchi bo'lgan ishining nechog'liq arzimas va ayni paytda g'oyatda muhim burch ekanligini anglatib yubordi. Ayol eng katta ahamiyatga ega bo'lgan kichkinagina yaxshilikni ham eplab amalga oshirolmagani uchun bir lahza ko'ngli cho'kib turib qoldi.

ODDIY SINOV

Tashqarida qor derazani ko'mib yuborguday ko'p yog'-gandi. Quyoshning zaif nurlari deraza tirqishlari oralab, kulba ichiga quyilarkan, ayniqsa, kulbaning yog'och devoriga osib qo'yilgan xarita yuzini kuchliroq yarqiratib yuborardi. Oftob tobora yuqorilagani sari shu'lalari ham qor uyumi tepasida shuncha ko'p tovlanardi. Kulbaning bir tomoniga chuqur xandaq kovlab qo'yilgandi. Quyosh charaqlab turgan kunlari nurlar devor ustida turli shakl-u shamoyil yasab, ajoyib raqsga tushar, ular xuddi oxirgi sovuq qordan o'ch olmoqchiday bor issiqliklarini mo'l-ko'l to'kishardi. Martning oxirgi kunlari edi. Kulba ichida devorga tirab qo'yilgan stol yonida bir mayor o'tirardi. Stolning narigi tomonidan esa unga hamroh adyutant joy olgandi.

Mayorning ko'zlari atrofida quyoshda qor ko'zini qamash-tirmasligi uchun taqib yuradigan himoyachi ko'zoynagidan qolgan ikkita oppoq aylana iz paydo bo'lib qolgandi. Yuzi-

ning qolgan qismini oftob olib qoraytirgan, o'sha qoraygan tanasi issiq harorat taftida yanayam kuyib ketgandi. Shishinqiragan burni chekkasidagi semiz terisi ham negadir po'rsildoq-po'rsildoq bo'lib yorilib qolgandi. U qo'lidagi gazetalarga tez-tez ko'z yugurtirib chiqar, ayni damda chap qo'lini yonidagi moy solingan likopcha tomon uzatib, barmoqlarini moyga bular va uni butun yuzi bo'ylab yaxshilab surtardi, uning barmoqlari bu vazifani juda mayinlik bilan bajarmoqda edi. Boshliq qo'llarini likopcha chetiga g'oyatda ehtiyotkorlik bilan olib borar, moy yuqi singib qolmasligi uchun nihoyatda muloyim harakatlanardi, peshanasi bilan ikkala yonog'i yuzasiga ham o'shanday astalik bilan moy surtib olgach, eng oxirida shishgan burni atrofini ham barmoqlari bilan zo'r hafsala qilib ishqalay ketdi. Nihoyat bu ishini tugatib, mayor sekin o'rnidan turdi-da, moy solingan likopchani ko'tarib, o'zi joylashib, dam oladigan xonasi tomon yo'naldi.

– Men biroz mizg'ib olmoqchiman, – deb qo'ydi u adyutantga qarata. Adyutant bu armiyada boshqa harbiylar singari hech qanday buyruqqa javobgar ofitser emas, balki o'z holicha mustaqil bir harbiy edi.

– Sen bemalol yeb-ichib o'tiravergin.

– Mayli, sinyor Maggore, – deb javob bergan bo'ldi adyutant. Shunday dedi-da, u ham stuli orqasiga bor gavdasini tashlab, uzoq esnab qo'ydi. Ozgina vaqt o'tgach, paltosi cho'ntagidan qog'ozga o'ralgan qandaydir kitob olib ochdi-yu, lekin uni darrov stol ustiga tashlab qo'ydi, so'ngra bamaylixotir tamakisini tutatdi. Adyutant tamakini qattiq-qattiq tortib, buruqsitib-buruqsitib tutun chiqardi-da, boyagi kitobni o'qish uchun stol ustiga eringancha engashdi. Ammo baribir o'qishga shashti bo'lmay, tag'in yopdi-yu, qaytarib cho'ntagiga solib qo'ydi. Busiz ham adyutantning bir dunyo ishlari, o'ylaydigan o'ylari ko'p edi. O'sha ishlari bitmagunicha kitob o'qish adyutantning kallasiga sig'masdi. Tashqarida esa mart quyoshi sekin-asta purviqor tog'lar ortiga bota boshlagan, kulba devorlari ustidagi o'ynoqi nurlar raqsi ham ohista-ohista so'nib bormoqda edi. Shu payt xonaga qandaydir bir

askar yigit kirib qoldi-da, hech narsa demay, burchakda uyulib turgan qarag'ay shoxlarini olib, har xil uzunlikda chopgach, pech ichiga birma-bir tashlay boshladi.

– Sekinroq, Penin, – deb ogohlantirgan bo'ldi uni adyutant o'tirgan yeridan. – Mayor dam olyapti.

Penin qorachadan kelgan nimjonroq yigitcha bo'lib, mayorning qo'l ostidagi askarlardan edi. U imkon qadar ovoz chiqarmay o'tinlarni joylagach, pech eshigini yopib, yana kulba orqasiga o'tib ketdi. Adyutant endi gazeta o'qishga tutindi.

– Adyutant! – birdan ichkari xonadan mayor ovozi eshitildi.

– Nima gap, sinyor Maggore?

– Peninni oldimga kiritib yubor.

– Penin! – o'sha zahoti yigitchani chaqirdi adyutant.

Xonaga Penin kirdi.

– Seni boshliq ko'rmoqchi.

Yigitcha indamasdan katta xona orqali o'tib, mayor eshigi oldiga keldi. Qiya ochiq turgan eshikni qo'rqa-pisa ikki marta taqillatgan bo'ldi.

– Sinyor Maggore?

– Kiraver, Penin, – adyutant mayorning boshliqlarga xos buyruqomuz ohangini eshitdi. – Eshikni orqangdan yopib kir.

Ichkarida mayor o'zining devorga o'rnatilgan karavotini to'ldirib, yoyilib yotardi. Boshining tagiga allanarsalar solingan rukzagini yumaloq-yostiq qilib qo'yib olgandi. Boshliqning uzun, oftobda kuygan, yog'langan semiz yuzi yosh askarga boqdi. Penin mayorning adyol ustiga uzala tashlangan jundor, baquvvat qo'llari tarafga ko'zlarini olib qochdi.

– Yoshing o'n to'qqizdami, Penin? – deb so'radi mayor yigitchaning chehrasiga diqqat bilan razm solarkan.

– Shunday, sinyor Maggore.

– Hmm, shunaqa degin, – deb qo'ydi mayor jiddiy qiyofada. Keyin yana o'shanday ohangda ta'kidlagannamo qilib savol berdi: – Umringda hech sevib ko'rganmisan?

– Meni kechirasiz, bu gapingizga tushunolmay qoldim, sinyor Maggore?

– Men sevganmisan, deb qizlarni nazarda tutyapman?

– Ha, qizlar bilan gaplashib turaman.

– Yo'q, tushunmayapsan, men sendan buni so'ramadim. Men sendan biror-bir qizga ko'ngil qo'yganmisan, deb so'radim.

– Albatta, sinyor Maggore.

– Haa, demak, hozir kimnidir sevasan, shundaymi? Unga xat ham yozib turar ekansan. Men hamma xatlaringni o'qib chiqdim.

– To'g'ri, men rostdan ham bitta qizni yaxshi ko'raman, – deb tan oldi Penin, – ammo unga birorta ham xat yozgan emasman.

– Yo'g'-ey, aniq yozmaganmisan?

– Ha, gapim rost, aniq yozmaganman.

– Adyutant! – mayor xuddi avvalgi ohangini buzmasdan ofitserni chaqirdi. – Mening gaplarimni eshitib turibsanmi sen?

Narigi xonadan hech qanday javob kelmadi.

– U bizni eshitmaydi, – deb qo'ydi mayor Peninga qarab. – Xo'sh, demak, sen o'sha qizni chindan ham sevishingga ishonasan?

– Ishonaman, sinyor Maggore.

– Unday bo'lsa, – mayor askarning yuziga bir qur tez ko'z yugurtirib oldi, – sen hech qanday axloqsizlik ham qilmagansan?

– Sizning axloqsizlik, deb nimani nazarda tutganingizni bilolmadim, sinyor.

– Yaxshi, juda soz, – deya xulosa chiqargan bo'ldi mayor o'zicha, – u holda sendan hech qanaqa boshliq chiqmas ekan.

Penin boshini egib, ko'zlarini polga qadadi. Mayor uning qoracha yuzlariga, oriq qo'llariga, ozg'in gavdasiga boshdan oyoq bir-bir qarab chiqdi. So'ngra yana avvalgiday jiddiy, kulmagan tarzda gapida davom etdi:

– Demak, sen chin dilingdan istamayotgan ekansan, – mayor sukut qildi. Penin hamon poldan ko'z uzmay turardi. –

Eng buyuk orzuying haqiqiy emas ekan unda, – Peninning ko'zlari hali ham polda edi. Mayor gapdan to'xtab, askarlik xaltasi ustiga suyandi-da, jilmaydi. U yurak-yuragidan yengil tortgandi. Armiyadagi hayot jiddiy hayot ekan, u yoshlarni bulg'amay, matonatli, rostgo'y, toza qilib tarbiyalabdi. Mayor negadir xursand bo'lib ketdi.

– Yaxshi bola ekansan, – dedi u biroz yumshoqlik bilan. – Sen yaxshi bola ekansan, Penin. Lekin bu gapimga ko'p ham taltayib ketma. Senga otalarcha gapim, yigitcha, doimo kimdir-birov zimdan poylab kelib, orqangga pichoq urib ketishidan ehtiyot bo'lib yur.

Penin hamon boshlig'ining karavoti yonida boyagiday sukut saqlagan ko'yi jimgina turardi.

– Mendan qo'rqma, – dedi mayor unga mehribonlik bilan tikilib. U adyoli ustidagi qo'llarini bukdi. – Men senga hech narsa qilmayman. Istasang, bo'lmangga qaytib ketishing ham mumkin. Lekin eng yaxshisi, menda, mening askarim bo'lib qolganing ma'qulroq. Bu yerda seni hech kim o'ldirib ketolmaydi.

– Mendan yana nimadir so'ramoqchimisiz, sinyor Maggore?

– Yo'q, – dedi mayor, – chiqib ketaver, xohlagan ishing bilan shug'ullanaver. Ha-ya, chiqishingda eshikni ochiq qoldir.

Penin eshikni yopmasdan tashqariga chiqdi. Adyutant yigitchaning xonadan o'ng'aysizlanib yurib o'tib, kulbadan chiqib ketishini kuzatib turdi.

Penin pechga qalash uchun yana qarag'ay shoxlaridan ko'tarib kirganida, butunlay qip-qizarib ketgan, harakatlari ham oldingidan ancha o'zgarib qolgandi. Adyutant yosh askarning bu holatini kuzatib turib, miyig'ida kulib qo'ydi. Penin tag'in tashqariga chiqib, yanada ko'proq o'tin ko'tarib kirdi. Ichkari xonada esa mayor qishki ko'zoynaklari bilan lattaga o'rab, devordagi mixga osib qo'yilgan kaskasiga termilgancha o'z karavotida o'y surib yotar, biroq uning quloqlari qo'shni xonadagi Peninning qadam tovushlarida edi. „Voy, kichkina shayton-ey, – deb o'ylardi boshliq kulimsirab, – ehtimol, u meni aldab qo'ygandir".

BEGONA MAMLAKATDA

O'sha yilgi kuzda ham hali urush tugamagan, ammo biz ortiq jangda qatnashmayotgan edik. Milan kuz oylarida juda sovib ketar, tun ham ancha barvaqt tushardi. Deraza oynalaridan elektr chiroqlarining birma-bir yona boshlagani ko'rinar va sokin ko'chalar bo'ylab ularni tomosha qilib yurish benihoya maroqli edi. Ayrim do'konlarning tashqarisida turli xil o'yinchoqlar osilib turar, qor kukunlari yasama tulkilarning yungi ustiga o'tirib, dumlarini shamol uchirib o'ynardi. Qotirilib, do'kon eshigi tepasiga ilib qo'yilgan kiyik haykalchasi ham og'ir va ichi bo'm-bo'sh holatda turar, kichkina o'yinchoq qushchalarda izg'irin dastidan bir-biriga urilib, qattiq shamolda patlari to'zg'ib yotardi. Kuz nihoyatda sovuq, achitqi izg'irin qirrador qoyalarini qor bosgan olis tog'lar tomondan kelar edi.

Biz hammamiz har kuni harbiy kasalxonada jam edik, oqshom tushishi bilan shaharcha bo'ylab istagan yo'limizdan ketib, biroz aylanib kelardik. Ikkita yo'l suv shoxobchasi yoqalab ketgan bo'lib, bizday majruhlar uchun ancha uzunlik qilardi. Shunga qaramasdan, biz baribir o'jarlik bilan gospitalga qaytish uchun o'sha ariq ustidagi ko'prikdan yurib o'tardik. Darvoqe, ariq ustidagi ko'priklar uchta edi. Ularning birida bir ayol qovurilgan kashtan yong'og'i sotib o'tirardi. Biz pistako'mir yoqilgan olov oldida turib, ayolning yong'oqlaridan xarid qilar, ularni cho'ntaklarimizga solib, sal isinib olardik. Bu juda yoqimli edi. Kasalxonamiz anchagina eskirib ketgan, lekin shu bilan birga ko'rkamligini hali unchalik yo'qotmagan katta binoda joylashgandi. Asosiy darvozadan kirganingizdan keyin keng hovli yuzasini kesib o'tib, yana boshqa bir darvozadan chiqib keta olardingiz. Shu qadimiy gospitalimizning orqasida g'ishtdan qurilgan yangi pavilyon ham bo'lib, biz bemorlar har kuni mana shu pavilyonda uchrashar, aravachalarimizda o'tirgancha o'zimizni o'ta intizomli va sinchkov tutardik.

Ba'zida men o'tirgan aravacha oldiga doktor kelib, gapga tutib qolardi:

– Urushdan oldin eng yaxshi ko‘rgan mashg‘ulotingiz nima bo‘lgan? Sport bilan shug‘ullanganmisiz?

– Ha, futbol o‘ynab turardim, – deb javob berardim.

– Yaxshi, – der edi doktor cho‘zib, – bu yerdan chiqib olganingizdan keyin hali avvalgidan ham yaxshiroq futbol o‘ynaysiz.

Mening tizzalarim bukilmay qolgan, oyog‘im joni yo‘qdek karaxt bo‘lib qotib turardi. Xuddi uch g‘ildirakli velosiped haydayotgandek qiyofada edim. Ming urinsam ham, tizzalarim zig‘ircha harakatga tushmas, har gal ularni qimirlatishga urinishim bilan aravacham sekin lapanglashni boshlardi. Doktor bo‘lsa hadeb ruhimni ko‘tarishga zo‘r berardi:

– Hali hammasi o‘tib ketadi. Siz omadli yigitsiz. Endi yana futbol o‘ynaydigan bo‘lsangiz, bu safar aniq chempion bo‘lasiz!

Mening yonimdagi aravachada qo‘llari xuddi go‘daknikidek kichkina bo‘lib qolgan yoshi kattaroq bir mayor o‘tirar edi. U doktor qo‘llarini tekshirayotgan vaqtda menga qarab ko‘zlarini qisib qo‘yar, ikkita charm tasmasida osilib turgan qo‘li pastga tushib-chiqarkan, egilmaydigan bo‘lib qolgan barmoqlarini silkitarkan, kulib der edi:

– Biz ham futbol o‘ynarmikanmiz, kapitan doktor?

Bir paytlar mana shu mayib-majruh mayor zo‘r qilichboz bo‘lgan, urushdan oldin Italiyada uning oldiga tushadigan qilichboz topilmagan ekan.

Doktor javob qaytarish o‘rniga orqa xonadagi ofisiga kirib, xuddi mayorniki singari kichkinagina, qovjirab qolgan qo‘llar suratini olib chiqar, mayorga nimalarnidir uqtirishga harakat qilardi. Noiloj mayor esa sog‘ qo‘li bilan doktor bergan suratni ushlar, unga diqqat bilan razm solar, „Jarohatlarim tuzalarmikan o‘zi?“ deb umidsiz ohangda so‘rardi.

– Bu baxtsiz hodisa bitta sizning boshingizga tushgan emas, – deya doktor uni yupatgisi kelardi.

– Juda qiziq, judayam qiziq, – xayol surgancha ta’kidlar edi mayor, keyin esa qo‘l rasmini yana doktorning o‘ziga qaytarib berardi.

– O'zingizga ishonasizmi? – deb so'rardi doktor unga umid bilan qarab.

– Yo'q, – der edi mayor keskin tarzda.

Gospitalda men bilan tengdosh bo'lgan tag'in uchta yigit bor edi. Ularning uchalasi ham Milandan kelgan, biri huquqshunos, yana biri rassom, uchinchisi esa oddiy askar bo'lishni niyat qilgan ko'ngli toza chapani bolalar edi. Ba'zan biz shu yigitlar bilan birgalashib „Kola" qahvaxonasiga ketardik. Biz u yoqqa eng qisqa bo'lgan yo'ldan borardik, negaki to'rttalamiz ham aravachada yurardik. Bu yerdagi odamlar bizni ofitser bo'lganimiz uchun yomon ko'rardi. Vino sotiladigan do'kon yonidan o'tib ketayotganimizda har gal kimdir: „A basso gli ufficiali!"[1] deb qichqirardi.

Ayrim vaqtlarda to'pimizga yuzini qora shoyi dastro'mol bilan o'rab-chandib olgan yoshroq bola ham qo'shilib olardi. Uning burni bilan yuzini qaytadan yasayotgan edilar, shu sababdan butun yuzi o'rab tashlangandi. Bu baxtiqaro yigitcha frontga harbiy akademiyadan kelib qo'shilgan va ilk marta jangga kirgan kuniyoq bir soat ichida yarador bo'lib, ortga qaytishga majbur bo'lgandi. Doktorlar uning yuzini qaytadan yasab chiqishga kirishgan, biroq yigitchaning burnini asliday to'g'ri qilib yaratish nihoyatda mushkul ish edi. Keyinchalik o'sha yigitcha Janubiy Amerikaga borib, qaysidir bir bankda ishlagan emish. Ammo bizga bu kabi voqealar bir zamonlarda, odamning esida turmaydigan qadim davrlarda bo'lib o'tgandek tuyular, biz ularning qay nuqtada boshlanib, qaysi nuqtada tugashini hech qachon idrok qilolmay qolgandik. Nazarimizda butun dunyo faqat urushdan iboratday va u hech qachon tugamaydiganday bo'lib ko'rinar, lekin biz endi janglarda ortiq qatnasholmas edik.

Hammamiz ham urushda medallar bilan taqdirlangandik, birgina yuzi bint bilan chandib tashlangan bolada hech qanday unvon yo'q edi, zotan u hali frontda biror-bir mukofot olish uchun yetarlicha xizmat ko'rsatolmay, yarador bo'lib qolgandi. Rangpar yuzli huquqshunos yigit oldin Arditi degan joyda leytenant sifatida xizmat qilgan va bizda endigina bir

[1] „Yoqolsin ofitserlar!"

dona bo'lgan sharafli unvondan naq uchtasiga ega edi. Sho'rlik yigit ancha vaqt o'lim bilan yonma-yon yashab, endi-endi undan sal uzoqlasha boshlagandi. Biz — yarador urush ishtirokchilari deyarli hamma vaqt birga edik, gospitalda har kuni yuzma-yuz kelib qolaverardik. Shaharchaning biz uchun eng sevimli bo'lgan „Kola" qahvaxonasi tomon vino do'konlaridan taralib turgan kuy va qo'shiqlarni tinglagancha qorong'i ko'chada imillab borarkanmiz, gohida yo'lkalar chetida g'uj bo'lib turgan erkak va ayollar yonidan o'tib ketishga ham to'g'ri kelib qolar va ular bizni qanchalik yomon ko'rib, sassiq gap qilib qolgan paytlarda ham o'zimizni tutib, hech narsa bo'lmagandek yo'limizda davom etib ketaverardik.

Bizning bilganimiz faqatgina qahvaxona edi, xolos. U yerdagi issiqlik, u qadar o'tkir bo'lmagan yorug'lik, tutun va shovqinga to'la xonalar hamda stol atrofida jam bo'lib o'tirgan shaddod qizlar bilan devor va tokchalarda yoyilib yotgan bezakli qog'ozlarni o'lgudek yaxshi ko'rardik.

„Kola"dagi qizlar nihoyatda vatanparvar edi. Ba'zida men shunday o'ylardimki, butun Italiyadagi eng elsevar insonlar ana o'sha qahvaxona qizlari edi. Men hali-hamon ular kabi vatanparvar odamlarni qayta uchratmadim.

Qahvaxonaga kirib o'tirganimizdan keyin hamrohlarim mendan medallarim to'g'risida so'rab-surishtirib qolishar, ularni qanday xizmatlarim uchun olganimni gapirib berishimga qistashar edi. Men esa ularga g'oyatda chiroyli tilda yozilgan qog'ozlarni ko'rsatar, lekin ulardagi maqtovlar uchun emas, balki vijdonan aytganda, amerikalik bo'lib urushda qatnashayotganim uchungina ko'ksimdagi unvonlarni taqib yurganimni bildirib qo'yardim.

Shu gaplarimdan keyin yigitlarning menga bo'lgan muomalasi biroz o'zgarar, men ularga do'st bo'lishimga qaramay, xuddi ichlaridagi dushmanga qarayotgandek sovuq nazar bilan qarashar edi. Haqiqatan ham, men bu jangchilarga chin dilimdan do'st edim, ko'nglimda zig'ircha adovatim yo'q, ularni baribir yaxshi ko'rardim. Bu yigitlar esa erishgan mukofotlarini turli qahramonliklari uchun qo'lga kiritgandilar. To'g'ri, men urushda yarador bo'lgandim, ammo urush o'z nomi bilan urush, unda jarohat olish tabiiy hol deb qabul qilinardi. Men

aslo yaralarim ustidagi bintlardan or qilmasdim, gohida qahvaxonada kokteyl ichib o'tirgan kezlarimizda o'zimni xuddi hamrohlarim amalga oshirgan qahramonliklarni bajarib, ular olgan unvonlarga men ham sazovor bo'lgandek xayol qilardim; biroq yarim kechada bo'm-bo'sh ko'chalardan, barcha yopilgan do'konlar yonidan izg'irin shamolda iloji boricha ko'cha chiroqlari yaqinidan yurishga urinib ketarkanman, yurak-yuragimdan shuni aniq bilardimki, men hech qachon o'sha shovvoz yigitlar kabi qahramonliklar ko'rsatolmas edim, zotan men o'limdan benihoya qattiq qo'rqardim, har tunda bir o'zim karavotimda o'ychan yotarkanman, ajal nafasidan jonim talvasa ichida o'rtanib, qachon va qay holatda frontga qaytishimni aqlimga sig'dirolmay, miyam og'rib ketardi.

Qator unvonlarga erishgan uchala hamrohim misoli qirg'iy ovlovchi ovchilardek g'alati ko'rinar; ammo men ularning ko'ziga ovlanadigan najotsiz qirg'iyga o'xshab ko'rinsam-da, aslida qirg'iy kabi ojiz va pastkash emasdim; buni ularning o'zlari ham yaxshi bilar edi, vaziyat shunday davom etarkan, men ulardan asta-sekin uzoqlashib ketdim. Lekin urushda birinchi kuniyoq yarador bo'lgan yosh yigitcha bilan do'stligimiz davom etdi, negaki u hali yosh, qalbi qordek oppoq, har qanday oldi-qochdi gaplardan xoli beg'araz inson edi, uni hammadan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rardim.

Bir paytlar eng mohir qilichboz bo'lgan mayor esa frontdagi qahramonliklar-u katta-kichik unvonlar borasida qiziqmas, aravachalarimizda yonma-yon o'tirgan kezlarimizda vaqtini nuqul mening grammatikamni tuzatishgagina sarflar edi. U mening italyanchamni xo'jako'rsinga oshirib maqtab qo'yar, o'zim ham mayor bilan maza qilib gaplashardim. Bir kuni men unga italyan tili judayam oson ekanligini, bu tilni o'rganish menga ortiqcha qiyinchilik tug'dirmasligini aytdim, chindanam, italyanchada barcha so'zlarni talaffuz qilish oppa-oson edi.

– Ha, albatta, – deb gapimni ma'qullab qo'ydi mayor ham. So'ngra, – ammo sen italyan grammatikasini o'rganishga urinib ko'rsang yanada yaxshi bo'lardi, – deb qo'shib qo'ydi. Shundan keyin biz grammatika o'rganishni boshlab yubordik va tezda men mayorga o'sha kungi aytgan gapimdan darrov

qaytdim, to grammatik qonun-qoidalarni miyamga yaxshilab joylab olgunimcha mayor bilan italyanchalab gaplasholmay yuragimni hovuchlab yurdim.

Mayor gospitalga har kuni kanda qilmay kelib turardi. Uning biror kun ham kelmay qolganini eslay olmayman va shuni ochiq-oydin bilardimki, uning eng yomon ko'rgani nogironlar aravachasi edi. Bizning ham ularni ko'rishga ko'zimiz yo'q, ba'zan jirkanib ketardik, biroq vaqt o'tgani sayin mayorning o'zi bunga ko'p ham e'tibor bermaslikni maslahat berardi. Aravachalar hali yap-yangi bo'lib, uni birinchi bo'lib biz ishlatayotgandik. Qanchalar ahmoqona gap bo'lmasin, mayor buni „Nogironlik nazariyasi" deb atar edi. Men esa hali ham grammatikani yaxshi o'rgana olmagan, buning uchun qattiqqo'l mayorimiz meni g'irt savodsizga chiqarib qo'yardi, shunday bo'lishiga qaramay, u baribir men bilan o'tirib olib, anchagina asabi qo'zib, toqat qilib dars o'tar edi. Mayor jussasi jimitdakkina erkak bo'lib, doimo tik holatda o'tirar, o'ng qo'li bilan aravachasining tutqichidan ushlab devor tepasiga to'g'ri tikilib turardi. Yarador qo'li ilib qo'yilgan osma tasmalar orasidan karaxt bo'lib chiqib turardi. Bir kuni u mendan:

– Peshanamizga biror baxtli kun bitib, bu do'zaxi urush tugab qolsa sen nima qilmoqchisan? – deb so'rab qoldi. – Faqat grammatikani buzmay to'g'ri javob ber!

– Shtatlarga qaytib ketmoqchiman, – dedim men.

– Uylanganmisan?

– Yo'q, endi uylanmoqchiman.

– Sen, hammang g'irt ahmoqsanlar! – deb o'shqirib ketdi mayor birdan. Negadir uning g'azabi juda qo'zib ketgandi. – Erkak aslo uylanmasligi kerak!

– Nima uchun, sinyor Maggore? – deb so'radim men hayron bo'lib.

– Meni sinyor Maggore, dema! – mayor hali ham g'azab ichida kuyib-yonardi.

– Nega erkak kishi uylanmasligi kerak ekan? – deb so'radim men yana.

– U uylanolmaydi. Yo'q, uylanolmaydi u, – dedi mayor battar jahli chiqib. – Agar u bor narsasini yo'qotishni

istamasa, u holda o'zini o'zi bunday sho'rpeshana ko'yga solmasligi kerak. Hayotda erkak kishi faqat yo'qotmaydigan narsalarni topishi kerak!

Mayor g'oyatda alam bilan, adoqsiz hasrat bilan so'zlar, gapirayotgan paytda osmonga bir muddat tikilib qolar edi.

– Lekin nima sababdan u topgan narsasini yo'qotishi mumkin? – dedim men qiziqsinib.

– U baribir yo'qotadi, – dedi mayor endi ma'yus bo'lib qolib. U negadir menga emas, devorga qarab so'zlar edi. Keyin u aravachasiga ko'z tashladi-da, tasma orasiga ilib qo'yilgan yarador qo'li bilan tutqichga zarb bilan bir tushirdi, jarohatlangan qo'li popillab tushib, mayorning soniga tars etib urildi.

– U baribir yo'qotadi! – deb qichqirdi u yana. – Bo'ldi, bas qil! Men bilan tortishaverma!

Mayor shunday dedi-yu, nariroqda yurgan aravachalarni boshqaruvchi xizmatchiga qarab baqirdi:

– Kelib, mana bu la'nati matohni hayda!

Bechora mayor titrab-qaqshagancha, muolaja oladigan xonaga kirib ketdi. Keyin men uni doktordan telefonini berib turishini so'rab, eshikni yopib qo'yganini eshitib turdim. Birozdan so'ng mayor qaytib kelganida men boshqa aravachada o'tirar edim. U boshiga qadrdon kepkasini kiyib olgandi, to'g'ri mening yonimga keldi-da, yelkamga do'stona qo'l tashladi.

– Kechir meni, – dedi u yelkamga sog' qo'li bilan qoqib qo'yarkan, – senga qo'pol gapirmasligim kerak edi. Bilasanmi, yaqindagina mening xotinim vafot etdi. Shuning uchun sen meni kechirishing kerak, tushunyapsanmi meni?

– Eh! – dedim men chin dildan mayorga achinib. – Juda taassufdaman!

Mayor pastki labini tishlagancha g'amboda va ma'yus o'tirar edi.

– Bilasanmi, – dedi u birozdan keyin tilga kirib, – bilasanmi, bu judayam-judayam og'ir azob bo'lar ekan! Men taqdirga hech tan berolmayapman!

Mayorning ovozida chuqur g'ussa va dard mujassam edi. U mendan ko'zlarini olib qochib, deraza tarafga boqdi. U yig'layotgan edi.

– Sirayam bardoshim yetmayapti, men o'z taqdirimga ko'nolmayapman! – dedi u nafasi qisib. Shu so'zlarni aytarkan, mayorning ko'zlaridan yosh dumalab tushar, o'zini harbiychasiga tik tutib, adl o'tirgan bo'lsa ham, atrofdagi hech narsani ko'rmas va payqamas, yonoqlariga yoshlari tomgancha, hamon pastki lablarini tishlagan ko'yi asta yonimizdan o'tdida, tashqariga chiqib ketib qoldi.

Keyinroq doktor menga mayorning yosh va ko'hlikkina xotini zotiljam bo'lib, bexos qazo qilganini aytib berdi. Baxtiqaro mayor suyukli ayoliga to o'zi butunlay nogiron bo'lib qolgunga qadar uylanolmasdan, urushma-urush, sarson-sargardon bo'lib yuravergan ekan. Uning xotini bor-yo'g'i ikki-uch kungina biroz mazasi bo'lmay yotibdi-yu joni uzilibdi. Ayolning bunday kutilmaganda olamdan o'tib qolishini hech kim xayoliga ham keltirmagan ekan.

Mayor uch kun gospitalga kelmadi. Keyin u yana o'sha odatiy keladigan soatida, faqat harbiy formasini egniga kiyib olgan holda aravachasida kirib keldi. U qaytgan paytda devorlarda katta-katta chorcho'pga solingan suratlar hali ham osilib turar, ular tuzatilgan va tuzatilmagan jarohatlarning har xil suratlari edi. Ilgarilari mayor xuddi o'zining qo'liga o'xshab ketadigan uchta rasm qarshisida turib olgancha, soatlab tomosha qilardi. O'sha suratlarni doktor qayerdan topib kelganini men aniq bilmasdim-u, biroq yangi nogironlar aravachasiga birinchi bo'lib o'tirgan kishilar biz ekanligimizni yaxshiroq anglardim. Lekin endi bechora mayorga bu suratlarning ko'p ham ahamiyati qolmagan, u har oqshom derazadan tashqariga uzoq-uzoq tikilar va mahzun xotiralariga cho'mgancha chorasiz o'tirar edi.

Keyt SHOPEN

(AQSH)

SOG'INIB KUTAMAN TUNLARNI

Borgan sari odamlar bilan ishim yo'q, ularning na hayotlari va na harakatlari bilan qiziqmay yashayapman. Kimdir shunday bir fikr aytib edi: o'ntalab kitob o'qigandan ko'ra

bitta insonni o'rgangan a'loroqdir deb. Ehtimol, va lekin ko'nglimga unisi ham, bunisi ham zinhor yoqmaydi, ular faqat jonimni qiynab, aqlimni shoshiradi. Zero, bu mukammal hamda murakkab tilsimotlardan qay biri ham manim dilim ila tillasha olar edi qadrdon tunlar – sevimli yoz tunlarim misol? Yoxud shivirlashar qirrador va ravshan yulduzlar kabi va yo suya olar mayin nasimday?

Men har kun tunni sog'inib kutaman, zarang daraxti ostida orom olib yotarkanman, u koinot zumrad osmoni bo'ylab asta yoyilishini, bag'oyat ohistalik ila kirib kelishini kuzataman. Tun. Uning hamma narsasi juda aziz, juda qadrli. U salqin vodiylar osha zimdan, nihoyatda ehtiyotkorlik bilan o'rmalay-o'rmalay boshim uzra soya solib turgan zarang daraxti ustida muallaq qotadi, azizim go'yoki meni sezmaydi, deya xayol qiladi. Sekin-asta daraxt qaddini o'ray boshlarkan, sirlari bisyor yaproqlar oralab chehramga razm solar va haddan ortiq quvligi uchun butun mag'rib-u mashriq mulkini bir zumda egallab oladi. Tepamdagi zarang daraxti ichra nigoh solarkan, yashil bargchalar aro yulduzlar milt-milt qilgancha ko'z qisa boshlaydi.

Tun benihoya sodda, benihoya samimiy va ajabki, bir olam, bir jahon sirlarga to'la. Odamlar bo'lsa turfa dunyo, men ularni hargiz tushunolmadim. Ba'zi birovlar qalbim durlarini ayyorona tortib olib, so'ngra esa tahqir etdilar, birovlari esa besabab, beyurak kuldilar. Mayli, nima ham derdim. Mening bor mehrim, sevgim, ishonchim, tuyg'ularim taskin va tasanno aytuvchi ziyrak, darddosh, dildosh tun uchun baxshida bo'ldi.

Mana, sohir qushchalar oqshomgi qo'shiqlarini kuylashmoqda: ishqilib, tezda tugatib qo'yishmasin. O, nechog'liq dono bo'lishmasa bu qushchalarim! Ular odamlar singari safsata sotishmaydi, dag'dag'a qilishmaydi, izzatingni yerga urishmaydi. Ular faqat va faqat senga oniy lazzat damlari farovonligini sog'inishadi: „uxla, uxla, uxla", deyishadi. Zum o'tmay, zarang daraxti uzra shamol o'ynay boshlaydi, xuddi jajji yaproqlarga izhor qilayotganday iliq va yumshoq qo'llari bilan teginib o'tadi.

Shunda o'yga tolaman, butun Yer kurrasida ana shunday

jannatiy ne'matlar, totli rohatlar mavjud ekan, unda ne sababdan kaltabin, tili uzun kaslar hukmronlik talashar, nega ahmoqlar bepoyon yer yuziga hokim bo'lgisi kelar! Chinakam farog'atni ham o'sha iblis odamlar buzadi. Butun dunyo ularnikiday olam Sarvariga turli iddaolar qiladilar, zamon va zamin dastidan dod soladilar. Ular juda xunuk ko'rinadi, qip-qizil yuzlari, o'ynoqi ko'zlari hamda tili qo'rs odatlarini yaqqol ifodalab turadi. Aslida-chi? Aslini olganda, bundaylar olam Sarvari to'g'risida nimani ham bila olishardi? Men endi borib xuddi o'sha munofiqlardan so'raymi Yaratganning tabarruk ne'matlari qadr-u qimmatini. Yo'q-yo'q, aslo! Men faqat boshim uzra jimillayotgan javohirdek yarqiroq mana shu yulduzlar-u tegramdagi sarg'imtir qorong'ulik hokimi bo'lmish xokisor tundangina so'rayman, zotan haqiqiy hayot qadrini ular biladi...

OZODLIK

(Hayotiy ertak)

Bir zamonlar shu yorug' olamda bir qushcha tug'ilibdi, tug'ilibdi-yu, ko'zlarini ochar-ochmas o'zini qurshab turgan temir devorlar, ora-orasidan nur va havo hovuchlanganday oqib kirayotgan qattiq panjaralarga nigohi tushibdi, bechora qushcha temir qafas ichida dunyoga kelgandi.

Norasida xuddi shu yerda, xuddi shu qafas qo'ynida ulg'aya boshlabdi, ko'rinmas qo'llar homiyligida kuch va kamolotga to'libdi. Holbuki, u bu tor-tanqis joyning qafas ekanligini anglayolmas, u uchun bor hayot mazkur temir panjaralar bilan qurshalgan cheklangan hududdangina iboratday edi go'yoki, axir och qolsa oshi, suvsasa chanqog'i bosiladigan, mayin poxol uyumidan hozirlangan yotog'i ustida miriqib rohat oladigan bunday zavqni boshqa qayerdan ham topsin? Chiroyli qanotlarini suyib yalagancha, issiq quyosh taftiga biqinlarini tutgancha yalpayib yotarkan, qushchaga hayoti shodon, lazzatli va gashtli bo'lib o'tayotganday edi.

Kunlarning birida bu jajjiqanot shirin oromidan uyg'ondi-yu, nihoyatda lol bo'lib qoldi: O! Qafas eshigi ochilib qol-

gandi! Ha, ha, nimadir bo'lib, shu mustahkam qafas ochiq qolib ketgandi. Burchakdagi joyida qo'nishib turgancha, qushcha hadeb ajablanar, dam hadiksirab, sarosimaga tushib o'tirardi.

Shu payt nechukdir bir xohish bilan qafasdagi mitti jonzot ochiq turgan eshik tomonga sekin-asta yaqinlasha boshladi, qo'rquv va hadik hamon uni tark etmagan, nima uchun eshikning ochiq turganidan uning taajjubi oshar, ammo shunga qaramay, oyoqlari beixtiyor yorug'lik baralla oqib kirayotgan o'sha ochiqlik tarafga ohista odimlab boraverardi. Nene tahlika-yu vahima ichida qushcha eshikdan tashqariga boshini chiqardi-yu, birdaniga tepasidagi osmon choyshabi chunonam kengayib, tegrasidagi olam bo'lsa naqadar kattalashib ketganini ko'rdi.

Yana ko'ngliga g'ulg'ula tushib, burchakdagi joyiga qisilib oldi, lekin qandaydir noma'lum kuch uni takror va takror ochiq eshik tarafga sudrayverdi, har gal tashqaridagi beadog', bepoyon nurni ko'rib, qushning ko'zlari qamashdi.

Keyin qo'qqisdan shu cheksiz fazo choyshabi uzra qanot qoqib, mo'l-ko'l to'kilayotgan nurlardan bahra olish istagida kichkina qushcha dadil qafasdan chiqdi-da, tashqaridagi behad kenglik bo'ylab erkin uchib ketdi.

Mayin epkinlar bilan o'ynashgancha shodumon qanot yozib ucharkan, qushcha o'zining bu tentakona parvozidan benihoya lazzat topardi, chiroyli qanotlari va silliq biqinlari horib-toliqib ketgan bo'lsa ham u hamon uchar, yo'lida uchragan har bir giyoh, har bir gul, boringki, hamma-hamma narsaga chuqur hayrat bilan boqar, hidlar va teginar edi, u hattoki, bir zaharli hovuz bo'yiga qo'nib, uni ham shirin bo'lsa kerak, degan xayolda ozgina totib ko'rmoqchi bo'ldi.

Biroq bu yerlarda qafasdagi kabi och qolsang tayyor ovqat, hamisha taxt turadigan sharoitlar muhayyo emasdi, buning uchun qushchaning o'zi mehnat qilishi, yelib-yugurishi, qidirishi, kurashishi lozim edi. Oxiri shuncha urinishlari evaziga kelgan yeguliklardan to'yinib, ana undan keyingina charchagan, holsiz qanotlariga orom bera olishi mumkin bo'lardi. Ammo baribir qushcha baxtiyor, chunki u ozod edi!

Qushchaga mana shu hayot ko'proq yoqib qolgandi: qidirishi, topishi, xursand bo'lishi, qayg'urishi, kurashishi va

yengishi mumkin bo'lgan shu hayot a'lo edi. Tasodifan ochilib qolgan huv o'sha qafas eshigi esa hali ham ochiq turar, biroq unda endi hech kim yashamas edi!

O'KINCH

Mamzele Aureliya basavlatdan kelgan, yonoqlari qip-qizil, sochlari endi-endi oqara boshlagan, ko'zlari atrofga hamma vaqt sinchkovlik bilan boqadigan o'rta yoshlardagi erkakshoda bir ayol edi. U, odatda, boshiga ferma erkaklari kiyadigan shlapa kiyib yurar, sovuq kunlari egniga unnuqib ketgan moviy yomg'irpo'sh bilan oyoqlariga zil-zambil kirza etiklarini kiyib olardi.

Mamzele Aureliya umri bino bo'lib, turmushga chiqish borasida sira bosh qotirib ko'rmagan edi. Bu ayol butun hayoti mobaynida hatto sevib ham qolmagandi. Bir paytlar, yigirma yoshlik avji durkun chog'larida uning ham qo'lini so'rab kelishgan, ammo lekin Aureliya o'sha zahotiyoq bu taklifni keskin rad etgandi, shunday bo'lsa-da, mana hozir yoshi ellikka yaqinlashib qolganiga qaramay, Mamzele Aureliya bir o'zi yolg'iz yashab kelayotganidan zig'ircha ham afsuslanmas edi.

Peshanani qarangki, bu g'aroyib ayol shunday keng olamda yoppa-yolg'iz yashab kelayotgandi. Albatta, Mamzele Aureliyaning sodiq iti Ponto va ekinzorlarida mehnat qiladigan negrlar-u bir-ikki dona sigir, bir juft xachir, turli-tuman darranda-yu parrandalar hamda ayolning qo'shotar miltig'ini (bu qurolni u jo'jalariga xavf soluvchi qirg'iylar uchun ishlatar edi) hisobga olmaganda, Aureliya butunlay so'qqabosh edi, balkim shu yolg'izligi sabablimi ayol Xudoga qattiq bog'lanib qolgandi, tun-u kun ibodatni hech kanda qilmasdi.

Bir kuni ertalab osmonda to'satdan paydo bo'lib qolgan qora bulutlar kabi bir to'p bolalarning uyi tomon yopirilib kelayotganiga Mamzele Aureliyaning ko'zi tushib qoldi. Chaqirilmagan bu mehmonlaridan ayolning ko'ngli biroz xijil tortdi. Bolalar Aureliyaning yon qo'shnisi Odeliyaga tegishli edi, lekin, ochig'ini aytganda, bu so'qqabosh ayol shu paytgacha qo'shnilarining hatto birortasi bilan ham u qadar apoq-chapoq bo'lib ketmagan edi.

Oradan besh daqiqa o'tar-o'tmas, bolalari ortidan yosh juvon Odeliyaning o'zi ham ko'rindi. U bir qo'lida jajji qizalog'i Elodiyani ko'tarib olgan, bir qo'li bilan esa endigina atak-chechak qila boshlagan TiNommini bazo'r yetaklab olgancha qoqilib-suqilib kelar, uning orqasidan katta qizlari Marselina bilan Marseletta ham shoshilgancha ergashib kelishardi.

Odeliyaning yuzlari hadeb yig'layverganidan qizarib, shishib ketgandi. Gap shundaki, juvonning olis shaharda yashovchi onasi og'ir xastalanib qolib, qizini huzuriga chaqirtirgan, baxtga qarshi juvonning eri ham yonida emas – Texasga ketib qolgandi. Texas esa Odeliyaga dunyoning bir chekkasiday juda uzoq joy bo'lib ko'rinardi, ustiga-ustak, ayni chog'da yollangan haydovchi Valsin ham bekatda ayolning yo'liga ko'z tutib o'tirar edi.

– Bilaman, Mamzele Aureliya, ishingiz bir dunyo, boshingizdan oshib yotibdi, biroq bu zumrashalarni sizdan boshqa kimga ham ishonib topshira olardim. O'tinaman, yo'q demang, to men qaytib kelgunimcha bolalarimga ko'z-quloq bo'lib tursangiz. Yo'q-yo'q, o'tirmayman, ovora bo'lmang, meni stansiyada kutishyapti. Mamzele Aureliya, tushuning, boshqa choram yo'q! Men uchun bir savob ish qiling, iltimos! Kelib sizni albatta, rozi qilaman. Bir o'zim shuncha bolani yo'lda eplab olib ketolmayman. Axir uzoq yo'lda bu bolalar odamni aqldan ozdirishi turgan gap. Aksiga olib erimning ham uyda emasligini ko'rmaysizmi. Xudo ko'rsatmasin, ishqilib, men uymalanib yetib borgunimcha onaizorim uzilib qolmasinlar-da, ilohim! – chindan ham favqulodda mushkul vaziyat Odeliyaning aqlini shoshirib qo'ygan, juvonning toza boshi qotib qolgandi, u hatto nima deb, nima qilayotganini ham tuzukroq idrok etolmas edi.

Juvon yalina-yalina baribir bolalarini Mamzele Aureliyaning uyi ostonasida qoldirgancha shoshib jo'nab ketdi; bolalar esa quyosh kuydirayotgan, jajji jo'jalar oyoqlari bilan o't-maysalarni bemalol titkilab yurishgan hovli o'rtasida egasiz bir o'zlari shumshayib qolishdi, lekin xiyol o'tmay biri tortina-tortina, biri bo'lsa behadik, zipillagancha zina bo'ylab orqama-ketin ko'tarila boshlashdi. Shu damda havoda moy-

chechaklarning ajib ifori bo'y taratar, uzoq-uzoqlardagi paxta dalalari osha ishchi negrlarning quvnoq kulgilari sadosi o'tkir jaranglab kelmoqda edi.

Mamzele Aureliya bolakaylarga o'zining norozi va sinchkov ko'zlarini qadagancha serrayib turib qoldi. U bo'mbaloq Elodiyaning og'irligidan enkayib olgancha gandiraklab qadam bosayotgan Marselinaga xushlamaygina ko'z qirini tashlab qo'ydi. Shu onning o'zida onasini so'rayverib xarxasha qilayotgan TiNommini tinchlantirishga urinayotgan Marselettani ham bu sovuq nigohidan bebahra qo'ymadi. Ikki-uch lahzalik shunday do'q-po'pisalaridan keyin Mamzele Aureliya biroz ko'nglini bo'shatib oldi-da, noiloj o'zini qo'lga olib, endi qilishi majburiy bo'lgan ishlari rejasini o'zicha tuzib chiqdi. Ayol dastlabki ishini to'polonchilarning qornini to'yg'azishdan boshladi.

Basharti bu bolalar Mamzele Aureliyaning qo'l ostida ish haqi olib, mehnat qilayotgan negrlar qabilida bo'lishganda bormidi, ayol o'sha vaqtning o'zidayoq bu shumtakalarni bir zumda haydab yuborgan bo'lar edi, ammo sho'rlik Odeliyaning oh-u zorlari uning bu qarorini qat'iy cheklab turardi. Biroq baribir bola boqish hazil ish emas-da, axir bolalar kichkina cho'chqa bolalari emas-ku, ular hamma vaqt e'tibor talab qilib, odamdan astoydil mehr kutishadi; mazkur murakkab vazifa esa bu kabi yumushlarga butkul noshud bo'lgan Mamzele Aureliyaning aslo qo'lidan kelmas edi, umrida shunday qaltis vaziyatga tushib qolishini esa ayol hatto tushida ham ko'rmagandi.

Shuning uchun birinchi kunlari Odeliyaning palaponlariga g'amxo'rlik ko'rsatishda, rosti, Mamzele Aureliya anchagina adabini yedi. Axir u jonsarak Marseletta baland va buyruqomuz ohangda gap eshitishi bilan darrov yig'lab yuborishini qayerdan ham bilsin? Yosh Marselettaning tabiati shunaqa ekan-da! Mamzele Aureliya kichkintoy TiNommining ham gullarga ishqi baland ekanligini aniqlab oldi, kichkina bezori to gullarni bandidan uzib, bog'dagi jami sara chechaklarni payhon qilmagunicha ko'ngli hech joyiga tushmas ekan.

— Unga hech qaysi tanbehingiz kor qilmaydi, Mamzele Aureliya, — deya ayolga yo'l ko'rsatdi Marselina, — yaxshisi, siz uni stulga bog'lab qo'ying. Oyim hamisha TiNommining aqlini shu tarzda kiritib qo'yardilar. Mamzele Aureliya bezori TiNommini bog'lab qo'ygan stul kenggina va qulaygina ekan chog'i kichkintoy unda bir zumda pinakka ketib qoldi, nihoyat Mamzele Aureliya to'polonchilardan birini shu yo'sinda tinchitdi.

Oqshom cho'kishi bilan ayol xuddi jo'jalarni iniga haydab kirayotgan kabi bolakaylarning har birini birma-bir joy-joylariga yotishlarini buyurdi, biroq kichkintoylar Mamzele Aureliyaning qarshisida kalovlangancha turib qolishdi. Axir ularning momiqqina yostiqlari ustiga har kech taxt qilib qo'yiladigan tungi ko'ylaklari qayerda qoldi, buning o'rniga ular nima uchun xuddi ho'kiz qamchisiday og'ir qo'l bilan ketlariga niqtalganlaricha yotoqlariga haydalishlari kerak? Har kech polning o'rtasiga ularning toliqqan, quyoshda toblanib chang-chung bo'lib ketgan oyoqlarini yuvib olishlari uchun keltirib qo'yiladigan suv to'la toschi, u qayerda qoldi? Shu tobda qizaloqlar Marselina bilan Marselettaning kulgisini qistatgan narsa, Mamzele Aureliyaning shumtaka TiNommini uxlatolmay toza xunob bo'lib qiynalgani bo'ldi, axir ayol bu yosh qaroqchiga Krokmitan yoki bo'lmasam Lup-garu to'g'risidagi ertaklar aytilmagunicha uxlayolmasligini qayoqdan ham bilsin, yana kenjatoy Elodiya ham alla eshitib, tebranishsiz ko'z yumishi o'lguday qiyin ekanligini ayol bechora nihoyat arang tushunib yetdi.

— Yaxshigina tavbamga tayanib qoldim, Rubi xola, — deya iqror bo'ldi Mamzele Aureliya o'z oshpaziga yorilib, — men uchun bu bolalarga qarashdan ko'ra o'nlab plantatsiyalarni boshqarish osonroq ekan. Axir, bu dahshat-ku! Jonim hiqildog'imga keldi! Endi menga hech qachon bola to'g'risida og'iz ocha ko'rmang!

— Oh, Mamzele Aureliya-yey, bu olamda bolalardanda beg'uborroq zot topa olsangiz koshki edi. Axir, bolalar bilan birga maza qilib o'ynash kattalar bilan muomala qilishdan ko'ra yoqimliroq emasmi? Menimcha, sizga ularning

tilini topib olish mushkullik qilyapti. Bora-bora bolalar bilan qanday chiqishib ketganingizni o'zingiz ham sezmay qolasiz.

Shubhasiz, Mamzele Aureliya Rubi xolaning gaplariga o'sha zahotiyoq qo'shila qolmadi, buni qarang-a, to'rtta-beshta to'polonchi bilan ikki kunda til topishib bo'larmidi — bu axir, Mamzele Aureliyaday ayol uchun benihoya murakkab vazifa-ku! Atigi zarurat tufayligina onalarning ikki-uch „nayrang"ini o'zlashtirib olganiga ham Mamzele Aureliya Xudoga behisob shukur aytardi.

Lekin baribir Rubi xola haq bo'lib chiqdi: Mamzele Aureliya asta-sekin bariga ko'nikib qoldi; u kichkina bezori TiNommining hamma vaqt shira yuradigan qo'llari uchun umrida hech tutmaydigan oppoq peshbandini tutib oladigan bo'ldi, hattoki to'polonchining mehr va tashakkur ifodasi sifatida chopqillab kelib cho'lp-cho'lp qilib o'pishlariga-da o'rganib qoldi. Ne-ne zamonlardan beri shkaf tepasida qo'l tegmay, chang bosib yotgan igna-ip solingan savatchaham joyidan qo'zg'aldi, endi Mamzele Aureliya yirtilgan kiyimlar-u tugmasiz kamzullarni butlab qo'yish uchun qo'liga hattoki igna olishgacha majbur bo'ldi. Ammo ayolning eng qiynalgan joyi butun kun mobaynida bir nafas ham tinmaydigan qattiq baqirig'-u chinqiriqlar, uyning u burchagidan bu burchagigacha aks-sado berib, to qora kechgacha tugamaydigan shovqin-suronlar bo'ldi. Lekin kechalari ham Mamzele Aureliya bahuzur uxlay olmas edi, negaki kichkina Elodiyaning issiqqina bo'mbaloq tanasi ayolga mahkam yopishib yotar, kenjatoyning o'tday nafasi Mamzele Aureliyaning yonoqlariga go'yo jajji qushning qanotlariday mayin urib turardi.

Oradan ikki hafta o'tar-o'tmay Mamzele Aureliya axiyri bu g'alvalarning bariga ko'nikib qoldi, endi u ortiq nolimay ham qo'ydi.

Bir oqshom ayvonga qandaydir yumush bilan chiqqan Mamzele Aureliya ko'cha muyulishida uyi tomonga qayrilayotgan Valsinning tanish ko'k mashinasini ko'rib qoldi. Haydovchining yonida ko'zlari sog'inchdan porlagan Odeliyaning intizor chehrasi aks etdi. Ular uyga tobora yaqinlashganlari sari Mamzele Aureliya yosh juvonning quvonchdan yorishib

ketgan yuzlariga boqib, uning uyga qaytib kelganidan behad xushbaxt ekanligini yurak-yuragidan his etdi.

Shundayku-ya, biroq bu aytilmagan va kutilmagan tashrif Mamzele Aureliyaning qalbiga ulkan qayg'u toshini-da bir onning o'zida bostirib qo'ydi. U darhol bolalarni to'plab berishi lozim edi. Ah, bu zumrasha TiNommi qayoqda qoldiykin-a? E-ha, bu shumtaka bo'lsa-bo'lmasa og'ilxonada pichoq o'ynab o'tirgan bo'lishi kerak. Xo'sh, qizaloqlar Marselina bilan Marselleta-chi, ular qayerda qolishdi? Uyning biror burchagida qo'g'irchoqlariga ko'ylak bichib, ularni yasantirish bilan mashg'ul bo'lsalar kerak-da. Birgina kenjatoy Elodiyadangina tashvish qilmasa bo'lardi, negaki go'dak Mamzele Aureliyaning qo'llarida hech narsa bilan ishi yo'q, o'zi bilan o'zi o'ynab yotardi, ammo u onasini olib ketgan haydovchi Valsinning qadrdon mashinasi chiroqlarini ko'rib qolishi bilan sevinganidan birdan qattiq qichqirib yubordi.

Nihoyat, hamma to's-to'polon tinchiydigan bo'ldi, ana endi bolakaylar o'z uylariga butunlay qaytib ketishadi. E voh, ular buncha tez ketib qolishmasa! Axir, kelganlariga uncha ko'p bo'lgani yo'q-ku! Mamzele Aureliya peshayvon o'rtasida turarkan, negadir ich-ichidan yopirilib kelayotgan o'kinch to'la nidoga arang dosh bergancha jimgina turib qoldi. U hatto mashinaning qanday kelib, bolalarni qanday olib ketganini ham sezmay qoldi. Atrofdagi dalalar uzra qip-qizil shafaq shu'lalari ila g'ira-shira shom ko'lankasi cho'kib borar, go'yo mana shu tevarak-olam ham qorong'ilik qa'riga tamomila qorishib ketayotganday bo'lardi. Butun borliq uzra yoyilib borayotgan qirmizi tuman ichida ayolning nigohi ortiq hech narsani ilg'amay qoldi. Uning quloqlari hattoki mashina g'ildiraklarining quloqni qomatga keltirguday o'tkir chinqirishini-da eshitmadi. Uning quloqlariga kichkintoy bezorilarning shodon, yangroq ovozlari qattiq o'rnashib qolgandi.

Mamzele Aureliya ohista xo'rsingancha uyga kirib ketdi. Ichkarida uni bir dunyo yumush kutib turardi, bolakaylar butun uyni ostin-ustun qilib yuborishgan, hamma yoq parokanda bo'lib to'zg'ib yotardi, ammo xonalarni tartibga solishga ayolning qo'li darrov bormadi. U stol oldiga xomush cho'kdi. Yana bir o'zi yolg'iz qolgan jussasini qurshagancha

tashqaridan o'rmalab kirib kelayotgan tun rutubati chulg'agan sovuq xonasi ichiga ma'yus bir nigoh tashladi. So'qqabosh ayol boshini qo'llari ustiga qo'ydi-da, ich-ichidan otilib kelayotgan so'zsiz faryodlarga ortiq bardosh berolmay oxiri yig'lab yubordi. Ha, Mamzele Aureliya yig'layotgan edi! Lekin uning yig'isi hamma ayollarnikiday yumshoq, mayin yig'iga o'xshamasdi. Mamzele Aureliya xuddi erkak kishiday, butun yuragini pora-pora qilib yuborguday nola bilan o'kirib-o'kirib yig'lardi. U hatto iti Ponto kelib, qo'llarini yalayotganini ham sezmas edi.

Shervud ANDERSON

(AQSH)

GUNG ODAM

Sizga aytadigan bir hikoyam bor. Ammo uni aytib beradigan tilim yo'q – men gapirolmayman. Bu hikoya tez-tez xayolimdan ko'tarilib ketib qolsa-da, biroq ahyon-ahyonda baribir esimga tushib qolaveradi.

Hikoyam qahramonlari bitta ko'cha, bitta uyda yashagan odamlar. Qaniydi, gapira olsam edi, balkim hikoyamni ashula qilib aytgan bo'larmidim... Men uni barcha ayollarning, barcha erkaklarning qulog'iga shivirlab-shivirlab aytib berardim. Hamma ko'chalarga kirib, qayta-qayta so'zlayverardim ushbu hikoyani. Biroq tillarim jonsizday shalvirab, qotib qolgan, u tinmay tishlarimga urilib kelib-ketaveradi, ammo bir sas chiqara olmaydi. Shundan men noilojman, juda nochorman.

Qahramonlarim bitta uyda hayot kechiruvchi uch nafar kishi edi. Ulardan biri yosh va nihoyatda bashang kiyinib olgandi. U hayotdan xursand va tinimsiz xandon otib kulardi.

Ikkinchi erkak esa soch-soqoliga oq oralagan, yoshi o'tinqirab qolgan kimsa edi. U negadir atrofga biroz shubha va xavotir ichida nazar solar, lekin o'qtin-o'qtin mudrab, uxlab qolardi.

Va nihoyat, uchinchi erkak alamli ko'zlarini tevarakka qasd bilan tikkancha, xona ichida qo'llarini bir-biriga ishqalab, u yoqdan bu yoqqa sarosar borib-kelardi. Har uchala qiyofa ham kimnidir kutish bilan umr o'tkazardi.

Uyning yuqori qavatidagi nimqorong'i xona ichida bir ayol devorga suyangancha derazadan tashqariga tikilib turardi. Darvoqe, ehtimol hikoyamning asosiy qahramoni ana shu ayoldir. Balkim, men hamma narsani poyintar-soyintar qilib yuborgandirman. Ha, mayli. Nima bo'lganda ham, tilsiz va so'zsiz bo'lsam ham, ushbu hikoyamni barcha odamlarga yetkazib berishim lozim.

Esimda, bir mahal uyga bosiq va xotirjam to'rtinchi odam ham kirib keldi. Uy bamisoli tungi dengiz kabi nihoyatda osuda, tiq etgan tovush yoxud boshqa biror ovoz yo'q. Hamma yoq suv quygandek jimjit.

Notanish erkak uch nafar qahramonim ovoz chiqarmay o'tirgan xonaga yaqinlashdi.

Uy ichida hadeb u yoqdan bu yoqqa borib kelayotgan uchinchi asabiy erkak xuddi qafasga tushib qolgan jonivorday tipirchilab, qattiq bezovtalanib qoldi. O'rta yoshli ikkinchi erkak esa moshkichiri soqolini tutamlagancha biroz kalovlanib turdi.

Uyga kutilmaganda kirib kelgan boyagi erkak hech kimga qaramasdan, to'g'ri yuqoriga – ayolning oldiga chiqib ketdi.

Ayol uni ancha vaqtdan beri mushtoq kutayotgan edi.

Butun uy cheksiz sukunat og'ushida, faqat devorlarga osib qo'yilgan turli soatlarninggina to'xtovsiz „chiq-chiq"i bu qadim jimlikni buzib turgandek.

Yuqori xonadagi ayol esa qancha damlardan buyon butun borlig'i bilan so'ngsiz muhabbatga tashna bo'lib, sevib-sevilish baxtini intiqib kutayotgandi. U kimdandir mehr kutar, nimanidir betoqat poylar va qachondan beri o'z muhabbatiga erishishni orzu qilib yashardi. Boyagi erkak uning huzuriga kirib kelishi bilan ayol sapchib o'rnidan turib ketdi. Lablari juda uzoq vaqtdan beri saqlab kelgan so'z uchun asta ochildi. Ayolning lablarida mas'ud, xushnud bir tabassum zohir bo'ldi.

Biroq erkakdan hech sado chiqmadi. Uning ko'zlarida na bir ifoda, na bir so'roq aks etardi. Erkakning ko'zlari xira yulduzlar kabi sovuq va ma'nosiz edi.

Pastda esa bezovtalanib turgan uchinchi erkak go'yo adashib qolgan och kuchukday benajot shumshayib turardi. Ikkinchi erkak ham uning yonida chorasiz qaltirardi. U qo'rqqanidan oxiri hushidan ketdi-yu, polga yiqilib tushdi. Shu alfozda uxlab qoldi-da, qaytib hech qachon ko'zini ochmadi. Po'rim kiyingan yoshgina yigitcha ham shular bilan birga, biroq u o'zini yo'qotmagan, faqat xushbichimgina qora mo'ylovini tekislash bilan ovora edi.

Bo'ldi, juda charchadim. Endi hikoyamning bu yog'ini davom ettirolmayman. Axir, men gapirolmayman. Ha, odam bolasi uchun bitik qilib yaratilgan azal taqdir sinoatlarini men emas, boshqa har qanday inson ham tushuntirib bera olmaydi. Qismat yoziqlari oldida hamma odam ham gungdir.

Uyga kirib kelgan oxirgi erkak O'lim edi.

Yuqorida uni poylayotgan go'zal ayolning ismi esa Hayot deb atalardi.

Uchala erkak esa odamzod umrining turli bosqichlari – yoshligi, o'rta yoshligi va keksalik pallalari hisoblanardi. Lekin men qanchalik tirishib-tirmashmay, baribir, ularni mufassal bayon qila olmas edim. Axir, inson taqdiri hech qachon birgina hikoya ichiga jo bo'lolmaydi.

Hayot esa juda go'zal, u hamisha go'zallik va yana go'zallik istaydi, mehr kutadi, muhabbat sog'inadi, butun borlig'i bilan sevib-sevilishni orzu qiladi.

Ammo O'lim hamisha haq. U sira kutilmaganda paydo bo'ladi-yu, xotirjam holda o'z o'ljasini churq etmay olib ketaveradi. Insoniyat uchun atalgan bitik shu ekan, odamzod buning oldida hamma vaqt chorasiz.

Men sizga juda go'zal bir hikoyani so'zlab bermoqchi edim. Ammo, afsus, uddalay olmadim. Negaki, men gungman. Falak nega mening zabonimga birgina so'z ato etmagan ekan? Nega men tilsiz bo'lib yaralgan ekanman? Nega hayot hikoyasini so'zlab bermoqlik uchun tilimga birgina kalima kelmas ekan?

Yo'q, aslida, biz – hammamiz ham gung bo'lib tug'ilganmiz. Biz Hayot va O'lim orasidagi lahzalar ichida so'zsiz yashab o'tamiz.

KEKSALIK

U munkayib qolgan bir chol edi, kichkinagina Kentukki shaharchasidagi temiryo'l zinalari ustida erta tongdan to qosh qorayguncha o'tiraverardi.

Shu yerga aftidan sayyoh bo'lib kelgan, ust-boshlari bashang qandaydir begona kishi cholning ro'parasiga kelib turib qoldi.

Qariya unga tortinibgina kulimsirab qo'ydi.

Cholning tabassumi xuddi yosh bolanikiga o'xshardi. Yuzi tirishib, bujmayib ketgan, kartoshkaday dag'al burni bo'lsa aftida xunuk qaqqayib turardi.

– Nima bo'ldi, birodar, bironta kasallik sizni bezovta qilyaptimi, deyman? Aytaylik, yo'taldanmi, shamollashdan, sil yoki qon yo'qotadigan boshqa bir kasallikdan qiynalyapsizmi? – deb so'radi u. Cholning ovozida yurakni sirqiratib yuboradigan yalinchoqlik ohangi zohir edi.

Notanish kishi boshini tebratib:

– Yo'q, – degan bo'ldi. Qariya birpas sukut saqladi-da, keyin inqillagancha o'rnidan turib, bazo'r qaddini rostladi.

– Ha, qon yo'qotadigan kasallik juda yomon-da, – deb qo'ydi u o'zicha. Shundan so'ng oqarib ketgan tilini sun'iy tishlari orasidan chiqardi-da, negadir bir aylantirib qo'ydi. To'satdan titroq qo'lini begona kishining qo'li ustiga qo'ydiyu, bexos kulib yubordi.

– Sira tashvishlanmang, azizim – deb xitob qildi u so'ngra. – Men hamma kasalingizni davolayman – yo'tal deysizmi, shamollashingiz bormi, hatto sil yoki bo'lmasam, qon ketadigan og'riqlaringizgacha – bari-bariga shifo topib beraman. Men hatto qo'ldagi so'gallarni ham yulib tashlay olaman. Eh, attang, hozir buni qanday qilib bajarishimni sizga tushuntirib berolmayman-da. Yaxshisi, bu sir bo'lib qolaversin. Eng asosiysi, men qilgan mehnatimga bir tiyin ham pul olmayman. Darvoqe, mening ismim Tom. Taklifim sizga ma'qul keldimi o'zi?

Begona odamning chehrasi yorishdi. U do'stona jilmaygancha, bosh irg'ab, cholning gapini tasdiqlagan bo'ldi. Shu topda qariyaning hardamxayolligi qo'zib, birdan almoyi-aljoyi gaplarini aytib, aljiray boshladi.

— Mening otam o'lguday qattiqqo'l odam bo'lgandi, — deya hikoyasini boshlab ketdi chol. — U menga o'xshab ketardi, aynan kasb-korimiz jihatidan, ya'ni otam ham menday temirchi bo'lib o'tgandi, ammo otamning boshida hamma vaqt bo'yradan qilingan shlapasi bo'lardi. Daladagi makkajo'xori mo'l hosil bergan yillari, u, albatta, bechora kambag'allarga xayr-ehson qilar, dalaga borib, qorningizga keragicha dondan olaveringlar, deb himmat ko'rsatardi, ammo urush davrida donning bir busheli[1] uchun besh dollardan to'lab, o'zi qurib qoldi.

Men otamning aytganiga ko'nmay, o'zim topgan qizga uylangandim. Bechora oldimga kelib, yuzimga ochiq-oydin aytgan edi-ya: „Tom, uylanadigan qizing menga sira yoqmadi". „Sizga yoqmasa yoqmas, biroq men uni sevaman", deb javob bergandim unga. „U menga baribir yoqmaydi", deb yana ta'kidlab qo'ygandi otam.

O'shanda ota-bola yog'och xoda ustiga o'tirib olib, allamahalgacha gaplashgan edik. Ha, otam ajoyib odam edi-da, bo'yradan qilingan shlapasini ham hech boshidan olmasdi. „Mana ko'rasiz, men to'yimizga taklifnoma olib kelaman", deb turib olgandim o'shanda. „Endi mendan sariq chaqa ham ololmaysan", degancha norozi bo'lib qolgandi otam bechora.

To'yim menga yigirma bir dollarga tushgandi. Shu pulni topaman, deb jo'xori dalasida ancha ter to'kkandim — ustimdan chelaklab yomg'ir quyib tursa ham, hatto otlarim tumanda hech narsani ko'rmay qolgan sovuq kunlarda ham, hech narsaga qaramay, jon-jahdim bilan mehnat qilavergandim. Turmush quradiganlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi xodimning bergan savoli: „Yoshingiz yigirma birdan oshganmi o'zi?" deb so'rash bo'lgandi, xolos. Men ham, xotinim ham: „Ha", deb javob bergandik. Tentakligimizni qarang, o'sha kunni tuflilarimiz ustiga bo'r bilan yozib qo'yibmiz. Otam allaqachon barini hal qilib bo'lgandi: „To'rt tomoning qibla", dedi-yu boshqa gapirmay ketdi, uning oxirgi gapi ham shu bo'lgandi. Cho'ntagimizda bir mirimiz yo'q, rosa abgor bo'lgandik. Orziqib kutgan to'yim peshana terim bilan topgan

[1] **Bushel** — Amerika o'lchov birligi.

yigirma bir dollarga tushdi. Xotinim bo'lsa biz hech qancha yashamasdan indamay o'lib ketaverdi...

Qariya gapdan to'xtab, xo'rsingancha osmonga tikilib qoldi. Qosh qoraya boshlagan palla edi, quyosh ufq tomon bosh qo'yishga chog'lanayotgandi. Butun samo kir bulutlar bilan ola-bula bo'lib ko'rinardi. ,, Bir paytlar chiroyli-chiroyli rasmlar chizardim-a, ha-ya, ularni bir-ikki marta namoyish ham qilganman", deb qo'shib qo'ydi chol xomush tortib.

– Bittagina akam bor edi, hozir qamoqda yotibdi. Avvallari o'zimcha qiziqib, akkordeon ham chalib turardim. Xuddi siz kabi, o'ttiz yetti yoshimda bo'lsa kerak. Bir marta qamoqda, akamning yonida ham o'tirib chiqqanman. Hurpaygan sochlari bilan ham akam baribir yoqimtoy bo'lib ko'rinaverardi. ,,Albert, – degandim unga, – Albert, odam o'ldirib qo'yganing uchun ich-ichingdan ezilayotgan bo'lsang kerak?" ,, Aslo, – degandi u. – Zig'ircha ham afsus qilmayman. Bir emas, o'nta, yuzta, hatto mingta odamni ham hech kiprik qoqmay, o'ldirib ketaveraman!"

Shu yerga kelganda cholning ko'ngli buzilib, yig'lay boshladi, cho'ntagidan kir ro'molchasini olib, qaltirayotgan qo'llarini sekin artgan bo'ldi. Bir dona tamakisini so'rib kayf qilmoqchi bo'lgandi, sun'iy tishlari o'rnidan siljib, joyidan butunlay ko'chib tushdi. Chol darrov titrayotgan qo'llari bilan og'zini yopdi-da, beshbattar uyalib ketdi.

– Ha, men endi qarib qoldim. Mana siz bo'lsa, boshqa dunyosiz, yoshsiz, nari borsa, o'ttiz yettiga kirgandirsiz-da, lekin men yoshimning anchasini yashab bo'ldim, – deb pichirladi chol. – Akam yomon odam edi – o'lguday ichi qora edi – yuzi chiroyli, sochlari yarashib turgan bo'lsa ham, o'zi tinmay odam o'ldiraverishdan zavq olaverardi. Men keksalikdan nafratlanaman, qarib qolganimdan o'zim uyalib ketaman. Qarilikni Xudo nari qilsin!.. Shuning uchun ham yaqinda ketvorgan bir xotin oldim. Buni qarang, unga to'rt dona maktub yozib jo'natgandim, yopiray, hammasiga javob qaytarsa bo'ladimi! Axiri bu yerga kelgach, turmush qurib oldik, oh, oh, uning yurishini bir ko'rsangiz

edi. Men xotinimga ajoyib liboslar olib berdim. Lekin oyog'i to'g'ri emas-da, qurib ketgur, oyoqlari qiyshayib-miyshayib yotibdi, oh, attang, ming qilsa ham, birinchi xotinim bebaho ekan, ishonasizmi, barmoqlarim bilan qo'llaridagi so'galni shartta yulib olsam ham, biror tomchi qon chiqmasdi, shu sabab bo'lganmi, har holda o'z-o'zimdan yo'talmi, shamollashmi, sil yo qon yo'qotadigan boshqa kasalliklarni ham qo'rqmay davolab ketaveraman. Eshitganuqqanlar bo'lsa, menga darhol xat yozib yuborsin. Hammasiga javob beraman. Bordi-yu, ular bir tiyin ham pul jo'natmasa, buning ham zarari yo'q, qari cholga pulning nima keragi bor?

Chol yana hiqillay boshladi, notanish sayyoh bechora qariyani yupataman, deb ancha urindi. „Axir baxtlimisiz?" nihoyat bir taskin so'z topganday so'radi u.

– Bo'lmasam-chi, – dedi qariya ancha dadillanib, lekin ko'p o'tmay tag'in aljiray ketdi: – men yana yaxshi odamman. Istagan yeringizga borib, men haqimda bemalol so'rayvering, ismim Tom, temirchi Tomman men. Xotinimning oyog'i qiyshiq bo'lsa ham qadamini tovusday xirom bilan bosadi. Men xotinimga uzun ko'ylak olib berdim, mana buncha. Ayolim endigina o'ttizga chiqdi, men esa yetmish beshdaman. O'zi ham bir dunyo tuflisi bor-da xotinimning, hammasini men olib berganman, lekin oyoqlari qiyshiqda, ha, mayli, endi tuflining to'g'ri yurdiradiganidan olib beraman.

Xotinim meni hech narsani bilmaydigan bitta qari chol deb o'ylaydi. O'zi hamma meni Tom hech vaqoni bilmaydigan bir qariya-da, deb qattiq adashadi. Yaqindagina xotinimga etagi yerga tegadigan antiqa ko'ylak olib berdim. Ana shunaqa, meni Tom deydilar, mening aqlim ham balo, temirchi Tomman men, yetmish beshga kirgan bo'lsam kirgandirman, ammo baribir unaqa munkillab qolgan emasman, axir, bir tomchi ham qon oqizmasdan qo'ldagi so'gallarni yulib olamanu. Odamlar hech tortinmay xat jo'nataversin, men sira erinmayman, bariga javob qaytaraveraman, axir, bir tiyin ham so'ramayman-ku!

Ketrin MENSFILD

(Yangi Zelandiya)

OQSOCH

Soat rappa-raso o'n bir. Eshik taqillayapti... Meni ma'zur tutasiz, bekam, sizni bezovta qilmadimmi? Yo siz uxlayotgan edingizmi, rostdan ham shundaymidi? Ammo men – xizmatkoringiz o'z xonimimga uyquga ketishlaridan avval bir piyola issiq qahva ilinishni ma'qul deb bildim, balki bu ishim sizga unchalik xush kelmagandir, ehtimol...

...Yo'q, yo'q, arzimaydi, sira ham arzimaydi, bekam. Axir, qahva tayyorlash mening eng oddiy va arzimas kundalik yumushim-ku. Bilasizmi, unga ham har doim kechki ibodatidan so'ng ana shunday xizmat ko'rsatardim, keksa bekachimizni aytayotirman sizga hozir. Katta xonim der edim uni. Buvingiz o'ta xudojo'y ayol edi. Har oqshom toat-ibodatini sira kanda qilmas, bot-bot menga ham: ,,Xudo jonimizni olguniga qadar bizlarga tavba qilish uchun muqaddas muxlat berib qo'yganiga shukur qilaylik", deb turardi. Bu kabi so'zlar unga juda xush yoqardi. Ammo birozgina xotirasi faromush, tez-tez parishonxotirroq bo'lib qolardi ham. Shu sababmi, esida saqlash uchun kichkinagina qizil daftar tutib olgan va muttasil shu daftariga o'zi uchrashgan, gaplashgan hamda unga birinchi marta yo'liqqan odamlar ism-sharifini yozib yurardi. Ha, ana shunday erinmagan bekach edi. Har gal biror-bir notanish kishi bilan yuz ko'rishib qolguday bo'lsa, darhol menga: ,,Elen, azizim, menga boyagi daftarimni berib yubor, zudlik bilan bu odamning kimligini yozib qo'yay, esimdan chiqib yurmasin tag'in", deb tayinlar edi. Bunday kezlarda men o'zimni juda noxush sezardim, to'g'risini aytganda. Ochig'i, bekach ba'zan bunday qiliqlari bilan biroz yovvoyiroq bo'lib ko'rinib ketardi ko'zga. Bilasiz, buvingiz hech qachon yumshoq yostiq ishlatmas, hamisha qattiq gilam ustiga mukka tushgancha, tizzalab o'tirardi. Ammo men keksa xonimni qo'yarda-qo'ymay, bir amallab par adyol bilan o'rab qo'ymoqchi bo'lardim, biroq birinchi harakatimdayoq, o, u menga qanchalar dahshat hamda nafrat bilan yozg'irib

qaraganini siz bir ko'rsangiz edi o'shanda! ,, Bizning Egamiz ham ana shu par matohingda o'tirgan edimi, Elen?!" deya qattiq baqirib bergandi xonim ko'zlarimga vahshat bilan tikilgancha. Men yosh edim-da, bekach so'zlariga nima deb javob beribman deng? Aytibmanki, ,,Yo'q, aslo, unday emas, lekin o'sha Egamiz u paytlar sizning yoshingizda bo'lmagandir-da", debman. Rosa qiyomat qo'pgandi o'shanda. Keksa xonim xuddi aqldan ozgandek, telbalangancha yuzimga uzoq vaqt tinimsiz o'shqirib tashlagandi. Ammo bekach baribir juda-juda yaxshi edi, buni o'zingiz ham bilasiz-ku, xonim, shunday emasmi? Har kecha yotog'iga kirib, ko'rpasidan chiqib qolgan oyoqlarini yaxshilab o'rab qo'yar, menga teskari, yon tomoniga o'girilib yotgan keksa xonim nigohlarini ko'rolmasam ham, negadir u menga shu ishim uchun ham minnatdor qarab turganini ich-ichimdan payqab qolardim, ko'rpasidan tashqariga chiqib turgan oriq, keksa qo'llari har doim karavotidan pastga osilib yotar, xonim har tun behad darajada holsiz va madorsiz holda pinakka ketardi. Mana, endi esa siz xuddi o'sha buvingizga o'xshab uxlaysiz, vaqt o'tishini qarang-a, yana bir zumda tarix takror bo'lyapti.

...Ha, bekam, albatta, o'tmish voqealarining bari kechagidek esimda qolgan. Keksa xonim biram yoqimtoy ediki, men umrimda shu paytga qadar bunday keksa va ko'rkam ayolni ko'rmagandim. O'zgacha bir zavq bilan uning siyrak va mayin oq sochlarini tartibga solardim, hatto peshonasi ustiga o'zi yoqtiradigan jingala patlarini ham ataylab tushirib qo'yardim, nimjon va kuchsiz bo'yniga esa bir shoda eng chiroyli to'q qizil kapalakgul dastasidan ilardim, negaki o'sha kapalakgullar buvingizning jon-u dili edi. Ular hali-hamon o'zimning ham ko'z o'ngimda turibdi.

...Faqatgina eng so'nggi yilga kelib, keksa xonim o'zida bo'lmay, rostakamiga ahvoli xarob bo'lib qoldi. O'zingiz ham eslasangiz kerak buni. Albatta, xonim aslo yovuz xo'jayinga aylanib qolmadi, aksincha, u dunyodagi eng ajoyib beka edi. Lekin qarilik o'z hukmini uning bedor va zaif taniga tobora o'tkazishda davom etardi. Hatto ozgina esdan ham og'ganday edi. Bekach go'yoki o'ta muhim bir narsasini yo'qotib qo'ygan kishidek uyning hamma yog'ida kalov-

langancha kezib yurardi – zinalarda, tepada, pastda, hattoki, oshxonada ham uni uchratib qolardingiz. U misoli birov bilan jon achchig'ida urishib turgandek qiyofada to'xtovsiz g'udrangancha, tinmay koyingancha u xonadan bu xonaga beorom ruhdek o'tib, sira tinchimasdi. Ba'zan keksa xonim bu avzoyida ayni yosh boladek bo'lib ko'rinar, „Men uni yo'qotib qo'ydim, uni yo'qotib qo'ydim men", deya ezgin noligancha atrofga mo'ltirab qarab qo'yardi. ,,Yura qoling, bekam, o'sha narsangizni sizga men topib beraman hozir", deya uni tinchlantirmoqchi bo'lardim. Biroq u injiqlik bilan qo'limdan mahkam tutib olardi-da: ,,Topib ber, Elen, menga o'sha narsamni topib ber tezroq", deya zorlangancha yuz-ko'zlaridan miltirab yosh oqizardi. Bekach meni yaxshi ko'rardi. Ammo bu hikoyam siz uchun nihoyatda qayg'uli-a, shunday emasmi, xonim?

...Yo'q, afsuski, yo'q, bekam. Keksa xonim keyin tuzalib ketolmadi, ming afsuslar bo'lsin. Sho'rlik bekachim oxiri miyasiga qon quyilib hayotdan ko'z yumdi. Eng so'nggi aytgan so'zi: ,,Ko'zlarimga boq, ko'zlarimga..." degan o'tinch-u zori bo'ldi. Bilolmadim, o'sha damda xonim nimani nazarda tutib shunday dedi ekan? Buni men hech qachon bilolmadim.

...Yo'q, bekam, mening bu dunyoda siz – xonimlarimdan bo'lak boshqa hech kimim yo'q. Ota-onamdan juda yosh, hali hayot ma'nisini anglamagan o'ta g'o'r damlarimda judo bo'lganman. Butun umri sartaroshlik bilan o'tgan buvam ham arzimas kichik xatoyimni deb meni ammamning qo'liga topshirib yuborgan. Gap shundaki, men buvamning roziligisiz o'tkir soch qaychisida u ayricha faxrlanadigan uzun sochlarimni kesib tashlagandim. O, bu adabsizligim uchun buvamning qanchalar fig'oni falakka chiqqanini siz bir ko'rsangiz edi o'shanda! Aslida esa men buvamga o'xshagim kelib, unga taqlidan ish qilib ko'rmoqchi bo'lgandim. Har kuni sartaroshxonasiga uzluksiz kirib ketadigan mijozlarning buvamning qo'lidan so'ng boshqacha qiyofaga qanday qilib kirib qolishi men uchun mo'jizaviy maroqning o'zi edi. Biroq sochlarimni unga indamasdan qirqib tashlaganim o'zim ham kutmagan darajada buvamning qonini qaynatib yubordi, u

shunday g'azab otiga mindiki, oqibatda men uning uyidan bir umrga qochib ketishga majbur bo'ldim.

...Yo'q, xonim, buvam mening bu qilgan ishimni qaytib kechirolmadi. U hatto meni ko'rishni ham istamay qoldi. Keyin oyog'i doim oqsab yuradigan, yarimjon ammamnikiga borib yashadim. Bekam, endi u kunlarni gapirmay qo'ya qolay. Ular behad qiynoqli kunlarim edi...

Yo'q-yo'q, bekam, noshukurlik qilayotganim yo'q. Shunchaki, sho'r qismatimning ayrim sahifalarini sizga oz-moz bayon etib berayotirman, xolos. Axir taqdir meni buvingiz kabi mehribon hamda muruvvatli, qolaversa, mana, siz kabi oqila va tanti qizga yo'liqtirdi-ku. Eslasam, rappa-raso o'n uch yoshimda bu xonadonga kirib kelgan ekanman. U paytlar bu uyda sizning jajji xolavachcha va amakivachchalaringiz, xullas, rosa ko'p bolakaylar bo'lardi. Keksa xonim esa meni o'sha bolalarga qarab turishga buyurar, ularni sayrga olib chiqib, har kuni aylanitirib kelishimni tayinlardi. Ehhe, bu kichkinalar bilan o'ta qiyinchilik ichida ovora bo'lib yurishni siz bir tasavvur qilib ko'rsangiz edi! Ustiga-ustak, o'zim ham yosh bolaman, biram og'ir ediki! Lekin men nolimasdim, bor kuchim bilan ularni eplashga harakat qilardim. Bolalar ko'cha boshida turadigan bir qari eshakning ustiga minib ko'rishga oshiqar, biroq bo'ylari hali past bo'lganligi uchun buni sira ham uddalay olmasdi. Istaklari benihoya kuchli bo'lgani uchun men yerga enkayib olardim-da, ularni tepamga chiqarib, o'sha yuksak orzulariga yetkazardim. Aslida bu yumushdan so'ng qattiq holdan toyardim, biroq mening boshqa ilojim ham yo'q edi. Bunday olib qaraganda, bu g'irt telbalikning o'zi, shunday emasmi? Eh, yosh bola qanchalar tentak bo'ladi-ya!..

...Yo'q, biroz adashdingiz, bekam. Men ham sevganman, ha, men ham umrimda birinchi va oxirgi marta sevganman. Shundoqqina pastki yo'lda, biz yashaydigan uydan salgina narida uning gul do'koni bo'lardi. Hozir aniq eslolmayman, biz u bilan qachon va qanday qilib tanishganimizni, ammo qisqa vaqt ichida juda qalin bo'lib, bir-birimizga nihoyatda o'rganib qolgandik. Garri va men muttasil arzimas narsalar ustida bahs qilar va janjallashar, ammo bu to'polonlarimiz har qanday gina-kuduratdan xoli, shunchaki sevgi mojarolari kabi yoqimli va baxtiyorlik baxsh etardi. Gullar! Garri hamisha

do‘konidagi eng sara gullardan men uchun alohida-alohida tanlab, katta guldasta qilib olib kelishni bir kun ham unutmasdi. Ular nilufar, binafsha, nargis kabi bir-biridan go‘zal gullar bo‘lardi. Ha, hech shubhasiz, biz allaqachon turmush qurishga ahd qilib qo‘ygandik. To‘yimizni negadir aynan shanba kuni bo‘lishini istab, haftaning shu kunini belgilab olgandik. Xonim, ehtimol, siz meni uyqusirayotgan deb xayol qilayotgandirsiz, ammo aslo unday emas. Men bechoraginaning ham yulg‘un umrida ana shunday totli, nihoyatda shirin kechgan damlari ham bo‘lgan. Balki siz bunga hozir ishonolmassiz... Kunlarning birida Garri yashaydigan uyimizga jihoz tanlash uchun meni chaqirtirdi, aniq yodimda, seshanba kuni edi. Baxtga qarshi, keksa xonim aynan o‘sha kuni o‘zini juda yomon his qilayotgandi. Bekach ertalabdan beri tuz totmas, sahardan buyon yotog‘idan biron soatga ham chiqmay, mazasi yo‘q holatda yotgan edi. Albatta, uni bu ahvolda tashlab ketolmasdim. Boshimda ming xil o‘y, andisha, iymanish va sarosima ichida xonasiga kirib kelarkanman, bekach meni ko‘rgan zahoti yuzlari yorishib, mayin tabassum qildi. U mendan, bugun havo o‘ta sovuq bo‘lib ketdimi, deya bemorlarga xos shikoyat aralash so‘rab qoldi. Holbuki, kun ajoyib kechardi, derazadan quyoshning siniq va sirli nuri to‘kilib yotardi. Lekin men keksa xonimning hasratga to‘la ko‘zlari va og‘ir xo‘rsiniqlaridan bekamning sog‘lig‘i o‘ta tang holatda ekanligini tuydim. Shu ondayoq o‘z vazifamni yodladim, oqsochlik xizmatimga monand bo‘ysunuvchanlik bilan o‘z taqdirimni o‘z qo‘llarim-la o‘zgartirishga rozi bo‘ldim. Bekachning zorli nigohlariga so‘zsiz termilgancha uning doimgidek ko‘rpasidan chiqib turadigan sovqotgan oyoqlarini qaytadan issiq ko‘rpa tagiga yaxshilab berkitgancha, boshimni quyi soldim.

— O, yo‘q, buni qo‘ysang-chi, Elen, bor, borib yosh yigiting istagini amalga oshir, menga ahamiyat berma, tentakkinam! Men qariyani deb bekorga sevganing ko‘nglini qoldirma.

Bekachim bu so‘zlarini ham shunaqangi yayrab, o‘zi xasta yotgan bo‘lsa ham zo‘rma-zo‘raki tetiklik bilan zo‘r berib, kuchanib aytdiki, men o‘zimni tutib turolmadim.

— Yo‘q! — dedim. — Yo‘q, xonim. Siz bilan qolaman, hech qayoqqa ketmayman, ketolmayman.

Keksa xonim noxos yerga tushib ketgan ro‘molchasini olaman deb bazo‘r engashdi, shu chog‘ eski yo‘tali xuruj qilib qoldi-yu, yana o‘zini yostiqqa tappa tashladi.

— Ahmoqlik qilma, Elen, — dedi u xirillagancha, — hech mahal keyin pushaymon bo‘ladigan ish qilma, qizaloq.

Ro‘molchani yerdan oldim-u, yoniga cho‘k tushdim.

— Yo‘q, — dedim men qat’iy ovozda, — men turmushga chiqmayman, xonim.

— Yo‘q! Zinhor-bazinhor bunday deya ko‘rma! — endi bu gal bekachning tovushida o‘zgacha, onalarcha qaynoq mehr taftini his etib, birdan ko‘zlarimda yosh qalqidi. Men Garrini yaxshi ko‘rardim, biroq ko‘z ochib ko‘rganim, o‘z uyimdek bo‘lib qolgan bu xonadonni shunday osongina, yengillik ichida bevafolik va berahmlik hissi mavj urib turganda, bir umrga tashlab ketolmasdim!

Eshik yonida anchadan beri poylab turgan Garri yana taqillatdi. Shaksiz, u ichkaridagi bor gapni eshitgan va uqqan, ammo qismatimiz nihoyasini unga o‘z so‘zim bilan tasdiqlashimni kutayotgandi.

Qo‘limga u yozgan bir bog‘lam xat va tumshug‘i uchida kichkinagina zanjiri bor kumush qush — Garri bergan hadyani oldim-u, qarshisiga dadil chiqib bordim. Unga hatto biror og‘iz so‘z aytishga ham imkon bermadim.

— Ol, bularning hammasini qaytarib olib ket, — dedim Garriga iloji boricha qaramaslikka urinib. — Bari tamom bo‘ldi. Senga turmushga chiqolmayman.

U hayron, benihoya g‘amguzorlik ichida ko‘zlarimga boqib turardi.

— Men o‘z bekamni tashlab ketolmayman.

Tamom, shu so‘z bilan eshikni qarsillatib yopdim-u, misoli murdadek hissiz, ne qilarimni bilmay bir muddat shuursiz turib qoldim. Butun a’zoyi badanim zir-zir titrar, yuragim beto‘xtov gursullagancha o‘tib ketayotgan shu g‘animat soniyalarni mahkam tutib qolishni behuda istab yotardi. Ortiq o‘zimni ushlab turolmadim, chidayolmasdan shartta eshikni ochdim, biroq men kutgan inson allaqachon ketib bo‘lgandi.

Ha, bekam, qaysidir ma'noda Garri men kutgan inson edi... Ammo biz – oqsochmiz va bizning burchimiz barcha orzu-umidlarimiz osmonini istasa kengaytirib yoki toraytirib yuborishga har qachon qodir. Lekin ba'zan vujud idrokka itoat etmay qo'yadi. Egnimda oqsochlik libosim, ifloslana boshlagan dog' fartugim bilan, oyoqlarimda esa xonaki shippak, zirillagancha yugurib ko'chaga chiqdim... yo'lga termildim. Meni ko'rgan odamlar jinni deb o'ylab ustimdan kulishdi...

...Voy, Xudoyim! Nimalar qilib o'tiribman! Axir soat zang uryapti-ku! Men esa sizni, ardoqli bekam, shu mahalgacha uxlatmasdan olib o'tiribman-a, ahmoqligimni ko'ring! Nega meni keraksiz ming'irlashlarimdan to'xtatib, buning o'rniga maza qilib uyquga keta qolmadingiz?.. Keling, oyoqlaringizni o'rab qo'yaman. Buvingiz ham hamisha ana shunaqa uxlardi. Bekach menga har gal yonidan chiqishimdan oldin: „Yaxshi dam ol, Elen. Bosinqiramay uxla va barvaqt tur", deya alohida tayinlardi. Agarda hozir keksa bekach tirik bo'lib, shu so'zlarini aytsa, men nima qilardim ekan, bilmadim, balki yana tuni bilan baribir bosinqirab chiqar va ertalab xonimdan, odat-dagidek, yana dakki eshitar edimmi, bilmadim...

...Yo'q, azizam, yo'q. Aslida men bu qadar xayolparast va devona emasman. Shunchaki, gohida mana shunday o'yga cho'mib qolaman. Ammo bema'ni o'ylarning hech kimga xosiyatli joyi yo'q, to'g'rimi, bekam? O'y o'yni chaqiradi faqat. Umrni quruq xayol bilan o'tkazish g'irt telbalikdan boshqa narsa emas. Lekin, bekam, oqsochingiz ham anoyi qariyalardan emas, u aqlini topa oladi. Hecham adog'i yo'q sarsari o'ylar girdobiga cho'ka boshlaganimni sezgan on o'zimni qo'lga olaman-da: ,,Bas endi, Elen kampir, bunaqa ahmoq qiz bo'lma! Basharti shu gul umringda o'y o'ylashdan ko'ra tuzukroq bir ma'ni topolmay qolsanggina, butun hayotingni shu quruq xayollaringga bag'ishla!" deyman.

...Sizga xayrli tun tilayman, bekam. Avvaldan ma'zur tuting, lekin men bu kech ham yana bosinqirab chiqadiganga o'xshayman.

Mark TVEN
(AQSH)

KUCHUKCHA VA UCH DOLLAR PUL

Men hamma vaqt odam halol yashashi kerak, deb ishonib kelganman. Doimo bitta gapni takrorlardim: hech qachon o'zing ter to'kib topmagan nonni og'zingga olma.

Hozir sizga butun umrim mobaynida nechog'liq halol yashaganimni isbotlab beruvchi bitta hikoyani aytib bermoqchiman.

Bir-ikki kun ilgari yaqin do'stimning uyida Mayls ismli general bilan uchrashib qoldik. General Mayls tengi yo'q odam ekan, u bilan tezda til topishib oldik.

– Siz mabodo 1867- yilda Vashingtonda yashagan emasmisiz? – deya dabdurustdan so'rab qoldi general.

– Ha, yashaganman, – deb javob berdim men.

– Buni qarang-a, o'shandan beri hech yuz ko'rishol-madikmi? – dedi general afsuslanib.

– General, – deya uning gapini bo'ldim men. – O'shandan keyin biz yuz ko'risholmasdik. Siz o'sha paytdayam allaqachon katta general bo'lganingizni, men esa hali nomi chiqmagan va kitoblariniyam hech kim o'qimaydigan bechoragina yozuvchi bo'lganimni unutgan ko'rinasiz. Siz meni eslay olmaysiz, deb o'ylayman, axir biz o'sha vaqtda Vashingtonda bir martagina ko'rishib qolgandik.

O'sha uchrashuvni men hozirgiday yaxshi eslayman. Unda men rosa g'arib yashardim, hatto nonga ham tez-tez pul topolmay qiynalardim. Mening bir do'stim ham bor edi. U ham mendan qolishmaydigan kambag'al yozuvchi edi. Biz birga yashardik. Hamma ishni birgalashib bajarardik: ishlardik, kitob o'qirdik, birgalikda sayr qilardik. Qornimiz och qolganida ham ikkalamiz barobar och bo'lardik. Bir marta uch dollar pulga rosayam zoriqib qoldik. Nima uchun aynan uch dollarga muhtoj bo'lganimizni hozir eslay olmayman-u, biroq o'sha pulni kechgacha topishimiz zarur bo'lgani yodimda qolgan.

– Biz darhol uch dollar topishimiz shart, – dedim do'stimga. – Men bu pulni topishga harakat qilaman, lekin sen ham jim o'tiraverma.

Uydan chiqib ketganim bilan qayerga borib, qanday qilib uch dollar topa olishimni bilmay boshim garang edi. Bir soatcha Vashington ko'chalari bo'ylab sandiroqlab yura-yura, axiri tinka-madorim quridi. Nihoyat, bitta katta mehmonxona oldiga keldim. „Ichkariga kirib, biroz nafasimni rostlab olay", deb xayol qildim o'zimcha.

Mehmonxona zaliga kirib, divanga o'tirdim. To jajjigina, yoqimtoy bir kuchukcha zalda paydo bo'lib qolgunicha o'sha yerda o'tiraverdim. Kuchukcha nimanidir qidirib yurardi. Ha, chindanam g'aroyib kuchuk ekan, deya xayolimdan o'tkazsam-da, biroq qo'limdan hech nima kelmasdi, oxiri men uni yonimga chaqirib, u bilan birga o'ynay boshladim.

Notanish bir erkak mehmonxonaga kirib kelganida men haliyam it bilan o'ynab o'tirardim. Boyagi erkakning egnidagi ko'rkamgina kiyimidan men darhol uni general Mayls ekanligini fahmladim. Men ilgaridan uni gazetalardagi suratlari orqali yaxshi tanirdim.

– Voajabo! Qanday chiroyli kuchukcha ekan-a! – deya hayratlandi u. – Siznikimi?

Endi javob aytish uchun og'iz juftlagan ham edim, u to'satdan:

– Kuchugingizni sotmaysizmi? – deb so'rab qoldi.

– Uch dollar, – deb yubordim bexosdan.

– Uch dollar? – deya ajablandi general. – Judayam arzonku. Men sizga kuchugingiz evaziga ellik dollar taqdim etaman.

– Yo'q, yo'q, kerak emas. Atigi uch dollar kifoya qiladi, janob.

– Mayli, nima ham derdim. Kuchuk sizniki. Modomiki faqat uch dollargina istar ekansiz, kamina itingizni jon-jon deb sotib olaman.

General Mayls menga uch dollar berdi-da, itni olib, xonasiga chiqib ketdi.

Oradan o'n daqiqa o'tar-o'tmas bir qariya zalga hallos-lagancha yugurib kirdi. U zal uzra zirillab ko'z yugurtira boshladi. Cholning nimadir qidirayoganini tushundim.

– Aftidan, bir kuchukchani qidirayotgan ko'rinasiz, janob? – deya iltifot qilib so'radim.

– O, ha! Uni ko‘rdingizmi? – deb so‘radi qariya suyunib ketib.

– Itingiz atigi besh daqiqa avval shu yerda edi, uni bir erkak bilan ketganiga ko‘zim tushganday bo‘luvdi, – dedim men shosha-pisha. – Agar yo‘q demasangiz, uni topishda sizga ko‘maklashib yuboraman.

Qariya xursand bo‘lib ketdi va unga yordamlashishimni iltimos qildi.

– Sizga yordamim tegsa, boshim osmonga yetardi, biroq bu hol andak vaqtimni o‘g‘irlaydi-da, shunga...

– Ketgan vaqtingiz hisobini o‘zim to‘layman, – dedi qariya jon holatda. – Qancha istaysiz?

– Uch dollar – deb hozirjavoblik bilan javob berdim men.

– Uch dollar, – xuddi general kabi ajablandi qariya ham. – Biroq bilasizmi, mening itim bebaho kuchuk edi. Agar uni menga topib bersangiz, sizga o‘n dollar ham to‘lashga roziman.

– Yo‘q, janob, men faqat uch dollargina istayman xolos, undan ortiq bir tiyin ham kerak emas, – deya hotamtoylik qildim men.

Shundan so‘ng men to‘ppa-to‘g‘ri general Mayls xonasiga ko‘tarildim. General yangi mehmoni bilan o‘ynab o‘tirgan ekan.

– Itni qaytarib olgani keldim, – deb ma’lum qildim men qat’iy.

– Lekin endi bu it sizniki emas – uni men sotib oldim. Buning evaziga sizga uch dollar pul ham in’om etdim, – deya hayron qoldi general.

– Sizga bergan pulingizni qaytarib beraman, lekin itni olib ketishim zarur, – deb oyog‘imni tirab oldim men ham.

– Ammo siz kuchukni menga pullab bo‘ldingiz, u endi mening itim.

– Afsuski, uni sizga sotolmas ekanman, janob, negaki u meniki emas edi.

– Bunisi bilan nima ishim bor, biroq siz kuchukni uch dollar evaziga menga sotib bo‘lgansiz.

– Buni qarang-a, it o‘zimniki bo‘lmasa, uni sizga qanday qilib sotib yuboraman? Siz mendan kuchuk uchun necha pul

istaysiz, deb so'radingiz, men esa uch dollarga zoriqib turganimni aytdim, bo'lgan gap shu, xolos. Lekin sira-sira it meniki, degan gapni og'zimga ham olmadim.

Endi general Maylsning tepa sochi tikka bo'ldi.

– Bergan uch dollarimni cho'zib qo'ying-da, itingizni olib ketavering, – deb baqirdi u.

Kuchukchani o'z egasiga olib borganimda, boyoqishning boshi ko'kka yetdi, quvonchi terisiga sig'may, va'da qilgan uch dollar pulini qo'limga tutqazdi. Mening ham ko'nglim joyiga tushgandi, zero, mana endi peshana terim bilan ishlab topgan uch dollar pulga ega bo'lgandim.

Ana endi siz nima sababdan mening halollik borasida aytgan so'zlarimni anglab yetgandirsiz. Zero „Oshing halol bo'lsa, ko'chada ye", deydilar. Odam hech qachon beli og'rib topmagan nonni og'ziga solmasligi joiz.

Jon GOLSUORSI

(Angliya)

ESKI'GAN ETIK

Olti oydan buyon ishda omadi yurishmay, ancha dilgir bo'lib yurgan tajribali aktyor Jilbert Keyster kunlarning birida, aniqrog'i qoq kunduz chog'ida dengiz bo'yidagi dam olish maskanida xomush kayfiyatda kezib yurardi. Keyster yaxshigina mahoratli ijrochi edi-yu, biroq oxirgi spektakllardan biri „Tezkorlar mag'lubiyati" pyesasidagi doktor Dominik rolini talqin etgach, umuman ruhiyati tushib ketdi. Sababi, teatr uni sezilarli darajada xorlab tashladi, haftasiga millionlab daromad jamg'arayotgan mazkur tomoshadan unga arzimagan choychaqa chiqarib berishdi. Natijada Keyster bu rolni ortiq ijro etishdan bosh tortdi, teatr esa uning o'rniga boshqa bir aktyorni jalb etdi.

Bir ko'zga tutiladigan ko'zoynagini burni ustiga yaxshilab joylashtirib olgan janob Keyster yura-yura, baliq sotilayotgan do'kon yonida yuzida ruhsiz tabassum bilan turib qoldi. Uning dimog'iga katta dengiz qisqichbaqasining xushbo'y isi urildi. O, mana shunaqa qisqichbaqa yemaganiga ham ne-ne

zamonlar bo'libdi! Ammo baliq sotuvchisi haqini to'lay olmaydigan kishiga qisqichbaqasini tutqazib qo'yarmidi! Bechora aktyor battar xomush tortib, nariroqdagi tikuv ishxonasining derazasi oldida to'xtadi. Qalashib yotgan, turli-tuman gazlamalar uyumiga boqarkan, birdan o'zini deraza oynasiga tutib, bir lahzaga tomosha qildi. Allaqachon o'ngib ketgan engil-boshi va, ayniqsa, shimining o'ta yaroqsiz holatidan qattiq uyalib ketdi. Haa, bu Xudo urgan joylarda quyosh nuri shunaqayam serob va shunaqayam o'tkirki, janob Keyster beixtiyor bu oftob shu'lalarida o'zining bor shakl-u shamoyilini yanada yaqqolroq ko'rib, ich-ichidan o'ksindi. Ajabo, bundan bor-yo'g'i bir necha yil oldin to'rt tomoni tekis, katta bir g'am-tashvishi yo'q, o'ynab-kulib yashayotgan sho'rlik aktyorning holi shu bo'ldimi endi? Jilbert Keyster tikuvchilik ishxonasining goh u derazasidan, goh bu derazasidan asta mo'ralarkan, u yerdagi xilma-xil kiyim-kechaklar, ko'ylak, kastum va hatto ixcham shlapalargacha nazardan qochirmay, bir-bir ko'rib chiqdi. O'hho', anchayin qimmatbaho matolar ekan, deb o'yladi janob Keyster ichida g'amgin ezilib. Ana shunday kayfiyatda tikuvchi ustaxonasidan o'tib ketarkan, bechora aktyor boshiga kelgan bo'lmag'ur va chigal o'ylardan alamzada bo'lgancha yaqindagina qo'ygan ensiz mo'ylovini silay-silay, yo'lini boshqa tarafga qarab burdi. „Yo, Xudoyim", deb o'ylardi Keyster xayolchan yurib borarkan. „Yo Xudoyim! Hamma narsa ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Nahot shunchalar abgor bo'lib qoldim?!"

Shu g'amgin xayollar ichida faromush tentigan Keysterning ko'zlari birdan yarq etdi. Uning shundoqqina ro'parasidan kalta bo'yli, qip-qizil va dumaloq yuzli tanish bir qiyofa chiqib qoldi. E Xudo! Bu axir Bris Grin-ku!

– Keyster?! O'zingmisan?! Buni qara-ya, rostdanam o'zingmisan?! Eski chodirimizdan ketganingdan buyon seni ko'rmagan edim. Eslaysanmi o'sha kunlarni, og'aynijon? O, Xudoyim-ey! Seni bu yerda uchrataman deb sira-sira o'ylamagandim. Xo'sh, ishlar qalay? Hammasi joyidami, birodarim?

Keysterning eski tanishi bo'lmish hozirgi kunda anchagina boyib, oshig'i olchi bo'lib yurgan Bris Grin omadi yurishmay

turgan sobiq aktyorni ko'rganidan boshi osmonda ekanligini qayta-qayta takrorlab, Keysterni qo'ltiqlab oldi. Ilgarigi tanish hamkasbining farovon hayotidan, uning o'ziga to'q bo'lib turmush kechirayotganidan ko'ngli o'ksib, mung'ayib qolgan Jilbert Keyster esa tanishining hol so'rashlariga eshitilar-eshitilmas qilib bazo'r ovoz chiqarardi:

– Hamma ishlarim joyida...

Biroq sobiq aktyorning ichidagi ovoz buning aksini qaytarardi: ,,Ey Rabbim, eski tanishlarim oldida meni sharmanda qilma!"

Bris Grin esa janob Keysterning ichki holatidan bexabar, shodon kayfiyatda u bilan yonma-yon qadam tashlagancha, chaq-chaq urib, so'zlab ketdi.

– Mana bu yer esingdami? Qani, kirdik shu yerga! – Bris chog'roq bir qahvaxonaga janob Keysterni yetaklab kirdi. – Filis, og'ayni, bu yoqqa bir qaravorgin, – deb bosh ofitsiantni chaqirdi Bris, – men bilan mana bu qadrdon do'stimga kokteyl, keyin ikra bilan biroz yegulik keltirsang. Qara-ya, sening huzuringda hozir kim o'tiribdi, Filis, kimsan – janobi Keysterning naq o'zlari, sen bu kishimning ijrolarini hech ko'rmagansan-da, Filis, bu do'stimning turgan-bitgani talant! Ana shunaqa, og'ayni! – Bris labidan bol tomib, janob Keysterning bugungi tang holidan hozircha voqif bo'lmay, faqat uni tinmay maqtab o'tiraverdi.

Shu orada ularga xizmat ko'rsatgani kelgan qiz qo'lidagi kokteyl bilan ikrani stol ustiga qo'yayotgan paytda dovrug'i dunyoga ketgan Keysterga o'zining ko'm-ko'k ko'zlari to'la chuqur hayrat bilan qarab qo'ydi. Bu hangomani ko'ring endi! ,,Kimsan – janobi Keyster emish!" Axir olti oydan buyon holi tang bo'lib, holiga maymunlar yig'lagudek bo'lyaptiyu! Jilbert Keyster ichida kinoya bilan ijirg'anib, kulib qo'ydi.

– Unchalik emas, Bris, – deya xijolat tortdi u Bris Grinni biroz hovuridan tushirishga urinib. – Judayam oshirib yubording.

Xuddi shu asnoda Jilbertning unnuqib ketgan nimchasi ostida hilvirab qolgan qorni quldurab, go'yo to'ppa-to'g'ri, haq gapni aytding, degandek ovoz chiqarib qo'ydi.

– Bor gapni aytyapman-da, birodarim! Qani, kok-

teylingni olib, bu yoqqa – narigi xonaga o'taylik-chi, Jilbert, u yerda hech kim bo'lmaydi. Xo'sh, yeyishga nima buyuraylik, qisqichbaqami?

Shu payt Keysterning qorni yana quldurab, u ming'irlagancha:

– Ha, bo'ladi. Qisqichbaqa ham yomon taom emas, – deb qo'ydi.

– Albatta-da! Buning ustiga bu yerning qisqichbaqasi anchagina katta va mazali, – Bris Grin shunday deb eski og'aynisining roziligini kuchlab oldi-da, bir daqiqa gapdan to'xtab, Jilbert Keysterning ma'yus va bechoravash holiga bir qur ko'z yugurtirib chiqdi.

– Ishlaring joyidami, Keyster? Seni ko'rib chindanam o'zimda yo'q xursand bo'lib ketdim. O'ziyam haqiqiy aktyorimiz bitta o'zing eding-da!

– Rahmat, – deb qo'ydi Keyster so'nik ovozda, – ahvolim yaxshi, durustman. – Ayni vaqtda uning xayolidan: „Aslida qayoqdagi bir havaskor ijrochi-yu, biroq miqtigina yaxshi odam bu", degan fikr kechdi.

– Shu yer yaxshi ekan-a? – Bris tag'in ofitsiantni chaqirdi, – ofitsiant, bizlarga eng lazzatli qisqichbaqa bilan bironta yegulik, keyin yana bir parchagina lahm go'sht, qovurilgan kartoshka bilan men ichadigan maxsus vinodan olib kelsangiz! Darvoqe, Keyster, ichkilikka tobing qalay? Nima ichamiz?

Keyster yengil tortib, ichida Xudoga shukur, rostdanam ichgim bor edi, deb o'yladi. Ikki sobiq hamkasb do'stlar kichkinagina xonaning o'rtasiga qo'yilgan stol atrofida bir-birlariga ro'para o'tirishar edi.

– Omadimizni bersin, og'ayni! – dedi Bris Grin ichimlik quyilgan qadahlarni mamnuniyat bilan urishtirarkan.

– Omadimizni bersin! – deb unga qo'shildi Keyster ham, shu paytda bir-biriga urilgan qadahlardan ham „Omad! Omad!" deganga o'xshash jaranglagan tovush chiqdi.

– Xo'sh, oxirgi pyesa qalay bo'ldi, Jilbert? Odatdagidek uni ham qoyillatgandirsan?

Oh! Yo'q! Aynan shu savolning ayni lahzalarda sirayam hojati yo'q edi-da! Keyster miq etmay, bir ko'zli

ko'zoynagini tag'in to'g'rilab olarkan, labining bir chetida istehzoli kulib, javob qildi:

– Haa, rosayam dahshatli tarzdagi shov-shuvga ega tomosha bo'lib o'tdi!

– Hmm, albatta, – dedi Bris ham uning gaplarini o'zicha tushunib, – ammo u yerda hech kimning aytarli qobiliyati yo'q, shunday emasmi?

Keyster bo'lsa Brisning gaplarini to'g'rilagan bo'lib, xayolida, ,,Aytarli hech kimning puli yo'q u yerda", deb tuzatgan bo'ldi.

– O'zing qanaqa rollarni o'ynayapsan endi? Boyagi Gotta-Grampus qiyofasini qoyillatib qo'yganding-da o'ziyam!

– Hozir umuman hech narsa qilmayapman, – deb ochig'ini aytdi Keyster shu vaqt, – hammasidan ko'nglim qolib, shalvirab qoldim go'yo.

Nochor ahvoldagi bechora aktyorning ushbu iqroriga uning eskirib, bo'shashib ketgan shimidan ham ,,Shalvirab qoldim", degan sado chiqqanday bo'ldi.

– Eh! Mayli, mayli, bu gaplarni qo'ya tur, – dedi Bris Grin Keysterning so'zlariga unchalik ham ahamiyat bergisi kelmasdan. – O'hho'! Mana buni ko'rib qo'y, Jilbert! Yumshoqqina qush go'shtiga tobing qalay edi, og'ayni?

– Tashakkur, unaqa ovora bo'lma, keragi yo'q edi buning!

Biroq shu tobda Keysterning norozi ohangiga zid ravishda ochiqqan qorni yanayam qattiqroq gumburlab qo'ydi. Bu qanday ziyofat bo'ldi. Yo'q, Keyster aslida o'zining xarob sharoiti haqida hamkasbiga hech nima demoqchi emasdi, ammo oxirgi vaqtdagi uni qattiq ranjitgan teatrdagi qator noxushliklar Keysterning sabr kosasini limmo-lim to'ldirib, tilini bo'shatib yubordi. Ehtimol, u ham o'zicha bir dardlashgisi kelgandir.

– Shoshma-chi, Keyster, menga qara-chi! – Shu payt Bris kutilmagan hayratdan andak esankiragancha ajablanib so'radi: – Keyster, sen mo'ylov qo'yib yuborganmisan, og'ayni? Buni qara-ya, nega avvalroq shuni payqamadim ekan?! Yo'q, yo'q, to'g'ri tushun, meni o'lgudek qo'pol ekan, deb o'ylama, ammo bu narsaga mana hozir, birdan

ko‘zim tushib qoldi. Nima, sen mo‘ylovni birdan o‘stirdingmi?

– Yo‘q, birdan emas, asta-sekin, – deb javob berdi Keyster.

– Mo‘ylovni nima sababdan qo‘yding o‘zi?

– Ochlikka qarshi niqob bu, – shu chog‘da Keysterning lablari beixtiyor titrab ketdi.

– Unaqa emasdir, – deb qo‘ydi Bris to‘satdan mung tortib. Keyin Keysterga biroz dalda berish uchun qo‘shimchaladi: – Menimcha, mo‘yloving sekin-sekin to‘kilyapti ekan. Ancha siyraklashib qolibdi o‘ziyam. Ha, mayli, buni qo‘yaylik endi, yana biron yegulik aytaylikmi?

Bris sobiq hamkasbining siyoh dilini o‘zicha talqin etib, indamay qo‘ya qoldi. Oradan ozgina fursat o‘tgach, o‘z orzulari to‘g‘risida so‘zlay ketdi:

– Bilasanmi, Keyster, men tez-tez o‘z sahnam, o‘z tomoshagohim bo‘lishini orzu qilganman. O‘sha ajoyib sahna bilan ajoyib bir hayot qurishni shirin xayol qilib yashab kelganman. Mana, xuddi seningdek iste’dodi bor odamlar yashaydigan ajoyib va bekam-u ko‘st hayotni.

– Bekam-u ko‘st? Mukammal? – hayron bo‘lib ensasini qotirdi bechora Keyster.

– Ofitsiant, bizlarga tamaki olib kelsangiz. Ha, ha, tamaki va qahva ham, – deya buyurdi Bris Keysterga javob berish o‘rniga. – Bugun kechda senikiga borib, yana chaqchaqlashib o‘tiramiz, xo‘p? Bu yerda biror hafta bo‘larsan axir? Yo darrov ketib qolasanmi?

– Bekam-u ko‘st hayot! Mukammal va ajoyib hayot! – turmushning shafqatsiz toshlari otila-otila parokanda bo‘lib to‘zg‘ib ketgan Jilbert Keysterning xavotirli kunlari ayni damda uning ko‘z o‘ngidan g‘ira-shira bo‘lib o‘tayotgan edi. U Brisga lom-mim ham demasdan (ehtimol, uni hali eshitmagandir ham) achchiq kulimsiragancha o‘z umridan o‘zi kuyunib o‘y o‘ylardi. Voajab, chindanam Bris aytayotgan o‘sha go‘zal va kamchiliksiz hayot qayda bor ekan? Bo‘lganda ham, Keyster kabi sho‘ring qurg‘urning manglayiga bitilarmikan o‘shanday kunlar? Bu nechog‘liq ajoyib va qanchalar mo‘jizaviy tole tortig‘i bo‘lardi?..

Eh, jilvakor hayot!..

Xuddi shu tobda bechorahol Keysterning g'aribona qiyofasini tutayotgan tamakisini hadeb chekmasdan, barmog'ida qisib, jimgina o'tirgan Bris Grin achinib kuzatmoqda edi. Brisning lablari yarim ochilib qolgan, ko'zlari dengiz tubidagi marmar toshchalardek tep-tekis va silliq bo'lib yarqirar, nigohlari teran boqardi. Uning ko'zlari Jilbert Keysterni boshdan oyoq kuzatish vazifasi bilan mashg'ul ekan, birdan ular borib-borib dasturxon solingan katta stol tagidagi burchakda to'xtadi. Shunda tuyqusdan Brisning achchig'i chiqib, lablarini asabiy yaladi-da, jahl bilan Keysterga baqirib berdi:

– Menga qara, hoy o'g'il bola, meni g'irt hayvon ekan deb o'ylamagin-u, biroq sen qip-qizil boyagi... boyagi... nima deydi buni, hah, boyagi tog' ustida bazo'r ilinib turgan liqildoq toshga o'xshab qolibsan! Men aytmoqchimanki, Jilbert, mahkam bo'l, og'ayni! Tag'in o'sha tog'dan oxir-oqibatda dumalab tushib ketmagin! Agar senga yordamim kerak bo'lsa, hech tortinma, bemalol aytaver! Eski qadrdon-ligimiz haqi-hurmati, bilasan-ku, men... hech...

Shu damda Brisning ko'zlari yana katta stol tagidagi o'sha burchak tomon og'di. Keysterga Brisning bu nigohi qiziq tuyulib, u ham o'sha tarafga ko'z tashladi. Shunda Jilbert Keysterning ko'zlari qip-qizil gilam ustida o'zining oyog'idagi uvadasi chiqib ketgan yirtiq etigiga tushdi. Uning etiklari chindanam o'ta abgor holatda edi, balkim Keysterning o'zidan ham g'aribroq edi ular. Juda soz! Keyster bu nazar ifodasini judayam yaxshi tushunardi. Etik bo'lsa Keysterga rosayam qadrdon, ularni sobiq aktyor „Aldov" spektaklidagi Bert Karsteyrs roli uchun ataylab sotib olgandi. Yaxshi etiklar ekan. Anchaga chidadi.

Keyster o'zining qadrdon va sadoqatli etiklaridan ko'z uzib, achinish hamda tashvish bilan ularga qarab o'tirgan Bris Gringa boqdi. Burni ustidagi bir ko'zli ko'zoynagi ortidan Keysterning doimgi achchiq kulimsirashi ifoda etildi va u bunday dedi:

– Hechqisi yo'q, hammasi uchun Xudoga shukur! Senga nima bo'ldi?

– Haligi... hech... hech narsa. Shunchaki xayolim qochdi, – deya talmovsiradi Bris u yoq-bu yoqqa alanglab. U oxirgi

marta Keysterning xaroba etiklariga so'nik nazar tashlab, o'rnidan qo'zg'aldi. Ofitsiantni chaqirib, hisob-kitob qildi.

– Mayli bo'lmasa, qariya, – dedi u chiqib ketishdan avval Keysterga o'girilib, – ma'zur tutasan, og'ayni, zarur ishlarim bor edi. Xuddi shu soatda bir uchrashuv tayinlagandim, kech qolmay bora qolay. Ammo-lekin seni ko'rganimdan boshim osmonga yetdi, Keyster. Shunaqayam xursand bo'lib ketdimki, quvonchimni aytib ado etolmayman! Yana ko'rishguncha, birodarim! Xo'p, o'zingni ehtiyot qil!

– Xo'p, xayr! – dedi Keyster ham. – Rahmat senga!

Bris Grin qahvaxonadan chiqib ketdi. Keyster bir o'zi, yakka-yolg'iz qoldi. U hamon o'sha mungli qiyofada qo'lini iyagiga tirab olgancha, bir ko'zli ko'zoynagi ortidan bo'm-bo'sh qadahiga tikilib o'tirdi. Ha, Keyster yolg'iz edi shu tobda, u bilan faqat o'z yuragi, shu miskin hayoti va o'ta eski hamda sadoqatli bo'lgan etiklari birga qolgandi. Birdan uning quloqlari ostida yaqin va uzoq o'tmish sadolari jarang sochdi: „Janob Keyster, bo'sh vaqtingiz bormi?", „Keyster janoblari, qo'ng'irog'ingizni intizorlik bilan kutaman", „Iltimos qilaman, hurmatli janob Keyster, malol kelmasa, bizga manzilingizni qoldira olasizmi?", „Ma'zur tutasizlar, mening repetitsiyam bor edi, savollaringizning bariga javob berolmayman, ming bor uzr", „Yo'q, yo'q, hozir sirayam vaqtim yo'q edi, kechirasizlar"...

Ana shu balandparvoz maqtov-u olqishlar ummonida oqa-oqa Keyster oxiri bugungi kuniga yana qaytib keldi. Xayol uni uchqur otday juda-juda olisga, uzoq o'tmishning g'ala-g'ovurli, o'tkinchi yulduzlar yarq-yurq etib porlagan aldamchi kechalarga olib borgandi. Endi-chi? O, Parvardigor! Endi ne ko'ylarga tushib qoldi? Bu ne ko'rinish? Ajoyib va mukammal hayot emish! Hech kimga keragi yo'q, sayoq bir itday tentigan hayot emasmi bu? Hamma yoqda davring gullaganda ko'tar-ko'tar, omading ketganda esa xor-zorlab tashlab ketishmi? Hayot misoli yelvizak uchirib borayotgan sap-sariq va yolg'iz barg-u, unda aslo hech nimani yashirib bo'lmaydi. Bu chorasiz va tashlandiq barg chehrasidan na g'ariblikni va na umidsizlikni yashirib bo'ladi. Hammasi kaftdek namoyon,

yaqqol aks etib turaveradi. Odamzod mukammal va ajoyib hayotni hech qachon, hech qayerdan topolmaydi!

Stol ustini yig'ishtirib olish uchun ofitsiant keldi. Ketish kerak! Shu yerda, Keyster bilan eshik orasidagi stol atrofida ikki nafar yosh xonim kelib o'tirishgan edi. Keyster ularning nigohini zimdan payqab turar, xonimchalarning o'zaro shivir-shiviri uning ding turgan quloqlariga shundoqqina eshitilib turardi.

– Albatta, uning so'nggi ijrosi edi o'sha spektakl. Ammo men o'shanda uning mo'ylovini ko'rmagan ekanman, siz sezmaganmidingiz?

– Oh, albatta, ko'rgandim! Bu aniq o'sha aktyor-ku! Endi xarob bo'lgan ko'rinadi boyoqish!..

Ortiq bu joydagi gap-so'zlarga toqatim qolmadi.

Keyster qaddini rostlab, o'rnidan turdi, uning bir ko'zli ko'zoynagi ostida hamishagi kinoyali tabassumi balqidi. Bu xonimchalar uning so'nggi ijrosi bo'lmish doktor Dominikni rosa avra-astarini ag'darib, dog' axtarishayotgandi.

– Janob, agar ovqatlanib bo'lgan bo'lsangiz, maylimi, dasturxonni yig'ishtirib olsam? – deb so'radi uning ketishini poylab turgan ofitsiantlardan biri.

– Ha, ha, albatta. Men ketyapman.

Keyster darhol o'zini o'nglab oldi-da, ketishga chog'landi.

Ikki yosh xonimcha esa hamon undan ko'z uzmay, ta'qib etib o'tirishardi. Viqorli, biroq ozgina siniq bir tabassum bilan Jilbert Keyster ularning yonginasidan o'tib ketdi. U buni ataylab qildi, negaki sobiq aktyor biroz nariroqdan o't-ganda, bu beg'am hamda Bris Grin orzu qilgandek bekam-u ko'st, g'aroyib hayot tarzini kechirayotgan yosh xonimchalar uning yirtilib ketgan juldurvoqi etigini ko'rib, battar gupu-rishlari mumkin edi.

Keyster bo'lsa shu tobda unga hamroh etiklari ortiqcha gap-so'zga qolishini sira istamas edi.

Gi de MOPASSAN

(Fransiya)

XONADON

Bir vaqtlar eng jonajon do'stim bo'lgan Simon Radevinni yo'qlab, uning uyiga bordim. Biz Simon bilan qariyb o'n besh yil davomida hech yuz ko'risholmagandik. Ilgari menga hammadan ko'ra yaqinroq bo'lgan haqiqiy og'aynim mana shu Simon edi, biz u bilan ehhee, qancha-qancha uzundan uzun, osuda va farahbaxsh kechalarni birga o'tkazgandik. Simon, chindanam, bebaho yigit edi, odam bemalol suyansa bo'ladigan, eng ichki sirlarini ham qo'rqmay ayta oladigan, hamma vaqt ziyrak aql bilan so'zlovchi, butun miyangizni faqat tafakkur bulog'i bilan sug'oradigan tengi yo'q, asl do'st edi.

Vaqt-soati kelib, ikki oshna bir-birimizdan bazo'r ayrilishimizga to'g'ri keldi: shuncha yil birga yashab, birga ishlagan, hatto bir narsadan zavqlanib, bir xil tushunchani baravar anglab yetgan, bir xil hissiyotdan titrab, bir xil ajoyibotlardan qah-qah otgan yaqin odamingizdan birdaniga ajralib ketish oson emasdi. Biz bir-birimizni birgina ko'z qarash bilan ham tushunib ketaverardik, ha, bu shunday ajoyib do'stlik edi. Ammo na iloj, hayot har birimizni o'zining atab qo'ygan yo'llariga bepisand ravona qildi.

Keyin Simon uylandi, uning uylanishi juda-juda qiziq bo'lgandi. U o'ziga munosib bo'lmagan landavur bir qizni o'zidan o'zi xotinlikka saylab oldi. Kichkinagina, rangpar bir qiz Parijga er izlab kelib qoldi-yu, bir nima qilib, do'stim Simonni qarmog'iga ilintirdi. Haliyam ishongim kelmaydi, qanday qilib shunday omi, fahm-farosati kalta, bo'shang bir oyimcha o'zining qiltiriq qo'llari-yu, o'rinsiz gaplari bilan aql-hushi joyida bo'lgan binoyiday bir yigitni o'ziga rom qila olgan ekan? Turib-turib, hayron qolasan kishi.

Bechora Simon! Boyoqish albatta o'zini limmo-lim baxt nuri to'lib-toshgan uyida xayol qilib, bor orzu-umidlarini o'sha ozg'ingina, vafodor va muloyimsupurgi xotinining ma'nisiz ko'zlarida ko'rib, durustroq o'ylab

o‘tirmay, o‘sha dumbulsifat qiz bilan bir umrlik yostiqqa birga bosh qo‘yib ketavergani menga haliyam g‘alati ta’sir qilardi.

O‘sha paytda u harakatchan va jo‘shqin kishilarning odmi, ahmoqona turmush tarzi tufayli qo‘pollashib, sayozlashib ketishi, tashqi hayot ikir-chikirlarini deb, o‘zlarini unutib qo‘yishlari tayin ekanligini xayoliga ham keltirmagani aniq.

Qiziq, u hozir qanaqa bo‘lib ketgan ekan-a? Haliyam o‘sha-o‘sha ochiqko‘ngil, bir qop yong‘oqday shaldir-shuldur, hammani og‘ziga qaratadigan Simonmikan yo bo‘lmasam antiqa turmushi ta’sirida maydalashib, dag‘allashib ketgan quruq erkak qiyofasimikan? Axir, o‘n besh yil chakana muddat emas, bu yillar bitta odamni ming ko‘yga solishi mumkin!

Men o‘tirgan poyezd nihoyat kichikroq bir bekatga kelib to‘xtadi. Bo‘lmamdan chiqib, yerga oyoq qo‘yishim bilan ikki yuzi pomidorday qip-qizil, xumday baqaloq bir kishining: „Jorj!“ degancha men tomon quchoq ochib, lapanglab yugurib kelayotganini ko‘rib qoldim.

Biz mahkam quchoqlashib tursak ham, men hadeganda bu erkakni daf’atan taniyolmadim. Keyin biroz o‘zimga keldim-da, mislsiz hayrat ichida:

— O, Xudoyim-ey! Simon, senmisan?! Buni qara, hecham ozmabsan-ku-a?! — deb unga boshdan oyoq ko‘z yugurtirib chiqdim.

Simon bo‘lsa qornini selkillatgancha xaxolab kulardi:

— Sen nima deb o‘ylovding-a? Yaxshi yashash, to‘kin dasturxon, yoqimli kechalar! It yotish, mirza turish — mening yashashim shu-ku, og‘aynichalish!

Qadrdon oshnamning keng, do‘mboq yuzlariga yaqinroq tikilib, undan o‘tmishda men uchun nechog‘liq aziz bo‘lgan xislatlarni topishga urinardim. Simonning faqat ko‘zlarigina o‘zgarmagan edi, biroq ularda ham menga tanish bo‘lgan nigohlar ortiq balqimasdi, shunda o‘zimga o‘zim: „Basharti ko‘zlar teran aql ko‘zgusi ekan, demak, boshdagi aql tarozisi ham avvalgiday emas, eh, men bilgan Simondan zig‘ircha ham qolmabdi-da!“ deb og‘rinib qo‘ydim.

Simonning ko‘zlari do‘stona shodlikdan porlab, yonib turgan bo‘lsa-da, ularda aql nurlari endi chaqnamay qo‘ygandi.

Bir og'iz so'z bilan butun zakiyligini ayon qilib turguvchi qadrdonim Simon endi qaylarda qolib ketdi ekan-a? Chuqur g'ussaga botib turarkanman, to'satdan uning ovozi xayolimni bo'ldi:

– Jorj, qani bu yoqqa bir qarab qo'y-chi! Bular – mening to'ng'ich bolalarim!

O'n to'rt yoshlar atrofidagi, qomati xuddi xotinlarnikiday bir qiz bilan yoshi o'n uchlar chamasidagi o'quvchi kiyimidagi bir bola ikkilangancha, qo'rqa-pisa yonimizga keldi. Men ko'zlarimga ishonmasdan, arang ovoz chiqardim:

– Rostdanam sening bolalaringmi?

– Bo'lmasam-chi! Meniki-da! Meniki bo'lmay kimniki bo'lsin! Xa-xa-xa! Simon yana xaxolagancha bolalarining yelkasiga qoqib qo'ydi.

– Farzandlardan nechta bo'lgan o'zi?

– Naq beshta! Yana uchtasi uyda qolgan!

U bu gaplarni boshqacha g'urur, hatto g'olib bir odam ohangida gapirdi, men bo'lsa u so'zlagan sari ich-ichimdan tushunarsiz og'riq bilan do'stimning dimog'dor va kekkaygan aftiga cheksiz hasrat bilan tikilib turardim. U bamisoli o'z inida faqat bola ko'paytirish bilangina mashg'ul bo'lgan beg'am ayiqday ro'paramda gerdayib qo'r to'karkan, birdaniga butun qalbim sovib, uni zilday tegirmon toshi bosib qolganday edi.

Birozdan so'ng biz Simon minib kelgan izvoshga o'tirdik. U zerikarli, mudroq bosgan shaharcha oralab labi labiga tegmay, tinmay javragancha izvoshini haydab ketdi. Ko'chalarda hech zog' ko'rinmas, unda-bunda bir-ikkita it bilan oqsoch xizmatkorlar qorasi ko'zga tashlanib qolardi. Ba'zan-ba'zan do'konlari oldida ko'rinib qolgan sotuvchilar Simonni ko'rib, bosh kiyimlarini ko'tarib, salomlashgan bo'lar, Simon ham o'sha asnoda ularga javoban boshini qimirlatib o'tar, keyin menga darhol o'sha kishining kimligini ayon-bayon qila boshlar, bu bilan u xuddi shaharchadagi hamma odamni besh qo'limdek bilaman, demoqchiday bo'lardi.

Tez orada shaharchadan ham chiqib oldik. Endi izvosh baayni parkday kattalikdagi bepoyon bog' qarshisidagi mahobatli uy oldiga kelib to'xtadi.

– Mana shu bizning kulbayi vayronamiz bo'ladi! – soxta kamtarlik bilan xitob qildi Simon, pirovardida u yana tilidan bol tomib, o'zining „kulbayi vayrona"sini ta'riflab ketdi, men ham noiloj uning gaplarini quvvatlab turdim.

Uyga yaqinlashishimiz bilan ostonada kelguchi mehmon uchun ataylab pardoz qilgan, sochini ham maxsus tuzattirib, kutilgan mehmon sharafiga boshdan oyoq yasan-tusan qilgan uy bekasi ko'rindi.

Yo'q, bu ayol men o'n besh yil burun ko'rgan va bilgan oriqqina oyimtilla emasdi, qarshimda o'sha rangpar qiz o'rnida yoshini ham aniqlab bo'lmaydigan, faqat qomatigina ayollikdan darak berib turuvchi, aslida xuddi eri kabi xumday semirib ketgan do'mboq bir xonimning aksi turardi. Biroq uning ham xotin va ona degan nomi bor edi; onalik vazifasida misoli tuxum bosib yotadigan bo'lg'usi ona tovuq kabi, xotin o'rnida esa hech nima bilan ishi yo'q, boqibeg'am, biqqi cho'chqadek yashab kelayotgan bir ayol edi u.

Shunday bo'lsa-da, beka meni sertakalluflik bilan kutib oldi, Simon bo'lsa haliyam og'zi qulog'ida, meni to'g'ri kattagina mehmonxonasi tomon boshlab ketdi. Eshik oldida xuddi boshlig'i ro'parasida saf tortgan o't o'chiruvchi xizmatchilar singari qator bo'lib tizilib olgan uch nafar bolaga duch keldim.

– Qolgan bolalaringmi bular?

Gapim tugar-tugamas, Simon huzur qilib, bolalarini tanishtirib ketdi:

– Bunisi – Jin, mana bunisi bo'lsa Sofiya, bu esa Gontran. Qalay, ajoyib-a?

Boshim bilan tasdiq ishorasini berib qo'ydim, Simon bir zumda mehmonxona eshigini lang ochdi. U boshqacha mehmonnavozlik ishtiyoqi bilan harakat qilardi. Ichkariga kirgan zahotim xona burchagidagi tebratma kursi ichiga botib ketgan, kursisini ohista likillatib, tebranayotgan qari bir cholga ko'zim tushdi. Aftidan u falaj edi. Yuzimdagi savol alomatini payqagan chog'i Radevin xonim darhol yonimga kelib, past ovozda:

– Bu kishi bizning buvajonimiz bo'ladi, janob. Ancha qarib qoldi, yoshi ham sakson yettilarga borib qolgan, – dedi. So'ng qaltirab o'tirgan keksa cholning qulog'iga yaqin kelib,

baland ovozda shang'illadi: – uyimizga Simonning do'sti kelibdi, buva!

Bechora falaj chol menga nursiz ko'zlarini bir muddat qadab, so'nik tikildi-da, keyin bor kuchini og'ziga yig'ib, „Xayrli kun", demoqchi bo'ldi. Ha, rostdanam, shunday deyishga chiranib ko'rdi boyoqish. Biroq og'zidan – Ouva, ouva, ou... degan tushuniksiz ovozlar chiqib, keyin nochor qo'llarinigina silkib qo'ydi.

Joyimga o'tirarkanman, „Sizni ko'rib turganimdan behad xursand bo'ldim, otajon", deb unga minnatdorlik bildirgan bo'ldim.

Shu orada tashqaridan mehmondorchilik yugur-yugurlari bilan ovora bo'lib yurgan Simon kira solib, tag'in xaxolagancha gapira ketdi:

– O'ho'! Buvamiz bilan darrov oshna bo'lib olibsizlarmi, deyman! Qoyil-ey! Bu odam tilla odam-da, Jorj, tilla! Bolalarimning ovunchog'i desam ham bo'ladi bu kishimni. Bilasanmi, otamiz ovqat desa o'lib qoladi, lekin shunaqangi ochofatki, hoy, ko'rib o'zing hayron qolasan hali! Hali ko'rasan ham, Jorj, ko'rasan! U hatto shirinliklarga ham xuddi qizlarga qaraganday suq bilan qaraydi, dasturxonni ko'zi bilan teshvoray deydi! Senga hali bundan ham qiziqlarini ko'rsatib qo'yaman, og'ayni, hademay hammasini o'z ko'zing bilan ko'rasan! Xa-xa-xa!

Kechki ovqat uchun kiyimlarimni almashtirib olgani ko'rsatilgan xonaga ko'tarilarkanman, zinalar ustida urto'polon shovqinini eshitib, beixtiyor o'girilib qaradim, otalarining ketidan bir-birlarini urib-yiqitgancha zinalardan chiqib kelayotgan Simonning bolalariga ko'zim tushdi. Albatta Simon buni mening hurmatim uchun, mehmoniga alohida e'tibor ko'rsatish maqsadida ataylab o'zi uyushtirgan edi.

Xonamning derazalari yam-yashil maysalar bilan qoplanganday tekis, biydek ulkan bug'doyzorlar-u suli ekinzorlari tomon qaragandi. Dala ichida na bir o'sgan dov-daraxt va na boshqa o'simlik butalari ko'zga tashlanardi. Bu manzara uy ichiga negadir g'amgin va yurakni zoriqtiruvchi kayfiyat olib kirardi.

Tushkun holda xomush bo'lib o'tirarkanman, nihoyat, kechki ovqat uchun qo'ng'iroq chalindi. Pastga tushdim.

Radevin xonim zinapoya tagida chiqishimni poylab turgan chog'i, ko'rinishim bilan qo'limdan tutdi-da, tantanali sur'atda mehmonxonaga boshlab kirdi. Dasturxon atrofida titrab-qaqshab o'tirgan boyagi falaj cholga nigohim tushishi bilan nimagadir ko'nglim yana buzilib ketdi. U dasturxondagi har bir taomga nihoyatda ochko'zlik bilan suqlanib o'tirar, bir ovqatni qo'yib, ikkinchi ovqat idishi atrofida to'xtovsiz ko'zi aylanardi. Ba'zan u sabri chidamay, duch kelgan lagan ichiga kir va qaltiroq qo'llarini tiqib olardi.

Simon dasturxonga o'tirayotib, qo'llarini ishqaladi-da, menga ko'zini qisib qo'ydi:

– Qarab tur, maza qilasan!

Simonning bolalari ham yebto'ymas buvalarining telbanamo qiliqlaridan mening ham kulib o'tirishimni poylashar, ayni chog'da esa o'zlari piq-piq etib, keksa buvalarini ermaklay boshlashgandi. Radevin xonim ham bir chetda odob yuzasidan miyig'ida iljayib o'tirar, go'yo bu tentakka nima deysiz endi, degandek yelkalarini qisib qo'yardi. Shu payt Simon qo'llarini og'ziga karnay qilib oldi-da, otasining qulog'iga qarab qichqirdi:

– Bu oqshom mazali guruchli bo'tqa yeymiz!

Shu topda bechora cholning ahvolini bir ko'rsangiz edi! Uning bujur yuzlarida go'dakday pok, ma'sum bir quvonch nurlari balqidi, ko'zlari pirpirab, o'zicha bir nimalar deb g'o'ldiradi, butun a'zoyi badani birvarakayiga qaltirab ketdi, bu bilan u o'zining qanchalar suyunib ketganini bildirib qo'ymoqchi edi. Nihoyat, dasturxonga kechki taom tortildi.

– Anavini qara! – bir vaqt shundoqqina qulog'im ostida Simonning qattiq shivirlagani eshitildi. Qariyaga sho'rva yoqmas ekan, u sho'rvani istamay, undan bosh tortar, ammo sog'lig'ini deb, uni hadeb yeyishga majbur qilishardi. Cholga qarab turuvchi xizmatkor qariyaning og'ziga sho'rva to'la qoshiqni chunonam tiqishtirar, chol bo'lsa ovqatini sovitaman deb, puflamoqchi bo'lar va butun dasturxonga qoshiqdagi sho'rvani to'kib sochardi. Cholni boyadan beri kuzatib turgan bolalar bu tomoshadan zavq olib, qiyqirib kulishar, ayni o'sha paytda ularning dadasi ham maza qilib xaxolar va tez-tez menga qarab:

— Umringda shunaqa ajabtovur kimsani ko'rganmisan, a? — deya miriqib kulgani-kulgan edi.

Butun kechki ovqat davomida bor oila sho'rlik cholni ermaklab o'tirishdi. Qariya esa atrofidagi qiyqiriq, kulgi sadolarini eshitmas va tushunmas, uning xayoli faqat dasturxonda edi. U o'zi yemoqchi bo'lgan kosalarga titroq qo'llarini cho'zar, idishni ushlay deganda barmoqlari qattiq qaltirab, lagan va piyolalarni bir-biriga urishtirib yuborar, o'zi ham dam-badam xirqirab yo'talar edi. Shunda mening a'zoyi badanimga ayovsiz bir dahshat rahna soldi. Nazarimda, butun yer yuzidagi eng ko'p jafo chekkan g'arib va hasratli odam yolg'iz shu cholgina bo'lib ko'rindi!

U hamon qorni g'amida bezovta o'tirardi, bir zumda yonidagi yeguliklarni yeb bitirar, yana qo'shni kursilar oldidagi taomlarga harislik bilan qo'l uzatardi. Simonning xonadoni bo'lsa bu dahshatli hamda g'aroyib manzaradan rohat qilib, tinmay kulishardi.

Bir mahal ular cholning likopchasiga bir tishlam go'sht bo'lagi qo'ydilar, qariya bo'lsa hash-pash deguncha uni ham laqqa yutganday, yeb bitirdi. Oradan hech qancha vaqt o'tmasdan, kutilgan guruchli bo'tqa ham olib kirildi, falaj chol sevinganidan baland bir tovush chiqarib qo'ydi. Simonning o'rtancha o'g'li Gontran esa buvasining xursandchiligiga barham berib, unga: „Juda ko'p ovqat yedingiz, endi yo'q, boshqa bermaymiz!" deb taqiqlab qo'ydi. Aslini olganda, bu bir hiyla ekan. Ular o'zlarini go'yo cholga ortiq bir burda nonni ham yedirmoqchi emasday qilib tuta boshladilar. Ana shu vaqtda yuraklarim pora-pora bo'lib ketguday bo'ldi: bechora chol xuddi yosh boladay o'krab yig'lashga tushdi, shunaqangi yig'layverdiki, uning yig'isidan Simonning barcha bolalari qotib-qotib kula boshlashdi. Axiri ular rahm qilib, qariyaga bir qoshiqqina bo'tqa ilindilar. Orzulagan totli ovqati og'ziga tegishi bilan chol tomog'ida kulgili, qiziq bir tovush chiqardi, keyin xuddi o'rdaklar bo'ynini ilkis harakatlantirganday, boshini u yoq-bu yoqqa chaqqon burdi, boshqalar bo'lsa bir qozon bo'tqani oshar ekanlar, chol bunday shafqatsizlikka chidayolmay, tag'in ko'proq ovqat yeyish uchun oyoqlarini polga urib, do'pillata ketdi.

Men o'rnimdan qimir etmay, tamoman shalvirab o'tirardim. Cholning oh-zorlariga ortiq toqat qilolmadim, uning o'rniga xonadon vakillariga yalinib:

– Iltimos, buvaga yana ozroq bo'tqadan solib beringlar, – dedim.

Ammo Simon o'sha zahoti og'zimga urdi: „Aslo! Aslo, qadrdonim, aslo unday deya ko'rma! Buvamiz qancha ko'p yesa, shu yoshida u yoqqa ketishlari shuncha tezlashadi. Yo'q, ortig'i mumkin emas!"

Men tilimni tishladim. Shu topda xayolimni g'azabnok o'ylar katta kuch bilan parmalar edi. O, oqibat! O, mehr! O, odamzod! Notavon va miskin chol! Eh, nochorgina chol-a! Hayotining kuzagida, qalbi yetim bo'lib qolgan bir paytida bu qadar bechoravash kimsaga aylanib qolmasa u! Bolalari uning sog'lig'i uchun hatto yaxshi ko'rgan ovqatidan loaqal bir luqmasini ham ravo ko'rishmadi-ya! Sog'liq emish! Shu yoshda, shu ahvolda unda sog'liqdan umid va asar bormikan? Ular qariyaning umri uchun g'am yeyapmiz, deyishdi. Uning umri? Necha kun qolgan ekan bu sho'rlikning umri tugashiga? O'nmi, yigirmami, ellik va yo yuz kunmi? Qancha? Unga rostdanam jonlari achiyaptimikan? Yoki dasturxon ustida xandon otib, mazaxo'raklik qilishlari uchun uning kunlarini cho'zishmoqchimikan?

Yo'q, bu g'arib kimsaning bu dunyoda hech narsasi qolmagan, hech narsasi. Uning atigi birgina tilagi qolgan, u ham bo'lsa guruchli bo'tqa! Nahot shugina istagini ham boyoqishga ko'p ko'rishsa! Nahot o'lgunicha bechoraginani shunday azoblayverishsa!

Allamahalgacha qarta o'yiniga o'zimni chalg'itib, dilgir o'tirdim, vaqt judayam kech bo'lib qolganidan keyin noiloj xonamga chiqib, uxlashga urinib ko'rdim. Biroq ruhim butkul tushkunlikka tushib ketgan, butun yuragim tub-tubidan zirqirab, qayg'uli nola chekardi. Joyimga yotmasdan, allamahalgacha derazam oldida ma'yus o'tirib qoldim. Qulog'imga qayerdadir, qaysidir daraxt shoxida o'tirib, binoyidek sayrayotgan bir qushning mayin ovozidan bo'lak hech narsa kirmasdi.

O‘sha qush shubhasiz, o‘z halovatidan ham voz kechib, nene umidlar bilan tuxum bosib yotgan juftini erkalab uxlatish uchun butun tun bo‘yi ana shunday kuylab chiqadi.

Shunda ko‘zimga do‘mboq xotini va tartibsiz bolalari yonida pishillagancha xurrak otib yotgan, bir paytlar jonajon bo‘lgan do‘stimning beg‘am, beparvo basharasi ko‘rinib ketdi. Ko‘nglim g‘ash tortib, derazadan tepaga – bahaybat, qoramtir ko‘kka qaradim. Shu dam osmonda na oqqushmisol oy va na yilt etgan yulduzlar jilosi nur sochar edi.

Teodor DRAYZER

(AQSH)

QORACHA JEF

Ot qo‘shilgan to‘rt g‘ildirakli arava ko‘prik ustiga kelib to‘xtagach, odamlar ham o‘z aravalaridan tushdilar. Barcha otliqlar, shular qatori Deyvs ham otdan tushib, negr bola ortilgan arava atrofiga yig‘ilishdi. Deyvs turgan joyida ko‘prik tagidagi suv uzra taralayotgan uzun-uzun chiroq nurlarini kuzatib turar, boshqa erkaklar esa bir ustunga arqon bog‘lash bilan band edilar. Shu payt birdan Deyvs titrab ketdi, ular arqonning bir uchini negr bolaning bo‘yniga bog‘lay boshlashdi.

Nihoyat tomoshatalab olomon ishlarini bitirib, joy-joylariga qaytishdi, Deyvs esa bu manzaraga dosh berolmay, yuzini o‘girdi. Shu payt olomon orasidan tahdidli bir ovoz yangradi:

– Aytadigan biron gaping bormi?

Javob bo‘lmadi. Negr bola jon talvasasida inqillab qiynalar, aftidan, u ancha vaqtdan buyon behush bo‘lib yotardi.

Shu vaqt o‘n-o‘n ikki kishi ataylab kelishib olganday zanji tanasini havoga baland ko‘tarib, qo‘yib yubordi, Deyvs bo‘lsa arqon tortilgan dorning g‘ichirlagan tovushi ostida ezg‘ilanib ketgan nimjon jussaning dam pastga, dam tepaga tushib-chiqishini ko‘rib, yuragi achishib ketdi.

Oyning xira yog‘dusida behush vujud go‘yo jon talashmoqchiday bo‘lib ko‘rinar, ammo, baribir, uning zaboni hara-

katga kelmasdi. Deyvs og'zi keng ochilgan, so'zsiz-sadosiz tananing nihoyat qimirlashdan to'xtaganini kuzatib turdi. Biroz fursat o'tgach esa u olomon ketishga shaylanayotganini eshitdi. Oxiri ular yosh muxbirni xayollari bilan yolg'iz qoldirgancha jo'nab ketishdi.

Deyvs sukutga cho'mib, suvga termilgancha qirg'oq chetida cho'k tushib qoldi. Mana endi bor dahshat adog'iga yetdi. Azoblanish ham barham topdi. U ortiq vasvasaga tushmaydi. Mana endi hayot go'zal va beg'ubor. Bor fojia izsiz yo'qoldi; oy ham oxiri suvga g'arq bo'ldi...

Aslida Deyvs Boldvindagi kichkinagina pochtaga zudlik bilan borib, bo'lib o'tgan voqea borasida qo'shimcha tafsilotlarni yozib yuborish bilan shug'ullansa ham bo'lardi...

Juda kech bo'lgandi, biroq ayni damda vaqtning, lahzalarning hech bir ahamiyati qolmagandi. Boshqa biror-bir muxbir hodisa jarayonida ishtirok etmagach, ertaga voqeani yanada ko'pirtirib, ta'sirliroq biror hikoya yozish Deyvsning ham qo'lidan keladi-ku.

Yosh muxbir to tong yorishgunicha o'sha yerda o'tiraverdi... Jonsiz negrning egilgan boshli tanasi esa tik holda dorda osilgancha, qorayib turarkan, ertalabki yengil shabadada xiyol tebranib qo'yardi.

Axiri Deyvs o'rnidan turib, otiga mindi-da, yuragi tungi fojiadan g'am-g'ussaga to'lgan alfozda Plezent vodiysiga jo'nab ketdi.

Peshingacha birorta poyezd kelmagach, u tobora ko'proq tafsilot to'plab olishga qaror qildi.

Yana bir kun so'ngiga yetib, quyosh botishi bilan u tuyqusdan mayitni qayerga olib ketilganidan voqif bo'l-may qolganini esladi. Vaholanki, u negrning nima maqsadda ortga qaytgani-yu, aynan qayerda qo'lga olinganligi to'g'risida ham na bironta ma'lumot bila olgandi va na eshitgandi. Negrning kulbasi esa ikki mil[1] narida, qarag'ay shoxlari soya solib turgan yo'l yoqasida joylashgandi. Deyvs uy oldida biroz kalovlanib

[1] Lotincha *milia passum* – mingta qo'sh qadam.

turgach, yurak yutib eshikni taqillatdi. Hech qanday sado bo'lmagach, ichkariga bosh suqib qaradi. Bu oddiygina bir kulba edi. Andak fursat o'tib, ichkaridagi eshik ochildi va bitta qoracha qizcha ostonada paydo bo'ldi. Deyvs bir daqiqa qizchaga tikilib qoldi-da, keyin asta so'radi:

– Jef Ingols yashaydigan uy shumi?

Qiz bosh irg'ab: „Ha", ishorasini berdi. U ko'z yoshlarini arang tiyib turar, go'yo hozir yig'lab yuboradiganday bo'lib ko'rinardi.

– Mayitni shu yerga olib kelishdimi?

– Ha, janob, – negrlarga xos yumshoq talaffuz bilan javob berdi qizcha.

– Sen uning singlisimisan?

– Shunday, janob.

– Yaxshi, uning qanday qilib tutib olinganini menga aytib berolasanmi? U qanday qilib va nima maqsadda ortiga qaytib kelgandi?

– Akam peshin paytida kelgandi, soat taxminan ikkida.

– Nima maqsadda? – deb savolini takrorladi Deyvs.

– Bizlarni ko'rgani kelgandi, – deb javob berdi qiz. – Onamizni ko'rgani kelgandi.

– Shunaqa degin, u yana nimadir istaganmidi? Shunchaki onasini ko'rib ketish uchungina kelmagandir, to'g'rimi?

– Gapim rost, janob, – deya ta'kidladi qizcha, – akam xayrlashgani kelgandi. Biz akamni qay paytda tutib ketishganini bilmay ham qoldik.

Qizchaning ovozi qaltirab chiqdi.

– Ha, mayli, qo'lga tushishidan o'zining xabari bormidi? – so'radi Deyvs xayrixohlik bilan.

– Shunday, janob, menimcha, xabari bo'lgandi.

Qizcha hamon ma'yus ko'zlarini yerga qadagancha, bosh egib turardi.

– Yaxshi, u nimadir dedimi?

– U onamni ko'rgisi kelganini gapirdi, xolos.

– Uning jasadini ko'rsam bo'ladimi? – deb izn so'ragan bo'ldi Deyvs. Qizcha javob berish o'rniga xuddi yo'l bosh-

lagan kabi oldinga yurib ketdi. – Dafn marosimi qachon bo‘ladi? – Deyvs yana yo‘l-yo‘lakay savol tashladi.

– Ertaga.

Shunday deb qizcha uni o‘lik yotgan xonaga boshlab kirdi.

Yosh muxbir o‘kirgan faryod qulog‘iga kirgunicha jasadga termilib turaverdi. Bu faryod zimziyo xonani portlatguday bo‘lib yangrab ketdi. Birdan uning yuragi aqldan ozgan telbaniki singari dukur-dukur qilib ura boshladi. Deyvs avvaliga bu sado ehtimol o‘lik tanadan chiqayotganmikan, deya dong qotib qoldi.

„Oooohh!“ ovoz tag‘in takrorlandi. Bu gal Deyvsga bu tovush zorlanib chiqayotgan yig‘iday, go‘yo kimdir bo‘zlab-bo‘zlab o‘kirayotganday bo‘lib tuyuldi. Deyvs joni halak bo‘lib, tez o‘girilib qaradi-da, nimaningdir soyasi bo‘lib ko‘ringan bir ayol vujudiga urilib ketguday bo‘ldi.

„ Oh, oh, oh!“ endi faryodli ovozning o‘zigina qaytalandi.

Deyvsning hushi o‘ziga kela boshladi. U keksa qora ona huzurida turardi. Ayol ikki devor o‘rtasidagi ko‘rimsizgina javon tagida, boshini tizzalari orasiga olgancha, butun vujudi bilan so‘ngsiz qayg‘uga botib o‘tirardi.

„Oh, oh, oh!“ Deyvs ayolga yaqin kelishi bilan u tag‘in nola qila boshladi.

Deyvs jimgina ortiga chekindi. Uning ko‘zlariga yosh quyilib keldi. Yigit zudlik bilan negr bolaning murdasini yopdi-da, xonadan chiqib ketdi.

Deyvs tashqariga chiqib, oy shu’lasida ortiga o‘girilib qaradi. Butun motamsaro kulba o‘zining birgina ko‘rimlik jihozi – eshigi bilangina shunchalar achinarli bo‘lib ko‘rinardi. Xona burchagida yolg‘iz bo‘zlab o‘tirgan onaga ham xayr! Qaytish uchun kelgan sho‘rlik qoracha Jef!

Deyvsning yuragi qayg‘u-hasratdan yorilib ketay dedi. O‘tgan tun, o‘tgan fojia, ko‘nglini parmalab qolgan azob – yosh muxbir Deyvs bularning barini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan, qalbiga muhrlab qolgandi.

„Men hammasini yozaman, – xitob qildi u. – Hammasini yozaman!“

Toni MORRISON
(AQSH)

NURIDIYDAM

Yo‘q, bu mening gunohim emas. Hech kimning meni ayblashga sira haqqi yo‘q. Bu ishni men o‘zim istab qilganim yo‘q, zotan taqdiri azal ro‘yobi yolg‘iz Parvardigor hukmi bilangina amalga oshadi. O‘sha dahshatli azob pallasi bir soat ham vaqtni olgani yo‘q, biroq men uchun u lahzalar go‘yo million yildan buyon davom etib kelayotgandek, o‘zim bamisoli qop-qorong‘i tubsizlik qa’riga cho‘kib ketdim-u, endi aslo bu yorug‘ olamga qaytib kelolmaydigandek bo‘lib tuyulaverdim. Ha, o‘sha soniyalar ichidayoq yuragim behad notinch, nimadir aniq noto‘g‘ri ekanligini ich-ichimdan sezib turardim. Jonimni ming og‘riqqa qo‘ygan o‘sha jon parchamni oyoqlarim orasidan tortib olishganida men qalbim bezovtaligi sababini yanayam yaqqolroq anglab yetdim. Darhaqiqat, hayot menga judayam qo‘pol hazil qilgandi, endigina dunyoga kelib, hali o‘ziga kelmagan bu jish chaqaloq shu qadar qop-qora ediki, uni ko‘rib hushimdan ketib, aqldan ozayozdim. Xuddi tun zulmati singari zanji bu tancha favqulodda chin-danam o‘ta qora bo‘lib tug‘ilgan edi. Men benihoya hayronlikda qolgandim, dam unga qarab, dam o‘zimning oppoq tanimga qayta-qayta tikilib, ko‘zlarimga hecham ishonolmasdim. Hayratlanarlisi shundaki, men ham, Lula Anna (chaqaloqning ismini o‘zimcha shunday deb atadim) otasining tanasi ham oq-sariqdan kelgan bo‘lib, oilamiz uchun g‘ayriodatiy ushbu rang biz uchun behad ajablanarli holat edi. Hattoki, mening butun urug‘-aymog‘im orasida birorta ham qora tanli odam bo‘lmagandi. Yanayam ajablanarlisi shuki, chaqaloqning soch-lari juda ham g‘alati, qandaydir yaltiroq, pirpirak va jingala edi. U shu turishida misoli avstraliyalik yalang‘och yuradigan qabila kishilariga o‘xshab ketardi. Yo tavba! Shunaqasi ham bo‘larkan-da! Balki siz erimning yoki bo‘lmasam butun yetti avlodimizda aynan shunday tusli qarindoshimiz bo‘lgandir, deb o‘ylarsiz? Yo‘q. Bunaqa rangdagi inson zoti hech bir avlodimizda bo‘lmagan ekan. Siz mening buvimni ko‘rganingizda

edi – u sutga chayilgandek oppoq, mohiro'y ayol bo'lgandi, umr bo'yi ana shu oqligi bilan faxrlanib yashagan va o'zi orzu qilgandek xuddi o'ziday oq tanli erkakka turmushga chiqqan, hatto bolalarining rang-tusigacha ham qattiq qayg'urib, ularni aslzodalardek ko'rinishda bo'lishiga astoydil uringan ekan. Ammo aslida odam qanday rangda bo'lishining sirayam ahamiyati yoki ma'lum ma'nodagi bahosi yo'q aslo. Inson Xudo bergan tusda tug'ilib, u bergan qismatga shak keltirmay, imoni bilan yashab o'tishi, hech qachon Parvardigorga nolish qilmasligi va hamisha oxiratdan qo'rqishi kerak. Qanchadan qancha o'ziga ishongan, ko'zi „ko'r" bo'lgan kaslar qaysidir bir avlodida bo'lgan qora tanlilik belgisini jirkanch balo-qazoday umr bo'yi berkitib o'tadilar. O'zlarini mukammal darajadagi oliynasab avlod qilib ko'rsatishga harakat qiladilar. Holbuki, hammamiz ham Xudoyim yaratgan bandalar emasmizmi? Juda-juda sanoqli odamlar, atigi yigirma foiz aholigina o'z tanasi qoraligi bilan o'ksinmas ekan. Har holda men shunday deb eshitganman. Ular uchun na irq va na darajaning ahamiyati bor. Ular hech nimaga parvo qilmaydilar. Mening o'z tug'gan onam ham dadam bilan nikohdan o'tayotganlarida ibodatxonada ikki xil muqaddas kitobni ushlab qasam ichishgan ekan. Negaki ular boshqa-boshqa din vakillari bo'lgan. Onam aslida nihoyatda xokisor ayol edi. U kibor bir xonadonda oqsoch bo'lib ishlar, aslzoda oila a'zolari yeb-yemay, chala tashlab ketgan ovqat qoldiqlarini isrof qilmay, kim uchundir atab olib qo'yar, o'z ishini benihoya halol bajarar, hatto uy egalari unga eng og'ir yumushlarni buyurganda ham mehnatdan miq etmasdan yashab o'tgandi. U faqat bir narsadangina minnatdor, xo'jayinlari uning boshqa irqdan va dindan ekanligi bilan hech ishi bo'lmasdi.

Balki ba'zi birovlaringiz insonlarni rang-tusiga qarab ajratish jamiyatda u qadar jiddiy hol emas deb o'ylarsiz, ammo, ming afsuski, shunday. Irqchilik va tabaqalash jamiyatning hamma qatlamlarida: qo'ni-qo'shnichilik, mahalla-ko'y, maktab, kasalxona, hatto ibodatxonalargacha chippa yopishib, barqaror avj olib borar, na ilojki, ushbu tengsizlikka barham bera olishga qurbimiz yetmasdi. Bu jarayon shunchalar qaqshatqich hamda haqoratli ediki, hatto dorixonalarda ham qora

tanli bilan oq tanliga ikki xil yo‘sinda muomala qilinardi. Oziq-ovqat do‘konlarida ham qoralarga past nazar bilan qarashar, mollarning narxini ham ataylab ko‘tarib aytishardi. Bularning bariga ko‘nmoqlikdan o‘zga chora yo‘q edi, negaki qora tanlilarning shunday bo‘lib yaralishlarida tirnoqchalik aybi bo‘lmagani kabi jamiyatdagi mavqelarini-da o‘zgartirishga zig‘irchalik qurblari yetmas edi.

Ana shular to‘g‘risida o‘ylarkanman, yuragimni tobora najotsiz bir qayg‘u ezar, go‘yokim Xudoning qahriga qolgandek, peshonam sho‘rligidan achchiq o‘ksingancha zanjiday qora go‘dagim ustida azoblanib, ulkan g‘am ichida nochor o‘tirardim. Bechora ota-onam past tabaqadan bo‘lgani uchun zamondan orqada qolmaslik ko‘yida har qanday og‘ir mehnatni boshdan kechirishdi. Onam tannoz xonimlar kiyadigan to‘r shlapa tikiladigan do‘konda, dadam esa oliymaqom janoblarga mo‘ljallangan oyoq kiyimlar sotiladigan do‘konda ancha yillar ter to‘kib ishlashdi. Ularning na unisi va na bunisi eng muhtojlikda qolgan kunlaridayam oqsuyaklarga mute bo‘lishmadi. Ha, ular tom ma’nodagi oliyjanob insonlar edi. O‘z-o‘zimdan behad jirkanib ketsam-da, biroq onalik hissi butun a’zoyimni o‘rab olib, chaqalog‘im Lula Annaga dam mehr, dam hayajon, dam esa ko‘nglim muzday sovigan holda termilib o‘tirardim. Uning tanasi dastlab hamma yangi tug‘ilgan go‘daklarniki kabi och, rangsiz edi, keyin birdaniga katta tezlikda mutlaqo o‘zgara boshladi. Shundoq ko‘z o‘ngimda bolam misoli afrikalik habashlar singari to‘q ko‘k tusga kirayotganini ko‘rib, mislsiz dahshat ichida qoldim. Bir payt men ikki lahzagina es-hushimni yo‘qotdim, shuursiz alfozda karavot ustidagi adyolni sudrab tushirdim-da, qorayib-ko‘karib yotgan chaqaloq yuzini qoplab, uni mahkam qilib bosib turmoqchi bo‘ldim. Ammo... Ammo negadir birdan unday qilolmadim. Bilmadim, nega bunday bo‘ldi?! Lekin men baribir unday qilolmadim. O, men uni shu do‘zaxi rangdan qutulishini shu qadar tilanib so‘rardimki!.. Bu peshanasi sho‘r bolam qismati ham aynan shu rangi tufayli zardobga to‘la o‘tishini xayolan tasavvur qilarkanman, yuragim shuvullab ketardi. Hatto men go‘dagimni bironta yetimxonaga tashlab ketishgacha o‘ylab ko‘rdim. Biroq ibodatxona eshigi

oldiga tashlab ketilgan, chirqillab yotgan chaqaloqlar yig'isi quloqlarim ostida jaranglayverdi, jaranglayverdi. Yaqindagina germaniyalik yoshgina er-xotin egizak farzand ko'rgani, bolalarning biri tim qora, biri esa qorday oppoq ekanligini eshitib, hayratda qolgandim. O'shanda buning sababini hech bir doktor tushuntirib berolmagandi. Lekin xuddi o'sha sirli holat o'z boshimga tushishini hatto tushimda ham ko'rmagandim. Shunchalar taqdirimdan yozg'irar edimki, hatto bolamning og'ziga ko'krak so'rg'ichimni-da solishni unutgandim. Uni uyga olib kelguncha shishadagi sut bilan oziqlantirib turdim.

Erim Luis oddiy bir qora hammol edi, kasalxonadan qaytgan kunim u poyezd stansiyasidan horib-charchab keldiyu, yuzimga xuddi devonaga qaragandek qilib tikildi, so'ng o'rab-chirmalgan go'dakni xuddi o'zga sayyoradan kelgandek ajablanib kuzatib chiqdi. Luis tabiatan unaqa g'azablanib so'kinuvchi erkaklardan emasdi, lekin o'sha kuni u to'satdan qattiq jazavaga tushib, „Jin ursin! Bu qaysi iblis bolasi bo'ldi?! Tezda ko'zimdan yo'qot buningni!" degancha ayyuhannos soldi. Men bilardim, ro'zg'orimiz o'zi tang sharoitda edi. Aksar tortishuvlarimizga ham aynan shu yo'qsillik sabab bo'layotgandi. Go'yoki og'ir tavqi la'nat tamg'asi bosilgandek bo'lib tug'ilgan zanji bu go'dak Luis bilan mening uch yillik gulgun turmushimizni bir zumda barbod qildi. Mening dilimni og'ritgan narsa – Luisda hech qanday otalik tuyg'usi yo'q edi. U misoli tosh odam kabi Lula Annaga tamomila begonasirab qarar, uni dahshatli bir dushmani kabi ko'rardi. Luis qizchamizni hattoki qo'liga ham olmadi. Men unga Xudoning zorini qildim, yalindim, tilandim, chandon ishontirishga urindim, menga ishon, bu bizning zurriyotimiz, begona erkak bilan o'ralashib, esimni yebmanmi, deb harchand tushuntirsam ham u pinagini buzmadi. Luis bamisoli bir „o'lik" edi. U jonsiz tanaday harakatsiz va ongsiz holda serraygancha turardi. Biz to'xtamasdan janjallashaverdik, janjallashaverdik, nihoyat men unga, balki bolaning qoraligi menikidan emas, aksincha sening ajdodingdan o'tgandir, deb shartta aytdim. Ana shu bir luqmagina gap bilan u bizni bir umrga tark etdi. Keskin

tarzda uydan chiqib ketdi-da, yashashi uchun arzonroq va qulayroq joy qidirgani ko‘chaga otildi. Luisning ana shunday yuzsizlarcha qilgan harakatidan so‘ng men o‘zimni darhol qo‘lga oldim. Qizcham va o‘zimni boqish uchun to‘g‘ri kelgan ishga unnab ketdim: boy xonadonlarda oqsochlik qildim, kirxonalarda ishladim, ko‘cha supurdim. Lula Annaga qarash uchun bir o‘spirin jiyanimni enaga qilib oldim. Ishdan kelgan kezlarimda qizchamni tashqariga olib chiqqani yuragim dov bermasdi, negaki uni aravachasiga solib ko‘chalardan o‘tayotgan paytimda odamlar aravaning pana pardasi ostiga nogoh ko‘zlari tushib, aftlarini bujmaytirar, qovoqlarini solib olgancha sovuq so‘zlar aytib, yonimdan o‘tib ketishardi. Bu juda og‘ir, butun qalbim tor-mor bo‘lardi, biroq na chora?

Hali o‘z bolam onalik mehri va parvarishiga muhtoj bo‘lib turgan nozik bir damda men uni uyga tashlab, o‘zim boshqalarning bolasi yonida girdikapalak bo‘lib, enagalik qilish bilan band edim. Avvallari enagalarga tuzukkina haq to‘lanar, ammo bechora bolam Lula Anna dunyoga kelgan yildan boshlab ularning oyligi anchagina pasayib ketgandi. Hamma vaqt ham boylarga duch kelgan oqsoch va enagalar yoqib ketavermasdi. Ammo men janob Lei kabi qo‘li ochiq xo‘jayinga ro‘para kelganimdan behad omadli edim, u odatiy enagalar haqidan yetti-sakkiz dollar ko‘proq haq to‘lardi. Buning uchun ham Xudoyimga qayta va qayta shukronalar keltirardim.

Vaqt o‘tib, Lula Annaning tili chiqishi bilanoq men unga meni „Oyi“ yoki „Oyijon“ deb chaqirishi o‘rniga „Shirin opam“ deb aytishga o‘rgatdim. Negaki mana shunisi bexatarroq edi. Uning tim qora va qalin lablaridan bolalarcha pok mehr bilan chiqqan „Onajon!“ so‘zi qanchalar totli bo‘lmasin, odamlar oldida biroz xijolatlik holat ham edi. Men hamon xavotir ichida yashardim. Lekin qizalog‘im kundan kunga o‘ziga xos chiroy kasb etib, tim qora tanasi ham borgan sari adl bo‘lib o‘smoqda edi.

Ikki yil shu tarzda o‘tdi. Ammo bu o‘tgan kunlarning men uchun nechog‘liq og‘ir, bir o‘zi tashlab ketilgan ayolga tiriklik toshini ko‘tarish qanchalar azobli ekanligini hatto bayon ham qilib berolmayman. Biroz vaqt o‘tgach, Luisning vijdoni sal qiynaldi shekilli, u menga oyda bir martadan ozgina

pul yuborib turadigan bo'ldi. Biroq men undan izzat-nafsimni yerga urib, na pul so'rab yalingan va na uning ortidan shikoyat qilib turli sud mahkamalariga qatnamagan edim. Luisning jo'natib turadigan ellik dollar puli bilan kasalxonadagi tungi ish moyanam men bilan Lula Annaning bir amallab kun o'tkazishimizga har holda yetib turardi. Biroq boshqalar nazdida o'ta xarob bo'lib yashayotgandek edik. Ular topgan-tutganimizni sadaqa puli deb o'ylashardi. Albatta bu menga juda og'ir botardi. Keyin-keyin odamlar xayr-sadaqa nomini beg'araz yordam deb atay boshladilar, bunisi haytovur biroz yengil eshitilardi. Biroq men atrofimdagi hayot va kimsalar bilan zig'irchayam ishim yo'q, faqat o'zim bilan o'zim ovora edim. Sirtdan bechoraga o'xshab ko'rinsam-da, aslida behuda gap-so'z qilayotganlardan ko'ra ko'proq pul topardim. O'shanday kishilar, ya'ni o'zidan biroz g'aribroq yashayotgan odamlar ustidan mag'zava to'kib, nobop gap tarqatuvchi kimsalar ko'zimga o'ta-o'ta pastkash bo'lib ko'rinardi. Ayniqsa ular mendan ham ko'ra Lula Annaga past nazar bilan qarashardi. Nazarlarida u xuddi tashlab yuboriladigan, hech kimga keragi yo'q irkit hasharotday, undan o'zlaricha jirkanib ketishardi. Lekin men bora-bora bularning hammasiga ko'nikib qoldim. Ammo shunday bo'lsayam hamon hushyorlikni qo'ldan boy bermasdim. Hamma vaqt ogoh va o'z ishimga puxta edim. Ayniqsa, Lulani o'stirishda o'zimga nihoyatda talabchanlik qildim. Sababi, Lula Annaga, avvalo, boshqalar oldida og'ir gunohi borday boshini hadeb yerga egavermasdan, hamisha tik va baland tutishni, qiyinchilik ichida qolganda ortiqcha oh-voh qilmaslikni o'rgatdim. U ismini ko'p bora o'zgartirib ko'rdi, biroq ism o'zgarishi bilan uning tanasi oqarib qolmasdi. Qora tanli bo'lib yashab o'tish unga azaliy taqdir bo'lib bitilgandi. Biroq aslo bu mening gunohim emasdi.

Eha, bir paytlar Lulaga juda yosh bolalik davrida haddan tashqari talabchan bo'lgan, unga o'ta yomon muomala qilgan vaqtlarim ham bo'lgandi, men bularni hamma vaqt eslab yuraman. Ammo siz buni to'g'ri tushunishingiz kerak. Men neki qilgan bo'lsam, faqat uni o'ylab, uni himoya qilish uchun, uni jon-dilimdan yaxshi ko'rganim uchun qilgan edim. Lula hali bu chigal olamni to'la idrok etolmasdi. U — qora

tanli yosh qizaloq, bu hayotda milyon bora haq bo'lib chiqsa ham, jamiyatning kuchli va shafqatsiz qo'llarida ezg'ilanib ketishi turgan gap edi. Bu holat bolalar bog'chasidan to umrining oxirigacha mavjud ekanligini Lula hozircha bilmasdi. Uning beg'ubor va pokiza qora tani oq odamlarni cho'chitishi yoki ularni kuldirishi, hatto uni mazax qilib, vijdonsizlarcha aldashlarini yosh bola aqliga sig'dirolmasdi.

Bir kuni men xuddi Lula bilan barobar bo'lgan, yoshi chamasi o'n yoshlar atrofidagi qora tanli bitta qizchani bir gala oq tanli bolalar tomonidan xo'rlanib turgani ustidan chiqib qoldim. U o'zini bu to'dadan qanchalar himoya qilib, qochishga urinmasin, bolalarning goh unisi, goh bunisi bechora qizaloqni bir-biriga surib, tinmay niqtalashardi. Ular o'sha damda qornilarini ushlagancha, egilib-bukilib sho'rlik qizchaning ustidan qotib-qotib kulishmoqda edi. Qizcha ulardan bazo'r qutulib, yig'lagancha qochib ketarkan, tanasi oq bolalar haliyam uning ustidan hiringlashib, qilgan ishlaridan huzurlanishardi. Agar men bu hodisani avtobus derazasidan ko'rib qolmasdan, tashqarida bo'lganimda edi, qizchani jon-jon deb qutqarib olgan, uni o'sha oq bo'richalar galasidan tezroq tortib olib chiqqan bo'lardim. Ko'ryapsizmi, agar men Lulaga qat'iylik va talabchanlik bilan tarbiya bermaganimda edi, u ham o'shanday oqlar orasida ko'zyosh to'kib azob-lanishiga to'g'ri kelib qolardi. Har bitta tarbiyam Lulaga yashab o'tarlik hayoti mobaynida bir kuni albatta, asqatib qolar, uning o'zi ham ayni men kutgan va istaganday mag'rur, aqlli va dadil qiz bo'lib voyaga yetgandi.

Men yomon ona emas edim. Nimaiki qilgan bo'lsam, barisi Lula uchun, bolamning baxtli bo'lishi uchun, ko'z nurim, qalb qo'rim bo'lmish aziz nuridiydam uchun atalgan edi. Umid qilamanki, Parvardigorning oldida yuzim hamisha yorug' bo'ladi. Rost, avvaliga o'z bolamdan o'zim hazar qildim, taqdirimdan o'kindim, uning qop-qora tanasiga hatto qo'l tekkizishga ham botinolmadim. Biroq men Ona edim. Baribir uni yaxshi ko'rardim. Ha, ich-ichimdan, butun qalbimdagi mehr ila Lulani benihoya sevardim. O'ylaymanki, Lula ham meni bir kuni albatta teran tushunib yetadi. U hozir ham meni anglay oladi. Men shunday deb o'ylayman.

Vaqt o'tgani sari Lula Anna o'z-o'ziga mustaqil va tobora jasur qiz bo'lib kamol topayotgani ravshan aks etib bordi. U qora badanini yashirish uchun nihoyatda bejirim, juda chiroyli liboslar kiyardi. Hatto u menga ham kezi kelganda aql o'rgatib turar, biroq bularning bari yoqimli va suyumli edi. Asta-sekin dilimdagi og'ir dard toshi yengillasha borgani sayin uning o'rnini kun kelib qizim meni yolg'iz tashlab ketishi muqarrarligi haqidagi xavotir egallab, ko'nglimni ayovsiz qiynoqqa solib qo'yardi. Kunlarning birida shu to'rt devor ichida bir o'zim, yakka qolib, huvullab o'tirishim xavfi g'arib umrimga tashvishli tahdid solib turardi.

Lula Kaliforniyadan yaxshigina ish topib, o'sha yerda ishlay boshlagandi. Endi men uni kundan kunga judayam kam ko'radigan bo'lib qolgandim. O'zim esa ancha o'rganib qolgan joyim Uinston Xausni bir kunga ham tashlab ketolmasdim. Oltmish uch yoshga to'lganimda ixchamgina, sal arzonroq bo'lgan boshqa bir uyga ko'chib o'tdim. Ba'zan keksalik bezovtaligi bo'lmish turli kasalliklar qo'zg'ab qolganda, ikkita hamshira goh-gohida kelib tekshirib turadigan bo'ldi. Endi darbadar hayot kechirish uchun qarib qolgandim, yoshligimning olovli damlari ko'zimning oq-u qorasi, yagona zurriyotim Lula Annaning tinch va dorulamon kelajagi uchun fido bo'lgandi. Yoshim o'tib borarkan, tanamda to'satdan suyak xastaligi paydo bo'ldi. Og'riq chunonam kuchli kechardiki, ammo baxtimga hamshiralar juda mehribon va rahmdil edi. Bittasi hatto bir gal unga yaqin orada buvi bo'lishimni aytganimda mehr bilan ikki yonog'imdan o'pib, meni chin dildan tabrikladi. Ularning tabassumi va maqtovlari nihoyatda yorug' va yoqimli edi. Men hatto hamshira qizlardan Luladan kelgan xatlarni ham yashirib o'tirmasdim, qizimning har bitta gapidan ular ham xabardor bo'lishardi. Bir maktubida Lula menga behad baxtiyor ekanligini, tez kunlarda ona bo'lishini katta quvonch bilan yozib yuboribdi. Uning eri ham o'zi kabi qora tanli edi. Ammo o'sha xatida Lula turar manzilini bildirib qo'ymagan ekan. Shunda men o'zimni nihoyatda yomon his qilib ketdim, nazarimda, men unga yaxshi ona bo'lolmadim va aynan shu xat menga ulkan jazoday

bo'lib ko'rinmoqda edi. Ehtimol, Lula ichida mendan biroz og'rinardi ham. U menga vaqt-vaqti bilan pul yuborib turar, kundalik ehtiyojlarim uchun Lulaning jo'natganlarini ishlatib yashardim, ammo undan ortiq hech narsa so'ramas va umidvor ham bo'lmasdim. Menga yagona kerak narsa bu uning baxti edi. Ehtimol, men bundan keyingi umrimda to'kin-sochin hayot kechirishim uchun ba'zi bir ota-onalar singari o'z bolamga zulukdek yopishib olsam ham bo'lardi, biroq menga buning nima keragi bor? Bolam, deya butun umri zahmatda kechgan ona uchun bu kabi mayda narsalarning nima ahamiyati bor?

Gohida o'tmishga xayolan qaytib, Lula tug'ilgan soniyalarni, qop-qoragina bir parcha etning dastlab ko'zimga qanchalar xunuk bo'lib ko'ringanini, juda yomon ijirg'anganligimni eslayman. Ammo endi ularning hammasini xotiramdan quvib chiqarishim kerak. Axir o'sha yoqimsiz lahzalarning menga qilchalik ham ta'siri qolmagandi. O'shanda Lula Annaning otasi bizni qarovsiz, boquvchisiz holda tashlab ketganida, bu qora chaqaloq yelkamga nihoyatda og'ir yuk bo'lib tushgandi. Ha, u benihoya og'ir yuk edi o'shanda, lekin men uni ko'tara oldim, men o'sha og'ir yukni ko'tarib yashab kelishga qodir bo'ldim.

To'g'ri, boshida Lulaga u qadar mehr ko'rsatolmadim. Ayniqsa, u o'smirlik davri, o'n ikki-o'n uch yasharligida yanayam dag'al va talabchan onaga aylangandim. O'sha vaqtlarda Lula ham mendan bezor bo'lgan, u men pishirgan ovqatni og'ziga olmas, sochlarini o'rib qo'yishimga ham astoydil qarshilik ko'rsatardi. Yanayam og'ir kunlar u maktabda o'qiyotgan kezlarda bo'ldi. Men uning har bir qadamini nazorat qilar va aslzodalar tazyiqidan hushyor bo'lishini tinmay uqtirib yashardim. Xudoyimga behisob shukurki, mening o'sha mehnatlarim zoye ketmadi, Lula o'ziga ishongan, mustaqil va barkamol inson bo'lib ulg'aydi.

Mana endi u homilador. Butun vujudi bilan intiqib, orziqib, tilangan holda jon parchasi – aziz farzandini kutyapti. Ilohim, eson-omon qutulib olgin, Lulaginam! Agar sen onalik nechog'liq shirin baxt ekanligini bilganingda edi, yuraging tars yorilgudek, bundan-da ming karra baxtiyor bo'lib ketarding! Ha, onalik nihoyatda ulkan baxt, Lula! Sen va sening

jufting yaqin kunlarda dunyodagi eng xushbaxt insonlar bo'lasiz! Axir o'zing bir tasavvur qilib ko'rgin-a: chaqaloq! Olamning eng yuksak ne'mati bu chaqaloqdir. Lula, sen meni bir fursat yaxshilab tingla, qizalog'im. Sen ona bo'lgan onlarda shu kurrayi koinotning qanchalar cheksiz va chegarasiz ekanligini, uning qay tarzda aylanib, yashab turishini, yer va samo qanday tilsimot ekanligini yana-da chuqurroq anglab yetasan. O'shanda yanayam baxtli bo'lasan, Lula!

Senga Xudo yor bo'lsin, nuridiydam! Bu duo shu yorug' olamdagi har bitta onaning eng o'tli iltijosidir.

Ilohim, Yaratganning o'zi har bir go'dakni o'z panohida asrasin!

Uilyam DEMIL

(AQSH)

ZOLIM

Tashqarida salqin kuz havosi ila yo'g'rilgan o'rmon uzra oktabr quyoshi zaif nur sochmoqda edi.

Ichkarida esa hozircha bizga notanish qandaydir bir erkak tog' bag'rida joylashgan lagerdagi o'z bo'lmasida o'y surgancha tik turib qolgandi. U o'tkir ichimliklar hamda qurol-ashyolari saqlanadigan shkafga yuzma-yuz turardi. Shkaf eshigi ochiq qolgan; Jadson Veb, ya'ni boyagi erkak – qish arafasida bu yerdan ketish tadorigini ko'rmoqda edi, hademay u bilan xotini Marsi o'z ona yurtlariga qaytib ketishadi.

Jadsonning allaqanday shisha turgan shkafga ko'zi tushgani hamon birdan aft-angori o'zgardi. U yerdagi hamma shishalar bus-butun turar, faqat birgina shishaning og'zi ochilib qolgandi. Bu ochilgan shisha ichidagi viski esa yarimdan ham ozroq edi. Ustiga-ustak, qo'l tekkan ushbu shisha yonidagi stakani bilan boshqalaridan oldinroqqa qo'yib qo'yilgandi. Jadson shkafdagi o'sha shishaga qo'lini tekkizgan zahoti yotoqxonadan xotinining ovozi keldi: „Men hamma narsani joylab bo'ldim, Jadson. Kalitlarni olib ketish uchun Alek kelgani yo'qmi hali?"

Alek bu yerdan taxminan bir milcha narida yashar, u jo'nab ketayotgan shaharliklarning yozgi lagerlariga ko'z-quloq bo'lib turadigan xizmatchi edi.

– Bir yarim soatlarda qaytib kelaman, deganday bo'luvdi. – Marsi jomadonini ko'targancha xonaga kirib keldi. U erining qo'lidagi shishani ko'rgan on esxonasi chiqib ketdi. – Jadson! – deb yubordi u, – nima balo, kallayi saharlab otib olmoqchimisan, esing joyidami o'zi?

– Bekorga xunob bo'lyapsan, azizam, – dedi Jadson irjayib. – Bu shishaga hali labimni ham tekkizganim yo'q: men faqat uning ichiga nimanidir solib qo'ymoqchiman.

Vasvasaga tushgan erkak stol ustiga ikki dona oppoq tabletka qo'ydi-da, viski shishasini ochishga shaylandi. Erining ovozidagi bu ohangdan Marsining ko'ngli battar xijil bo'ldi; sababi, eri jami odamzodga qarama-qarshi holda nimanidir rejaga solgandagina ovozi bunday ohangga kirardi: „O'tgan qishda bu uyga kimdir-birov kirgan ko'rinadi. U ichimlikni o'g'irlagan-u biz yo'qligimizda tag'in kirib, viskidan totib ko'rgan, – deya so'zida davom etdi u, – lekin endi bu gal o'sha noinsof yaxshigina tavbasiga tayanadi." Ayol eri shisha ichiga tabletkalarni bittama-bitta tashlayotganini kuzatib turdi.

– Ular nima o'zi? – deb so'radi sarosima ichida. – Ishqilib, o'sha odamni mayib-majruh qilib qo'yadigan biron og'u bo'lmasin?

– Qilganda qandoq! Hech bir doktor endi uni qutqarib qololmaydi. Erkak shisha og'zini yopdi-da, yana shkaf ichiga, kichkinagina viski stakani yoniga qo'yib qo'ydi.

Ayolning yuzi oqarib ketgandi: „Bunday qilma, Jadson, – deya yolvorardi u. – Shaytonga hay ber. Axir nima haqqing bor!"

– O'z mol-mulkimni himoya qilish payti yetganida men ham o'z qoidalarimni yarata olaman.

– Balki biz kelasi yil ko'klamgacha bu yerda bo'lmasmiz. Aytaylik, nimadir yuz bersa, rejalarimiz o'zgarib qolishi ham mumkin-ku... axir, hech kim bilmaydi.

Yo'q, birorta so'zning foydasi yo'q edi, ayol buni allaqachon anglab yetgandi. Erkak batamom o'zi yaratgan qoida ustida g'irt zolimga aylanib bo'lgandi.

– Pastga tushib, lagerdagilar bilan xayrlashib tura qolay, – dedi ayol ohista. – Meni o'sha yerdan olib ketarsan.

Marsi ichida bor gapni Alekning xotiniga shipshitib qo'-

yishga qaror qilgandi. Zotan kimdir bu sirdan voqif bo'lmog'i zarur edi.

Xotini pastga tushib ketishi bilan Jadson ham shkafni yopa boshladi; shunda uning xayoliga yarq etib hovliga quritish uchun qo'ygan botinkalari keldi. Ularni ham shu shkafga joylashi kerak edi. Jadson shkaf eshigini ochiq qoldirdi-da, botinkalarini olish uchun ular turgan stol tomon shoshilgancha chiqib ketdi. Jadson botinkalari tomon endigina qo'lini cho'zgan ham ediki, to'satdan nimanidir bosib olib, o'sha zahoti oyog'i toyib ketdi va ulkan stolga boshi bilan urilgancha yerga gup etib yiqildi.

Oradan bir necha daqiqa o'tgach, u yotgan yerida qo'ltiqlari orasida Alekning kuchli qo'llarini his qildi.

– Unaqa yomon toyib ketganingiz yo'q, janob Veb. Hash-pash deguncha o'zingizga kelib qolasiz. Mana, buni iching-chi; bu sizni bir zumda otday qilib qo'yadi.

Kichkinagina viski stakani Jadsonning lablariga tegdi. Halihanuz atrofidagi borliqni to'liq anglayolmay yotgan beshafqat Jadson yarim hushsiz holda stakandagi viskini ichib yubordi.

O. GENRI

(AQSH)

NOMSIZ HIKOYA

Nozikta'b o'quvchi ushbu kitobni bir chetga otib yuborishidan oldin men bir gapni ta'kidlab aytmoqchi edim: mazkur hikoya har qanday gazeta hikoyalaridan mutlaqo farq qiladi. Siz bu yerda na dimog'dor va kekkaygan noshirga va na fermadan quvilgan hovliqma muxbirga duch kelasiz. Bu umuman siz kutmagan va o'ylamagan g'aroyib hikoya.

Lekin, muhtaram kitobxon, menga bir muddat „Tonggi yog'du" ro'znomasida muxbirlar xonasidagi manzarani tasvirlab berishimga izn bergaysiz. Ammo siz xotirjam bo'ling, kamina yuqorida ta'kidlab keltirgan va'damda qattiq turaman.

Xullas, men mana shu „Tonggi yog'du" ro'znomasida qo'shimcha haq ishlab olish uchun ikkinchi ish o'rnim sifatida ishlab yurgandim. Har kuni muxbirlar xonasining bir chetida uyum-uyum qog'oz, xatlar va qo'lyozmalarga ko'milgancha

kunim o'tardi. Ishim faqat qog'oz titkilash edi. Yozish tirikchilik manbayim bo'lgani sababli qulog'imga tushgan gap bormi, mish-mish bormi, nima bo'lsa yozib ketaverar, o'sha yozganlarim orqasidan biroz choychaqa ishlab topardim. Topish-tutishim faqat ana shu qog'oz-qalamgagina bog'liq edi.

Kunlarning birida Trip ismli bir tanishim ishxonamga kirib keldi. U men o'tirgan stol qarshisidan joy oldi. Trip negadir doim qayg'uli qiyofada ko'rinar, yuz-qo'llari hamisha kir-chir bo'lib yurardi. U juda borsa endi yigirma beshga kirgan, lekin aftidan xuddi qirq yoshlarga borib qolgan katta kishilarga o'xshab ketardi. Yuzining teng yarim qismini jingalak mo'ylar bosib ketgan edi. Tripning ko'rinishi sog'lom odamlarga o'xshamas, har doim ezilgan va tushkun kayfiyatda, ko'ringan odamdan yarim dollar, bir dollar qarz so'rab yurardi. Uning bor orzusi faqatgina bir dollar pul edi. Buning ustiga, uning Milliy bankdan olgan kredit qarzi ham kundan kunga oshib borar va Trip ularni hech qachon to'lay olishga qurbi yetmasligini juda yaxshi bilar edi. Faromush holda stolim oldidagi kursida o'ta qashshoq va telbanamo alfozda o'tirarkan, uning qaltiroq qo'llarida tutib turgan bir shisha viskisiga ko'zim tushdi. Bu hayotda Trip bechoravash kimsa edi, xolos. U shu paytgacha hech qachon birovni aldamagan, aldashga urinib ham ko'rmagan, faqat uning eng yomon odati qulog'igacha qarzga botib yurishi edi.

O'sha kuni men gazetamiz muharririga va'da qilib qo'ygan yozajak yangi hikoyam uchun hisobchidan yaltiragan besh dollar pul olib qo'ygandim. Shunday ekan, zimmamdagi topshiriqni bajarish tashvishi bilan notinch o'tirar, tezroq keyingi songa biron-bir hikoya tayyorlab qo'yishim shart edi.

– Xo'sh, Trip, – dedim men unga tezda qarab olib, – nima gaplar? Trip ayni shu bugun har qachongidan ham bechoraroq va xarobroq bo'lib ko'rinar, itoatgo'ylardek bosh egib, qarshimda xomush o'tirar edi. Men uni hali bunchalik tushkun va ojiz qiyofada ko'rmagandim. Uning ayni damdagi o'tirishini ko'rgan odam yurak-bag'ri kuyib-kuyib ketganidan oxiri uni yonidan quvib solgan bo'lardi.

– Puling bormi? – deb so'radi Trip ko'zlarini mo'ltillatib. Uning mung to'la ko'zlari yalinchoq itnikidek yaltirab

turar, ustara tegmay o'sib ketgan soqoli tutamlasa bo'lgudek holda to'zg'ib yotardi.

– Bor, – deb javob berdim men, birozdan keyin yana ta'kidlab qo'ydim: – pulim bor. – Bu gapimga ham qoniqmasdan yanada balandroq ohangda Tripga g'ashim kelib qo'shib qo'ydim: – sen o'ylagandan ko'ra to'rt baravar ko'proq pulim bor. Ammo senga aytsam, o'sha pulimning boshida ancha ishim ham bor-da. Zudlik bilan bir joyga borib, bitta zarur xabarni yozib kelishim kerak. Judayam zarur bu.

Men ataylab har bir gapimga urg'u berib, go'yo juda muhim ishimni muhokama qilayotganday jiddiy so'zlardim. Maqsadim, bir daqiqa o'tar-o'tmas, xonamda o'tirgan mana bu gadoy biror dollar pul so'rab qolishining oldini olish edi.

– Qo'rqma, qarz so'ragani kelganim yo'q, – dedi Trip xuddi ichimdagi gapni o'qib turgandek. Yengil nafas oldim. – Senga ajoyib hikoya yaratsa bo'ladigan bir voqeani aytib bergani kelgandim, – deb qoldi Trip shu payt.– Bu voqeadan juda zo'r hikoya yoza olasan. Yo'q deganda, ikki sahifalik ijodiy material bo'ladi senga. Agarda men aytadigan hikoyaning ustida yaxshilab ishlasang, topganing tillo bo'lib ketadi, og'ayni, menga ishonaver. Qilgan xarajatlaring esa bor-yo'g'i bir dollar va yana boshqa xizmatlar evaziga yana ikki dollarga tushishi mumkin. Mening o'zimga esa ortiqcha hech narsa kerak emas.

Men endi ko'nglim ancha joyiga tushgan holda Tripning gaplariga loqaydlik bilan quloq solib o'tirardim. Trip aytayotgan bu taklifini avvaldan unga qilgan yaxshiliklarim uchun aytayotgan bo'lishi ham mumkin, negaki bu boyoqish aroqxo'r olgan qarzlarini aslo qaytarib bermagan edi.

– Xo'sh, qanaqa hikoya ekan bu? – deb so'radim men xuddi bosh muharrirlardek qalamimni qo'limda chaqqon aylantirarkanman.

– Hozir senga aytib beraman, – dedi Trip. – Bu bir qiz haqida. Go'zallik haqida. Jannatdagi hurlardek sohibjamol bir gul haqida. Bamisoli atirgul g'unchalari labiga tomib turgan tonggi shudring yanglig' pokiza bir sanam haqida. O'sha huriliqo yigirma yildan buyon olis bir orolchada yashab kelib, umrida Nyu-Yorkka qadami tegmagan ekan. Men uni to'satdan o'ttiz to'rtinchi ko'chada uchratib qoldim. U endigina Sharqiy

Daryodagi soldan tushib turgan ekan. Yana qaytarib aytaman, qiz o'taketgan darajada maftunkor edi. Bir mahal u meni ko'chada to'xtatib olib, qandaydir Jorj Braun degan kimsani qayerdan topishi mumkinligini so'rab qoldi. Buni qara, og'ayni, u mendan Nyu-Yorkday katta shaharda umrimda tanimagan va bilmagan odamimni qanday qilib topish mumkinligini so'radi-ya! Bunisiga nima deysan endi?

Xullas, shu bahona qiz bilan suhbatlashib qoldim. Qizning gaplaridan bildimki, u kelasi hafta Dod Hiram ismli yosh bir fermerga turmushga chiqayotgan ekan. Ammo o'zi tilga olgan o'sha Jorj Braun hamon qizning qalbidagi eng ardoqli joyni egallab turar, qiz sho'rlik bo'lsa uni sira-sira unutolmasdan qiynalayotgan ekan. Jorj esa bir vaqtlar qiz kelgan joyda yashagan, kasbi kosibchilik bo'lgan, biroq u yerdagi topish-tutishiga qoniqmasdan katta shahardan katta pul topish dardida Nyu-Yorkka ketib qolgan ekan. Lekin u shu ketgan ko'yi Grinburgda qaytib qorasini ham ko'rsatmagan. Endilikda bo'lsa yosh fermer Hiram qizga xaridor bo'lib turgan ekan. Biroq eng kerakli fursat, ya'ni Adadan rozilik so'rash payti kelganida, ha, aytgancha, qizning ismi Ada ekan, qiz bechora indamasdan uyidan qochib chiqqan-u otga minib to'g'ri temiryo'l stansiyasiga yetib kelgan. U soat 6:45 da jo'naydigan poyezdga ulgurib qolish uchun nihoyatda shoshilgan, zudlik bilan shaharga ketishni o'ylagan ekan. Jorjni qidiraman, deb shuncha beboshlik qilganini hali o'zi yaxshi tushunmaydi. Ayollarni o'zing bilasan-ku, bir qiziqqan ishlarini oxiriga yetkazmagunlaricha tinchimaydi. Endi Jorjni topaman deb boyoqish ancha sarson bo'ladigan ko'rinadi.

Qizning ahvolini ko'rib turib, uning bir o'zini qarovsiz tashlab ketolmadim, negaki u bu shaharda hali hech kimni tanimas, chora izlab qo'lidan keladigan bor-yo'q ishi esa ko'ringan odamdan „Siz Jorj Braun degan odamni ko'rmaganmisiz?" deb so'rash edi. Odamlar ham unga turli xil javob qaytarar, biri: „Qanaqa edi uning ko'rinishi? Moviy ko'zli, bo'yi unaqa baland emasmidi? Ha, ha, xuddi o'shanday kishi 125- ko'chada, shundoqqina oziq-ovqat do'konining yonginasida ishlab yuradi. Otlarga egar-jabduq sotadigan qandaydir do'konda hisobchi bo'lib ishlasa kerak".

Ko'ryapsanmi, qiz qanchalar sofdil va beg'ubor. Bilasanmi, qiz kelgan joy ayni qishloqning o'zi, bir juftgina o'rdak fermasi bor, ammo suvga nihoyatda boy yerlar. U joyga har yili o'nlab sanoatchilar borib kelishadi. Lekin baribir g'irt qishloq joy. Ammo sen, o'sha qizni bir marta bo'lsa ham ko'rishing kerak! Axir, mening qo'limdan nimayam kelardi? Cho'ntagimda bir mirim bo'lmasa... Qiz ham oxirgi pulini poyezd chiptasiga ishlatib yuborgan ekan, buning ustiga, bir to'plam qilib saqich ham sotib olibdi. Biri tugasa, ikkinchisini sumkasidan olib, tinmay saqich chaynab turibdi. O'ylay-o'ylay, oxiri uni oldin o'zim yashagan 32- ko'chadagi yetimxonaga olib borib, joylab keldim. Hozir o'sha darbadar qizchaga qayerdan bo'lsa ham bir dollar topib berish juda muhim. Bu yetimxona boshlig'i keksa Mak Jinnis onaning bir kunlik ish haqi. Senga o'sha yetimxonani ko'rsatib qo'yaman.

— Boyadan beri nimalar deb valdirayapsan o'zi, Trip? — birdan jahlim chiqib Tripga o'shqirib berdim. — Birortaqizi-qarli yo bir mantiqli narsani hikoya qilib berarmikansan, deb o'ylabman. Har kuni Sharqiy Daryodagi o'nlab sollar uzoq orollardan kelgan sen aytgandek qizlardan nechtasini olib keladi. Ma'niliroq gaplardan aytsang-chi, xumpar!

Tripning nochor qiyofasidagi ma'yuslik ifodasi yanayam chuqurlashdi. U qo'llarini ilojsiz qolgan odamdek shalviratib ko'tardi-da, har bir so'zini alohida ta'kidlashga urinib, hijjalab:

— Tushunmayapsanmi, — dedi, — shu voqea tufayli eng zo'r hikoya yozib olishing mumkin. Bu ish sening qo'lingdan keladi. Hozir senga gapirib bergan gaplarim — qizning boshidan o'tkazgan sarguzashtlar, qizning o'zi, uning go'zalligi, boqiy va sof muhabbat dostoni — bularning barini ro'yi-rost yorug' qilib tasvirlash faqat sening qo'lingdan keladi, og'ayni. Mana shu hikoya orqasidan kamida o'n besh dollar yoki bundan ham ortiq pul ishlab topasan. Ketgan xarajating esa atigi to'rt dollarga tushadi.

— Qanaqasiga to'rt dollar pulimni ketkazishim mumkin? — deb so'radim men Tripdan shubha qilib.

— Bir dollar puling yetimxona rahbari Mak Jinnis xonim uchun ketadi, — deb javob berdi u darhol, — ikki dollari esa qizni yurtiga qaytarib yuborish uchun.

— Xo'sh, to'rtinchisi-chi? — dedim men tezda miyamda hisob-kitob qilib.

— Oxirgisi menga bo'ladi, — dedi Trip. — Viski olib ichaman o'sha pulingga. Nima deysan, rozimisan?

Men kinoyali kulimsirab qo'ydim-da, yana o'z ishimga qaytib, yoza boshladim. Biroq miskin, ayanchli va laganbardorlardek tobe odamning qorasi o'chishi qiyin ekan. Birdan Tripning peshanasi yaraqlab, ko'zlari cheksiz yalinchoqlik bilan yoshlanib ketdi:

— Bilasanmi, og'ayni, Adani bugunning o'zida o'z qishlog'iga jo'natib yuborish kerak. Erta ham emas, indin ham emas, shu kun tundayoq Ada o'z uyida bo'lishi shart. Lekin bilasan-ku, mendek aroqxo'rning qo'lidan hech ish kelmaydi. Na pulim bo'lsa, na bitta-yarimta tanishim bo'lsa. O'zimcha sen shu sarguzasht voqeadan birorta hikoya qoralab, cho'ntagingga biroz choychaqa ishlab olarsan, degan o'yda kelgandim. Nima bo'lgan taqdirdayam, birodarim, baxtiqaro va ojiza bir qizni tezda, bugun kechga qolmasdan iziga qaytarib yuborishimiz zarur, tushunyapsanmi?

Tripning zorlanib aytgan o'tinchlaridan yuragim og'rib ketdi. Vijdonim uyg'onib, odamiylik burchim to'g'risida eslatib qo'ydi. Qiziq, nima sababdan odamiylik burchi bunchalik zalvorli bo'larkin? Yo'q, men o'sha bechoragina Ada ismli qiz uchun ketajak bir-ikki so'm pulimga zig'ircha afsuslanmayotgandim, biroq, qasam ichamanki, Trip uchun ketadigan pulim qulog'ini ushlab ketishi aniq edi. U men beradigan pulni albatta tungi daydishlari hamda bema'ni mazaxo'rakligi uchun sarflab yuboradi. Kallamda shu o'ylar aylanarkan, sovuqqonlik bilan indamasdan palto bilan shlapamni kiya boshladim.

Ko'chaga chiqqanimizda, Trip o'z-o'zidan nihoyatda itoatkor holda oldinga o'tib, mashina va odamlarning g'ala-g'ovurli shovqini ichida Mak Jinnis onaning makoni tomon yo'l boshlab ketdi. Tabiiyki, chiqqan mashinalarimizning haqini men to'lab bordim.

Yetimxonaeshigi qo'ng'irog'ini Tripning o'zi jiringlatdi. Lekin ostonada qaltirab, xuddi qochishga shay turgan quyondek qulog'ini ding qilgancha qo'ng'iroqqa javob kutdi. Bu

telba daydi ahvolini kuzatib turib, u qanday hayot kechirganini, har kuni katta-katta yer xo'jayinlaridan dakki eshitaverib, qo'rqoq bo'lib qolganini fahmladim.

– Menga tezroq bir dollar uzat, tez bo'l! – dedi u tipirchilab.

Eshik qiya ochilib, Mak Jinnis xonimning sarg'imtir yuzi bilan olaygan ko'zlari ko'rindi. U tomog'ining tagidan isqirt pushti ro'molini mahkam o'rab olgandi. Trip bir so'z aytmasdan, bekaning bir kunlik xizmat haqi bo'lgan pulni chiqardi va o'sha bir dollar bizlarni ichkariga kirishimizga ruxsat olib berdi.

– U mehmonxonada, – dedi Mak Jinnis xonim ro'molini yanayam tang'ib bog'larkan.

Biz ayolning ko'rsatmasi bilan to'g'ri mehmonxonaga kirib bordik. U yerda, nimqorong'i xona ichida piqillagancha yig'lab, saqich chaynab o'tirgan qizni ko'rdik. Trip to'g'ri aytgan, mehmonimiz benihoya go'zal ekan. Hatto yig'i ham uning chiroyini oshirgan, ko'z yoshi qizning ko'zlarini yashnatib, yanada chaqnatib yuborgandi. Ha, bunday ajib go'zallik har qanday ijod kishisi uchun bemisl ilhom parisi bo'la olardi! Besh-o'n daqiqacha uning yuziga tikilib, qizning yoshini aniqlab olishga urindim va ichimda bu navnihol Ada Louri juda borsa endi o'n to'qqiz yoki yigirma yoshga kirgan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Meni tanishtirayotgan paytda, avvaliga Ada Louri xushlamaygina qarab o'tirdi, biroq asta-sekin g'aroyib bir hasharotga qiziqqanday chanqoq kuzatuvchanlik bilan boshdan oyog'imgacha bir-bir qarab chiqdi.

Trip stol yonida tik turar, bir qo'lining barmoqlarini yoygancha o'sha stol ustiga qo'yib olgan, xuddi katta marosimlarda ishtirok etayotgan qandaydir rahbar yoki huquqshunos kabi qaddini tantanali holatda g'oz tutib turardi. Lekin uning nigohlari hech qanday amaldornikiga o'xshamasdi. Eskirib, uvadasi chiqib ketgan paltosi ham odamning shunaqangi rahmini keltirardiki, o'sha ondayoq unga himmat qilib, xayr-ehson qilgingiz kelib ketardi.

Meni, ayniqsa, Tripning xunuk bo'lib o'sib ketgan sochsoqoli ko'proq tashvishga solardi. Miss Adaday sohibjamol sanam qoshida o'zimni shunday ivirsiq, go'l va daydi tanishim

tomonidan tanishtirilganim uchun izza tortib ketdim. Ammo shunday bo'lishiga qaramay, Trip bunday vaziyatlarda o'zini ancha dadil tutar ekan. U tezda holatni bayon qilib, asosiy mas'uliyatni mening bo'ynimga yuklab qo'ydi. Muhimi, mening gazeta uchun yozadigan hikoyamga yaxshigina material topib bergani evaziga bir shisha viskiga ega bo'lib olardi.

— Bu yigit mening do'stim bo'ladi, — dedi u. (Men bu vaqt zirillagancha titrab turardim.) — Janob Challers, — deb gapida davom etdi Trip, — men, miss Louri, sizga bergan va'damning ustidan chiqaman. Mana, qarab turasiz hali. Bu og'aynim muxbir bo'lib ishlaydi, shunday ekan, menga qaraganda u tuzukroq ish bitiradi. Shuning uchun ham do'stimni bu yerga olib keldim. (Eh, Trip, buncha ham vaysaqi bo'lmasang!) — Uning aqli har baloga yetadi, — dedi Trip, — qilishimiz eng ma'qul bo'lgan ishni ham yolg'iz u biladi.

Tik oyoqda tursam ham, ayni shu vaziyatda xuddiki omonat kursida o'tirganday hadeb bezovta bo'lardim.

— Demak, haligi... miss Louri, — dedim men Tripning almoyi-aljoyi valdirashlariga g'ashim kelib turarkanman, — kamina sizning xizmatingizdaman. Ammo, hali boyagi... umuman olganda, bo'lib o'tgan voqealardan to'la xabardor emasman. Men... haligi...

— O, qo'yavering bu savdolarni, — deya jilmaydi miss Ada bir daqiqa, — bu voqealardan fojia yasashning hojati yo'q, albatta, oddiy bir ko'rgilik, xolos. Bilasizmi, bu mening Nyu-Yorkka birinchi marta kelishim. To'g'ri, bir paytlar, judayam yosh paytim — taxminan olti yasharligimda bir marta kelganman. Ammo unisi yaxshi esimda qolmagan. Xullas, bu shaharning bunchalik katta ekanligini yetti uxlab, tushimda ham ko'rmagan edim. Baxtimga, ko'chada janob... janob Snipga duch kelib qoldim, undan bir tanishim haqida so'radim. Janob Snip esa meni shu yerga olib kelib, kutib turishimni tayinladi.

— Miss Louri, sizga maslahatim, — deb qoldi Trip shu payt, — janob Challersga nimaiki o'tgan bo'lsa, barini mufassal bayon qilib bering, hech narsani yashirib o'tirmang. U mening haqiqiy do'stim bo'ladi. (Men asta-sekin Tripning

gaplariga biroz ko'nika boshladim.) Men shunga to'la ishonamanki, eng to'g'ri yo'lni sizga janob Challers ko'rsatib beradi.

– Voy, nega aytmas ekanman, albatta, aytaman, – dedi miss Ada bolalarcha soddalik bilan, – berkitadigan tayinli gapning o'zi ham yo'q bu yerda. Hammasi kelasi payshanba oqshomi – Hiram Dodga turmushga chiqishim belgilangan kundan boshlanib ketdi. Tan olishim kerak, Hiram Dod unaqa yomon odam emas, o'ziga to'q, ikki yuz akrlik yeri bor, qishloqdagi eng sara ferma va mashinalarning egasi. Lekin baribir ko'nglim g'ash edi. Unashtiruvimizning ertasi kuni ertalab shartta otimni egarladim-u stansiyaga qarab uchdim. Mening Danser ismli oppoq otim hozir stansiya atrofidagi bir daraxtga bog'loqlik holda turibdi. Uydagilarga hech narsadan shubhalanib yurmasliklari uchun ularga dugonam Syuzi Adamsnikiga ketayotganligimni aytib qo'ydim. Shubhasiz, oxir-oqibat, katta g'alva bo'lishi turgan gap edi, biroq men parvo qilmadim. Poyezdga chiqdim-u bu yerga, Nyu-Yorkka yetib keldim. Baxtimga, ko'chada janob...janob Flipga duch kelib, undan bir tanishim to'g'risida so'radim. Ya'ni, haligi J... J... ni qayerdan topa olishimni so'radim.

– Menga qarang, miss Louri, ochig'ini gapiravering, – baland ovozda qizning gapini bo'lib qo'ydi Trip shu vaqtda, menga ham qizning ikkilanib so'zlashi shubha uyg'ota boshlagandi, – siz o'sha Hiram Dod degan yigitni yoqtirasiz, shundaymi? U yaxshi bola, sizga ham yaxshi gapiradi, shundaymi?

– Ha, albatta, men uni yoqtiraman, – dedi miss Louri biroz hayajonlanib, – u yaxshi odam. Qolaversa, menga ham binoyidek muomala qiladi. U hammaga ham shunday o'zi.

Miss Adaning beqaror gap-so'zlaridan shuni bildimki, bu oyimqiz uchun atrofidagi hech bir yigit, hech bir odamning yomoni yo'qdek edi. Uning oshiqlari qizning boshi ustiga soyabon tutib, bu go'zallik uchun jon tala-shib, ancha kuydi-pishdi qilishganini shundoq ham fahmlab olsa bo'lardi.

– Lekin, – deb gapida davom etdi miss Louri, – o'tgan tunda xayolimga yana J... Jorj kelaverdi va men...

Birdan qizning maftunkor chehrasi yerga boqdi-da, yelkalari silkingancha yig'lay ketdi. Naqadar go'zal to'fon bo'lmasa bu hol! Miss Louri oxiri o'zini tutolmay, yig'lab yuborgandi. Ammo uning hattoki, yig'isi ham juda nazokatli edi. Men jon deb miss Lourini yupatgan bo'lardim, lekin na iloj, men Jorj emasdim. Baxtimga, Hiram ham emasdim, bunga ham shukur qildim. Yig'lay-yig'lay, oxiri ko'zyoshlar do'li nihoyat, tindi. Qiz o'zini iloji boricha qo'lga oldi-da, siniq jilmaydi. Bu qizdan tengi yo'q rafiqa chiqqan bo'lardi. Qiz ohista xo'rsinib qo'ydi-da, o'zining qadim va qadrli sevgi dostonini so'zlay boshladi:

– Bilaman, men g'irt telbaman, – dedi u chuqur xo'rsingan ko'yi, – biroq... biroq o'zimni tutib turolmadim. Axir Jorj Braun bilan men juda-juda yoshligimizdan, Jorj sakkiz va men besh yoshda ekanligimizdan buyon bir-birimizni sevardik. Bundan to'rt yil oldin, men endigina o'n yettiga kirgandim. Jorj qishloqni tark etib, katta shaharga ketib qoldi. U mirshab yo bo'lmasam temiryo'l boshlig'i yoki birorta durustroq kasbikorni ko'zlab ketib qolgandi. Biroq u keyin tag'in mening oldimga qaytib kelishga va'da bergandi. Ammo men Jorjdan u ketganidan beri hech qanday xabar olmadim. Lekin... lekin men uni sevar edim...

Miss Louri yana o'zini tutolmasdan, yig'lay boshladi. Bu orada men Tripni xuddi muz orasiga tiqilib qolgan odamday besaranjom bo'lib, sarosimaga tushib qolganini kuzatib turdim. Men unga endi-endi tushunayotgandim. Trip menga baxtiqaro qizning achchiq va alamli sevgi qissasidan ta'sirli bir hikoya yaratib berishga astoydil chiranayotgan edi.

– Xo'sh, nima deysiz endi, janob Challers, – deb qoldi Trip menga yuzlanib, – bu yosh xonimga qanday yo'l ko'rsatasiz? Men Miss Louriga eng to'g'ri qarorni siz chiqarib berishingizni aytgandim. Qanday fikrdasiz endi?

Sekin yo'taldim-da, Tripning gaplarini ma'qullab qo'ygandek bo'ldim. Shunda men o'z burchimni tushundim. Men ayyorlik bilan qo'lga tushgan, biroq aslida mehr-oqibat yuzasidan bitta savob ish qilish imkoni tug'ilgan edi hayotimda. Tripning tutgan yo'li menga to'g'ri va adolatliday bo'lib tuyildi.

Mehmonimiz zudlik bilan shu kunning o'zidayoq o'z qishlog'i – Grinburgga jo'natib yuborilishi kerak edi. Eng avvalo, qizga yaxshilab tushuncha berish, uni ishontirish, ko'ndirish vanihoyat qo'ligachi ptaberib, kechiktirmasdan ortigaqaytarib yuborish zarur edi. Ayni damda o'sha Hiram va Jorjni juda yomon ko'rib ketdim, lekin men baribir o'z burchimni bajarishim shart edi.

Kelishilgan to'rt dollar bu yerda hech qanday ahamiyatga ega emas, ammo men qiladigan yaxshilikning tom ma'nodagi ahamiyati benihoya muhim bo'lgani uchun bir-ikki soat ichida hamma ishni hal qilib, poyezd yo'nalishigacha belgilab olishim kerak edi.

– Miss Louri, – dedim men imkon qadar ochiq gapirishga harakat qilib, – hayot nihoyatda g'alati bir o'yinxonaga o'xshaydi.

Ovozim o'zimga g'oyatda samimiy va sokin eshitilib ketdi va men miss Louriga ham xuddi shunday tuyulayotgan bo'lishi kerak, deb umid qildim.

– Biz, odatda, ilk bora sevib qolgan insonlarimizga kamdan kam hollardagina yetishamiz. Bizning birinchi muhabbatimiz go'zal yoshligimizning sehrli yog'dusi misol o'tmishda qolib ketadi. Ammo hayot baribir davom etaveradi.

Eng oxirgi aytgan so'zlarim xuddi havoda aks-sado bergandek jaranglab ketdi.

– O'tmish esdaliklari faqat shirin xotira bo'lib qoladi, – deya davom etdim men keyin. – To'g'ri, ular har doim kelgusi umrimiz bo'yi ham biz bilan birga yashab kelishi ham mumkin, biroq ularni endi aslo amalga oshirib bo'lmaydi. Axir hayot haqiqatdan iborat, unda xayolotga ortiqcha o'rin bo'lmaydi. Na ilojki, hayot shunday reallikdan iborat bag'ritosh hakamdir. Ko'nglingizga og'ir olmasangiz, sizdan bir gap so'rasam maylimi, miss Louri? Siz o'sha janob... haligi... ismi Dod bo'lgan janob bilan baxtli va farovon umr kechirishingizga ko'zingiz yetadimi? Gaplaringizdan u yomon odamga o'xshamayapti.

– Voy, albatta, u sirayam yomon odam emas, – deb javob berdi miss Louri. – Aytdim-ku, men u bilan yaxshi

chiqishaman. U menga hattoki, mashina bilan motorli qayiqda sayohat qildirishni va'da qildi. Lekin, baribir, to'y kuni yaqinlashgani sari men haliyam uni – Jorjni o'ylab, sog'inishdan o'zimni tiyolmayapman. Jorjga aniq nimadir bo'lgan bo'lsa kerak, aks holda menga hech yo'qsa, bir dona bo'lsayam xat yozib jo'natgan bo'lardi. Ketayotgan kuni Jorj qo'liga bolg'acha bilan iskanani oldi-da, bitta o'n sentlik tangani qoq ikkiga bo'lib, birini menga, ikkinchisini o'ziga olgandi. Biz o'shanda to bir-birimiz bilan qayta uchrashgunimizgacha o'sha tanga bo'laklarini hamisha yonimizda saqlab kelishga so'z bergandik. Mening o'sha tanga bo'lagim hozir uyimda qolgan, kiyim javonimdagi tortma ichidagi qutida turibdi. Jorjni shu yergacha qidirib kelganim endi o'zimga qip-qizil jinnilik bo'lib tuyilyapti. Bu shaharni bunchalik katta ekanligini sira aqlimga sig'dirolmagan edim.

Shu payt Trip odatdagi beo'xshov, telbanamo tarzda kulib qo'ydi, u haliyam tomog'ini ho'llash najoti bo'lgan sadaqa puliday bir dollar ko'yida joni halak bo'lib turardi.

– Eh, bu shaharga kelgan yigitlarning bir talayi tezda kelgan joylarini esdan chiqarib, o'zlaricha shaharlik bo'lib olishadi, – dedi u. – Jorj ham shundaylardan bo'lsa kerak. U allaqachon boshqa qizga ko'ngil qo'yib, o'sha bilan sevi-shib yurgandir ham. Yo bo'lmasa, ko'cha-ko'yda tentirab, aroq-xo'r bo'lib ketgandir. Siz, miss Louri, indamasdan janob Challersga quloq tuting va zudlik bilan uyingizga qayting, ana o'shanda eng to'g'ri ishni qilgan bo'lasiz.

Ana endi harakatni boshlaydigan fursat bo'lgandi. Soat millari asta-sekin vaqt peshindan og'ib borayotganini ko'rsatib turardi. Valdirashdan tinmayotgan Tripga xo'mrayib qarab qo'ydim-da, miss Louriga imkon qadar muloyimlik bilan uyiga qaytishi zarurligini yotig'i bilan tushuntirdim. Qolaversa, bu majnuna qizga bir zamonlar bedarak bo'lib ketgan omadsiz Jorj bilan kelgusi hayotda to'kin va farovon turmush qurish xayolini haqiqatdan ancha yiroqdagi xom tasavvur ekanligini ham uqtirib o'tdim.

Miss Louri otini stansiyadagi daraxtga bog'liq holda tashlab kelganini yana bir bora esladi. Trip bilan men unga stansiyaga

yetib olgan zahoti otini topib, tez orada uyiga kirib borishini qayta-qayta tayinladik. Shunda biz uning uydagilarga qanday bahona to'qishi xususida tashvishlanib qoldik, qiz allaqachon dugonasi Syuzi bilan gapni „bir joyga qo'yib olgani"ni aytdi. Adaning shu gapidan keyingina ancha xotirjam bo'lib, ortiqcha to'polon chiqishidan qo'rqmay qo'ydik.

Shunday qilib, miss Lourini so'nggi sayohati — uyiga jo'natib yuborish uchun yo'lga chiqdik. Men hamon bu go'zal qizning husn-u latofatidan ko'z uzolmay, unga mahliyo bo'lib borardim. Ammo juda shoshilishimiz lozim, chunki borgan sari kech kirayotgan edi. Trip, men va miss Louri daryodan o'tkazadigan sol tomon shoshib bordik. O'sha yerda men Grinburgga ketadigan poyezd chiptasi bir dollar-u sakkiz sent ekanligini aniqlab oldim. Qolgan yigirma sent pulga miss Louri uchun bir donaqip-qizil, chiroyli atirgul sotib oldim. Miss Louri solga o'tirib, mamnun qiyofada biz bilan xayrlashar ekan, biz uning qo'lida silkitib ketayotgan ro'molchasining mayin hilpirashidan ko'z uzolmay, miss Lourining qorasi uzoqlashguncha ancha payt unga termilgancha sohilda turib qoldik. Nihoyat qiz ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan men va Trip bir-birimizga yuzlandik. Men Tripning o'sha miskin va baxtiqaro yuziga ko'zim tushishi hamonoq xayoliy osmonlarimdan bir lahza ichida yana yerga qulab tushdim.

Hayotda baxt va baxtsizlik orasi bir qadam bo'larkan-da, Tripning kirlagan aftiga qaradim-u miyig'imda kulib qo'ydim. Ayni chog'da u ko'zimga har galgidan ham ko'ra horg'in, yalinchoq va nihoyatda pastkash bo'lib ko'rinib ketdi. Kissamda qolgan eng oxirgi ikkita dollarimni paypasladim-da, Tripga nafrat bilan qiya qarash qildim. U qarshilik qilayotgandek alfozda kutib turardi.

— Xo'sh, birorta hikoya to'qiy oldingmi? — deb so'radi u xirillagan ovozda. — Hikoya bo'lgandayam qanday degin, shaxsan o'zing ishtirok etgan hikoya!

— Bir qator ham to'qiyolganim yo'q, — dedim men sovuqqonlik bilan. — Hamma gap faqat puldamas. Muhimi, biz bir insonga yaxshilik qila oldik. Eng katta mukofot mana shu.

– Meni kechirasan, – dedi Trip arang ovoz chiqarib.– Sening pulingni sovurdik. Baribir ham bularning barini sen qoyilmaqom qilib yoza olasan.

– Kel, qo'y shu gapingni, – dedim men qo'l siltab, – yaxshisi, uyga qayta qolaylik.

Shu paytda ko'nglimda boshqa bir fikr tug'ilib qoldi. Men Tripgaberadigan pulimni ko'zim qiymayotganini sezdim. Bu tentak aroqxo'r ter to'kib topgan pulimni bekordan bekorga isrof qilib yuboradi. Shundoq ham, avval olgan qarzlarini qaytarib bermagan.

Horigan ko'yi jim ketib borarkanmiz, Trip bo'shashgancha uvadasi chiqib ketgan paltosi tugmalarini yechib tashladi. Shu vaqt paltosi cho'ntagidan aftidan bir paytlar dastro'molga o'xshagan qandaydir latta ichiga o'ralgan yaltiroq nimadir yerga tushib jaranglab ketdi. Hayron bo'lib, yaltiroq narsani qo'limga oldim. U iskana bilan yarmi kesib olingan yigirma sentlik tanga bo'lagi edi.

– Nima! – to'satdan bor haqiqat shuurimda yalt etdi-yu, qattiq baqirib yubordim. Hayratdan katta-katta ochilib ketgan ko'zlarimni shumshayib turgan Tripgaqadadim.

– Ha, shunday, – deya iqror bo'ldi Trip g'amgin holda.– O'sha Jorj Braun deganlari hozir qarshingda turgan mana shu baxtiqaro Trip bo'ladi. Endi bularning nima ahamiyati bor, og'ayni?!.

Boyagina sho'ring qurg'ur aroqxo'rga ravo ko'rmay turgan yagona ikki dollar pulimni o'ylab ham o'tirmasdan, uning dag'al va kir qo'llariga tutqazib qo'ydim. Chunki endi men unga ich-ichimdan achinib ketgandim.

Ambrus BIRS

(AQSH)

QO'RQUV

Kentukkilik Orrin Brauer o'z pochchasining qotilligida ayblanib, ancha vaqtdan beri odil sud hukmidan qochish taraddudida edi. U hibsda saqlanayotgan graflik qamoqxonasida uzoq paytdan buyon sud jarayonini mislsiz dahshat ichida kutib

yurar ekan, pirovardida bu qamoqdan qochib ketishni o'zicha rejalashtirib qo'ygandi. Nihoyat u qulay vaziyat topdi-da, qamoqxona soqchisining boshiga qattiq temir panjarasi bilan yaxshilab tushirdi-yu, tashqariga chiqib, qop-qorong'i tun qa'riga singib ketdi. Soqchini qurolsiz holda tashlab ketganiga qaramay, Brauer ne mashaqqatlar bilan qayta erishgan ozodligini himoya qilish uchun o'zi bilan hech qanday qurol, loaqal bironta asbob-uskuna ham olib ketmagandi. Shaharchadan bir amallab chiqishi bilan qochoq quyuq o'rmon ichiga yo'l solib, katta ahmoqlik qilib qo'ydi; zero u bu o'rmon tarafga necha yillardan buyon qadam ham bosmagandi, vaholanki bu beadoq hudud hozirda yanayam yovvoyilashib ketgandi.

Aksiga olib, tun ham tobora quyuqlashib borar, butun falak choyshabi uzra na oy va na yulduzlar ko'rinar, Brauer bo'lsa bu atroflarda umri bino bo'lib yashab ko'rmagandi. Binobarin u mazkur joy to'g'risida biror-bir ma'lumotga ham ega emasdi. Inchunun, ayni alfozida bechora qochoqning adashib qolishi ham tabiiy holat edi. Brauer qayoqqa qarab ketayotganini aniq idrok qilolmay qoldi, u shaharchadan chindanam uzoqlashib ketdimikan yoxud tag'in u yerga qaytib ketyaptimikan? Mana shu savol Orrin Brauer oldida sira yechilmas tugunligicha qilt etmay turaverdi. U shuni aniq-tiniq bilardiki, qatlga hukm qilingan zolim qotil ortidan albatta ko'pchilik qidiruvga safarbar etiladi va Brauer xuddi shu holatida hash-pash deguncha qo'lga olinadi, demak, uning ne-ne sa'y-harakatlari bilan qamoqdan qochishi ham bir pullik ish bo'ladi, lekin Brauerning aslo qo'lga tushgisi yo'q, kelib-kelib o'zi uchun uyushtirilajak ta'qibga o'zi ko'mak berib qo'ysinmi? Zero Brauer uchun ozodlikning hatto bir daqiqasi ham bebaho fursatga aylanib qolgandi.

To'satdan u o'rmon bag'ridan eski bir yo'l ustiga chiqib qoldi. Hali ko'ngli yorishguncha ham bo'lmay, birdan uning qarshisida, cheksiz zulmat qo'ynida osmondan tushganday harakatsiz qotib turgan qandaydir odam sharpasi namoyon bo'ldi. Ortga chekinish uchun juda kech edi.

Qochoq shu narsani aniq sezdiki, agarda u orqaga, o'rmonga bir qadam qaytishi bilanoq shartta otib tashlanishi muqarrar vaziyat edi. Shunday qilib, har ikki sharpa qorong'ilik ichida xuddi daraxtlar kabi tek turib qolishdi. Brauer o'z yuragining ayni soniyalardagi qattiq-qattiq dukullashidan nafasi bo'g'ilib, jon-poni chiqib ketguday bo'ldi, narigi sharpa esa ancha mug'ambir chiqib qoldi, u hozircha zig'ircha ham sarosimaga tushib qolmadi.

Oradan bir lahza o'tgach (bu bir lahza Brauer uchun go'yo bir yilga teng bo'ldi), to'lin oy bulutsiz keng samoning yamoq ko'ylagi ichiga ohista yashirinib oldi. Shu pallada qochoq qotil noiloj taqdirga tan berdi-da, qonun vakilining izmiga bo'ysunib, nochor qo'llarini ko'tardi va boyagi sharpa oldiga tushib, ko'rsatilgan yo'l tomon itoatkorona yurib boraverdi. U behad qo'rqqanidan na o'ng va na chap tarafga bir qur bo'lsa-da ko'z tashlay olar, hattoki, nafas olishgayam arang jur'at qilardi, halitdan butun vujudi oldindan bashorat qilingan qatl xavfidan beayov azoblanishni boshlab yuborgandi.

Brauer shuncha hibsga olingan qotillar ichida eng shafqatsizi va eng makkori hisoblanardi. Bu hol uning o'z pochchasini qanchalar sovuqqonlik va berahmlik bilan o'ldirganidan ham yaqqol ayon edi. Bu yovuz kimsa bamisoli odam qiyofasidagi maxluqning o'zginasi edi. Brauer uchun qarindoshlari sud zaliga kelishining umuman keragi yo'q edi. Ularning o'sha yerda bo'lmaganlari unga ko'proq ma'qul kelardi. O'z o'limiga endigina tan berib, shu so'ngsiz azob ichida qovurilayotgan bir onda o'sha qarindoshlari uning bo'ynini qatl jodusidan qutqarib qolishlari haqiqatdan ancha yiroq edi. Zotan Brauerning qo'lidan endi nimayam kelardi? Ayni pallada qochoq uchun qo'rqmas va yengilmas qotil sifatida har qanday zarbani ham churq etmay qabul qilib olishdan bo'lak hech qanday yo'l yo'q edi. Orrin Brauer allaqachon o'z taqdiriga bo'ysunib bo'lgandi. Shu taxlitda ular eski yo'l bo'ylab o'rmon ichidan o'tdilar-da, qamoqxona tomon safarlarini davom ettirib ketaverishdi. Bir vaqt Brauer tuyqus o'zida qandaydir jur'at topdi-da, boshini

orqaga burib, o'z ta'qibchisini ko'rishga tavakkal qildi. Faqat bir marta xolos, deb o'yladi u. Sim-siyoh kecha bag'rida, deyarli o'zining ko'lankasi ustida turib qolgan ortidagi odam sharpasi oy nurida elas-elas ko'zga chalindi. Brauerni qo'lga olgan odam chakkasida temir panjara izlari bo'rtib qolgan, ruhdek oppoq oqarib ketgan qamoqxona soqchisi Burton Duf edi! Orrin Brauerning tili kalimaga kelmay qoldi.

Nihoyat ular shaharchaga kirib kelishdi. Hamma yoqda to's-to'polon gupurgan, biroq shaharda ayol va bolalardan bo'lak hech kim ko'zga ko'rinmasdi, ammo ular ham ko'chadan tezda daf bo'lishdi. Qamoqxona tomon dastlab oldinda ketayotgan jinoyatchi qotil yo'l soldi. Brauer asosiy kirish tarafga to'g'ri bordi-da, og'ir temir eshik tutqichi ustiga qo'lini qo'ydi. Hech bir buyruqsiz eshikni itarib ochdi-da, ichkariga kirgan zahoti o'zini besh-olti chog'li qurollangan mirshablar qurshovida ko'rdi. Brauer kalovlangancha orqasiga o'girildi. Uning ortidan ichkariga hech kim kirib kelmadi. Qamoqxona soqchisi Burton Dufning o'lik tanasi esa koridordagi uzun stol ustida kecha tundan buyon cho'zilib yotardi.

Kevin TUTCHENER
(AQSH)

TAQDIRI AZAL

Oddiygina juma kechasi. Yaqin do'stlarimdan ba'zilari bilan chaqchaqlashib o'tiribmiz. Ularni qadim do'stlarim deyolmayman-u, ammo samimiy Jo va Petyani taxminan olti yil avval uchratganman. Liza va Jimi ham Jo bilan Petyani tanishadi. Qolaversa, Peni hamda sevikli Seli ham davramizda (taxminan yetti oy muqaddam Seli bilan qisqa muddatli munosabatda bo'lgandim, lekin ehtiroslarim cho'g'i uzoq yonmagandi). Nihoyat davradan o'zim ham joy olganman — qirq uch yoshli bo'ydoq, yumshoqqina BMVsi, mo'may daromadi va serhasham kvartirasi bor chekmaydigan kompyuter dasturchisi. Yaxshigina o'tirgandik, biroq men to'satdan hamma narsa tugaydigan nuqta — o'lim haqida o'ylab qoldim.

Bu ko‘p noxushliklar keltiruvchi masala, biroq nimadir sabab bo‘lib, shu savol menga hech tinchlik bermadi. Balki o‘sha sabab ortimda qoladigan oilam yo‘qdir? Qayerdadir, o‘n yillardan buyon bedarak ketgan — sobiq rafiqamdan bo‘lak hech qanday oilam bo‘lmagan.

Shunday qilib, men ulfatlarimga imkon berib eslatdim: ,,Biz qachon va qay holatda jon berishimizni bilishni xohlamaymizmi? Jin ursin buni“, dedim ularga.

Hamma balo shu nuqtadan boshlandi. Ulfatlarim jimib qolishdi, lekin faqat mengina hali ham bu muammoni yechishga urinishdan to‘xtamasdim. Musiqa tindi, mashhur qo‘shiqchi Mark Balanning ham mavqeyini tushirib, ortiq tinglamadik. Atrofimizdagi suhbatning to‘ng‘illagan ovozi ham tinib qoldi. Peni to‘satdan kelib qoladigan yakunni bilish unga yoqmasligini xitob qildi. Uning qo‘lida hamon vino stakani turar va bitta barmog‘ini tepaga cho‘zgancha, shahd bilan gapirardi. Shu payt siljishga harakat qildim, ammo o‘rnimdan qimirlolmadim. Men xuddi ularday ahvolda edimmi? Ular o‘zi meni ko‘ra olishyaptimi? Bu holat faqat menda ro‘y berdimi, do‘stlarimda hammi yoki qovoqxonadagi barcha odamda hammi... yoki butun olamdami? Ko‘zlarimni yumdim va o‘zimni qotib qolgan holatdan chiqarish harakatida o‘ngacha sanadim.

Keyin ko‘zlarimni ochib, o‘zimni shu yerda, begona bir xonada, oq yog‘och stolda o‘tirganimni ko‘rdim. Hech qanaqa eshik yo‘q, devorlar esa qandaydir rangdor aylanma yo‘lda tebranayotganga o‘xshardi. Alohida bir bo‘lmacha diqqatimni tortgancha men tomonga surilib keldi va go‘yo bir filmdan parcha qo‘yayotganday bo‘lib tuyuldi. Manzarada olomon tomonidan buzilayotgan devor ko‘rsatilardi. Men buni Berlin devori ekanligini payqadim. Boshqa tasvirga oldim, kumushrang joydan sekin va dag‘allik bilan pastga qarab odimlab ketayotgan yolg‘iz tanani ko‘rdim... Bu oyga qadam qo‘ygan Armstrong haqidagi tasvir edi.

Xudoyim-ey, men qayerdaman o‘zi?

— Bu muhim emas.

To‘satdan kelgan ovoz sasidan stulimdan yiqilib tushay dedim. Uzun sariq sochli va oq to‘rli ko‘ylak kiygan bir qiz

mening qarshimda o'tirardi. U gapini tugatishi bilanoq jilmayib qo'ydi. Butun a'zoyi badanim qotib qolganday tuyildi. Bunday mukammal go'zalni umrimda ko'rmaganman.

– Siz kimsiz? – deb so'radim umuman beparvolik bilan.

– Bu muhim emas, – deb takrorladi u yana. So'ng oldidagi stol ustida turgan papkaga imo qilib qo'ydi. Papka ustiga esa ismimdan bo'lak narsa yozilmagandi. – Mana, sen xohlagan narsa: kun, payt va holat. – Qiz jilmaygan ko'yi papkani men tomonga surdi. – Endi qaror qilishing kerak, agar rostdanam bilishni istagan bo'lsang.

So'ramasligim kerak edi, chunki qiz nimani nazarda tutganini tushunib bo'lgandim. Ammo men qachon va qanday o'lishimni chindanam istayapmanmi? O'tirishlardan qochib, ikki yuz gramm ichib olganingdan keyin yaxshi bo'larkan. Biroq hozirgi tanlovim ayni haqiqat bo'lib, bu ahmoqona orzum juda bachkanaday ko'rindi.

– Bilib qo'y, – davom etdi qiz. – Sen hech narsani o'zgartirolmaysan. Boshqacha harakat qilib ko'rgan taqdiringda ham hech nima o'zgarmaydi. Bu yerda nimaiki yozilgan bo'lsa, barchasi uchun allaqachon hukm o'qib bo'lingan. Sen hech narsani o'zgartirolmaysan. – Qiz so'zlar ekan, hamon jilmayib turardi. G'alati bir iliqlik vujudimni chulg'ab oldi. Onam menga bergan tasalli yodi xotiramni to'ldirdi. Boshqa bolalik esdaliklari xuddi olis yulduzlarning qorong'i osmonda yarq etib chaqnashiday bir necha soniyalar ichida ko'z oldimdan bir-bir o'tdi.

– Mabodo men unga yaqin borsam, u ham surilib, nimanidir o'zgartira oladimi?

– Sen hech narsani o'zgartirolmaysan. U allaqachon yozib bo'lingan.

Nima qilishim kerak? Qachon va qanday o'lishimni, uni o'zgartirish uchun hech narsa qilolmasligimni bilish... Qanday ahvolga tushib qoldim... Bir qarab ko'rishim kerak. Hech bo'lmaganda bir qarab ko'rish imkoniyati borligi yaxshi. O'z taqdirimni, jilla qursa, to shu nuqtasigacha kuzatib tura olaman. Papkani yuzimga yaqin olib keldim va qizning yuziga qaradim... u hamon jilmayib turibdi. Fikrimni o'zgartirishdan avval muqovani ochdim. Ichida, ustiga mening ismim yozilgan yagona

varaq bor edi. Quyida sana: 1- ? mart 2007-? mart 2007-? yil... Qog‘ozdan boshimni ko‘tardim, uni yirtib olishga jur’at qilolmadim.

– U bugun... hozirning o‘zi!

Stol va stullar ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi va men qiz bilan yuzma-yuz qoldim. U qo‘limdan ushlab, nariga olib ketdi.

– Yodingda tut, sen hech narsani o‘zgartirolmaysan.

Iste’foga chiqqan ikki nafar tibbiyot xodimi bir-birlariga qarab qolishdi. Doktor qo‘l soatini tekshirib, tiz cho‘kib o‘tirgan joyidan turdi. Yana ikkita yashil kiyim kiygan kishilarga qaradi.

– 8 – 40 – 7 – 20 daqiqa bo‘ldi. To‘xtatishimiz kerak deb o‘ylayman. Bo‘ladimi?

Tibbiyotchilar har ikkisi ham marhumning dong qotib qolgan do‘stlariga o‘girilib qarashdi va boshliqlari gapini bosh irg‘ab ma’qullashdi.

– Hamdardman, – dedi boshliq. – Qo‘limizdan kelganini qildik. Fahmimcha, aslida uning vaqt-qazosi yetgan ekan.

NODIRABEGIM IBROHIMOVA
tarjimasi

Anil CHANDRA
(Hindiston)

BAXT KELTIRGAN SHABNAM

Men uni birinchi marta Mumbaydagi sohil bo'yida uchratgandim. U qumdan saroy yoki shunga o'xshash nimadir yasash bilan ovora, ko'zlari esa dengizga boqib chaqnardi.

— Salom, — u birinchi bo'lib gap boshladi.

Men boshimni irg'ab javob qaytargan bo'ldim. Kayfiyatim yo'qligi uchun jilmayib qo'yishga ham yaramadim.

— Men qurish bilan bandman, — davom etdi u.

— Ko'rib turibman. Nima bu? — so'radim e'tiborsizlik bilan.

— Eh, bilmasam. Shunchaki qumni juda yaxshi ko'raman.

„Bu yaxshi", o'yladim men va qumda sirpanib uning shippagini o'ynay boshladim.

— Bu tomchi-yu shabnamlardan qurilgan uy! Qarang, u qaldirg'ochning uyasiga o'xshaydi, — dedi qizcha quvonib.

— Nima deding, tomchi...

— Ha, bu baxt shabnami. Onamning aytishicha, shabnamlar o'zida baxt olib yurar va uni bizga ulashar ekan.

„Alvido, baxt!" — pichirladim o'zimga o'zim, — „Assalom, qayg'u!"

Yo'limda davom eta boshladim. Mening asablarim buzilgandi, chunki u qizning hayoti to'la-to'kis, hech qanday dardi yo'q edi.

— Ismingiz nima? — u meni to'xtatdi.

— Prabxa. Mening ismim Prabxa Ativl.

— Meniki esa Nutan. Yoshim oltida.

— Xursandman, Nutan.

U kulib yubordi.

— Sen quvnoq ekansan, — dedim men ham jilmayib. So'ng bu yerdan ketdim. Ketgunimcha uning hayotbaxsh kulgisi meni ta'qib etib bordi.

— Yana keling, Prabxaji, — dedi u ortimdan. — Baxtli kunlarimizni davom ettiramiz.

Kunlar va haftalar bir-biriga egizakdek o'tib borardi. Otamning azoblari-yu, onamning dard chekishlari bunga hamohang bo'lardi. Quyoshli tonglarning birida men dengiz burguti qurib ketgan, shudring tomchilarini eslatuvchi uyani ko'rib qoldim. „Men darhol sohilga borishim lozim", deya dengizga shoshildim.

Dengiz bo'yida uni kuta boshladim. Uzoqdan ko'rinishi bilan negadir g'alati bo'lib ketdim.

— Salom, Prabxaji, — gap boshladi u. — Men bilan o'ynagingiz keldimi?

— O'ynashimni istaysanmi? — dedim qandaydir alam bilan.

— O'zingiz bilasiz, ayta qoling.

— Yolg'izlik o'yiniga nima deysan? — davom etdim istehzoli kulib.

Biroq Nutan gapimdan kulib yubordi:

— Bu o'yinni bilmas ekanman.

— Unda yur, shunchaki sayr qilamiz, — dedim uning yuzidagi samimiylikni ko'rib.

— Qayerda yashaysan? — so'radim undan.

— Shu atrofda, — u nariroqdagi uylarni ko'rsatdi. Yo'l bo'ylab faqat Nutan gapirib ketdi, mening xayolim esa boshqa yerlarda kezardi. Biz Nutanning uyiga yetgach, u bugun kunni juda maroqli o'tkazganini aytdi. Qiziq, o'shanda birinchi marta unga qarab chin qalbimdan kulib qo'ydim.

Oradan uch haftalar o'tgach, biz yana sohilda uchrashdik. Mening hatto Nutan bilan salomlashishga ham xohishim yo'q edi.

— Bugun mendan xafa bo'lma, — dedim men. — Yolg'iz qolmoqchiman.

Nutanning ichidan dardli xo'rsiniq eshitildi:

— Nega unday deysiz?

Mening jahlim chiqib, unga o'shqirdim:

— Chunki mening onam o'ldi!

Ichimda esa „Nega bu gapni unga aytayapman?" deb o'yladim.

— Oh, — dedi Nutan. — Unda baxtsiz kun bo'libdi-da...

— Ha, kecha ham, undan oldingi kun ham, umuman, har kunim baxtsiz... endi ket.

— Og'ridimi?

— Nima?

— Joni og'ridimi? Onangiz o'layotganida...

— Og'rimay bo'ladimi? — men bazo'r shivirladim.

Bir oylardan so'ng men yana sohilda hozir bo'ldim. Biroq Nutan negadir ko'rinmasdi. O'zimni aybdor sezib, qizchani sog'inayotganimni angladim. Nutanni izlab, uning uyiga yo'l oldim. Eshikni ko'zlari shishgan bir yosh ayol ochdi.

— Salom. Mening ismim Prabxa. Qizingiz bugun sohilga kelmadi, uyda bo'lsa kerak?

— Oh, Prabxaji, sizmisiz? Uyga kira qoling... Nutan siz haqingizda juda ko'p gapirgandi. Agar u sizni bezor qilib yuborgan bo'lsa, iltimos, kechiring.

— Unchalik emas, u juda quvnoq qiz ekan. Hozir qayerda?

Ayol xo'rsinib gap boshladi:

— Nutan o'tgan hafta vafot etdi. U oqqon dardi bilan ko'p kurashdi, sizga bu haqda aytmaganmidi?

Men zo'rg'a stolga suyanib, o'zimni tutishga harakat qildim.

— U sohilni juda sevardi, — davom etdi ayol. — Shuning uchun u yerga borishiga to'sqinlik qilmasdim. Sohilda u dardini unutardi, qo'lidan hamma ish kelishiga ishonardi. Baxtli kunlarining maskani edi u yer. Biroq so'nggi kunlarda ahvoli og'irlashib qoldi... — ayolning ovozi titradi. — Sizga bir narsani berib qo'yishimni tayinlagandi. Biroz kutib turolasizmi, topib chiqay...

Mening esa boshim gangib qolgan, quloqlarimga ishonmas, hamma eshitganlarim tushga o'xshardi. Bu bechora ayolni esa nima deb ovutishni bilmasdim.

Ayol menga konvert tutqazdi, uning ustiga qing'ir-qiyshiq harflar bilan „Prabxajiga" deb yozilgandi. Ichini ochdim. Bu bo'yoq bilan bolalarcha chizilgan surat edi. Unda sap-sariq keng sohil, ko'm-ko'k dengiz, oq-qora qushlar tasvirlangan, ostiga esa „Sizga shabnamlar baxt olib kelsin!.." deb yozilgandi. Ko'zlarim yoshga to'ldi, yuragim anglab bo'lmas tuyg'ular iskanjasida qoldi. Ayolning qo'llaridan tutdim:

— Meni kechiring, kechiring!..

Surat hozirgacha men bilan birga, uni ishxonamga osib qo'yganman. Bu beshtagina so'z, mana necha yildirki, meni baxtsizlikdan asrab kelmoqda. Bugun men Nutan ikkimiz orzu qilgan narsaga erishdim: uning shabnamlari menga chindan ham Baxt ato etdi.

KICHKINA TABIB

Ertalab uyqudan uyg'onishim bilan oshxonadan onamning yo'talgani eshitildi. Garchi uning bir necha kundan buyon mazasi yo'qligini sezsam-da, tuzukroq e'tibor bermagan ekanman. Biz Kasauliga kiraverishdagi izvosh o'tadigan ko'chada yashardik. Bu yer Shimlaga yaqin, Himolayning kichik shaharchalaridan biri edi. Xullas, yo'tal kuchayib borardi. Men kiyinib, shippagimni oyog'imga ilgancha, pastki qavatga tushdim. Onam sillasi qurigandanmi, kichkina stulga o'tirib qolgandi. U oshxona kaminini yoqishga uringan, biroq ishi chappasiga ketgan, shekilli. Shuning uchun nochor qiyofada, yuragi tez-tez urgancha hansirab qolgandi. Men uning yoniga chopdim.

— Tuzukmisiz, oyi?

— Ikki daqiqada o'zimga kelaman, — dedi u jilmayishga urinib. — G'o'lalar nam tortib qolibdi. Tutun bo'g'zimni achitib yo'taltirdi, xolos.

— Xonangizga bora qoling, olovni o'zim yoqaman.

— Axir hali bolasan-ku? — dedi u kuyinib. — Men hali ishga borishim kerak.

— Bu ahvolda ishlolmaysiz, — dedim men. — Bugun maktabdan qolib, sizga ko'z-quloq bo'laman.

— Sen o'zingga bir piyola choy damlab icholsang mamnun bo'lardim, bolam, — dedi onam aybdorona.

So‘ng o‘rnidan turib, tebrangancha tepa qavatga ko‘tarildi. Qadamlaridan sezdimki, uning ahvoli tobora yomonlashmoqda. Men quruq g‘o‘lalardan oshxonaga keltirib qo‘ydim. Onam juda tejamkor bo‘lgani uchun g‘o‘lani avaylab ishlatardi. Shuning uchun doim dimog‘i tutunga to‘lardi. Men esa bir bog‘lam g‘o‘lani qalab, olov yoqishga kirishdim. So‘ng onam uchun qovurilgan non tayyorladim. Men onam shu yog‘ surtilgan nonni yegach, tuzalib ketadi, deb qattiq ishonardim. Keyin choy damlab, piyolalarga quydim.

— Hammasini to‘g‘ri qildimmi? — so‘radim onam kelgach.

— Qaynagan suvdan qoldimi? — dedi onam asta.

— Men yarmini choy uchun damlab, qolganini olib qo‘ydim, — dedim tezgina.

— Men hech nimaga yaramaydigan onaman...

— Bu mening aybim, — dedim choy ho‘plab, — axir, choy damlash uchun choynakka qancha quruq choy solish kerakligini eslolmayman. Ha, o‘tirganingizda shol ro‘molingizni o‘rab oling.

Men tezda o‘rnimdan turib, qaynagan suv va bo‘sh piyola keltirdim. So‘ng kamroq quruq choy solib, me’yordagidek, och rangli choy damladim. Nonushtadan so‘ng eshik yoniga borib, maktabga oshiqayotgan tengdoshlarimni kuzatdim.

— Tezroq chiqa qol, Xari, kech qolasan, — baqirishdi ular.

— Bugun borolmayman. Onamning tobi yo‘q, ularga qarab turishim kerak.

— Birorta shifokorni chaqirib kelaymi? — so‘radim onamdan.

— Yo‘q. U meni shifoxonaga yuboradi, unda sen nima qilasan? Yaxshisi, dorixonaga borgin-da, yo‘talga qarshi kuchli dori olib kela qol.

— Menga yozib bering. Yozib olmasam nomini unutib qo‘yishim mumkin. Ha, „kuchli dori“ deb katta-katta harflar bilan yozing-a. Tushlikka nima ola kelay, sut va nonmi?

— Ha, — dedi onam.

Maktabni ortda qoldirib, yo‘limda davom etdim. Bu yerda katta tepalik bor edi, men uni kesib chiqayotib, o‘n daqiqacha to‘xtab, atrofni kuzatdim. Pastda maktab bog‘i, stadion,

o‘tloq go‘yo suratda chizilgandek yastanib yotardi. Men shu yerda kun bo‘yi qolib, tabiatni tomosha qilishni istadim.

Uyga kelganimda, tepa qavatda Urmila xolani onam bilan o‘tirganiga ko‘zim tushdi. U onamning yaqin dugonasi edi, uni doim „xola“ deb chaqirardim. U o‘rta yoshlarda bo‘lib, aqliraso, biroz mish-mishga o‘ch, biroq taqvodor ayol edi.

— Yaxshimisiz, oyi? — so‘radim men.

— Tuzuk, — onam jilmaydi.

— Bugun o‘rningizdan turmang, — dedi Urmila xolam.

— Sizga choy damlab beraman, — dedim.

— Yaxshisi, men damlay qolay, — dedi xolam.

— Yo‘q, siz ovora bo‘lmang, xolajon. Men buni o‘rganib oldim.

— U juda yaxshi bola-da. Katta bola! Hozir bunaqalarni uchratish qiyin. Bugungi zamon bolalari yovvoyi va berahm bo‘lib ulg‘aymoqda.

Tush vaqti onam ko‘chada biroz o‘ynab kelishimga ruxsat berdi. Lekin men uzoqqa ketmadim. Chunki bilardim, agar uydan uzoqlashsam, o‘yinga berilib ketib onamni unutib qo‘yishim mumkin. Kun g‘ira-shira bo‘lgach, men oshxonadagi lampamoyni yoqdim. So‘ng shamdonni lipillatib, onamning xonasi tomon yo‘l oldim. Maqsadim onamga kitob o‘qib berish edi. To‘g‘ri, hali mening talaffuzim unchalik kelishmaydi, boisi biz endigina bir bo‘g‘inli so‘zlarni o‘rganayotgandik. Lekin sharillatib o‘qib volidamni xursand qilmoqchi edim. Kechroq Urmila xolam yana keldi. Qaytayotganida eshik yonida to‘qnashdik.

— Agar ertalabgacha ahvoli o‘nglanmasa, shifokor chaqiramiz, — dedi u yelkasi osha menga qarab.

— Nega? Ahvollari shunchalik yomonmi?

— Unday demoqchimasman-u... lekin, menimcha, u zotiljamga yo‘lliqqan.

— Doktor onamni shifoxonaga olib ketmaydimi?

— Shunga umid qilamiz. Agar olib ketsa, buning yomon tomoni yo‘q. Kasal bo‘lgandan ko‘ra davolansa, yaxshi-ku, to‘g‘rimi? Ha, uyingda brendi bormi?

— Bor...

— Uni isitib onangga ichir. Xiyla kuch bo‘ladi.

Lekin onam brendini rad etdi. Men majburlab qoshiqda issiq brendi ichirdim. Keyin onam uyquga ketdi. Men ham shamlarni o'chirib, o'rnimga borib yotdim. Biroq ko'zimga uyqu kelmadi. Ko'nglim bo'lmay onamning yoniga bordim. Peshanasini ushlab ko'rsam issiq ekan, o'zi tinmay alahsirardi. Men qo'rqib, yonlariga yotib oldim. Agar chindanam zotiljam bo'lsa, unda nima qilamiz?

Ertalab onam o'nglanmadi. Men esa ularning yonlarida parvona edim. Kaminga olovni o'zim yoqdim, onamga sut qaynatib berdim. Keyin Urmila xolamning eshigini qoqib, ahvolidan boxabar etdim.

— Unda shifokor chaqirish kerak, — dedi u.

Men biroz qarz olish maqsadida sal nariroqda yashaydigan tog'amnikiga yo'l oldim. So'ng shifokorning yoniga bordim. Uyga kelgach, shifokorga suv, sovun va toza sochiq uzatdim. Tushlikka unnay boshladim.

Tushlikdan keyin shifokor meni chaqirdi. U xo'ppa semiz, gulduros tovushli kishi bo'lib, o'zini shaharchaning eng yaxshi shifokoriman, deb hisoblardi.

— Xo'sh, mana buni olib kela olarmikinsan? — dedi u qo'lidagi dorilar yozilgan qog'ozga qarab. — Bu dori Jekson dorixonasidagina bor, xolos.

— Borib kelaman, — dedim shoshib, uning shifoxonadan so'z ochmaganiga quvongancha.

— U juda uzoqda. Qayerdaligini bilasanmi, ishqilib?

— Topib boraman.

— Uning aqli yetarmikin? — shubhalanib so'radi shifokor onamdan.

— U dunyodagi eng aqlli bola, katta yigit bo'lib qolgan...

— Unda mayli. Onangga g'amxo'rlik qil, avayla. Ko'pincha bunga kattalar ham amal qilmaydi...

Onam menga Jekson dorixonasiga qanday borishni tushuntirdi, keyin qo'limga jigarrangli dorilar qog'ozini tutqazdi. Men yo'l-yo'lakay katta bolaligimdan mamnun jilmayardim. Ma'buda Parvatidan esa onamga tinmay sog'liq tilardim. Agar doridan pul ortsa, onam uchun o'n paysaga shirinlik sotib olishni ham mo'ljalladim. Ibodatxona yaqinidagi Jekson dorixonasini topib bordim. U yerda bir kichkina qizni uchratdim.

— Sen biroz navbat kutishing lozim, — dedi qiz.

— Nega? — hayron bo'ldim men.

— Dorixonachi amaki mening dorimni tayyorlaguncha kutishing kerak.

Men dorilar ro'yxatini amakiga uzatgach, qiz o'tirgan stulning yoniga cho'kdim.

— Qayerliksan? — so'radi qiz. — Men Kolonel tarafda turaman. Dori kim uchun?

— Onamga.

— Kasal bo'lib qoldimi?

— Qattiq yo'talyapti.

— Balki zotiljamdir, — dedi qiz o'ylanib. — Opam ham o'tgan yili zotiljam tufayli olamdan o'tgan. Men olmoqchi bo'lgan dori esa narigi opamga. U doim darmondori ichib turishi kerak. Qayerda yashayman, deding?

Men yashash joyimni tushuntirdim: baland tog'lar yonbag'ridagi uycha. Keyin qiz o'zining uyini ta'riflab berdi. „Ularning uyi biznikidan chiroyli ekan", deb o'yladim men uni tinglagach. Qizcha gapdon, ochiqko'ngil edi. Biz amakining chaqirganini ham eshitmay qolibmiz.

— Mana, — dedi amaki qizga shisha idishdagi dorini uzatib. Qiz unga yigirma besh paysa berib, rahmat aytdi va menga o'girildi:

— Seniki tayyor bo'lguncha, birga o'tirib turaman.

Qiz dori tayyor bo'lguncha men bilan o'tirdi. Amakiga yigirma besh paysa berdim va biz tashqariga chiqdik. Ortgan pulimga shirinlik sotib oldim va qiz bilan to'nkaga o'tirib, uni yeya boshladik. Atrofdagi yosh nihollar, osmondagi quyosh, mayin shabada, hatto soyalarimiz ham ajoyib edi.

— Mening dorim juda achchiq, — dedi u. — Xohlasang ichib ko'r, judayam yomon.

Men uning shishasidagi dorini bir ho'plab ko'rdim. U chindanam juda taxir edi. Keyin u mening dorimdan tatib ko'rdi.

— Juda shirin ekan, — dedi so'ng. — Yo'tal dorilar o'zi shirin bo'ladi. O'zing ham ichib ko'rgin.

Chindam ham dori og'zimga yoqdi, u xuddi shokoladga o'xshardi.

— Menga yana ozgina ber, — dedi u.

— Unda tugab qoladi-da...

— Qara, hali tagida ko'p-ku!

Unga yo'q deyolmadim. Qizning sochlari och tusda, ko'zlari katta-katta, chiroyli edi. Birozdan so'ng men shishaga qarab, xavotirga tusha boshladim. U deyarli bo'shab qolgandi. „Endi nima qilaman?" o'yladim men.

— Oxirigacha ichib qo'ya qol, — dedi qiz. Men uning aytganini qildim. Keyin bo'sh shishaga qarab, ma'buda Parvatiga qilgan nolamni esladim. Afsuski, ortgan pul — yigirma besh paysani ham ishlatib qo'ygandim. Men asabiylasha boshladim, qiz esa menga ahamiyat bermasdi. U meni aldab, dorini so'nggi tomchisigacha ichib qo'ydi. Qo'llarimni yuzimga bosib, yig'lab yubordim.

— Nega yig'layapsan? — so'radi u hayron bo'lib.

— Onam kasal, biz esa uning dorisini ichib qo'ydik.

— Yosh bolaga o'xshamasang-chi! Po'kagi chiqib, dori to'kilib ketdi, desang hech nima qilmaydi. Axir shunaqa bo'lishi ham mumkin edi.

— Men ma'buda Parvatiga so'z bergandim. Pulni onamga sarflayman, deb. Lekin uni sen uchun ishlatib yubordim.

Men jahl bilan shishani otib yubordim va yugurib ketdim. Meni endi faqat bir narsa — mo'jiza qutqara olardi. Men ibodatxonaga kirib, ma'budaga iltijo qila boshladim. Aybim uchun tavba qilib, menga yordam berishini o'tindim: qani endi uyga borganimda onam tuzalib ketgan bo'lsa...

U yerdan qaytarkanman, go'zal tabiat ko'zimga balo bo'lib ko'rinardi.

Uyimizda sukunat hukmron edi, faqat olovning chars-churs tovushi eshitilardi. Onam hamon to'shakda cho'zilib yotgandi.

— Nima gap, o'g'lim? — dedi u xonaga yaqinlashishim bilan.

— Men dorini yo'qotib qo'ydim.

Shunday degach, o'qdek uchib o'zimni yotog'imga tashladim va yig'lab yubordim.

— Oh, yuzingni yuv, bolam. Bunda sening aybing yo'q. — Onam ortimdan kirib, sochlarimni siladi. — Tanang judayam issiq, bir nima bo'ldimi?

— Men dorini ichib qo'ydim, — aybimni tan oldim.

— Hechqisi yo'q, — onam shivirladi. — Hali o'zing go'daksan-da... Bu mening aybim, seni katta bola deb urintirib qo'ydim. Endi yechinib, joyingga yot.

Onam o'rnidan turib, oyoq kiyimimni yechib qo'ydi. Men esa tezda uxlab qoldim. Onamning chiqib ketganini ham sezmadim. Ko'zlarimni g'ira-shira ochib, Urmila xola tepamda jilmaygancha, peshanamni silayotganini payqadim.

— Hechqisi yo'q, — dedi xolam. — Ancha uxlab olding. Onasining o'rniga yotib olibdi-da...

Keyin onamning lampamoy ko'tarib yonimda o'tirganini ko'rdim. U menga jilmayib qo'ydi. Mening ko'nglim joyiga tushdi. Chindan ham mo'jiza sodir bo'lgandi...

SO'QMOQDAGI SO'QIR SARGUZASHTI

Suhbir Chavxon qoyatoshga o'tirdi, uning do'ppisi ko'zlarini to'sib qo'ygan, qaynoq tuproq yalang oyoqlarini qizitardi. Bu oyoqlar bolaga qayerdaligini bildirishdi. Ular tosh va qum, o'simlik va butalarni sezgan holda manzilda adashmasdilar. Qarshisida esa qushcha sayrardi. Bola uning nima demoqchiligini tushundi. Suhbirning ko'zlari ojiz edi, shuning uchun tabiatdagi barcha jonzot-u o'simliklar unga aso bo'lardi. Bola bu haqda akasi Rajbir va bobosi Shivpriya Chavxondan boshqa hech kimga gapirmagan. Chunki ular bolaning xayolparastligidan hecham kulishmasdi-da.

Suhbirning yoshi o'n to'rtda, odamlar unga achinish hisi bilan boqishlarini u juda yaxshi tushunadi. Biroq bola ko'r bo'lsa-da, bu betakror olamning naqadar go'zalligini his qila olayotganini bilishgandami, aksincha, unga havas ko'zlari bilan qaragan bo'lardilar. Odamlar maysaga ingan shudringni ko'rishmaydi. Ular barmoqlar orqali his qilinadigan narsalar — tuxum, toshlar, g'adir-budur qoyalar, teri kabilarni sezishmaydi. Odamlar hech nimani isiga qarab ajrata olishmaydi. Ular hid sezmas burunlari bilan go'zallikni sezmay o'tadilar.

Suhbir kunni otasining yuzlab echkilariga podachilik qilib o'tkazadi. Bola ularni ikkiga ajralgan tuyoqlari tovushi va

hidiga qarab boshqaradi. Echkilar ham bola chaqirishi bilan kelishadi. Agar bola hushtagini chalsa, poda yig'ilib, daladagi qo'riqqa yo'l oladi.

Quyosh nurlari kamaya boshladi — bolaning eti junjikdi. Demak, shom tushgan, o'yladi Suhbir va hushtagini olib, sokin ohangda chala boshladi. O'tlayotgan echkilar boshini ko'tarib, bolaga qarab qo'yishdi va u tomon kela boshlashdi. Hammasi to'planganini sezgan bola ularni tog'dan pastga ergashtirgancha, qo'riqqa keta boshladi. Erta sahar ularni yana shu taxlit olib chiqib o'tlatadi. Suhbir o'z hayotidan mamnun, baxtli edi.

Biroq o'sha kuni u tog'daligida, Jhansi qirolichasi Lakshmi Bay Angliyaga qarshi urush e'lon qildi. Suhbir buni ota va akasi otlarini jangga tayyorlayotganidan bilib oldi. Ular oila a'zolari bilan xayrlashib, miltiqlarini yelkalariga osgancha, uydan chiqib ketdilar. Bola tuyoq tovushlari to eshitilmay qolguncha jim o'tirdi. Keyin onasini so'roqqa tutdi:

— Endi biz nima qilamiz, ona?

— Bobongnikiga ketamiz, boshqa iloj yo'q.

— Hozir kechqurun-ku. Men u yerlarni bilmayman, adashib qolamiz.

Bola birinchi marta ko'rligidan nadomat chekdi.

Ular ertalab yo'lga chiqadigan bo'lishdi. Tongda ona-bola otlarni aravaga qo'shishdi, qoramol va echkilarni yig'ib, o'n besh kilometrlik safarga tayyorlashdi.

— Ketdik, Suhbir, hamma narsa tayyor bo'ldi.

Bolaning qo'lida paketga o'rog'liq narsa bor edi.

— Men akamning eski to'pponchasini olvoldim. Agar biror xavf tug'ilsa, menga mo'ljalni ko'rsatasiz va men o'q uzaman.

Ona-bola aravaga o'tirishdi.

— Men hech kim emasman, — dedi Suhbir birdaniga. — Men begona joyda, oyoqlarim manzilni menga aytib berolmaydigan yerda hech kim emasman... — Biroz o'tib Suhbir yana tilga kirdi: — Menga aytib bering, ona, nimalarni ko'ryapsiz? Echkilarimni o'tlatadigan tog' hali ham shu atrofdami?

Ona unga atrofni ta'riflab borardi. Nihoyat, manzilga yetib kelishganida, bobosi uyda yo'q ekan. Qishloqda barcha keksa va

yosh bolalar ko'rinmasdi. Suhbir yolg'iz o'tirgancha, kutishdan o'zga chorasi yo'q edi. Ertasiga ham hech qanday yangilik bo'lmadi. Bola bobosining fermasida o'zini yaxshi his eta boshlagandi, lekin baribir u o'z tog'ini qo'msardi.

Bir kuni fermaga askarlar kelishdi — horigan ot-ulovlarda charchagan erkaklar. Suhbir jonqulog'i bilan tinglardi: ular otdan tushishdi, o'zaro gaplasha boshlashdi.

— Siz mening otamni yo akamni ko'rmadingizmi? — Suhbir qo'qqisdan so'radi.

— Sen kimsan?

— Suhbir Chavxon. Mening ko'zim ojiz. Otam Tantia Topning armiyasida.

— Biz ham Tantia Topga qarashli askarlarmiz. Agar ularni ko'rsak, so'raganingni aytib qo'yamiz.

Bola uzoqdan yana otlar dupurini eshitdi. Lekin u hozirgi askarlarning otiga o'xshamasdi: tovushidan og'ir va to'pori otlar edi.

Bola sharaq-shuruq zanjir tovushi va qilichlarning nozik ohangini eshitib turdi. Ular inglizlar edi.

— Sen shu yerdan o'tgan askarlarga ko'zing tushmadimi, ey bola? — so'radi ulardan biri Suhbirdan.

— Kun bo'yi shu yerda edim, — javob berdi u, — hech nimani ko'rmadim.

— Bu bilan hech narsaga erisholmaysan, bola, — dedi ikkinchisi. — Askarlar to'g'ri shu yo'ldan ketishgandi. Hali uzoqqa ketmagan bo'lishsa kerak. Otlari charchagan.

To'g'ri, otlari juda charchagandi, o'yladi bola. Bola garchi ko'rmasa-da, askarlarning qay tomon ot choptirganini hali yo'qolmagan ot isi tufayli sezgandi.

— Qani ketdik, ularga yetib olaylik.

Askarlar bolani aylanib o'tib, yo'llarida davom etishdi. Suhbir ularni o'ttiz chog'li ekanligini taxmin qildi.

Uzoqdan o'q ovozi eshitildi. Uchta, to'rtta... Bu bizning odamlar, o'yladi bola, inglizlar bunaqa o'q uzmaydi. Inglizlarniki tezkor va kuchli. Tog'larda akssado beradi. Suhbir otasi va akasidan xavotir ola boshladi.

Bola ortga — fermaga qaytdi.

— Inglizlarga duch kelmadingmi? — so'radi onasi.

— Duch keldim. Ular men bilan gaplashdi. Ular Tantia Topdagi askarlarimizning ortidan quvayotgandi. Otam va akamning jamoasidan ekan ular.

— Biror yangilik kelib qolar...

— To‘g‘ri, yangiliksiz yashash qiyin, ona. Erkaklarga ham qiyin, ular urushda qatnashadi. Bugun juda qo‘rqdim. O‘zimiznikilar va dushman bilan to‘qnashdim. Inglizlarga o‘zimiznikilarni sotmadim. Ular ko‘rligimni sezishmadi ham. Oh, ona, qo‘limdan nima ham kelardi?

O‘sha tun Suhbir uxlay olmadi. Agar uxlamasa urush haqida o‘ylab, qayg‘urib, go‘yo askarlarga yordam berayotgandek tuyuldi. Tushida u o‘z jang maydonini tuzdi — otlarning kishnashi, qilichlarning jarangi, miltiqlarning paqillashi, odamlarning chinqirig‘i, bari qulog‘i ostida yangragandek bo‘ldi. Yarim tunda turiboq onasiga hayqirdi:

— Onajon, zo‘r tush ko‘rdim. Akam ot minib ketayotgan ekan. Menga miltiq bering, iltimos!..

Suhbir o‘qlarni miltiqqa joylab, tashqariga chiqdi.

— To‘xta, bo‘lmasa ctaman! Bola o‘ziga o‘zi gapirib qo‘ydi.

— Sen miltiqni nima qilasan?

Bola ovoz kelgan tomonga burildi. Bu akasining ovozi edi.

— Rajbir... sen bu yerda nima qilyapsan, keldingmi, bolam? — ona farzandlari sari intildi.

— Onajon, hozir tushuntirib o‘tirishga vaqt yo‘q. Men Suhbirni olib ketgani keldim. U Tantia Topga kerak.

— Tantia Topga? Nima, Suhbirni ham urushga olib ketasanmi?

— Men u yerda nima qilishim lozim? — so‘radi Suhbir ham.

— Yo‘lda aytib beraman, qani ketdik!

Suhbir akasining otiga mingashdi. Osmondan esa yomg‘ir quyardi. Qiziq qayoqqa ketyapmiz ekan, o‘ylardi bola. Yo‘lda toshlar ko‘p edi. Suhbir birdan o‘z tog‘ining hidini his qila boshladi.

— Deyarli kelib qoldik, — dedi akasi.

Rajbir uni otdan tushirdi. Atrof zimziyo edi.

— Suhbir keldimi? — bu otasining ovozi edi.

— Shu yerdaman, dada.

— Xo'sh, bola qani? — bu Tantia Top edi.

— Biz bu yerdamiz, — dedi Rajbir ham. — Unga barini tushuntiring. Men indamadim.

— Quloq sol, Suhbir, — Tantia Top gap boshladi. — Biz yuz kishimiz. Inglizlar esa shimoldan yuzlab jangchilari bilan biz tomon ot surmoqda. Biroq ular bizning qayerga berkinganimizni bilishmaydi. Ularni dengizdan kechib o'tayotganlarida o'rab olmoqchimiz. Ya'ni pistirma...

— Tushundim, — dedi bolakay. — Ularga ikki tomondan hujum qilmoqchisiz.

— Ha. Lekin bir narsa xato bo'ldi. Inglizlar tog'dan yashirincha yo'l topishibdi. Biz aynan shu tundayoq ularni yengishimiz lozim, yo'qsa kech bo'ladi. Afsuski, tog'dan o'tadigan boshqa yo'lni ham bilmaymiz. Bilasan, bu so'qmoqlar juda tor, podachilarning yo'li. Ayniqsa, tunda hech nimani ilg'ab bo'lmaydi. Akangning aytishicha, bu tog'dagi so'qmoqlarni besh qo'ldek bilar ekansan.

— Demak, men ham endi armiya askari bo'larkanman-da?

— Ha, Suhbir, sen yo'lboshchimiz bo'lasan. Axir bu tog'da butun umring o'tgan-ku.

Suhbir darrov ularga yo'l boshladi. Ko'zlari bilan emas, hidlar, sezgilar, oyoqlari nimani his etayotganiga qarab... har bir tosh, daraxt, hid tanish edi.

— Bu echkilar yo'li, — shivirladi otasi unga. — Bu yerlarga kelishingni bilmagandim, bolam. Axir, toyib ketish mumkin-ku?

— Men toymayman. Bu mening tog'im.

Tunda askarlarning ochiq ko'zlari ham hech nimani ko'ra olmasdi. Faqat Suhbirning ojiz ko'zlari barchasini ko'rar, sezar va yo'l boshlardi.

— Biz kelib qoldik, — dedi Suhbir. Tantia Top yengil nafas oldi. Suhbirning otasi uni baland toshga o'tqazib qo'ydi.

— Shu yerdan qimirlama. Bizni kut...

Bola kutishi kerakligini tushundi. Qolganlar jang sari otlanishdi. Birozdan so'ng nariroqdan o'q tovushlari eshitildi. Bir payt bola Tantia Topning „Ular qochishyapti!" degan

gaplarini eshitib qoldi. Olovning achimsiq hidi ufurdi. Suhbirning burni achishdi.

— Suhbir, shu yerdamisan? — otasi uning yoniga kelgandi.

— Ha, dada.

Kimdir uning qo'llaridan ushladi. Bu Tantia Top edi.

— Senga rahmat, bolakay. Sening xizmatingsiz biz ularni topolmay, yengilardik.

Barcha bolaning atrofini o'rab oldi va qo'llari bilan yelkasini qoqishdi.

— Hali sen afsonaga aylanasan, — dedi keksa bir askar. — U „Suhbir haqida doston" deb ataladi.

Suhbir esa ojiz ko'zlari bilan barchaga minnatdorona boqardi.

MINNATDORLIK GULLARI

Ajay Prasad birdan qizardi. Nega uning muallimasi bolaga peshonasini tirishtirib, norozi qarayapti ekan? O'n yoshli bolakay tik qomatli, yuzida hamisha tabassum bilan yuradigan Kumar xonimni juda hurmat qilardi. Muallima doim uning boshini silab, berilgan topshiriqning javobini so'rar, o'quvchisi ham vazifalarni to'ppa-to'g'ri bajarardi. Lekin bugun nima bo'ldi? Bola nima xato qildi ekan?

Maktabdan uyga qaytgach, Ajay ko'zguga qarab o'qituvchisining tund qiyofasini jonlantirishga urindi. Balki kiyimi yaroqsiz va yupun bo'lgani uchun shunday qildimikan? Axir hozir Laknovda ellik uchinchi yilning izg'irin qahratoni kezmoqda.

Ajayning otasi elliginchi yilga qadar temir konida usta bo'lib ishladi. So'ng esa kon yopildi. Ishsizlikdan sarson bo'lgan kezlari esa onasi bir xonadonda xizmatchi bo'lib ishlay boshladi. To'rt farzandli bu oila uch xonali katalakdek uyda istiqomat qilishardi. Kechasi esa kalamushlar bolalarni bezor qilardi.

Kumar xonim bu kalamushlar haqida bilmasa kerak. Ajayning boshi qotdi. Axir u a'lochi o'quvchi-ku, ingliz tilini hammadan zo'r biladi. Xullas, o'sha tun Ajay muallimasidan so'rab barini oydinlashtirib olishga qaror qildi. Biroq

ertasiga ertalab maktabda bu qat'iy qaror quyoshda qolgan yaxmalakdek erib ketdi. Xayriyatki, darsdan so'ng Kumar xonimning o'zi bolani maktab ayvoniga boshladi.

— Men bilan yur, Ajay.

Ular ayvondan chiqib, tashqaridagi oyoq kiyim do'koniga yo'l olishdi.

— Shu yerda o'tir, — buyurdi muallima.

So'ng sotuvchiga yuzlandi:

— Mana bu bolaga loyiq keladigan botinkangiz bormi?

Sotuvchi uning o'lchamini so'ragach, Ajayga lop-loyiq bir botinkani tutqazdi. Qo'lidagi karton qutini quchoqlab olgan bolakay o'qituvchisiga ergashdi, biroq ular gaplashishmay, kiyim do'koniga kirishdi. Bu yerda o'qituvchisi Ajayga yangi ko'ylak va shim sotib oldi. Bola peshtaxtadagi narxlarga qarab, umrida buncha pulni ko'rmaganligi uchun esankiradi. Xariddan so'ng ular maktabga qaytishdi va bir piyoladan issiq choy ichishdi. Ajay esa o'z minnatdorchiligini qanday ifodalashni bilmasdi.

— Endi esa uyingga bora qol, — dedi muallima birozdan so'ng.

— Bu yaxshiligingizni hech qachon unutmayman!.. — shivirladi bolakay xonadan chiqar ekan.

Bir qancha vaqtdan so'ng maktab yopildi, o'quvchi va o'qituvchilar quvildi. Ajay esa minnatdorchilik bildirolmay qoldi, boisi o'qituvchisi yo'qolib qolgandi.

Ajay faqat bir maqsadda — muallimasi ko'ziga uyalmay qarash va qilgan yaxshiligi zoye ketmaganligi, bilimli insonga aylanganligini isbotlash uchun tinib bilmay izlanardi. O'qishga ixlos qo'ygan Ajay ulg'ayib yetuk muhandis bo'ldi. Uylanib, ikki o'g'ilning otasiga aylandi. To'qson birinchi yilga kelib, Ajay yurak xuruji tufayli kasalxonaga tushdi. Shunda o'sha qadrdon o'qituvchisini yodga oldi va izlashlarini buyurdi. U Kumar xonim tirikligiga umid qilar va qayerda yashashi bilan juda qiziqardi. Avgust oyida nihoyat, qishlog'idagi maktabdan xat keldi, uni Kumar xonimning o'g'li yozgandi. Aytishicha, Kumar xonim va janob Kumar o'n besh yil avval nafaqaga chiqib, Dehradunga ketishgan ekan. Xatda ularning telefon raqami ham keltirilgandi.

— Allo... — Ajay muallimasi ovozini darhol tanidi.

— Kumar xonim, bu Ajay! Ajay Prasad.

Ajay o'zini obdan tanishtirgach, Sheyla Kumar gap boshladi:

— Ajay, meni kechirasan, seni eslolmayapman. U paytlarda och va yupun bolalar juda ko'p edi...

— Hechqisi yo'q, — dedi Ajay va yaqin orada muallimasi yoniga borib uchrashmoqchiligini bildirdi.

— Oh, Ajay, yo'l juda olis-ku?

— Masofaning ahamiyati yo'q, sizni ko'rmoqchiman.

Ayol bir muddat jim bo'lib qoldi.

— Men o'sha esingda qolgan o'qituvching emasman. Hozir juda keksayib, munkillab qolganman.

— Men ham albatta yosh bolakay emasman.

Ajay ahvoli o'nglangach, Dehradunga yo'l oldi. Poyezddan tushib bir dasta qizil atirgul xarid qildi va ayolning manzilini ko'zlab keta boshladi. Sheyla Kumar o'quvchisini eng yaxshi sarisini kiyib, yuziga doimiy tabassumini qo'ndirgancha kutib oldi. Ular stol atrofida qirq yillik xotiralarini gurunglashishdi.

— Sizni, siz olib bergan kiyimlarni ko'p eslardim, — dedi Ajay.

Ular xayrlashishar ekan, Sheyla xonim o'quvchisi uni yo'qlagani uchun qanday minnatdorchilik bildirishni bilmasdi.

— Oh, Ajay, tilimga so'z kelmaydi.

— Qo'yavering, bir vaqtlar men ham sizning holingizga tushganman. Mana, nihoyat, rahmat aytishga fursat yetibdi. Menga qilgan yaxshiligingiz xuddi mana shu gullardek samimiy va begard edi. Endi siz shu gullarni asrang...

IYULNING MAYIN SHABBODASI

Malini Tembi Punadagi „Grinfild" maktabiga muallima bo'lib kelganda yigirma beshinchi yozini qarshi olgan edi. Ayni paytda bu yoz Dipak Pradanga o'n olti yoshni tuhfa etgandi. Muallima maktabga qadam qo'yishi bilanoq bolalar uni tabriknomalar va pushti gullarga ko'mib tashlashdi. Qiz shunga munosib: juda go'zal edi. Hammaning nazarida, u jazirama iyulda mayin bir shabbodaday bo'lib

kirib kelgandi. Yilning aynan shu kunlarida ob-havo g'alati bo'lardi: na issiq, na sovuq. Malini bu yerga kelgandan so'ng go'yo hamma narsa o'z iziga tushgandek bo'ldi.

Birinchi kuni darsning ilk daqiqalarida Malini o'z ism-sharifini doskaga yozganidan keyin sinfxona negadir yorishib ketgandek bo'ldi. Bu paytda Dipak qo'lidagi bir parcha qog'ozni g'ijimlab, kimlargadir otish bilan band edi. Darsdan so'ng hamma ketgach esa negadir qo'liga artgichni oldi-da, yozuv taxtasini yog' yalagudek qilib tozaladi.

– Nima qilyapsan? – so'radi Tembi xonim stolidan turib, bolaga o'girilar ekan. U doskadagi mashqlarni hali tekshirib bo'lmagandi.

– Doskada bo'sh joy qolmabdi, yordam berish uchun artib qo'ydim. Lekin keyin sizdan so'ramaganim yodimga tushdi...

– Menimcha, bir safar seni kechiramiz, – dedi u kulib.

Ertasiga Dipak yo'lni kesib o'tib, o'qituvchisi yashaydigan uyning qarshisidan chiqdi. Tembi xonim endigina eshikdan chiqayotgan ekan.

– Men shu yerdaman, – dedi bola.

– Qanday yaxshi, – dedi o'qituvchisi ham. – Kutilmagan tashrif bo'ldi.

– Kitoblaringizni ko'tarishib yuborsam maylimi?

– Albatta. Rahmat, Dipak.

Ular bir necha daqiqa indamay borishdi. Qiz unga muloyimlik bilan nazar tashlar va bolaning xursandligidan o'zi ham jilmayardi. Ular maktab binosiga yetib kelishgach, bola unga o'girildi.

– Yaxshisi, shu yerda ajralamiz. Boshqa o'quvchilar noto'g'ri tushunishi mumkin.

– Shunday deb o'ylaysanmi?

– Axir men o'quvchingiz, siz esa o'qituvchimsiz-ku, – dedi Dipak chin dildan kuyinib.

– Dipak... buni o'ylama.

Malini yo'lida davom etdi.

Bir necha hafta ular dars payti gaplashmadilar. Bola har kuni dars tugagach, qiz yozuv-chizuv ishlari bilan bandligida, indamay doskani tozalar edi. Ba'zan bu sukunat kech-

ki soat beshgacha ham cho'zilar, qiz ishlarini tugatgach, Dipakning bir chetda jimgina kutib o'tirganiga guvoh bo'lardi.

— Uyga qaytadigan vaqt bo'ldi, — derdi Tembi xonim. Shundan keyin bola darrov o'qituvchisining sumkasini ko'tarib olardi. Ular keng dala bo'ylab ketishar va turli mavzularda gaplashardilar.

— Katta bo'lganingda kim bo'lmoqchisan, Dipak? — so'radi o'sha kuni xonim.

— Havo kuchlari uchuvchisi. Men osmonning eng baland nuqtasiga chiqmoqchiman va chiroyli tabiatni o'sha yerdan turib kuzatmoqchiman, xuddi qushlar kabi.

— O, maqsading yuksak ekan.

— Bilaman, shuning uchun qattiq harakat qilyapman, — keyin bola bir zum o'ylanib qoldi. — Bir iltimosimga xo'p deysizmi?

— Ha, nima ekan u?

— Men har yakshanba uyingiz yonida joylashgan markaziy xiyobondagi ajoyib ko'lga boraman. Ko'lda bir gala o'rdag-u baliqlar bor. Balki siz ham menga sherik bo'larsiz?

— Kechir, yakshanbada men band bo'laman.

— Baribir kutaman.

— Taklifing uchun rahmat.

— Sizni xafa qilib qo'ymadimmi?

— Albatta yo'q, Dipak. Nima so'rasang ham haqqing bor.

Bir necha kundan keyin Tembi xonim bolaga „Yozning tungi orzulari" nomli kitob berdi. Dipak uni tuni bilan o'qib chiqar, so'ngra ikkisi kitob haqida uzoq suhbatlashishardi. Dipak qiz bilan kunora ko'rishardi. Malini esa unga doim „Boshqa yonimga kelma", demoqchi bo'lar, biroq bu ish qo'lidan kelmasdi. Bola qizdan maktabga ketish va qaytish chog'i Shekspir, Tagor va Kipling haqida so'rashni yoqtirardi. Suhbat chog'i qiz unga qaramaslikka harakat qilardi. Biroq bir kuni darsdan so'ng bola doimgidek artgichni qo'liga olib, doskani hafsala bilan artayotgan paytda Malini undan ko'zlarini ololmay bir dam tikilib qoldi...

Yakshanba kuni Dipak ko'l bo'yida baliq tutib o'tirgandi. Birdan xonimning u tomon kelayotganini ko'rib o'rnidan turdi.

— Men shu yerdaman, — kuldi qiz.

— Kelganingiz uchun rahmat! Juda xursandman!

— Menga baliqlarni ko'rsat.

Ular ko'l bo'yida o'tirishdi. Yengil shabada qizning sochlari va sarisini o'ynoqlab, bola tomon hilpiratib uchirar edi. Dipak uning yonidan bir necha qadam nariga surildi.

— Baliq tutish shunchalik zavqli ekanligini bilmagan ekanman! — dedi qiz.

— Kelganingizdan shunchalik baxtlimanki!..

Nihoyat ko'l bo'yida Malini Tembi va Dipak Pradan uchrashishgandi. Ular soatlab osmonga tikilib o'tirishdi, Kiplingni o'qishdi va baliq tutishdi.

Dushanba kuni ertalab Dipak qizning uyidan chiqishini uzoq poyladi, lekin xonim allaqachon bir o'zi maktabga ketgandi. Dars payti esa „Boshim og'riyapti", deb vaqtli jo'nadi. Lekin seshanba kuni ular darsdan so'ng yana birga qolishdi. Dipak doimgidek doskani tozalar, qiz esa daftarlarni tekshirardi. Nihoyat, soat beshni ko'rsatib bong urdi.

— Dipak, yonimga o'tir, — qiz uni chaqirdi.

— Ha, xonim, — Dipak artgichni joyiga ildi.

Malini o'yga cho'mib yigitga tikildi.

— Dipak, sen bilan nima haqida gaplashmoqchiligimni sezgandirsan.

— Ha... men haqimdami?

— Yoshing nechada, Dipak?

— O'n oltida. Yaqinda o'n yettiga to'laman.

— Men necha yoshdaligimni bilarsan?

— Ha, yigirma besh. Men ham to'qqiz yildan so'ng yigirma beshga to'laman. Xonim, buni aytishim kerakmi, yo'qmi, lekin o'zimni xuddi siz bilan tengdoshdek sezaman...

— Ha, ba'zan buni eplaysan ham.

— Meni kechiring...

— Gapimni eshit. Oramizda nima bo'layotganini tushunishing men uchun juda muhim. Avvalo, biz faqat do'st ekanligimizni aytib o'tay. Mening hech qachon sendek o'quvchim, umuman, sen kabi insonim bo'lmagan.

Yigit bu gapdan qizardi. Qiz o'rnidan turdi.

— Balki sening hayotingda ham hali men kabi o'qituvchi bo'lmagandir?

— Siz juda ajoyib insonsiz. Judayam, judayam yaxshisiz, xonim.

— Bu haqda ko'p bosh qotirdim, Dipak. Tuyg'ularimni pisand qilmayapti, deb o'ylama. Sen oddiy yigit emassan. Bizning betakror, yoqimli kunlarimiz birga o'tdi. Lekin bu xato edi...

— Men to'qqiz yosh katta va o'n besh santimetr balandroq bo'lganimda hammasi yaxshilik bilan tugarmidi?

— Ehtimol. Biroq unday emas-ku. Biz odamlar bir-birining yoshi va ko'rinishiga qarab muomala qiladigan dunyoda yashayapmiz, Dipak. Ba'zan insonlar o'zlari istagan ishga qo'l urolmaydilar. Negaligini tushuntirib berolmayman.

— Nima qilishimiz kerak, unda?

— Hech nima. Meni boshqa maktabga o'tkazishlarini so'rab ko'raman.

— Bunday qilishingizga hojat yo'q, — dedi yigit. — Biz ko'chyapmiz. Oilam bilan.

— Buning menga aloqasi yo'qmi?

— Yo'q, yo'q, otam shunchaki Mumbaydan ish topibdi. Bu yerdan 150 km uzoqda, xolos. Ko'rishib tursak bo'ladimi?

— Ha, lekin bundan nima foyda?

— Befoyda, ha, befoyda...

Sinfda uzoq jimlik cho'kdi.

— Nega bunday bo'ldi o'zi? — dedi yigit mahzun.

— Bilmadim. Hech kim bilmasa kerak. Ming yildan so'ng ham buning sababini bilolmaydilar.

Ular bir-birlariga qaradilar. Vaqt o'tib borardi.

— Bir narsani hech qachon unutma, — dedi nihoyat qiz. — Hayot kutilmagan sovg'alarga boy. Dardingga davo bo'luvchi insonni hali uchratasan. Yaratgan neki dard bersa, davosini ham beradi. Menga ishonasanmi?

— Ishonishni istayman... Sizni sira unutmayman.

Qiz o'rnidan turib doskani arta boshladi.

— Sizga yordam beraman.

— Yo'q, yo'q, uyingga bora qol...

Yigit maktabni tark etdi. Ortiga qarab, derazadan xonimning hali ham doska tozalayotganiga guvoh bo'ldi.

Dipaklarning oilasi keyingi haftada shahardan ko'chib ketdi. Shu bilan Dipak yigirma ikki yil bu yerga qadam bosmadi. O'ttiz to'qqiz yoshida uylangach, nihoyat Punaga kelishga ahd qildi. Bahor kunlarining birida u mashinasini Puna tomon burdi va bu yerda bir kun qolishni rejalashtirdi.

Dipak rafiqasini mehmonxonada qoldirib, shaharchani bir o'zi sayr qildi va yurak yutib, Malini Tembi haqida so'radi.

— E, ha, bechora o'qituvchi. U 1952-yili vafot etdi, sen ketganingdan bir yil o'tgach, — dedi keksa o'qituvchi.

— U... turmushga chiqqanmidi?

— Yo'q, chiqmadi. O'limidan oldingi oylar juda g'amgin va baxtsiz ko'ringandi.

Ertasi kuni odamlar Dipakning xotinini ko'rishganini aytishdi. U xuddi iyulning mayin shabbodasi kabi go'zal ekan. Shu kunlarda havo tushunarsiz edi: na sovuq deysiz, na issiq. Dipakning rafiqasi kelgach, go'yo hamma narsa iziga tushgandek tuyildi...

Anju KOTVANI

(Hindiston)

YARATGANNING YERDAGI FARISHTASI

Ishdan qaytayotgandim. Bir payt ko'cha chetida turgancha qo'lidagi fleytasini sotishga urinayotgan bir bolakayga ko'zim tushdi. U o'tgan-ketganlarga yalingancha, buyumini xarid qilishlarini so'rar, ammo shoshqaloq odamlar unga e'tibor ham bermasdilar. Bolakay yig'lardi... Rahmim kelib, unga biroz pul tutqazdim. Ammo u keskin rad etdi.

— Yo'q, xola, men gadoy emasman. Mana shu... fleytamni sotib oling, menga pul juda zarur, iltimos!..

Menga fleytaning keragi yo'q edi. Buni unga tushuntirdim va pulni olaverishini aytdim. Bolakay baribir ko'nmadi.

— Ololmayman, uyimdagilarga halol pul berishni istayman. Bisotimda shugina fleytam bor...

Uyga keldim. Erimga bu noxush voqeani gapirib berdim.

— Xudoning o'zi unga ko'mak bersin! — qo'shib qo'ydim gapimning so'ngida.

Bir chetda o'g'lim gaplarimni eshitib turgan ekan. U yugurib huzurimga keldi va so'roqqa tutdi:

— Oyijon, Xudo qayerda? U odamlarga qanday yordam berishi mumkin? Mening uy vazifalarimni tayyorlashga ham ko'maklasharmikin?

— Xudo Ko'kda yashaydi, o'g'lim. U tepadan turib odamlarni kuzatadi va muhtoj kimsalarga yordam qo'lini cho'zadi. Uning qudrati cheksiz. Ammo sening uy vazifangga yordam berolmaydi. Chunki bu sening yumushing, tushundingmi, bolaginam?

— Odamlarga tepadan turib qanday yordam beradi unda? Yerga tushib qarashsa bo'lmaydimi?

— Xudo birorta bandasi orqali o'sha g'arib insonga ko'mak ko'rsatadi. Xudodan yordam so'rasak, kimdir yoki nimadir orqali so'ragan narsamiz, albatta, yetib keladi.

— Unda nega anavi bolaga Xudo yordamchi yubormadi? Balki Xudo sizni yordamchi qilib yuborgandir...

Bu gapni eshitib qizarib ketdim. Tuni bilan uxlolmadim. Ertaga, albatta, o'sha fleytani sotib olishga qaror qildim. Bugun bermoqchi bo'lgan pulimga ozgina qo'shsam bo'ldi-ku, fleytani olaman. Tong otishi bilan ishga tezroq otlandim. Ko'chaga chiqib o'sha bolakay turgan joyga halloslab yetib keldim. Ammo... u yo'q edi. Kunlar kunlarga ulandi, ammo ishga ketishimda ham, qaytishimda ham uni ko'rmasdim. Balki Xudo unga boshqa bir inson orqali ko'mak yuborgandir... Bu fikr menga ancha tasalli berdi. Biroq... nega bunday sharafli ishni men vaqtida bajarolmadim: nega savobni boy berdim?

Odamzod doim buyuk ishlar xayolida yuradi. Go'yoki bir bolakayga yordam qo'lini cho'zish oddiy, xashaki ishdek ko'rinib, e'tiborga olmaydi...

Oradan vaqt o'tdi. Buni unutib yubordim. Yana o'z dunyomga sho'ng'ib ketdim. Ammo o'g'limning qalbida o'sha so'zlar bir umrga muhrlanib qolgan: „Yaratgan bandasi orqali ko'mak yuboradi..." U kambag'al do'stlariga o'z o'yinchoqlaridan ulashishni kanda qilmaydi. Men esa bundan ba'zan ranjiyman.

— Hamma o'yinchoqlaringni berib yuborsang, o'zingga nima qoladi, — deb koyib turaman. O'g'lim esa:

— Xudo mening dilimga soldi, anavi o'yinchog'i yo'q bolaga bersang, men senga undan-da ko'p beraman, degandek bo'ldi, — deydi jilmayib.

Men esa shu zahoti jahldan tushib, bolamni quchib olaman.

— Xudo menga yordam berishingiz uchun Sizni — Onamni yaratgan ekan, buni bilib oldim, — deydi u ham bo'ynimdan quchoqlab.

Bag'rimga Yaratganning mitti farishtasini bosib o'tirganimdan juda baxtiyor bo'lib ketaman...

Alfonso DAUDET

(Fransiya)

SO'NGGI DARS

Men o'sha kuni maktabga kechikib bordim. Bunga sabab o'qituvchim janob Xamelning darsda bergan savoli va mening javob berolmay sinfda izza bo'lganim edi. Shundan keyin maktabga borishni jinim suymay qolgan, „Darsga kirmasammikin?" deb ham o'ylagandim. Havo shunday issiq va yorug'ki... qushlar o'rmonda daraxtma-daraxt qo'nib shodon sayrashadi. Lekin bularning bari qoidani buzishimga yo'l qo'ymasdi: men shosha-pisha maktab tomon ketib borardim. Shaharchani kesib o'tarkanman, odamlar „Xabarlar taxtachasi" qarshisida bir to'p bo'lib turganiga ko'zim tushdi. So'nggi ikki yil ichida sodir bo'lgan barcha noxush voqealarni biz shu yerdan bilib olardik: janjallar, chaqiruvlar, buyruqlar va hokazo. Men darrov o'yladim: „Yana qanaqa buyruq chiqibdi ekan?" Bu yerda alanglamay, yana shoshgancha yo'limda davom etayotgandim, odamlar orasida turgan temirchi Vochter menga qarab qichqirib qoldi:

— Bunchalik shoshma, bolakay. Maktabga borishga hali ulgurasan.

Uning ustimdan kulayotganini sezdim.

Maktabimizda darslar, odatda, shovqinli bo'lar, shuning uchun baland ovozlarimiz bemolol tashqariga eshitilib turar-

di. Lekin bugun maktabga yaqinlashganimda ahvol bunday emasdi. Maktab go'yo yakshanbaday tinch, sinfimiz derazasidan ko'rinib turgan o'quvchilar jim, o'qituvchimiz esa tund qiyofada u yoqdan bu yoqqa yurib turardi. Men asta eshikdan mo'raladim. Hozirgi ahvolimni tasavvur qilgandirsiz? Ammo kutganim sodir bo'lmadi. Janob Xamel menga muloyimlik bilan o'girildi:

— Sensiz darsni boshlab qo'ydik-ku! Qani kira qol, kichik Frans, joyingga o'tir.

Men tezda partamga joylashdim. So'ng biroz cho'chib janob Xamelni kuzatdim. Qiziq, bugun u chiroyli yashil plash, yaltiroq shim va kichkina qora ipakli bosh kiyimi kiygandi. U, odatda, maxsus kunlar yoki bayramda shunday kiyinardi. Menimcha, bundan faqat mengina hayron emasdim. Eng hayratlanarlisi, doim bo'sh turadigan orqadagi stol-stullarni qishloq ahli egallab o'tirgandi: keksa mayor, pochtachi va yana bir nechta kishi. Hammasining qovog'i soliq edi. Bir payt o'qituvchimiz joyiga o'tirdi va o'sha muloyim va yumshoq ohangda davom etdi:

— Aziz o'quvchilarim, bugun sizlarga oxirgi darsimni o'taman. Berlindan buyruq keldi: Elzas va Lotoringiya maktablarida darslar faqat nemis tilida o'qitilishi shart ekan. Yangi o'qituvchi ertaga keladi. Bugun bizning fransuz tilidagi so'nggi darsimiz. Sizlarni darsga e'tiborli bo'lishingizni so'rayman.

Miyamga bir nima urilganday bo'ldi. Mening oxirgi fransuz tilidagi darsim! Shunday bo'lishi mumkinmi? Nega unda yozishni yaxshiroq o'rganmadim? Endi esa hech qachon o'rganolmayman. Qanchalar afsuslanyapman... essiz mening g'animat vaqtim. Ko'zimga xunuk ko'ringan qalin kitoblarim, grammatikam, tarixim... qadrdon do'stlarim ekan-ku. Janob Xamel-chi? U ketadi va men uni boshqa ko'rolmayman, uning saboqlari va qattiqqo'ligi ham o'zi bilan birga ketadi. Bechora o'qituvchim! Demak, bekorga bunday kiyinmabdi-da, odamlar ham bejiz to'planmagan: hammasi uning ketayotganidan afsusda... O'ylarim bilan ovora o'tirganimda, mening ismim yangradi: javob beradigan galim kelibdi. Qanday qilib bu qiyin qoidani to'g'ri talaffuz qilib, xatosiz aytib berishim

mumkin-a? Men tavakkal gapirib berdim. Partamga suyangancha yuragim dukurlab o'qituvchimga tikildim.

— Senga tanbeh bermayman, kichik Frans. Biz har kuni o'zimizga va'da beramiz: „O'rganishga hali vaqtim bor. Ertaga o'qiyman", deb. Elzasning katta muammosi shu — u bugungi ishni ertaga qoldiradi. Senga faqat bir gapim bor: o'z ona tilingda yozolmay, gapirolmay turib, haqiqiy fransuz bo'la olasanmi? Sen yomon bola emassan, ilojsiz kichkina Franssan, xolos. Sening ota-onang endi o'qiyolmasligingga achinishmaydi ham. Ular seni fermada ishlash uchun uzoqqa jo'natishadi, biroz ro'zg'orga qarashsin, deb. Axir, o'zimchi? Men ham shunday edim. Dars vaqtida seni gullarga suv quy, deb tashqariga chiqarmaganmidim yoki bo'lmasa, baliq oviga ketganimda sizlarga ta'til e'lon qilmagan edimmi?

Janob Xamel jim qoldi, so'ng asta dars mavzusini boshladi. U fransuz tili dunyodagi eng chiroyli tillardan biri ekanligi, tiniqligi, go'zalligi haqida ancha gapirdi va grammatika kitobini ochib, bugungi darsni o'qib berdi. Men darsni tushunardim va bundan hayratlanardim. Uning hamma aytganlari bugun shunchalik oson tushunilib qolayotgandiki... go'yo men hali bunchalik berilib tinglamaganman va u ham bunday qunt bilan tushuntirmagan edi. Men o'qituvchimiz ketishidan avval u biladigan hamma narsani o'rganib olishni juda istadim. Grammatikadan so'ng biz yozishni boshladik. U bizga nusxa ko'chirilgan varaqlar tarqatdi, unda chiroyli husnixat bilan „Fransiya, Elzas" deb yozilgandi. Biz uni takror ko'chira boshladik. Sinfda faqat qalamlarning shitirlab yozishi eshitilardi, xolos. Men tashqariga quloq tutdim: kaptarlar xonishi naqadar chiroyli-a... „Nahotki ular hatto kaptarlarni ham nemis tilida sayrashga majbur qila olishsa?"

O'qituvchimiz biz yozish bilan bandligimizda sinfni va bog'ni sinchiklab kuzatardi. G'alati. U bu yerda qirq yildan beri ishlaydi. Hammasi o'sha-o'sha-ku, nimasini kuzatadi? Faqat partalarning sifati va daraxtlarning o'lchami o'zgargan, xolos. U bularni qanday tashlab ketarkin? Axir, shahardan butunlay ketishi kerak-ku! Yozib bo'lganimizdan keyin tarixga o'tdik. Negadir hammaning yig'lagisi kelardi. Ba'zan yodimga tushib qolardi: bugun oxirgi darsimiz-a...

Cherkovning soati 12 ni ko'rsatib bong urdi, keyin Prussiya soatlari ketma-ket chalina boshladi. Janob Xamel og'irlik bilan joyidan turdi.

— Do'stlarim, — dedi u, — men... men... — uning bo'g'iga bir nima tiqilib qolganday gapirolmadi. Keyin keskin o'girildida, bo'r bilan doskaga yoza boshladi: „Vive La France!..“[1]

So'ng boshini devorga qo'yib, turib qoldi va bir og'iz ham gapirmay, qo'li bilan ishora qildi: „Ketaveringlar, dars tugadi...“

Lengston XYUZ

(AQSH)

RAHMAT SIZGA, OYIJON!..

To'ladan kelgan bir ayol yo'lak bo'ylab ichiga hamma narsa sig'adigan katta sumkasi bilan ketib borardi. Chindan ham, sumkaning ichida yo'q narsaning o'zi yo'q edi, albatta, bolg'acha va mixdan boshqa. Sumkaning bog'ichi uzunligidan ayol uni yelkasi osha orqasiga tashlab olgancha ko'cha bo'ylab yolg'iz ketayotgandi. Soat tungi 11 lar edi, bir payt uning yoniga shuv etib bir bola keldi va ayolning sumkasini yelkasidan sug'urib oldi. Ayol o'ziga kelmay turib, bog'ichi bitta tugmacha bilan qadalgan sumka shart uzilib, bolaning qo'lidan tushib ketdi. Sumkaning og'irligidan muvozanatini yo'qotgan bola qo'lidagi bilan birga qattiq yiqilib tushdi va oyog'i jarohatlandi. Ayol esa bamaylixotir bolaning yelkasidan tortdi va jahl bilan turg'azdi.

— Qani, mening hamyonimni joyiga qo'ygin-chi, — dedi uni qo'yib yubormay. — Xo'sh, qilgan ishingdan afsuslanyapsanmi endi?

Ko'ylagidan mahkam qisilgan bola javob berdi:

— Ha...

— Bunday qilib nimaga erishmoqchi eding?

— Hech nimaga.

— Aldayapsan.

---

[1] „Yashasin Fransiya!..“

Bu paytda bir-ikki yo'lovchi ularga hayron bo'lib qaragancha o'tib ketdi. Ba'zilari esa shu yerda turib kuzatishga kirishdi.

— Hozir seni qo'yib yuborsam, qochasan, shundaymi?

— Ha, — dedi bola.

— Shuning uchun qo'yib yubormayman ham.

Ayol uni mahkam ushlashda davom etdi.

— Men juda afsusdaman, xonim. Meni kechiring!.. — pichirladi bola.

— A-ha, yuzing ham juda kir bo'lib ketibdi. Yaxshisi, yuzingni yuvib qo'yishim kerak. Uyingda birortasi yuzingni yuv, deb aytmaydimi?

— Yo'q...

— Unda bu kech yuvilar ekan-da, — dedi ayol va cho'chigan bolani yelkasidan ushlagancha ko'cha bo'ylab olib keta boshladi.

Bola o'n to'rt yoki o'n besh yashar, juda zaif va yovvoyi, tennis oyoq kiyimi va ko'k jinsi kiygan edi.

— O'g'lim tengi ekansan. Senga nima yaxshi-yu, nima yomonligini o'rgatishim kerak. Avvalo, tarbiyani yuzingni yuvishdan boshlaymiz. Qorning ochdir?

— Yo'q, to'qman, meni qo'yib yuborsangiz bo'ldi.

— Seni anavi yerda ketayotib bezovta qilganmidim?

— Yo'q.

— Sen o'zing meni bezovta qilding, o'zing boshlading, to'g'rimi? Endi meni eslab yurasan, ya'ni missis Luella Betes Vashington Jonesni.

Ayol uyiga yetib kelgach, bolani ichkariga kiritdi. Kiraverish kichikkina yemakxona edi, ayol chiroqni yoqdi va eshikni ochiq qoldirdi. Bola qo'shnilarning uyidan eshitilayotgan ovozlar, kulgilarni bemalol tinglay olardi. Ba'zi qo'shnilarning eshigi ularniki kabi ochiq edi, demak, ayol yolg'iz emasligini ham bilishdi. Ayol haligacha bolaning yelkasidan ushlagan ko'yi xona o'rtasida turardi.

— Isming nima, bolakay?

— Rojer.

— Demak, Rojer, hozir yuvinish xonasiga borib, yuzingni yaxshilab yuvib kel.

Nihoyat, ayol bolani asta qo'llaridan bo'shatdi. Rojer bir ochiq eshik tomonga, bir yuvinish xonasi tomonga qaradi. Keyin beixtiyor yuvinish uchun yo'l oldi.

— Suv isiguncha biroz kutib tur, — tayinladi ayol, — u yerda sochiq ham bor.

— Meni qamoqxonaga topshirasizmi? — so'radi bola yuvinish xonasidan turib.

— Yuvinmasingdan turib seni hech qayerga olib chiqolmayman, — dedi ayol. — Men bu yerda yeyishga biror taom tayyorlash niyatida yuribman-u, sen esa hamyonimni olmoqchi bo'lding-a? Sen uyingga kechki ovqatga kechikmaysanmi?

— Uyimda hech kimim yo'q.

— Unda birga ovqatlanar ekanmiz-da, bilaman, qorning och qolgan. Axir, shuncha mehnat qilib, ochqamay bo'ladimi?

— Men faqat zamsh tufli olmoqchi edim...

— Sen buni hamyonimdan o'g'irlab emas, o'zimdan so'rab ham olishing mumkin edi, — dedi Luella xonim, — ha, o'zimdan...

— Oyi! — yuzidagi s ıv tomchilari bilan unga tikilib turgan bola bu so'zni beıxtiyor aytib yubordi. Ular jim qolishdi... Uzoq jim qolishdi. Nihoyat, bolaning yuzi quridi, u nima qilishini bilmay, sochiqni olib yuzini yana artdi. Eshik hamon ochiq. Bola hozir shunday borsa, tamom, qochaveradi, qochaveradi...

Ayol kursiga o'tirib, birinchi bo'lib gap boshladi:

— Yoshligimda qo'lim yetmaydigan narsalar meniki bo'lishini juda xohlardim.

Bola qoshlarini kerib ayolga qaradi.

— Ha, shunday bo'lgandi. Senga hech kimning hamyonini o'g'irlamaganman, deb aldashni xohlamayman. Buni senga aytmoqchi emasdim. Shunday ishlar qilganman, buni faqat Xudo biladi, o'g'lim. Xo'sh, ana endi chiroyli bolaga aylanibsan.

Xonaning narigi chetida gaz plita va muzxona bor edi. Ayol o'rnidan turib, o'sha tomonga ketdi. Ortiga qaramadi: ayol kursiga hamyonini atay tashlab ketgan edi. Bola uni hoziroq olib eshikdan qochib ketishi mumkin. Lekin ayol ortiga qarashni istamasdi. Bola buni sezdi va ayol uni ko'ra olishi

mumkin bo'lgan joyga borib turdi. U ishonchsizlik qilishni istamadi.

— Do'kondan biror narsa olib kelishingiz kerak emasmi? — so'radi bola. — Sut yoki biror yegulik... olib kelib berardim.

— Menimcha, yo'q. Sut ichging kelyaptimi? Menda quritilgan sut bor, undan kakaoli ichimlik tayyorlab beraman.

— Yaxshi bo'lar edi.

Ayol muzlatgichdan lima loviyalari va son go'shti oldi. Kakao tayyorladi va hammasini stolga qo'ydi. Ayol boladan qayerda yashashi, o'tmishi, umuman qiziqtirgan narsalari haqida so'ramadi. Ovqatdan so'ng ayol o'z kasbi — mehmonxonaning go'zallik do'konida ishlashini va ishi doim kech tugashini, lekin o'z kasbini juda sevishini aytib berdi. Keyin bu yerga keluvchi har xil mijozlar — malla, qizil sochli ispan ayollari haqida gapirdi. U bolaga shirinlik uzatdi.

— Yana biroz yeb ol.

Dasturxon atrofidan turishgach, ayol bolaning qo'liga o'n dollar tutqazdi.

— Bunga zamsh oyoq kiyim sotib olgin. Lekin keyingi safar xato qilma — meni yoki menga o'xshagan birortasining cho'ntagiga qo'lingni suqma. Oyoq kiyim orzusi oyoqlaringni yomon yo'lga boshlamasin. Men biroz dam olay. Senga o'zingni shu yerdan topib ketishingni tilayman, o'g'lim!

Ayol uni tashqariga kuzatib qo'ydi va eshikni yopdi.

Bola unga nimadir degisi keldi, lekin aytolmadi. U ayolning uyga kirib ketishini kuzatib qolarkan, „Rahmat sizga, oyijon!..", deb pichirladi. Shundan so'ng ular boshqa uchrashmadilar.

Jennifer ADAMS

(AQSH)

UMID YULDUZI

Zulmat Yer yuzini anchagacha tark etmadi. Bu qorong'ilik urush va qonxo'rlik, jinoyat va ofatning oqibatida paydo bo'lgan edi. Buyuk Yer motamning qop-qora libosiga o'rangan.

Yuraklarning zirillashiga yagona sabab esa Vatandan o'g'illarning, otalarning, kuyovlarning borsa kelmas tomonga otlanishida edi. Buning uchun ularga hamma sharoitlar tayyor: onalarining dardga yo'g'rilgan mehri, xotinlarining „alvido" deyolmay oqarinqiragan yuzi. Lekin hayot shuni taqozo qilib tursa, ne iloj...

* * *

— Bechora, g'amgin Yer! — dedi bir to'da yulduzlar ichidagi eng yorqini. — Men odamlarga yaxshilikni sog'ingan edim. Lekin mening urinishlarim qalblarni o'lim vodiysiga chorladi, xolos. Men o'z vazifamdan ketaman. O'rnimga kim buni eplay olarkin?

— Men! — dedi Sevgi yulduzi muloyim va yoqimli tovushda.

— Sen hali juda yoshsan. Yerdagi bunday qorong'ilikni yorib o'tolmaysan. Ularga hozir barchasini joy-joyiga tushirish uchun kuchli qurol ishlatishimiz kerak.

— Kim ekan u? — dedi atrofdagilar bir-birlariga qarab.

— Umid, — dedi yulduzlar sayyorasining malikasi.

O'sha tun osmonda katta bayram bo'ldi, ular ibodatxonada shukronalik bildirishdi. Umid esa ismini eshitiboq ular tomon kela boshladi. Uning qo'llarida hali yasab ulgurilmagan gulchambar bor edi.

— Tunda Yerga borishga tayyormisan, musaffo Umid? — so'radi undan Malika.

Umid yulduzining esa peshanasi yarqirab ketdi va shivirladi:

— Jonim bilan...

— Sening vazifang shuki, gulchambarlarni tunda chirog'i yoniq kulbalarga taqib chiqasan. Ular tuni bilan umidga zor o'tirishgan bo'ladi. Boshqa ishlarni esa bajarolmaysan, qo'yavergin. Endi kel, belingga mana bu oltin belbog'ni taqib qo'yay, bu orqali seni arqon bilan Yerga tushiraman.

Yulduzlar uning qo'llarini gulchambarlar bilan to'ldirishdi, keyin yelkasiga birma-bir qoqib qo'yishdi. Umid pastga tushishga tayyor edi.

— Endi, — dedi Malika. — Mana bu bulutlarga sakra, biz sen uchun madhiyamizni kuylaymiz. Yuraging doim biz bilan bo'lsin.

Keyin Malika arqonni uning oltin belbog'iga bog'ladi va samo ostiga asta tushira boshladi.

* * *

Kichik dala hovli. Yo'l bo'yida Meri Den singlisi bilan kitob o'qib o'tirishardi. Ularning manglayida yetimlik sitamlari yozilgandi, boisi otasi ham, akasi ham jangda halok bo'lgandilar.

— Kel, yulduzlarga tikilamiz, — dedi ularning kichigi.

— Hali vaqtli, asalim. Yulduzlar qop-qorong'ida ko'rinadi. Qo'shnilarimiz ko'p marta yulduzlarga tilak aytishgan, agar ular yolg'on bo'lmasa...

— Xuddi sen kabimi, opa?

— Jim!.. Men qandaydir qadam tovushlarini eshityapman.

Ularning ikkisi ham jim bo'lib, atrofga quloq tutishdi. Lekin biror sas eshitilmadi. So'ng kitoblarini yopib, uylariga kirib ketdilar.

Erta tongda eshikni ochsalar, tutqichda ajoyib bir gulchambar osig'liq turibdi. U turfa gullarga boy, betakror iforli va kamalak rangli edi. Ular bunaqa gullarni hali hech qayerda uchratishmagandi. Qizlar sovg'adan hayratlanishib, uning egasi kimligi haqida bosh qotirishdi. Qizlarni yanada quvontirgani gullar hech qachon so'limas edi.

Umid bu yerda tunda ham yorug' bo'lgan ko'plab maskanlarni topar va gulchambarlar tashlab ketardi. U gospitaldagilar uchun ham quvonchbaxsh lahzalar ato etdi. Umid bir tun ikki beva ayolning beshafqat dunyo haqidagi suhbatiga guvoh bo'ldi va ularni ham xushnud etish niyatida gulchambar qoldirdi.

Tongda ko'chadagi gulchambarni ko'rgan katta ayol sherigini chaqirdi:

— Qanaqasiga? — derdi ular tinmay. — Kambag'alga bundan ortiq shodlik bormi?

— Sizlar bugun ertalab gulchambar topib oldingizmi? — deb so‘radi ayollarni kechki taomga taklif qilgan qo‘shni xotin allaqanday umidvorlik bilan.

— Albatta! — dedi ular. — Sen hali o‘zingnikini topmadingmi?

— Umrimda ko‘rgan eng qimmatli boylik bu. Kim uni shunchalik ehtirom bilan tayyorladi ekan-a? Lekin... — qo‘shni ayol tutilib qoldi, yuzi so‘lg‘inlashdi. — Keling, uni ikkiga bo‘lamiz...

— Hecham-da, — tezda uning gapini bo‘ldi katta ayol. — Bu yerda qandaydir sabab bo‘lishi kerak. Biz buni aniqlamagunimizcha, gullarni buzolmaymiz.

Oradan bir hafta o‘tdi. Qishloqdagi bir bolakay juda g‘alati tush ko‘rdi. Unda chiroyli bir farishta osmondan tushib, chirog‘i yoniq uylarga gullar tashlab ketayotgan emish.

— Esingdami, o‘sha kuni bizning chirog‘imiz o‘chiq edi, — dedi katta ayol bu tush haqida eshitgach.

— Tush va gulchambarimiz o‘rtasida bir gap bo‘lishi kerak, — dedi kichigi ham. — Shu paytgacha keltirilgan gulchambarlar kechasi chirog‘i yoniq bo‘lgan xonadonlarga nasib qilgandi.

— Menimcha, biz umidimizni uzmasligimiz kerak, — dedi ular birgalikda. — Uyimizning umid chirog‘ini o‘chirmasligimiz kerak...

Ular gulchambarni o‘sha qo‘shni ayolga olib chiqib berishdi.

* * *

Umid oltin belbog‘ida samoga qaytib tortib olindi. Yulduzlar guruhi uni kutib olish uchun o‘z madhiyalarini kuylashdi. Sevgi yulduzi esa umidning peshanasiga yangi gulchambar bog‘ladi. Yulduzlar bayrami boshlandi. Ular Umidning sog‘-omon yonlariga qaytganidan mamnun edilar.

Shundan so‘ng Umid yulduzi osmondagi eng yorqin yulduzga aylanibdi. Uning peshanasi hamisha porlab turishidan osmon nurli oshyonga aylangan ekan. Odamlar esa shundan so‘ng umid qilib yashashga o‘rganishibdi.

Mishela VOT

(Fransiya)

MENING KAPALAGIM

Men ko'makka muhtoj bolalarga yordam berardim. Ancha yillar ilgari ish joyimda Alisiya ismli kichkina bir qizaloqni uchratdim. Uning sochlari jigarrang, ko'zlari esa katta-katta, moviy edi. Aslida u yetti yosh bo'lsa-da, ko'rgan odam bunday demasdi. Qiz autizm kasali bilan og'rirdi. Ishdan bo'shashimdan bir kun oldin u bilan oxirgi marta ko'rishdim...

Alisiyani izlab uning xonasi tomon yo'l oldim, topolmay turganimda qizchaning yolg'iz o'zi burchakka tiqilib o'tirganiga guvoh bo'ldim. Uning yuz ifodasini ko'rib, qo'rqib ketdim. Ko'zlarida g'alati bir iztirob bor edi.

— Ha, shu yerda ekansan-da, Alisiya! Xo'sh, nima qilyapsan?

U darrov yerga qarab oldi.

— O'ylayapman, — dedi sekingina.

— Nima haqida?

— Kapalaklar to'g'risida...

— Ularning nimasini o'ylayapsan?

U boshini yerdan ko'tarib, ko'zlarimga qaradi:

— Bugun tashqariga chiqqandim... Gullarni tomosha qildim va u yerda kapalaklarga ko'zim tushdi. Ularni tutgim keldi va ortidan rosa quvlab, bittasini ushlab oldim. Keyin uni hamshiraga ko'rsatdim. Hamshira esa, „Oh, shirinim, sen uni qo'yib yuborishing kerak", dedi. Men kapalakni qo'yib yuborishni istamasdim, chunki u endi menga do'st bo'lishini o'ylab quvonardim. Lekin hamshira agar uni qo'yib yubormasam, o'lib qolishini ta'kidladi. Men do'stimning o'lishini istamadim va uni darrov tashqariga olib chiqib, qo'yib yubordim. Qilgan ishimdan juda xursand bo'ldim, biroq keyin o'ylab qoldim... men unga ozor berdim: men yomon odamman. So'ng hamshiraning yoniga bordim va o'ylaganimni aytdim. Hamshira esa buning yomon tomoni yo'qligini, bu ko'p uchraydigan oddiy hodisaligini tushuntirdi. Bugun esa missis Karin bizdan baxt nimadaligini so'radi. Men „Baxtni qachon

kapalak tutib, uni yana qo'yib yuborganingda tuyasan", deb javob berdim. Kapalaklar bizga baxt ulashadi.

U menga kichik hikoyasini so'zlab bergach, yuzini burdi. U ko'z yoshini yashirish uchun shunday qildi. Bir on, atigi bir on u bemorligini unutgan edi. U haq, kapalaklar faqat baxt beradi. Yetti yashar qizaloq, yana autizm bilan og'rigan bemor menga hayot darsini berolganidan lol edim. Baxtni har kimdan, har narsadan topish mumkin. Men asta uni tark etdim. Baxtli edim, chunki uni uchratdim. Men uni ahvoli yaxshiligida bexavotir tark ketdim.

Keyinroq qizning boshqa kasalxonaga ko'chirilganidan xabar topdim. Onasining saraton kasalligidan vafot etganini ham eshitdim. Uning o'limidan so'ng otasi kasal qiziga qaray olmagan, parvarish qilishni istamagan. Men buni eshitib, ko'nglim buzildi. Darhol uni ko'rgim kelib ketdi. Bu orada yillar o'tdi, umidim so'nib borardi. Uni ko'rishni va gaplashishni qanchalar istar edim...

Oradan besh yil o'tdi. Mening hayotim juda ham yaxshi. Endi mitti umidim yonimda katta orzuga aylangan. Nega deysizmi? Chunki bugun mening o'n ikki yashar qizim bor, ismi Alisiya. Sochlari jigarrang, ko'zlari moviy... Uni umidim so'nayotgan bir paytda topdim. U mening hayotimdagi kapalagim.

ISAAH

(Yaponiya)

KICHIK XONIMNING KATTA O'YLARI

Yaponiyaning sehrli quyoshi Izumi Mizukiyoning yotoqxonasini o'zining zarrin nurlari bilan ilita boshladi. Quyoshning uyg'otishiga o'rganib qolgan qizcha ko'zlarini asta ochdi. O'ng tomonidagi ko'zguga tushib turgan yorug'lik Izumining yumilgisi kelib turgan qora ko'zlarida aks etib o'ynoqlardi.

— Ha, yaxshi, ana uyg'ondim, — dedi u besabrlik bilan o'rnidan turarkan. Qiz ko'zlarini ishqalayotganidan uning turganiga ishongan quyosh ham ko'zgudan g'oyib bo'ldi. Qizaloq oynaga qarab, qora, uzun sochlarini taray

boshladi, doimgiday xayoliy „do'sti" bilan gaplashishga tushdi.

— Mening bitiruv kunimdan mamnunmisan? — u javobini kutib o'tirmay davom etdi. — Sening marosimga tashrif buyurishingdan juda xursandman. Ota-onam ham boramiz, deyishgandi. Agar bora olsalar... — uning yuz qiyofasi o'zgardi, biroq xayoliga boshqa bir narsa kelgandan keyin yana sevindi. — Tanaka xonim, ya'ni o'qituvchimizning aytishicha, men bugungi marosimda „kichik xonim" bo'lar ekanman. U hali hech qachon bizni bu nom bilan atamagan edi.

Keyin u o'qituvchisining doim qizaloqlarga keragidan ortiq e'tibordaligini, xususan, qizlarga katta xonimlarga qaragandek qarashi haqida gapirdi. Izumi o'zining bitiruv qog'oziga tikildi. Unga „Diplom" deb yozilgandi. Qiz uni yana bir qayta o'qib chiqdi.

„Tanaka yosh xonimlar maktabi shuni bildiradiki: Izumi Mizukiyo o'z majburiyatini tamomladi. Izumi birinchi sinfni tugatishi munosabati bilan ustozi Natsumi Tanaka tamonidan taqdirlandi".

Qizaloq barmoqlarini ushbu yaltiroq so'zlar bo'ylab yugurtirdi. O'zidan qanoatlangandek lablarida tabassum o'ynadi: „Hali ular mendan faxrlanishadi. Mening ismim qanaqa talaffuz qilinadi, bilasizmi? „I-zu-mi Mi-zu-ki-yo".

Izumining xonasi katta, devorlari yog'ochdan yasalgandi. Mebellar orasidagi ko'zguni unga o'qituvchisi sovg'a qilgandi. Izumi deraza qarshisida o'tirishni xush ko'rardi. U kechalari osmonga qarab xayol surar, o'zini yapon bog'larida gullarning asal islariga to'la mayin havosini iskab ko'rayotgan xonimdek tasavvur qilardi. Shu ko'yi uxlab qolgan qizning tushlariga ham o'sha manzara kirib chiqardi. Uyqusida jilmayayotgan qizaloq juda shirin ko'rinardi. Ming afsus, ota-onasi bunday baxtni ko'rishga ulgurishmagandi-da.

Devorning narigi tomonida ota-onasi uxlab yotishardi. Izumi ehtiyotkorlik bilan zinadan tushib, oshxonaga yo'l oldi. Keyin isitgichni yoqish uchun tizzaladi. Burchakda turgan idishlarning yoniga borib, guruch oldi. Kichik oshxonaning o'rtasidagi stolga kerakli idishlar va choy qo'ydi. Keyin yana oyoq uchida kiyinish xonasiga kirdi. U kiyim

javonini ochib, boshini sarak-sarak qildi: axir bu yerda faqat maktab kiyimlari bor-ku. Endi u yosh xonim bo'lsa, bitirish marosimida bunday kiyimlarini kiymasligi kerak.

Amallab kiyingan qiz stolga o'tirdi va ota-onasining uyg'onishini sabrsizlik bilan kuta boshladi. Endi u ham xonim, bugundan boshlab yosh bola emas. Hali ota-onasi shunday qizni o'stirganlaridan faxrlanishadi. Qarang-a, birinchi sinfni tugatibdi.

Ota-ona qizlarining nimagadir timirskilanib yurganini sezishdi, lekin ikkisi ham buning sababini so'ramadi. Izumi „Balki ular o'zlarini bilmaganlikka solib, keyin kutilmagan sovg'a qilmoqchi bo'lishayotgandir", deb o'yladi. U ko'plab o'quvchilar orasida unga jilmayib, qo'l cho'zib turgan ota-onasini tasavvur qildi. Ulardan biror sado chiqishini kutib, umid qilib o'tiraverdi.

— Izumi! — onasining baland ovozi qizni cho'chitib yubordi. — Nega maktabingga ketmayapsan? Otang sezib qolmasidan tezroq keta qol, — jahli chiqqandek bo'ldi onaning.

Ko'zlari namlana boshlagan qiz esa boshini quyi soldi.

— Men tayyorman.

„Onamning esidan chiqqandir", deb o'yladi u.

Izumi yo'lga chiqdi. U ham yuzini yuvayotgan issiq ko'z yoshlari singari go'yo shamolda oqib borardi. Hech kim kichik xonimning o'ylari bilan qiziqmasdi. Qiz hayvonot bog'i qarshisida to'xtadi. U kichik xonimning birinchi kunini jonivorlar bilan o'tkazishga ahd qildi...

FEYRI

(Angliya)

YILLAR ARMONI

O'ninchi sinf

Ingliz tili darsida o'tirar ekanman, yonimdagi qizga yashirincha boqaman. U mening eng yaqin do'stim. Uning uzun, mayin sochlariga qarab, bu kokillar faqat meniki bo'lishini astoydil istardim. Lekin... bilaman, u men kabi o'ylamaydi,

mening tuyg'ularimdan bexabar. Dars tamom bo'lgach, u yonimga kelib, tunov kuni maktabga kelolmagani uchun yozuv daftarimni so'rab turdi. Ikki qo'llab daftarimni tutqazdim. U rahmat aytdi-da, yuzimdan o'pib qo'ydi. O'sha payt unga do'st bo'lishni istamasligimni, uni qattiq sevishimni juda aytgim keldi. Ammo... uyaldim. Negaligini bilmayman.

O'n birinchi sinf

Telefon jiringladi. Sezdim, u qo'ng'iroq qilyapti. Go'shakni ko'tardim. U yig'lamsiragancha, sevgan yigiti yuragini sindirib tashlab ketganini aytdi. Yolg'izlik joniga tekkanini aytib, yoniga kelishimni so'radi. Uchib bordim. Yonma-yon o'tirar ekanmiz, uning nam ko'zlariga boqib, bu nigohlar faqat mengagina tegishli bo'lishini juda istadim. Hamdardligim uchun u menga „Rahmat!..“ dedi-da, yuzimdan o'pib qo'ydi. O'sha payt yana... uni sevishimni aytgim, ortiq do'st bo'lolmasligimni bildirgim keldi. Lekin bu safar ham uyaldim. Nega, bilmayman.

Kelasi yil

Kollejdagi raqs kechasi u yonimga keldi va dedi:

— Mening sherigim kasal bo'lib qolibdi, u kechaga kelolmaydi.

Biz bunday kechalarda hech qachon sherik bo'lmagandik. Chunki sheriklar, odatda, sevishganlar hisoblanishadi-da. Yettinchi sinfdaligimizda biz o'zaro do'stlikka qasam ichib, hech qachon raqsda sherik bo'lmaymiz, deb kelishgandik. Nachora, bu safar sherik bo'lishga majbur bo'ldim. Uning menga xayrixoh nigohlari, jilmayib turgan lablari faqat „Rahmat!..“ deb so'ylardi va u doimgidek yuzimdan o'pib qo'yardi. Unga juda aytgim keldi. Sevishimni, sevishimni, sevishimni... aytolmadim. Uyaldim.

Kunlar, haftalar, oylar...dan so'ng

Bitirish kunimiz ham yetib keldi. Men uning diplomini olish uchun pillapoyalardan sahnaga ko'tarilishini tomosha qilib o'tiribman. U xuddi farishtaga o'xshardi. Uni meniki

bo'lishini istaganim bilan, u meni sezmasdi. Hamma talabalar diplomlarini olgach, u yonimga keldi va ko'zlarida yosh bilan meni quchoqlab oldi. „Mening eng yaqin do'stimsan, rahmat senga!.." deya o'pib qo'ydi. Bu gal ham yuragimdagini aytish imkoniyatini qo'ldan boy berdim. Sababi sizga ayon: uyaldim.

Yil o'tib

Mana, ibodatxonada o'tiribman. U turmushga chiqyapti. Umrim davomida men sevgan yagona qiz, nihoyat, bugun erga tegyapti! Men esa uning „Roziman" degan so'zlarini tinglagancha jim o'tiribman. U bugundan mensiz boshqa inson bilan yangi hayot boshlaydi! Hatto, bugun ham u meniki bo'lishini juda istar edim. To'y tugab, kelin-kuyov mashinaga o'tirishlaridan avval u yonimga keldi-da, doimgidek rahmat aytib, yuzimdan o'pib qo'ydi. Bu safar unga sevishimni aytishning umuman foydasi yo'q edi...

Bir necha yildan so'ng

Qachonlardir eng yaqin do'stim bo'lgan ayolning qabri tepasida turibman. Uning yaqinlari do'stimning maktab yillarida tutgan kundaligini menga — eng yaqin do'stiga berishdi. Beixtiyor unga ko'z yugurtirdim:

„Men unga tikilar ekanman, bu yigit faqat meniki, meniki bo'lishini juda istardim. Lekin u meni sezarmidi? Bilmayman. Unga doim buni bildirgim, ortiq do'st emasligimizni aytgim keladi. Chunki men Uni sevaman!.. Ammo har gal undan shu so'zlarni eshitishni kutaman... lekin u juda uyatchan... nega, bilmayman".

Yig'lab yubordim. Ojizligimdan, uyatchanligimdan yig'ladim. Kech qolganim uchun o'zimni koyidim. Uni sezmaganim, anglamaganim uchun... o'zimni kechirolmasdim. Azizlar, vaqt borida tuyg'ularingizni oshkor eting, men kabi pushaymonda qolmang!!!

Karim MALLESH
(Hindiston)

O‘ZGARGAN QAROR

Yuqori maktabga endigina o‘tgan paytlarim o‘zim tengi bir bolani uchratib qoldim. U ham men kabi maktabdan qaytayotgandi. Uning ismi Kayl ekan. Kayl qo‘lida bir dunyo kitob ko‘targancha ketib borardi. O‘zimcha o‘ylab qoldim: „Juma kuni shuncha kitobni uyiga olib ketib nima qilarkin? Juda o‘qimishli, shekilli“.

Men esa dam olish kunlari do‘stlarim bilan futbol o‘ynamoqchi va o‘tirishga bormoqchi edim. Unga tan bergancha yo‘limda davom etdim. Sal yurgach, bir to‘da yigitlar Kaylni o‘rab olganiga ko‘zim tushdi. Yigitlar uning atrofida sakrashar, kitoblarini irg‘itishar, Kayl esa chang bo‘lgan kitoblarini yig‘ish bilan ovora edi. Uning ko‘zoynagi uchib ketgan, ko‘zlarida esa g‘ilt-g‘ilt yosh aylanardi. Yuragim buzilib ketdi. Yugurib uning yoniga bordim. Ko‘zoynagini topishga ko‘maklashdim. Nigohlari juda alamli edi. Unga ko‘zoynagini tutqazar ekanman, dedim:

— Bu yigitlar ahmoq o‘zi. E’tibor berma.

U menga qaradi.

— Rahmat.

Uning lablari jilmaydi.

Bu baxtli nigohlardan ta’sirlanib, unga ko‘maklashishga qaror qildim. Kitoblarini yig‘ishtirayotib, uyi qayerdaligini so‘radim. Menga yaqin yerda yasharkan.

— Qiziq, negadir oldin seni ko‘rmagan ekanman, — dedim men.

— Men xususiy maktabga qatnayman, — izoh berdi u.

Ilgari xususiy maktabda o‘qiydigan bolalar bilan tanishmagan edim. Biz yo‘l-yo‘lakay gaplashib ketdik. U juda samimiy bola ekan. Unga yakshanba kuni men va do‘stlarim bilan futbol o‘ynashni taklif etdim. U bajon-u dil rozi bo‘ldi.

Dam olish kunlarini u bilan o‘tkazgach, Kaylni yaxshiroq bilib oldim. Bilganim sari u menga yoqib borardi. Dushanba

kuni u yana o'sha kitoblarni ko'targancha maktabga ketayotgandi. Yo'lda uni to'xtatdim:

— Shuncha kitobni olib kelib-olib ketib mushaklaringni o'stirmoqchimisan, deyman?

U kulib qo'ydi va ko'tarishib yuborishim uchun kitoblarning yarmini berdi.

Keyingi to'rt yil ichida Kayl va men yaqin do'stlarga aylandik. Maktabni bitirayotib kiradigan kollejimiz haqida suhbatlasha boshladik. Kayl Jorjtounda, men esa Dukda o'qishni ma'qul ko'rdik. Garchi boshqa-boshqa yerlarda o'qisak-da, do'stligimiz buzilmasligini bilardik. Men shifokor, u esa futbol maktabi ochish maqsadida tadbirkor bo'lishga qaror qilgandik.

Maktabidagi bitiruv kechasiga Kayl xayrlashuv nutqini tayyorlashi kerak ekan. U notiqlik bo'yicha mashq qila boshladi.

Uning bitiruv kechasiga bordim. Kayl juda xushkayfiyatda edi. Hatto ko'zoynaklari ham o'ziga yarashib turardi. Buni qarangki, yuqori maktabda uni ko'p qizlar yaxshi ko'rarkan. Kaylning nutqi oldidan hayajonlanayotganini sezdim. Shu sabab uning yonida dalda bo'ldim:

— Hey katta yigit, hammasi a'lo bo'ladi!

U menga minnatdorona nigohlarini tikdi:

— Rahmat!

Kayl tomog'ini bir qirib oldi-da, sahnada nutqini boshladi:

— Bitiruv kechasi, bu o'tgan yillar ichida bizga ko'maklashgan barcha-barchaga minnatdorlik bildirish kechasidir. Ota-onalarimiz va ustozlarimiz, sizga ta'zim, lekin birinchi o'rinda do'stlarimizga! Men bugun inson hayotida do'stlikning o'rni naqadar yuksak ekanligi haqida so'zlamoqchiman.

Uning hikoyasi menga-da notanish edi. Biroq uni tinglagach, ko'zlarimga yosh keldi. Aytishicha, o'sha bizlar tanishgan kun Kayl o'zini o'ldirmoqchi bo'lib, kitoblarini ham maktabidan shu maqsadda uyiga eltib qo'yayotgan ekan. Toki keyin onasi sarson bo'lib, uning buyumlarini maktabidan uyga tashimasligi uchun. Xullas, o'sha kuni meni uchratib qolgach, bu fikridan qaytibdi.

— Senga rahmat, do'stim, — u menga qaradi, — sen menda yashashga ishtiyoq uyg'otding!

Yig'ilganlar menga hayrat ila boqishdi. Kaylning ota-onasi ham menga qarab jilmayishdi. Men esa birgina daldam va tabassumim bilan kelajagi buyuk bir insonni saqlab qolganimdan shod edim. Odamlardan shirin so'zingiz va mehringizni ayamang, do'stlar!

RANGLAR BAHSI

Bir kuni ranglar o'rtasida bahs boshlanibdi. Ular qaysi rang eng yaxshi ekanligi borasida ko'p tortishishibdi. Axir hammalari o'zicha chiroyli, kerakli va sevimli edilar-da.

Yashil rang so'z ochibdi:

— Men eng zaruriy rang bo'laman. Chunki hayot va umid belgisiman. O'tloqlar, daraxtlar, yaproqlar, umuman, tabiat mendan rang olgan. Men bo'lmasam, butun jonzot va o'simliklar tirik bo'lmas edi. Axir, atrofga bir nazar tashlang, meni ko'rmay bo'ladimi?

Moviy rang uning gapini bo'libdi:

Sen faqatgina Yer haqida o'ylayapsan, ammo osmon va dengizlar-chi? Ularning hayotimizdagi o'rnini o'ylab ko'rmadingmi? Axir, hamma narsaning asosi suv-ku? Osmon bo'lmasa, yomg'ir-u qor yog'masa, nima bo'lishini tasavvur qilyapsizlarmi? Bular bizga tinchlik ato etadi. Men bo'lmasam, insoniyat ham, umuman, hech narsa paydo bo'lmas edi.

Bu so'zlarni eshitib sariq rang kulimsirabdi:

— Biram balandparvoz gaplarga o'chsizlarki! Aslida hayotda quvonch, shodlik, iliqlikdan ham chiroyli narsa bormi? Men odamlarga kulgu, tabassum ulashaman. Aytinglar-chi, quyoshsiz yashab bo'ladimi? Aynan quyosh nurlari insoniyatga issiqlik bag'ishlaydi. Mensiz gullar ochilmaydi, yulduzlar charaqlamaydi. Ko'rdingiz, men bo'lmasam dunyo naqadar qayg'u va qorong'ilikka ko'milardi.

Suhbatga olovrang ham qo'shilibdi:

— Men kuch va sog'liq ramziman. To'g'ri, tabiatda kam uchrasam-da, ammo inson hayoti uchun juda muhimman. Darmondorilarning asosiy qismi menda mujassam. Sabzi, apel-

sin, mango, papayya, qovoqda darmonlarim bor. Quyosh botishida ham ishtirok etaman. Bunday go'zallik yana qayda bor?

Qizil rang bu gaplarga chidayolmay hayqiribdi:

— Aslida men hammangiz ustidan hukmron bo'lishim kerak. Men qon tusidaman. Demak, hayot mensiz bo'lmaydi. Jasurlik, dovyuraklik ramziman. Janglarda g'olib bo'laman. Ehtiros va muhabbat ham mendan yaralgan. Eng go'zal sovg'a — atirgul mening rangimda!

Xullas, o'rtaga boshqa ranglar ham qo'shilib, bahs davom etibdi. Hammasi o'zini maqtar, ustunlik jihatlarini sanar, past ketishni istamasdi. Shu payt birdan osmon charaqlab, gulduros chaqmoq chaqibdi va sharros yomg'ir quyib yuboribdi. Ranglar dahshat ichida bir-biriga yaqinlashib, qunishgancha o'tirishibdi. Chaqmoq ichidan baland ovoz eshitilibdi:

— Ey tentak ranglar, buncha o'zingizni ko'klarga ko'tarmasangiz? Axir, tabiatda hammangizning o'z o'rningiz borligi, bir-biringizsiz mavjud bo'lolmasligingizni nahotki tushunmagan bo'lsangiz? Quyosh chiqsa, daraxtlar ko'karadi. Yomg'ir yog'sa, gullar ochiladi. Suv bo'lsa, hayot paydo bo'ladi. Muhabbat yaralsa, umid tug'iladi. O't-o'lan bo'lsa, jonzotlar yashay oladi. Demakki, yashil sariqsiz, qizil moviysiz, olovrang yashilsiz mavjud bo'lolmas ekan! Yaxshisi, birlashib, o'zaro kelishgan holda insoniyat va tabiatga in'omlar qilishda davom eting. Dunyoda faqatgina bitta rang qoladigan bo'lsa, hayot tugaydi, buni aslo unutmang!

SIRK

Bir kuni dadam bilan sirkka yo'l oldik. Navbatda turar ekanmiz, bizdan oldinroqdagi bir oilaga ko'zim tushdi. Ota-onasining pinjiga tiqilib, ko'zlarida ajib bir hayajon bilan navbatini kutayotgan sakkiz nafar bolakayning bari 12 yoshdan kichik edi. Ularni boy deb bo'lmas, shunday bo'lsa-da, tarbiya ko'rganligi toza va ozoda liboslaridan sezilib turar, o'zlarini sipo tutishardi. Nihoyat, ularning navbati ham yetib keldi. Ota chiptachiga qarab hayajon bilan so'z qotdi:

— Ikkita kattalar va sakkizta bolalar chiptasidan bersangiz.

Chiptachi qiz narxni hisobladi-da, qancha bo'lganini aytdi. Erkak kalovlanib qoldi. Hoynahoy, u chiptalar bunchalik qimmat narxda sotilishini kutmagan, buncha puli yo'qligi ko'rinib turardi. Bolalar esa hamon intiqlik bilan sirk tomon qarab qo'yishar, otalarining tezroq chipta olishini va „Ketdik, bolalar!" deyishini kutishardi. Voqeani bir men emas, dadam ham kuzatib turgan ekanlar. Tan olishim kerak, bizning oila o'ziga to'q bo'lib, bu kabi tomoshalar menga orzu emas, shunchaki ko'ngilocharlik hisoblanardi. Dadam qo'li ochiq inson edi.

Erkak nima qilarini bilmay turgan payt dadam asta ularning yoniga bordi va bildirmay cho'ntagidan 20 dollarlikni „tushirib yubordi". Keyin bilmagan kishi bo'lib, haligi odamni turtdi.

— Janob, pulingiz tushib qolibdi-ku, — dedi ajablanib va pulni yerdan olib erkakka uzatdi.

Haligi odam biroz o'ylanib qoldi va jilmaydi.

— Rahmat!.. Ammo bu mening pulim emas. Egasi chiqib qolar.

Dadam indayolmadi. Erkak bolalarini yetaklab ortiga qaytdi. O'sha kuni sirkka tushgim kelmadi. Biz ham uyga ketdik.

Abu AMMAR

(Pokiston)

BESH DAQIQA

Bog'dagi o'rindiqda o'tirgan Saidning yoniga bir kishi kelib qo'shildi.

— Anavi mening o'g'lim bo'ladi, — dedi yangi kelgan erkak biroz suhbatlashish maqsadida sherigiga qarab.

— Yaxshi bolakay ekan, — dedi Said ham unga javoban. — Anavi oq ko'ylakda velosiped uchayotgan qizcha esa meniki.

U shunday deb soatiga qaradi-da, qizini chaqirdi.

— Maryam, ketamizmi, nima deysan?

Qizaloq otasining yoniga yugurib keldi va bola tilida chug'urladi:

— Yana besh daqiqa o'ynay, dadajon! Besh daqiqagina...

Said unga ruxsat berdi. Maryam quvongancha maydoncha tomon yugurib ketdi. Oradan besh daqiqacha o'tgandan so'ng ota qizini yana chaqirdi:

— Aytgan vaqting o'tib ketdi, qizim. Ketamizmi endi?

Maryam yana otasiga yalindi:

— Yana besh daqiqa o'ynay qolay, dada. Keyin ketamiz, xo'p...

Said jilmaydi:

— Mayli, qizim.

Saidning yoniga o'tirgan erkak unga so'z qotdi:

— Juda yumshoqko'ngil ota ekansiz. Lekin bolalarga qattiqqo'lroq bo'lish kerak-da. Yo'qsa, aytganingizni qilmay qo'yishadi...

Said kuldi va so'zlay boshladi:

— Maryamning akasi Arofatni aynan shu yerda velosiped haydayotgan paytda bir mast haydovchi urib yuborgan. O'shanda men uning yonida emasdim. U bilan birga vaqt o'tkazishni bekorchi ish deb hisoblar edim. Afsuski, bir zumda taqdir uni oramizdan olit ketdi. U bilan hech bo'lmasa, besh daqiqagina birga bo'lolganimda edi, degan azob meni tinch qo'ymaydi. Xatoyimni qizim bilan tuzatyapman. U mendan atigi besh daqiqagina so'rayapti, aslida esa men undan so'rashim kerak. U qancha demasin, shuncha vaqtimni qizim bilan o'tkazishga tayyorman. Toki, keyin afsuslanib qolmay...

YURAKDAGI NIHOLLAR

Badavlat bir insonning o'g'li yomon xulqli bo'lib, salbiy odatlarini hech tashlamas ekan. Boy o'g'lini tarbiyalash maqsadida uyiga aqlli bir ustozni taklif qilibdi. Ustoz uning muddaosini tinglab, yigitni yoniga olibdi-da, bog' bo'ylab sayrga chiqishibdi.

Ustoz yigitdan shu yerda o'sayotgan kichkina bir niholni yulib tashlashini so'rabdi. Yigit ikki barmog'i orqali niholni osongina ko'chirib olibdi. Shundan so'ng ustoz yigitga daraxt bo'lib ulgurgan ko'chatni yulishni buyuribdi. Yigit zo'r berib, bor kuchini ishlatib daraxtni yerdan sug'uribdi.

— Endi esa manavinisiga urinib ko'r, — deya ustoz kattakon va sertomir daraxtga ishora qilibdi.

Yigit qanchalik urinmasin, daraxt qilt etmasmish.

— Buning iloji yo'q, — deb tan olibdi yigit.

— Ana shunday! Bizdagi yomon odatlar ham ko'chatga o'xshaydi, — nasihat qilibdi ustoz, — avvaliga nihol, so'ng daraxtcha, keyin esa ulkan va bahaybat daraxtga aylanadi. Uni vaqtida qalbimizdan yulib tashlasak, ish oson kechadi. Vaqtni boy bergan sarimiz esa u tomir boylab, butun tanimizni egallab boraveradi. Oqibat istasak-da, uni yurakdan sug'urib tashlolmaymiz.

Yigit bu gaplardan so'ng o'z xulqi haqida chuqur o'ylab ko'ribdi va qalbida unayotgan yomonlik ko'chatlarini vaqtida sug'urib tashlashga ahd qilibdi.

BIR SHISHA SUT

Bola eshikma-eshik yurib, turli buyumlar sotar, shu orqali maktabda o'qishi uchun pul yig'ardi. Odatiy kunlardan birida uning savdosi unchalik yurishmay, och qolibdi. Nima qilarini bilmay, keyingi kiradigan uyidan yegulik so'rashga ahd qilibdi. Eshikni yosh va go'zal bir ayol ochibdi. Bola salom bergach, ovqat so'rashga botinmay, „Ichishga biroz suv bersangiz, iltimos!", deb so'rabdi.

Ayol bolaning ochiqqanini sezib, unga katta shishada sut olib chiqibdi.

Bola sutni sekin va ishtaha bilan ichgach, har ehtimolga qarshi so'rabdi:

— Sut uchun qancha beray?

— Hech qancha. Qarz emassan. Onam bizga „Yaxshilik uchun pul olmanglar", deb o'rgatganlar.

— Chin yurakdan rahmat sizga!

Bola bu xonadonni jisman tark etsa-da, yuragi shu yerda qolibdi.

Oradan yillar o'tib, ayol xastalikka chalinibdi. Bu yerdagi shifokorlar hech nima qilolmagach, uydagilari uni katta shaharga olib ketishibdi. Uni davolash uchun shifokor Xovard Kelliga navbatga yozilishibdi.

Ro'yxatda o'zining shaharchasidan kelgan bemor borligini o'qigan Xovard darhol uni ko'rmoqqa oshiqibdi. Palatani ochib kirarkan, ayolni bir ko'rishdayoq tanibdi. So'ng xonasiga qaytibdi-yu, uning tibbiy varaqasini o'qib, davo izlashga kirishibdi.

Vaqt o'tib, ayol tuzala boshlabdi. Kerakli muolajalar ta'sir qilib, nihoyat, uyga ruxsat beradigan bo'lishibdi. Hamshira to'lov qog'ozlarini olib, ayolga beribdi. Ayol buncha pulni to'lashga qurbim yetsa bo'ldi, degan hadik bilan qog'ozni asta ochibdi. Unda bir necha jumla yozilgan ekan: „Bir shisha sut evaziga to'lovdan ozod etilgansiz".

QALAM VA ODAM

Usta o'zi yasagan qalamlarni qutilarga joylarkan, ularga maslahat berishni joiz deb topibdi.

— Bu dunyoda siz bilishingiz lozim bo'lgan beshta narsa bor, qalamlarim, — gap boshlabdi u, — tashqi olamga yetkazishdan avval sizlarni ulardan boxabar etmoqchiman. Aslo unutmangki, eng yaxshi qalam bo'lish faqat o'z qo'lingizda!

Birinchisi, qo'lingizdan ko'p buyuk ishlar keladi, biroq buning uchun sohibingiz aytganini qilishingiz lozim. Demak, komil inson qo'lidagina siz buyuklikka musharraf bo'lasiz!

Ikkinchisi, to maqsadga yetmaguncha siz ko'p azob chekasiz. Sizni alamlari kelsa, uloqtirishlari, sindirishlari mumkin. Axir qog'ozga arzirli narsa bitilmaguncha siz beminnat xizmat qilishingiz tabiiy-ku. Demak, sabr sizning hamrohingiz bo'lsin!

Uchinchisi, xatoyingizni to'g'rilashni o'rganing. Shuncha yozib qo'ydim-ku, o'chirish uvol, deb bepisandlik qilmang. Haqiqiy asar o'chirg'ichsiz bitmaydi. Siz qalamsiz, o'chirib boshqatdan yozishdek baxtga egasiz. Demak, kamchiliklar ustida ishlash asosiy vazifangiz bo'lsin!

To'rtinchisi, qilayotgan ishingizni oxirigacha yetkazishni o'rganing. Yarim yo'lda qoldirib, boshqa yumushga o'tib ketmang. Sohibingizga sadoqatli bo'ling, uni anglang, yordam bering!

Beshinchisi, eng asosiy vazifangiz — yozish, ijod qilish ekanini sira unutmang! Siz tufayli minglab asarlar yaratiladi, millionlab o'quvchilar dardiga malham topadi. Siz kitoblarni asrdan asrga yetaklaysiz. Yoshingiz juda ulug' va siz tufayli dildagi gaplarni qog'ozga aytish istagi hamisha barhayot bo'ladi!

Qalamlar ustaning so'zlarini jimgina tinglab, ularga doim rioya qilishga so'z beribdilar. So'ngra usta ularni tayyor qutilarga joylabdi.

Qalamga qilingan nasihatlar aslida sizga tegishli, aziz insonlar. Yaratgan bizni bu olamga yuborar ekan, besh yumushga chorlaydi.

Birinchisi, qo'limizdan ko'p buyuk ishlar keladi, biroq bizni yaratgan sohibimiz Ollohni unutmasak, uning aytganlaridan chetga chiqmasak bas!

Ikkinchisi, to maqsadga yetmagunimizcha hayotimizda ko'plab sinovlarga duch kelamiz. Irodasizlarcha ularga yengilmay, yengib o'tishimiz va kurashda davom etishimiz zarur. Muammosiz hayot yo'q, faqat matonat va sabr bizga yordam beradi!

Uchinchisi, kamchiliksiz inson yo'q. Faqat ularni vaqtida anglab, tuzatib borgan va xatolarni qayta takrorlamaydigan insongina bu dunyoda baxtga erishadi. To'g'ri, bizda o'chirg'ich yo'q, o'tgan ishlarni to'g'rilay olmaymiz, biroq kelgusida takrorlamaslik uchun bizga ong ato etilgan, uni to'g'ri ishlata olsak bas!

To'rtinchisi, bir kasbni boshidan tutdingizmi, uni sharaflang va o'lda-jo'lda qilishga odatlanmang. Hunaringiz ortidan halol rizq toping. Yaratgan o'z ishini halol va mukammal tarzda bajaradiganlarni yoqtiradi!

Beshinchisi, unutmangki, siz buyuk odamzodsiz. Faqat mehnat va harakatdan to'xtamang. Siz bajargan ishlar millionlab odamlarni qutqarsin, million yillar tillarda qolsin. Eng muhimi, bu dunyoda yaxshi nom qoldirishdek baxtga musharraf bo'ling!

Mari NEPIYER

(Avstraliya)

MUHABBAT HAMISHA BARHAYOT!

Yangi yil yaqinlashgach, archani bir o'zim bezatishga kirishdim. Bu safar o'g'limsiz. U bir necha oy burun oqqon dardi tufayli bu dunyoni tark etgandi. Kasal bo'lgan paytlari dilbandim mening ko'z yoshimni artgancha, boshqa hech qachon yosh to'kmang, deb qasam ichdirgandi. Men o'g'limga so'z berdim: u dunyoda behalovat bo'lmasligi uchun anduh chekmaslikka harakat qilmoqdaman.

Yangi yil yaqinlashgunicha men va'damni buzmadim. Biroq bayram kelgani sayin qalbim o'zimga bo'ysunmayapti, boisi o'g'lim Yangi yilni juda sevardi. Usiz o'tayotgan ilk Yangi yil, archani bolamsiz bir o'zim bezatayotganimdan xo'rligim kelib ketdi. Shu sabab archani yengil-yelpi bezar, yig'lagim kelardi. Archa o'yinchoqlarini birma-bir ilar ekanman, ko'zim birdan qadrdon bir qutiga tushdi. Avaylab qo'limga oldim: uni o'g'lim o'tgan yilgi bayramda menga tuhfa etgandi. U shishadan yasalgan zarli archa o'yinchog'i edi. O'shanda o'g'lim aytgan so'zlar hech qachon esimdan chiqmaydi:

— Oyi, sizga yaxshiroq sovg'a qilolmadim. Bir kun o'zim pul ishlab topganimda, albatta, eng zo'r sovg'a taqdim etaman.

Shunda men uning peshanasidan o'pib:

— Bu dunyoda sendan a'lo tuhfa yo'q, — degandim. O'yinchoqni avaylab archaga ildim. Undan farzandimning isi kelardi. Ko'z yoshlarim taqqa to'xtadi: axir dilbandim yonimda-ku. Mana, u menga archani bezatishda yordam beryapti. Yo'q, u meni tark etmapti. Hamisha mana bu yerimda — yuragimda yashab kelayotgan ekan. Muhabbat o'lmaydi.

Qalbim Yangi yil shukuhiga to'ldi, o'g'lim men bilan. Uni birga kutib olamiz. U mana shu sovg'a bilan o'z qalbini tashlab ketgan. Men yig'lamayman, yo'q, yig'lamayman.

...Endi har Yangi yilni o'g'lim tuhfa etgan o'yinchoqni archaga ilish bilan boshlayman. Chunki bilaman: bolam qalbimda mangu yashaydi. Har gal o'yinchoqqa tikilganimda,

u menga jilmayadi va yashashga kuch bag'ishlaydi. Azizlar, yoningizdagi insonlarning qadriga yeting, agar biror yaqiningiz sizni tark etgan bo'lsa, kuyinmang, ular hamisha siz bilan!

Karla FODOR
(AQSH)

SOVG'A

Yetti yashar qizim Tamiko shu kunlarda juda xursand. U Yangi yil kirib kelishini va Qorbobo hammaga sovg'a ulashishini intiq bo'lib kutmoqda. Bugun Tamiko maktabdan qaytiboq, xonasiga kirib olarkan, hech kim kirmay turishini iltimos qildi. Bilishimcha, uning qo'li to'la sovg'a edi. Birozdan so'ng u eshikni ochdi va o'ralgan sovg'alarini archa tagiga terib qo'ydi. Men erim bilan asta ularga ko'z yugurtirdik. Tamiko sovg'alarning ustiga „Onamga", „Otamga" hamda „Ukamga" deb yozib qo'ygandi. Mamnun holda qizimning boshini siladim. Bir payt mening sovg'am orqasida turgan yana bir qutiga ko'zim tushdi. Tamiko unga „Buvimga" deb yozib qo'ygandi. Yuragim zirillab ketdi.

Qizimning umidbaxsh ko'zlariga termilib, nima deyishni bilmay qoldim.

— Axir, hamma sovg'asini ochgani keladi-ku, to'g'rimi, oyi? — dedi u ilinj bilan.

Gap shundaki, uning buvisi bundan to'rt hafta ilgari olamdan o'tgandi. Hammadan ko'ra, buvisini yaxshi ko'radigan Tamikoning bu tuhfasidan uyimizga onamiz qaytgandek bo'ldi.

A. KEYUR
(AQSH)

KAMBAG'AL, AMMO BOY OILA

Yangi yil yaqinlashgan sari biz do'stlar bir-birimiznikiga kechki taomga tashrif buyurishga kelishib oldik. Birinchi gal bir do'stimnikiga boradigan bo'ldik. Men uning qayerda va

qanday yashashidan bexabar edim. U kollejga avtobusda kelib ketardi. Uning uyiga yetib borgach, tilim aylanmay qoldi. Bitmagan uyning devorlari nuragan, hindlarning o'rtahol oilasidan ham abgor ahvolda edi. Lekin do'stim ota-onasining mulozamatidan keyin bu kamchilik sezilmay qoldi. Ular bizni mehribonlik bilan ichkariga taklif etishdi. O'tirib ovqatlanadigan stol yo'q shekilli, yerga dasturxon tuzashdi. Uy bekasi bizni ajoyib bir taom bilan siyladi: uning ta'mi haligacha og'zimdan ketmaydi. Do'stimning otasi mexanik bo'lib ishlar, topgan puli ikki o'g'lining o'qishi uchun sarf bo'larkan. Ota bizni kelganimizdan xabar topib, ishidan barvaqt qaytibdi. U ust-boshi moyga belangan bir ahvolda kirib keldi. Do'stim bu holdan xijolat tortmay, bizni tanishtirdi. Bu xotirjamlikdan biz ham o'zimizni erkin his eta boshladik. Birozdan so'ng do'stim bizdan „Shirinlik yeysizlarmi?" deb so'radi. Bir nima deb ulgurmasimizdan otasi tashqariga chiqib ketdi va bizga shirinlik keltirdi. Shunday kambag'al... ammo badavlat xonadon barchamizda yaxshi taassurot qoldirdi.

Oradan ancha yillar o'tdi. Do'stim hozir katta bir idoraning boshlig'i. Haydaroboddagi o'sha eski uyini tiklab, ajoyib koshona qurdirgan. Haligacha har Yangi yilda bizni mehmonga chaqiradi. Uylaridagi o'sha nur esa menga yanada porloq ko'rinadi. Do'stimning aytishicha, aslida u o'sha kuni bizni ilk marta uyiga taklif etganida juda hayajonlangan ekan. Agar o'shanda biz uni mensimay, ketib qolganimizda uning umidini sindirgan bo'lardik. U o'sha Yangi yilni haligacha intiqib eslaydi.

Sergey MOROZOV

(Rossiya)

YULDUZGA ATALGAN TILAK

Yulduzlar shivirini tinglaganmisiz? Osmonga Oy chiqqanida ularning shovqin solishini-chi? Mana bu yorqin yulduzlar ham o'z taqdiriga bitilgan tilakni kutib, samo bag'rida porlab Yerni kuzatyapti. Ha, vaqti kelib, ular ham uchadi va tilak ijobat bo'lishiga erishadi.

Yulduzoy o'zining qachon tug'ilganini eslolmaydi. Eslagani shuki, avvaliga mittigina, xira shu'la edi. So'ngra kattalashdi, ko'proq nur socha boshladi. Hozirga kelib esa osmondagi eng porloq yulduzlardan biriga aylandi. Sheriklari undan so'rashadi:

— Qayerda tug'ilganingni bilasanmi?

Yulduz charaqlab jilmayadi:

— Men Quyosh bobodan tushib qolgan zarradan paydo bo'lganman.

Chindan ham, u Quyosh kabi yorqin nur taratardi. Hatto Oymomo ham uning zarrin nurlariga olqish aytar,unga doimo kulib boqardi.

Oradan qanchadir vaqt o'tdi. Samoda vaqtning o'lchovi yo'q. Yerdagi kabi yil, oy, hafta-yu kun tushunchalari u yerda mavjud emas. Shuning uchun Yulduzoydan necha yasharligini so'rasalar javob berolmaydi. Yerdan kuzatganda o'zining naqadar porloq va kattaligini ham bilmaydi. U faqat bulutlarnigina kuzata oladi.

Bir kuni quyuq bulutlar tarqab, uning ostida qandaydir g'aroyib manzara namoyon bo'ldi. Unda dengiz, ko'l va yam-yashil dalalar yastanib yotardi. Ayniqsa, qalin va haybatli o'rmonlar Yulduzning hayratini oshirdi. Anavi mitti yonib turgan nurlar-chi? Qiziq, bular nima ekan? Yulduzlarmi?

Yulduzoyning shivirlab o'ziga bergan savolini Oy eshitib qoldi. U ham ko'lni maroq bilan kuzatib turgandi, bir zum ishidan chalg'ib, Yulduzga javob berdi:

— Bular yulduz emas, chirog'im. Yerda yulduz bo'lmaydi. Yonib turgan nurlar, bu — katta-katta shaharlar. U yerda chiroqlar bor, ular sening ko'zingni quvontiryapti. Shaharlarda odamlar yashaydi.

— Odamlar kim o'zi? — Yerdan ko'zini uzolmay so'radi Yulduzoy.

— Ular juda g'aroyib mavjudot. Qorong'ilikdan negadir qo'rqishadi, shuning uchun sen aytgan yulduzchalar, ya'ni sun'iy nurlarni yaratishgan. Ular o'ylashadiki, biz faqat tunda namoyon bo'lamiz. Aslida ular kunduzi Quyosh chiqqani uchungina bizni ko'risholmaydi.

— Hozir-chi, ular bizni kuzatib turishibdimi? — yanada porladi yulduz.

— Qani, darhol nurlaringni kamaytir-chi, mittivoy! Eh, yoshlar, yoshlar. Sen hali kichkina va tentaksan-da. Odamlarni bilmaysan... ular samoda yangi va yorqin yulduzni ko'rishlari bilan unga qarab darrov tilak bildirishadi. Shunda o'sha yulduz uchadi va koinot qa'rida yonib ketadi. So'ngra o'sha tilak ijobat bo'larmish...

— Bir umrga yonib ketadimi? — qo'rqib ketdi Yulduzoy va darhol nurlarini kamaytirdi.

— Nachora, siz yulduzlarning taqdiringiz shunaqa. Kimdir, qachondir senga ham tilak bildiradi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas.

— Voy, menga qachon tilak aytishadi?

— Sen cho'chima, hali yoshsan, chirog'im, ko'p nur taratishing kerak. — Oy jilmaydi, — lekin ehtiyot bo'l. Tag'in tilak aytuvchi seni topib olmasin. Ana, ko'ryapsanmi?

Yulduzoy imo qilingan tomonga qaradi va bir yorqin yulduzning katta tezlikda uchayotganiga guvoh bo'ldi. Yulduz ko'z ochib yumguncha ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shundan so'ng Yulduzoy ortiqcha nur taratmaslikka ahd qildi. U shu kecha qo'shnilarining gaplariga quloq tutib yotdi.

— Qani endi, — derdi bir Yulduz, — men tug'ilgan kun tilagida uchsam. Mendan biror yangi ko'ylakmi, shlapami so'rashsa armonsiz ketardim.

— E, shlapa unchalik qiziq emas-ku, — dedi sherigi, — men birorta tog' yoki favvoraga qulab tushsam derdim.

Shunda bizning Yulduzcha ham orzu qila boshladi. U biror noodatiy, go'zal va ajoyib tilakka aylanishni istadi.

Bir kuni Yulduzoy ko'l sohilini kuzata turib, bir yigitchaga ko'zi tushib qoldi. U daraxt ostidagi o'rindiqda o'tirgancha ko'ldan ko'zini uzmasdi. Yulduz uning fikrlarini o'qiy boshladi.

„Nahotki u meni ko'rishni ortiq istamasa? Ishonolmayman, ishonishni istamayman ham! Aybim nima, axir unga hech bir yomon so'z aytganim yo'q-ku? Nimadan qo'rqdi u? Ishonmayman!..“

Yulduzoy uning fikrlarini o'qigan sari yorqinlashib borardi. U atrofdagi boshqa yulduzlardan ajralib kattalashganini

sezib qoldi va yigitning fikrlarini o'qishni to'xtatmoqchi bo'ldi. Lekin qo'lidan kelmadi, yigit o'ylagan gaplar unga yetib kelardi.

„Zora edi, bittagina orzum ro'yobga chiqsa... Nega sehrgar emasman-a?!"

Yulduzoy sergaklandi. Chunki yigitcha tilak bildirishi mumkin edi.

„Nahot samodagi hech bir yulduz ohimni eshitmasa? Kimdir, nimadir menga yordam bera oladimi?.. Tilagim... qani endi, sevganim sohilda paydo bo'lib, men tomon kelsa... Shunda uning ko'zlariga boqib, dilimdagini aytardim!"

Yulduzoyning tilaklarga qarshi turishga boshqa iloji qolmadi. Demak, bu uning taqdiri. U jilmaydi-da, bor kuchi bilan chaqnab uchib ketdi. Oy uning ortidan nelardir degancha qolaverdi. Yulduzoy uchib borardi. Oradan qanchadir vaqt o'tdi. Bir vaqt Yulduzoy ko'zlarini ochsa, negadir yonib ketmabdi. Hali ham tirik. U Yerga yaqinroq kelib qolgan, haligi yigitchani bemalol ko'rib turardi. Yigitning yonida bir go'zal qiz o'tirar va yig'lar, yigit esa nimalarnidir so'zlar edi...

Bir vaqt yoshlar osmonga, aynan Yulduzoyga qarashdi. Qiz unga gapirdi:

— Qo'rqma, yulduzcha, sen yonib ketmaysan. Sen shunchalik chiroylisanki...

Yigit uning gapini davom ettirdi:

— Bariga men aybdor edim. Suyganim o'zi yonimga keldi. Shunda samoda sen uchding. Ikkimiz darhol tilak bildirdik. Ikkimiz ham birdaniga sening yo'qolib ketmasligingni, doimo porlab turishingni niyat qildik. Chunki siz yulduzlar juda mehribonsizlar. Tilagimizni ro'yobga chiqarib, nega yonib ketishingiz kerak? Sen har kech porlab tur, biz esa senga tikilib tilak tilaylik...

Yulduzoy ularga minnatdor boqib, yana yuksak samoga uchib ketdi. Qaytib o'z joyiga, Oyning yoniga joylashdi. Shundan beri Oyning yonidagi porloq yulduz sira so'nmas ekan, u hamisha Oy chiqishi bilan odamlarga ko'rinar va tilaklarini tinglarkan. Ishonmasangiz, tunda samoga boqing, uning jilmayib porlab turganiga guvoh bo'lasiz. Shivirlab aytgan tilaklaringiz, albatta, unga yetib boradi.

Mark TVEN
(AQSH)

HAYOTNING BESH TORTIG'I

Bir kuni erta tongda Pari o'z savatini ko'tarib yosh yigitning huzuriga tashrif buyuribdi.

— Bular mening sovg'alarim. Ulardan xohlagan bittasini tanlab ol, qolganini qaytarib olib ketaman. Ammo tanlovda juda ziyrak bo'l, ularning orasida faqat birgina sovg'a juda qimmatlidir! — debdi Pari yigitga.

Sovg'alar quyidagilar edi: Shuhrat, Sevgi, Boylik, Rohat va Halollik.

Yosh yigitcha besabrlik bilan debdi:

— O'ylashga hojat yo'q. Men Rohatni tanlayman!

Shunday qilib, yigitga uch yil muhlat berilibdi. Ammo qisqagina shu hayot behuda va zerikarli o'tibdi. Oxir-oqibat yigit uch yilini xazon qilgach, „Vaqt ortga qaytsa, Parining boshqa tortig'ini tanlagan bo'lardim", deb o'kinibdi.

Bir payt uning yonida Pari paydo bo'libdi va debdi:

— Mening to'rtta sovg'am qoldi. Senga yana bir bor tanlash imkoni beriladi. Ular ichidan a'losini tanla!

Yigit uzoq o'ylab, Sevgini tanlashga qaror qilibdi. Ammo Parining ko'zidan tomayotgan ko'zyoshlarni sezmabdi. Oradan belgilangan yil o'tib, erkak qabr tepasida turardi, yonida esa hech kim yo'q edi.

„Hamma suygan ayollarim mendan voz kechdi. Mana, oxirgi sevgan insonim ham mendan oldin u dunyoga yo'l oldi. Sevgi deya minglab soatlarim anduhda o'tdi. Tanlovimdan afsusdaman!.."

Pari yana uning yonida paydo bo'libdi:

— Yana bir bor tanla. Unutma, ular ichida birgina qimmatlisi mavjud. Juda ehtiyotkor bo'l!

Erkak o'ylay-o'ylay Shuhratni tanlabdi. Pari esa unga bir so'z demay ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Yillar o'tib, Pari uning yoniga yana kelib, erkakning xayolidan o'tayotgan har bir fikrni o'qib olibdi.

„Mening nomim dunyoga tanildi. Ismim tillarda doston bo'ldi, bundan avvaliga mamnun edim. Keyin esa hasad, g'iybat, ig'vo, ko'rolmaslik kabi qora xayollar meni o'rab oldi. Yonimda ishonchli qadrdonim qolmadi, juda g'aribman. Tanlovda yana adashgan ekanman!.."

— Unda yana bir bor urinib ko'r. Atigi ikkita sovg'am qoldi.

— Boylik — bu kuch. Avval ko'r bo'lgan ekanman. Hayotda eng badavlati o'zim bo'laman. Hatto odamlarni ham sotib olaman. Dunyoning bari lazzatlari oyog'im ostiga to'kiladi, umr bo'yi rohatda yashayman. Umrimni noto'g'ri tanlovlarga bag'ishladim, bu gal adashmayman.

Oradan uch yil o'tgach, erkak eski-tuski ro'dapoga o'ralgancha bir chetda turardi. Uning ahvoli g'oyat achinarli, ko'zlaridan tinmay yosh oqardi.

— Men to'rt ajoyib sovg'ani tanladim. Ammo nega bari menga omadsizlik keltirdi? Naqadar ahmoq ekanman! Pari nazarda tutgan sovg'ani nega olmadim-a?! Hoy-u havasga, aldamchi va o'tkinchi narsalarga uchdim.

Pari uning yoniga kelib, bergan to'rt sovg'asini qaytarib olibdi.

— Menga atalgan o'sha oxirgi sovg'ang qani?

— Afsuski, uni boshqa bir inson tanladi. Endi Halollik u bilan toabad birga, qaytarib ololmayman. Senga esa faqat uzoq keksalik hamroh bo'ladi.

Boshena KAYZER

(Rossiya)

TUYG'ULAR DO'KONCHASI

— Assalomu alaykum! — salomlashdi yosh yigit do'konga kirarkan. U yangi do'kon haqida gazetada o'qigandi.

— Salomat bo'ling! — javob qaytardi unga sotuvchi ayol.

— Aytolmaysizmi, sizlarda Romantika sotiladimi? Menga taxminan 2— 3 kg Romantika zarur bo'lib qoldi.

— Romantika? — hayron bo'ldi sotuvchi. — Bizda bunaqa mahsulot anchadan beri yo'q. Bu haqda gazetada o'qidingizmi?

— Ha, — dedi yosh yigit, — u yerda yozilishicha, do'konda Romantika bor ekan.

— Onlayn magazinida bo'lishi mumkin, — yon berdi sotuvchi, — do'konimizda siz aytgan mahsulotni so'rashmaydida. Kimga Romantika kerak bo'lsa, Internetdan izlaydi. Hozir Internetda hamma narsani topsa bo'ladi.

— Nima, odamlar Romantikani izlamay qo'yishganmi?

— Bilmadim. Qizlar so'rashga uyalishadi, yigitlar bo'lsa...

— Qiziq... — o'ylandi xaridor.

— Balki siz ijtimoiy fanlar talabasi bo'lsangiz kerak. Ehtimol, yozuvchi yoki shoirdirsiz? — sotuvchi unga diqqat bilan tikildi.

— Yo'q, men oddiy bir yigitman. Ayting-chi, Romantikaning o'rniga nimani tavsiya etardingiz?

— Xo'sh, xo'sh, ko'raylik-chi... — sotuvchi peshtaxtalarni birma-bir ko'zdan kechirdi. — Masalan, Ilhom bor ekan. Lekin u tez kelib-ketib turadigan vosita.

— Ilhom bo'lsa yo'q demasdim, — rozi bo'ldi yigit. — Hozir sizlarda qaysi mahsulotlar xaridorgir o'zi?

— Bizdan tez-tez Hazil, G'urur, Manmanlik, Beodoblik, Kinoya va Ishonchni so'rashadi...

— Sevgini-chi?

— O, Sevgi doim mashhur mahsulot bo'lgan, unga talab kuchli. Topish ham mushkul uni.

— Xo'sh, o'zi qancha turarkan?

— Judayam qimmat. Sevgi ilohiy tuyg'u, shuning uchun grammlab sotiladi. Aslida u odamlar tug'ilganidan boshlab qalbda ulg'ayadi. Ammo ko'pchilik uni sezmay, tashqaridan izlaydi. Sevgini payqaganlar esa uni gullab yashnatib boshqalarga ham tekinga ulashadi. Masalan, sizga kimdir Sevgi berganmi? — sotuvchi o'z yoshligini eslab yigitga ishtiyoq bilan qaradi. — Sevgi olish naqadar baxt! O'zingni hamma narsaga qodirdek sezasan. Sevgi senga boshqa hamma tuyg'ularni baxsh etadi.

— Balki hali yoshligim uchun hech kim menga Sevgi bermagandir. To'g'risi, o'zim ham birovga bermaganman. Sizning gaplaringizdan so'ng Sevgi qalbimda bo'lishi mumkinligini o'ylab qoldim.

— Hali hammasi oldinda. Muhimi, Sevgini behuda sarf qilmang.

— Xullas, Sevgini ko'pchilik sotib oladimi? — so'rashda davom etdi yigit.

— Ha. Ba'zilar o'zidagi Sevgini katta narxlarda sotib yuboradi. Sevgi tekinga berilmay, sotilganda salbiy tuyg'ularni boshlab keladi.

— Masalan, qanaqa tuyg'ularni?

— Eng yomon tuyg'ularni: Nafrat, Rashk, Jirkanish, Bevafolik. Bu kabi tuyg'ular aslida bir o'zi sotilmaydi. Lekin Sevgiga qo'shimcha qilib berilishi mumkin. Ko'pchilik yigitlar Sevgi bilan Rashkni birga sotib oladi. Natijada Rashk ta'sirida Sevgi o'ladi: ular rafiqasi yoki sevgilisidan ayrilishadi.

— Bu ularning aybi emas. Sevgi bor joyda Rashk ham bo'ladi-da.

— Yo'q, yigitcha. Eng muhim gapni sizga aytay. Sevgini sotib olish shart emas, uni o'zingiz yaratishingiz mumkin. Sevgi tabiat tomonidan tuhfa etiladi. Hamma odamda zarracha bo'lsa-da Sevgi bo'ladi. Uni parvarishlash, e'tibor ko'rsatish, gullatish odamning o'ziga bog'liq. Lekin buning uchun odamlarda Sabr va Ishonch yetishmaydi. Xo'sh, endi nimani sotib olish haqida biror qarorga keldingizmi?

— Ha, albatta, — jilmaydi yigit, — menga ikki kg Ilhom va bir kg dan Sabr, Ishonch va Umid bersangiz. Bu tuyg'ular Sevgi urug'ining gullab yashnashiga imkon beradi. Sizga katta rahmat! Ko'rishguncha!..

Laura XORN

(Angliya)

OTAMGA BORMAGAN MAKTUB

Otamga!

Mening ismim Sara, yoshim oltida. Men sizga maktub yozyapman, buni onamga aytmang. Bu yil maktabga chiqar emishman. Bu haqda kimdan so'rab olishni bilmayapman. Onam meni eshitmaydi. Men otam bo'lishini juda istayapman. Maktub yozib tursam maylimi?

* * *

Qadrli otajon!

Sizga xat yozishim juda g'alati. Ammo bayramlarda ko'pchilik qizlar otasiga xat yozadi. Men ham shuni istayman. Bayramni faqat onam bilan kutib olaman. Bu juda zerikarli: o'tirib kino ko'ramiz. Siz bilan birga o'ynashni, musiqa eshitishni, ovqatlanishni tasavvur qilib ko'raman. Bir kuni eshik oldida kelishingizni xayolan kutdim. Onam majburlab yotog'imga kiritib yubordi. Dugonam Kelliga maza. Bayramda unikida ota-onasi, tog'a-ammasi, yana ancha mehmonlar bo'ladi. Uylaridan jarangli ovozlar kelib turadi. Onasi ularga tort pishiradi. Mening onam pishirishni yomon ko'radi.

Onamning aytishicha, Siz mening tug'ilganimdan bexabar ekansiz. Boshqa savollarimga esa javob berishni istamaydi. Balki meni Sizdan asrar, ammo men yosh bola emasman. O'n beshga kirdim, bilishga haqqim bor!

Bir kuni Kelli bilan uning yigiti haqida gaplashib o'tirgandik. Onam eshitib qolib, Kellini quvib soldi. Juda xafa bo'ldim. O'zi dardlashadigan bittagina shu o'rtog'im bor edi. Onam sevgi-yu muhabbat haqida men bilan gaplashishni istamaydi, nahotki bu mavzuda dugonam bilan ham gaplasholmasam?

Onam meni Ispaniyaga olib ketdi. Biroz dam olar emishman. Ammo odam yolg'izlikda, do'stlarsiz qanday orom topadi? Onamni qanchalik bilasiz, dada? Bilmadim, qancha vaqt birga yashagansizlar? U doim bir xil savol beradi: „Bugun nima yeding, Sara?", „Sochingni qachon oxirgi marta yuvding?", „Qayerga ketyapsan?" O'zimni xuddi qamoqxonada yashayotgandek sezaman.

Dada, boshqa farzandlaringiz ham bormi? Kim biladi, bu dunyoning qayeridadir akam yoki singlim bordir. Onamning qarindoshlari ham yo'q. Balki mening amaki, ammalarim bordir? Kelli aytishicha, men baxtli ekanman. „Hech kiming yo'q, erking qo'lingda", deydi. Uning beshta akasi bor, ular doim urishishadi. Men ham akam yo ukam sochimni yulib qochishini juda istayman.

Ispaniyada faqat kitoblar bilan ovunyapman. Ko'chaga chiqsam, boshqa oilalarning sayr qilishlarini jim kuzataman. Bilasizmi, men ingliz tili o'qituvchisi bo'lmoqchiman. Buni onamga aytmadim. Bu fikrimga ham qarshi chiqsa kerak.

Onam bir kuni yigit va qiz orasidagi tuyg'ular haqida so'radi. Men yosh bolamidim? Bilaman, bu kabi tuyg'ularni. „Yigiting bormi" deb so'rayotib yuzi shunchalik o'zgarib ketdiki! Men o'shanda aldadim. „Birov bilan sevishmaganman", deb ilk bora aldadim. Sababi onamni baxtli ko'rishni istadim.

Onam bilan siz ham sevishgansiz-ku, to'g'rimi? Ammo onamning birovni sevganiga ishonish qiyin. Nahotki, onam siz bilan qo'l ushlashib yurgan bo'lsa? U shunchaki Ona. Mahbuba, rafiqa, suyukli yor emas, faqat Ona. Yoshligidagi suratini ko'rganman, juda chiroyli qiz bo'lgan ekan. Balki o'sha suratni siz tushirgandirsiz? Har holda onam o'shanda juda baxtli ko'rindi.

Qiziq, men sizga o'xsharmikanman? Kellining aytishicha, qiz bola otasiga o'xshasa, xunuk bo'larmish. Alam qiladigani, sizning tashqi ko'rinishingiz u yoqda tursin, ismingizni ham bilmayman. Negadir sizni shifokor sifatida tasavvur qilaman.

Bugun ingliz tilidan a'lo baho oldim, xursandmisiz, dada? Kellining aytishicha, siz onamni tashlab ketgan ekansiz. Men bunga sirayam ishonmadim. Axir siz yaxshi insonsiz-ku! Mayli, hozircha xayr. Meni tinglaganingiz uchun rahmat. Sizni sevib qolaman, dada!

Qizingiz Sara

* * *

Noma'lum otamga!

G'irt ahmoqona ish qilyapman, to'g'rimi? Dada, bundan o'n yil oldin sizga xat yozgandim va saqlab qo'ygandim. Shu yillar ichida sizni unutolmadim va yana maktub bitishga qaror qildim. Halizamon mening qallig'im Devid ham kelib qolsa kerak. U sizga yoqadi deb o'ylayman. Kasbi huquqshunos, kelajak sari intiladigan, hissiyotlarga berilmay, aql bilan ish

ko‘radigan yigitlardan. To‘g‘ri, u quvnoq emas, jiddiy inson. Bir-birimizga o‘xshab ketamiz. Tunov kuni meni ajoyib balga olib bordi. Xuddi ertaklardagidek bazm bo‘ldi.

Devid meni bag‘riga bosmaydi. Bir kuni sababini so‘rasam, boshini sarak-sarak qilib, jilmayib qo‘ydi. Onam ham Devidni menga mos deb o‘ylaydi. U o‘tgan hafta yigirma besh yoshga to‘lganimda bilaguzuk sovg‘a qildi. Juda nafis, olmos ko‘zlari bor. Onam o‘zgargan. Juda xotirjam, bosiq, na yig‘laydi, na kuladi, qandaydir jiddiy bo‘lib qolgan.

O‘qituvchilik qiziqarli soha ekan. Bolalar shunday zavq beradiki... Xullas, onam qarshi chiqsa-da, o‘z kasbimni egalladim. O‘zim istagan hayot endi men bilan birga. Siz esa mening borligimdan hamon bexabardirsiz, dada? Sizga xat yozib ko‘nglimni yozdim.

Devid keladigan vaqt ham bo‘ldi. Endi maktubimga nuqta qo‘yay. Mendan xavotir olmang, men baxtliman! Chunki xayolimda Siz bor edingiz, sizga intilib yashadim va kurashdan charchamadim. Siz mening umid chirog‘imsiz, dada! Omon bo‘ling!..

Qizingiz Sara

Anton CHEXOV

(Rossiya)

UYQU ISTAGI

Tun. Varka ismli o‘n uch yashar enaga qiz go‘dak yotgan belanchakni tebratar ekan, past ovozda xirgoyi qilardi:

— Alla, alla, alla-yo, orom olgin, alla-yo...

Uning qarshisida yashil jinchiroq yonib turar; yo‘rgak va katta qora ishton ilib qo‘yilgan arqon esa xonaning u boshidan bu boshiga borib kelardi. Jinchiroq shu’lasi tufayli shiftda katta yashil dog‘ hosil bo‘lgan, yo‘rgak va ishtonning uzun soyalari esa pechka, belanchak va Varkaning ustiga tushardi... Chiroq pirpiray boshlasa, dog‘ va soyalar ham shamolga o‘xshab jonlanib, harakatga kelardi. Dimlik. Sham va etiklarning hidi anqirdi.

Go‘dak yig‘lardi. U ancha vaqt big‘illab holdan toygach, uyqusi kelar, ammo baribir hamon yig‘lar va qachon uxlashi ham noma’lum edi. Varkaning bo‘lsa uyqusi kelardi. Uning ko‘zlari yumilib ketar, boshi pastga enkayganidan yelkalari og‘rirdi. U qovoqlari va lablarini ocholmas, nazarida, yuzi qurib qotib qolgan, kallasi esa to‘g‘nag‘ich boshidek kichiklashib ketgandi.

— Alla bo‘lgin, alla-yo, — pichirladi qiz, — shirin tushlar ko‘rgin-o...

Pechka ichida chigirtka chirilladi. Devor ortidagi qo‘shni xonadan xo‘jayin va uning shogirdi Afanasiy xurrak otishardi... Belanchak asta g‘ichirlar, Varka bo‘lsa shivirlardi: bu ovoz tun bilan uyqashib ketgan allalovchi musiqa bo‘lib, o‘ringa yotganda tinglash juda yoqimli edi. Hozir esa bu alla uni faqat g‘ashini keltirar va yuragini siqardi, chunki qizni mudroq bosar, biroq uxlash mumkin emas; Xudo ko‘rsatmasin Varka uxlab qolsa, xo‘jayin uni kaltaklaydi.

Jinchiroq lipilladi. Yashil dog‘ va soyalar harakatga kelib, Varkaning yarimochiq, harakatsiz ko‘zlariga tushdi va uning mudroq miyasida tumanli tasvirlar paydo bo‘ldi. U bir-birining ortidan quvlagan va go‘dak kabi chirqiragan qora bulutlarni ko‘rdi. Shu payt shamol ko‘tarilib, bulutlar yo‘qoldi, Varka suyuq balchiq qoplagan keng ko‘chani ko‘rdi; u yerda yelkasiga xalta osgan odamlar karvoni ulovlarga qamchi bosar, oldinda va orqada qandaydir soyalar ko‘zga tashlanar, ikki tarafdan ham sovuq va og‘ir tumanga to‘lgan o‘rmon ko‘rinib turardi. Birdan xalta ko‘targan odamlar va soyalar balchiq bosgan yerga chaplanishibdi.

„Nima uchun?“ so‘radi Varka.

„Uxlash uchun, uxlashga!“ deyishdi ular.

Shunday deb odamlar shiringina bo‘lib qattiq uyquga ketishdi, telegraf simlariga qo‘ngan qarg‘a va hakkalar esa odamlarni uyg‘otish uchun go‘dakka o‘xshab chinqira boshladi.

— Alla, alla, alla-yo, orom olgin, alla-yo... — g‘o‘ldiradi Varka o‘zini qorong‘i va dim kulbada tasavvur etib. Polda uning marhum otasi Yefim Stepanov to‘lg‘anardi. Qiz uni ko‘rmasa-da, ammo og‘riqdan polda u yoqdan bu yoqqa ag‘darilishini eshitardi. Otasi aytganidek, uning „churrasi

o‘yinga tushyapti“. Og‘riq shunchalik kuchliki, u biror so‘z aytishga ojiz, faqat chuqur nafas oladi va tishlari orasidan baraban ovozini chiqaradi:

— Bu-bu-bu-bu...

Onasi Pelageya xo‘jayinni Yefimning holatidan xabardor qilish uchun qo‘rg‘onga chopdi. Uning ketganiga ancha bo‘lgan va allaqachon qaytishi kerak edi. Varka pech yonida uxlamay o‘tirar va otasining „bu-bu-bu“sini tinglardi. Mana, kulbaga kimdir kelgani eshitildi. Xo‘jayin ularga yosh shifokorni jo‘natibdi, u shahardan bu yerga mehmon bo‘lib kelgandi. Shifokor kulbaga kirdi; uni qorong‘ida ko‘rib bo‘lmasdi, ammo yo‘talgani va eshikni ochgani eshitildi.

— Olovni balandlating, — dedi u.

— Bu-bu-bu, — javob berdi Yefim.

Pelageya pech sari otilib, gugurt izlay boshladi. Sokinlik daqiqasi cho‘kdi. Shifokor cho‘ntagiga qo‘l solib, o‘zi gugurt chaqdi.

— Hozir, uka, hozir, — derdi Pelageya kulbadan tashqariga yugurib, ozroq sham qoldig‘ini ichkariga olib kirarkan.

Yefimning lunjiga qizillik yugurgan, ko‘zlari o‘tkirlanib g‘alati yaltirar, shifokor va kulbani aniq-tiniq ko‘rib turardi.

— Nima bo‘ldi? Nimalarni o‘ylading? — dedi shifokor unga yaqinlashib, — Ehhee! Anchadan beri shu ahvoldamisan?

— Nima bo‘pti? Tavba qilamiz, janob, vaqt bo‘ldi... Endi tirik qolmayman...

— Safsatani qo‘ysang-chi... Davolaymiz!

— Nima desangiz deyavering, janob, bajon-u dil qabul qilamiz, faqat ikkimiz bilamizki... o‘lim yaqinlashyapti, boshqa nima ham bo‘lsin.

Shifokor chorak soat Yefim bilan ovora bo‘ldi; so‘ng o‘rnidan turib dedi:

— Qo‘limdan boshqa hech nima kelmaydi... Sen kasalxonaga borishing kerak, u yerda seni operatsiya qilishadi. Hoziroq bor... kechiktirmay otlan! Agar sal kech qolsang, kasalxonadagilar uxlab qolishadi. Lekin hechqisi yo‘q, yo‘llanma beraman. Eshityapsanmi?

— Uka, u yerga nimada boramiz? — so‘radi Pelageya. — Bizning otimiz ham yo‘q.

— Hechqisi yo‘q, men xo‘jayindan so‘rayman, sizlarga ot beradi.

Shifokor ketgach, olov ham pasaydi va „bu-bu-bu“ yana boshlandi... Yarim soatdan keyin kulbaga tag‘in kimdir keldi. Kasalxonaga borish uchun xo‘jayin arava jo‘natgan ekan. Yefim tayyorlanib yo‘lga chiqdi...

Mana, ajoyib va tiniq tong otdi. Pelageya uyda yo‘q: u Yefimning ahvolini bilish uchun kasalxonaga ketgandi. Qayerdadir go‘dak yig‘ladi, Varka o‘zining ovozida kuylanayotgan allani eshitdi:

— Alla, alla, alla-yo, orom olgin, alla-yo...

Pelageya uyga qaytdi; cho‘qinib pichirladi:

— Tunda uni davolashibdi, ertalab esa bandalikni bajo keltiribdi... U dunyoga ravona bo‘libdi... Aytishlaricha, kech olib boribmiz... Vaqtliroq harakat qilish kerak edi...

Varka o‘rmonga borib, o‘sha yerda ko‘zyosh to‘kdi, ammo kimdir uning gardanidan qattiq siltadi, qiz peshanasi bilan qayinga urilib ketdi. U ko‘zlarini arang ochib, qarshisida etikdo‘z xo‘jayinini ko‘rdi.

— Bu nimasi, yaramas? — dedi u. — Bola yig‘layapti, sen esa uxlayapsanmi?

Xo‘jayin uning qulog‘i tagida shang‘illar, qiz esa boshini xam qilib, belanchakni tebratar va alla aytardi. Yashil dog‘ va yo‘rgag-u ishtonlarning soyalari harakatga kelar, lipillar va ko‘p o‘tmay uning miyasini qurshab olardi. Tag‘in suyuq balchiqqa botgan ko‘cha gavdalandi. Yelkasiga xalta osgan odamlar va soyalar yerga yuztuban yotib qattiq uyquga ketishdi. Ularga qarab Varkaning ham juda uyqusi kelar; maza qilib uxlamoqchi bo‘lganda onasi Pelageya uning yoniga kelib shoshirardi. Ona-bola shaharga ishga yollanish uchun shoshardilar.

— Iso haqqi xayr qilinglar! — onasi uchragan odamga yalinardi, — marhamatingizni ayamang, Xudo yo‘liga sadaqa beringlar!

— Bolani bu yoqqa ber! — javob beradi tanish ovoz. — Bolani bu yoqqa ber! — qaytardi o‘sha ovoz tezlik va jahl bilan. — Eshityapsanmi, yaramas?

Varka o'rnidan irg'ib turib, atrofga qaradi va gap nimadaligini tushundi: hech qanday ko'cha ham, Pelageya ham, odamlar ham yo'q, xona o'rtasida faqat go'dagini emizishga kelgan bekasi turibdi, xolos. Semiz va yelkador beka bolasining qornini to'yg'izib ovutayotgan vaqtda Varka uning emizib bo'lishini kutib tik turardi. Deraza ortidagi havo ko'kish tus olar, soyalar va shiftdagi yashil dog'ning esa rangi o'chardi. Hademay tong otadi.

— Ushla! — dedi beka ko'kragini ko'ylak ichiga solarkan. — Yig'layapti. Qarash kerak.

Varka go'dakni olib, belanchakka soldi va yana tebrata boshladi. Yashil dog' va soyalar sekin-asta yo'qolib, miyasini qoplab olgan tuman tarqalganday bo'ldi. Uning avvalgidek judayam uyqusi kelardi! Varka boshini belanchak burchiga qo'yib, uyqusini qochirish uchun butun gavdasi bilan tebrana boshladi, ammo baribir ko'zlarini og'ir yuk bosgandek yumilib ketardi.

— Varka, pechni yoq! — eshik ortidan xo'jayinning ovozi eshitildi.

Demak, o'rindan turib ishga kirishish kerak. Varka belanchakni qoldirib, o'tin olish uchun omborga shoshdi. U xursand. Yursang va chopsang, o'tirgandek kabi mudroq bosmaydi. U o'tin olib, pechga qaladi, uning tafti qizning yog'ochdek yuziga urar, miyasini ravshanlashtirardi.

— Varka, samovarni qo'y! — baqirdi xo'jayin.

Varka tarashani terarkan, bir vaqtning o'zida ularni yoqib samovar ichiga tashladi va yangi buyruqni eshitdi:

— Varka, xo'jayinning kalishini tozala!

Qiz polga o'tirib kalishlarni artgancha, shu katta va chuqur kalishga boshini solib bir dam mizg'ish haqida o'y surdi... Birdan kalish o'sib, shishib ketdi va xonani egalladi, Varka qo'lidagi cho'tkani tushirib yubordi, boshini qoqqancha atrofidagi buyumlar qarshisida bahaybatlashib, harakatga kelmasligi uchun ko'zlarini katta-katta ochdi.

— Varka, zinapoyani artib qo'y, bo'lmasa buyurtmachilar oldida izza bo'lamiz!

Varka zinalarni artib, xonalarni tartibga keltirib, so'ng narigi pechni yoqdi va baqqolga chopdi. Ish ko'p, bir daqiqa ham bo'sh vaqt yo'q.

Oshxonada bir joyda turgancha kartoshka archishdan og'irroq yumush yo'q bo'lsa kerak. Boshi stolga enkayib ketadi, kartoshka ko'z oldida jivirlaydi, pichoq qo'lidan tushib ketay deydi, semiz va jahldor beka esa yengini shimargancha kelib quloqlarini qomatga keltirib o'shqiradi. Jimgina tushlik tayyorlaydi, kir yuvadi, tikish qiladi. Ba'zida hech nimaga qaramay, polga cho'zilgancha uxlashni juda istaydi.

Kun o'tdi. Deraza orti qoraya boshlagach, Varka qishloq viskisini o'zi uchun siqarkan, nimadan shodonligini bilmagan holda jilmayardi. Oqshom lahzasi uni siypalab uyquga chanqoq ko'zlariga tez orada orom va'da qilardi. Kechki payt xo'jayinning uyiga mehmonlar keldi.

— Varka, samovarni yoq! — qichqirdi xo'jayin.

Xo'jayinning samovari kichkina edi, mehmonlarga choy ulashish uchun uni besh marta qaynatish kerak bo'ladi. Choydan so'ng Varka bir soat mehmonlar qarshisida tik turgancha buyruq kutardi.

— Varka, bor, uch butilka piva keltir!

U joyidan siljib uyqusini qochirish uchun tezroq chopishga intildi.

— Varka, aroq olib kel! Varka, ochqich qani? Varka, selyodkani tozala!

Mana, nihoyat mehmonlar ketishdi, olov so'nib, xo'jayin uxlashga yotdi.

— Varka, bolani tebrat! — oxirgi buyruq berildi.

Pechda chigirtka chirilladi. Shiftdagi yashil dog' hamda yo'rgak va ishton soyalari yana Varkaning yarimochiq ko'zlarini o'ynatar, lipillab, boshida tuman hosil qilardi.

— Alla, alla, alla-yo, — pichirladi u, — orom olgin, alla-yo...

Go'dak bo'lsa yig'lar va shovqindan madorsizlanardi. Varka yana balchiqli ko'chani, xaltali odamlarni, Pelageyani, otasi Yefimni ko'rdi. U hammasini tushunar, bilar, chala uyqu orasida qo'l-oyoqlarini zanjirband qilgan, ezgan va yashashga xalal berayotgan kuch nimaligini tushunmasdi. Nihoyat, ming azob bilan kuchini to'pladi va ko'zlarini ochdi, pirpirayotgan yashil dog'ga qaradi va uning yashashiga xalal berayotgan dushman ovoziga quloq tutdi.

Bu dushman — go'dak edi.

Qiz jilmaydi. Qiziq, nega avval shu arzimas narsani sezmadi ekan? Yashil dog', soyalar va chigirtka ham nazarida jilmayib hayron bo'layotgandi.

Soxta tasavvur Varkani egallab borardi. U kursidan turib, yoyilib tabassum qildi va ko'zlarini pirpiratmay xona bo'ylab aylandi. U ayni paytda qo'l-oyoqlarini zanjirlagan go'dakdan xalos bo'lish haqidagi yoqimli va qitiqlovchi o'ylardan mamnun edi... Bolani o'ldirib, so'ng uxlash, uxlash va uxlash mumkin...

Jilmayib, yashil dog'ga barmog'ini o'qtalgancha ko'zini qisib qo'ygan Varka belanchak sari o'rmaladi va go'dak qarshisiga egildi. Uni bo'g'di va quvonchdan xursand bo'lib tezda polga cho'zildi, endi bemalol uxlashi mumkin, bir daqiqadan so'ng u o'likday qotib yotardi...

VANKA

Bundan uch oy muqaddam etikdo'z Alyoxinga shogirdlikka berib yuborilgan to'qqiz yashar bolakay Vanka Jukovning bayramdan oldingi kechada uyqusi kelmadi. U xo'jayin va boshqa ustalar ketishini poylab turib, so'ngra ustozining javonidan ko'pikli siyohdon, zang bosgan peroli ruchka va qog'oz oldi-da, eshik va derazalarga hadik bilan boqqancha tokcha qatorlariga o'rnashgan qorong'ilik kabi o'yga cho'mib, chuqur nafas oldi. Qog'oz o'rindiqda turar, bolaning o'zi esa o'rindiq qarshisiga tizzalab olgandi.

„Aziz bobojonim Konstantin Makarich!" yoza boshladi u. „Sizga maktub bityapman. Kelayotgan bayram bilan tabriklayman va Yaratgandan jamiki ezgu tilaklarni tilab qolaman. Mening otam ham, onam ham yo'q, faqat siz borsiz, xolos".

Vanka ko'zlarini qorong'i derazaga tikdi, u yerda g'ira-shira aksi tovlanib turar, bolakay o'z tasvirida janob Jivarevning qo'lida tungi qorovul bo'lib ishlaydigan bobosi Konstantin Makarichni jonlantirishga urinardi. Bu mitti jussali, ozg'in, ammo ajib bir quvvatga to'la va chaqqon cholning yoshi oltmish beshda bo'lib, doim yuzlari kulib turar, ko'zlari esa sarxush boqardi. Kunduzlari chol jamoat oshxonasida uxlar,

tunlari esa keng po‘stiniga chulg‘angancha yog‘och bolg‘asini do‘qillatib qo‘rg‘on atrofida aylanardi. Cholning ortidan esa boshini engashtirib keksa Kashtanka va Vyun nomli ko‘ppaklar izg‘ir, ularga qop-qora va uzun yunglari tufayli shunday laqab qo‘yilgandi. Bu Vyun deganlari ehtirom bilan tizzalab turgancha o‘ziniki va begonalarga ham erkalanar, uning bu ko‘ngilchanligi ortiga ayyorlik yashiringandi. Hech kim uningchalik tezkorlik bilan sakrab, muzlikdan oshib o‘tib, tovuq o‘g‘irlashga qodir emasdi. Shuning uchun ham Vyunning orqa oyoqlariga urishdi, ikki marta oyog‘idan osib ham qo‘yishdi, har hafta o‘lgudek kaltaklashdi, biroq u har safar omon qoldi.

Hozir ham bobosi darvoza yonida turib ko‘zlarini uzoq-uzoqlardagi qishloq cherkovining yorqin qizil derazalariga tikkancha qo‘shnilar bilan chaqchaqlashib o‘tirgandir. Yog‘och bolg‘achasini belbog‘iga boylab olgan. U sovuqdan qo‘llarini ishqalar, keksalarga xos hiringlab kular, tamakini chimdilab bosardi.

— Tamakidan iskarmiz, balki? — deydi chol sigara sotuvchiga.

Ular tamaki hidlab aksirishdi. Bobo ta’riflab bo‘lmas zavq bilan kulgancha qichqirdi:

— Tortsang-chi, yaramas!

U shunday deb tamakini kuchuklarga iskatdi. Kashtanka ham aksirdi va tumshug‘ini saraklatib xafa bo‘lgancha nari ketdi. Vyun esa deyarli aksirmadi va dumini likillatib turaverdi. Ob-havo ham ajoyib: musaffo, sokin va tiniq. Tun qorong‘i esa-da, barcha qishloq mo‘rilaridan tutun chiqayotgan oppoq tomlar, uchi qirovli daraxtlar, qor uyumlari ko‘rinib turardi. Osmon esa yaltiroq yulduzlarga to‘la, Somon yo‘li ham yoqqol ko‘zga tashlanar, go‘yo bayramdan oldin yaxshilab yuvib qo‘ygandek tuyulardi.

Vanka chuqur nafas olib, peroni yana yurg‘izdi:

„Meni esa kecha jazolashdi. Xo‘jayin sochimdan tortib hovliga olib chiqdi va uzangi bilan savaladi, chunki men ularning bolalari belanchagini tebratib o‘tirib mizg‘ib qolibman. Hafta boshida ustoz menga selyodkani tozalashni buyurgandi, baliqni dumidan tozalashga kirishgandim, u buni

ko'rib baliqning tumshug'i bilan meni ura ketdi. Boshqa shogird yigitlar ustimdan rosa kulishadi, doim mayxonaga sharob olib kelishga yoki ustozdan bodring o'g'irlashga buyurishadi, xo'jayin esa nimadir o'g'irlansa qattiq jazolaydi. Oziq-ovqat yo'q. Ertalab non berishadi, tushlikda bo'tqa, kechki payt bo'lsa yana non. Tunda esa bolakaylar bilan yotaman, ular yig'laganda umuman uxlamayman, belanchakni tebratib chiqaman. Aziz bobojon, menga marhamat ko'rsatib, bu yerdan qishloqqa, uyimizga olib keting, garchi imkonim kam bo'lsa-da... Oyoqlaringizga tiz cho'kib o'tinib so'rayman, bir umr shunga iltijo qilaman, meni olib keting, yo'qsa o'lib qolaman..."

Vanka og'zini mahkam yopdi va qoraygan qo'llari bilan ko'zlarini ishqalab ho'ngrab yig'lab yubordi.

„Men siz uchun tamaki ishqab beraman", davom etdi u, „Iso haqqi-hurmati, etiklaringizni tozalab beraman, Fedkaning o'rniga cho'ponlik ham qilaman. Bobojonim, o'limdan boshqa choram yo'q. Qishloqqa piyoda qochib ketishni ham o'yladim, ammo etiklarim yo'q-da, sovuqdan qo'rqaman. Katta bo'lganimda o'zim sizni boqaman, hech kimga xafa qildirmayman, vafot etsangiz haqingizga duo qilaman.

Moskva katta shahar. Uylar hashamatli, tulporlar ko'p, qo'y-qo'zilar yo'q, itlar qopag'on emas. Bu yerda bolalarning cherkovda qo'shiq kuylashi uchun qarshilik qilishmaydi, men bir marta do'kon peshtaxtasida yirik baliqlar uchun qarmoq sotilayotgani guvohi bo'ldim, u shunchalik tikkaki, yirik baliqni bemalol ushlay oladi. Yana shunaqa do'konlarni ko'rdimki, qurol-yarog'lar namoyish qilib qo'yilgan, har birining narxi yuz rubldan balandda... Go'sht do'konlarida esa otib kelingan karqur, bulduriq, quyon go'shtlari ilinib turibdi.

Aziz bobojon, agar archa yasatilgan mehmonxonaga borsangiz, men uchun tilla yong'oq va yashil sandiqchani yashirib qo'ying. Olibsotar Olga Ignatyevnaga „Bu Vanka uchun", deb aytishni unutmang.

Vanka seskangancha nafas oldi va yana deraza tashqarisiga tikildi. U bobosi bilan mehmonlar uchun o'rmonga borib, archa kesishlarini esladi. Baxtiyor damlar edi! Bobosi izillar, ayoz g'uvullar, ularga qarab Vanka ham dag'illardi. Archani

kesishdan avval bobosi trubkasini olib uzoq ichiga tortar, sovuqda muzlab turgan Vankaga qarab kulardi... Uchi qirovlangan yosh archalar kimdir kelib ularni kesib ketishini kutayotgandek ko'rinardi. Shu paytda qorli do'ngda quyon chopayotganini ko'rib qolishdi... Bobo o'zini hayqirishdan to'xtatib qololmadi:

— Ushla, ushla uni!.. Eh, yaramas!

Arralangan archani bobo mehmonxonaga olib borar, u yerda esa daraxtni tozalashardi. Olibsotar Olga Ignatyevna hammadan ko'proq Vankaning atrofida ovora bo'lardi. U paytda Vankaning onasi Pelageya tirik edi va mehmonxonada xizmat qilardi. Olga Ignatyevna o'shanda Vankaning qornini to'yg'izar, bo'sh paytlari o'qish, yozish, yuzgacha sanash, hatto raqs tushishni ham o'rgatardi. Pelageya vafot etgach esa yetim qolgan Vankani bobosining oshxonasiga olib borib, u yerdan Moskvadagi etikdo'z Alyoxinnikiga ravona qilishdi...

„Tezroq kela qoling, bobojonim", yana yozdi Vanka, „Isodan o'tinib so'rayman, meni bu yerdan olib keting. Mendek yetimga rahmingiz kelsin, bu yerda hamma meni turtadi, qo'rqitadi, shunchalik diqqinafaski, aytishga til ojiz, doim yig'layman. Xo'jayinim bo'lsa bolg'achasi bilan boshimga urganda qattiq yiqilib tushdim. Meniki bilan solishtirganda kuchuklarning hayoti durust... Yana Alyona, qiyshiq Yegorka va aravakashdan ham o'tinib so'raymanki, mening garmoniyamni hech kimga berib yuborishmasin. Nabirangiz Ivan Jukov bu yerda yolg'iz qolgan, kela qoling, aziz bobojonim".

Vanka ehtiyotkorlik bilan maktubni tunov kuni bir tangaga xarid qilgan konvertiga soldi... Ozroq o'ylab turib, peroni qo'liga oldi-da, manzilni yozdi:

„Qishloqdagi bobomga".

So'ngra gardanini qashlab xayolga cho'mdi va yana qo'shib qo'ydi: „Konstantin Makarichga". Shundan keyin hech kim unga xalal bermaganidan ko'ngli to'lib, boshiga shapkasini qo'ndirdi, egniga ham mo'ynasini ildi-da, ko'chaga qarab uloqdi...

Go'sht do'koni yonida o'tirganlar bolakayga xatni pochta qutisiga tashlash kerakligini aytishdi, u yerdan maktublarni

olgan sarxush aravakashlar ularni yer yuzi bo'ylab qo'ng'iroqchalarini chalgancha tarqatar ekan. Vanka birinchi uchragan pochta qutisiga yugurib bordi va qimmatli maktubini uning ichiga tashladi...

Qalbi shirin hislarga to'lgan bolakay o'sha kechasi qattiq uxlab qoldi... Tushida o'choqni ko'rdi. O'choq qarshisida bobosi yalang oyoqlarini isitgancha maktub o'qib o'tirar... uning atrofida esa Vyun dumini likillatib aylanardi...

Rey BREDBERI

(AQSH)

KOINOT SOVG'ASI

Ular kosmoportga Yangi yildan bir necha kun oldin yetib kelishdi. Bu bolakayning kosmosga ilk sayohati edi; avval hecham raketaga chiqmagandi. Ota-ona esa bu sayohat ko'ngilli o'tishi uchun harakat qilishardi. Mana, ular Yerni tark etishmoqda, bojxona to'sig'idan o'tar ekanlar, u yerda yasatib qo'yilgan archa va uning ajoyib chiroqchalari ko'zlarini qamashtirardi. Kosmos sayohati go'yo ulardan bayram quvonchi, Yangi yil shukuhini olib qo'yayotgandek tuyuldi.

Bolakay kutish zalida o'tirardi. Ota-onasi esa Xalqaro sayyoralar idorasi xodimi bilan tortishib, tinkasi qurigan holda bolaning yoniga kelishdi.

— Endi nima qildik?

— Qo'limizdan hech nima kelmaydi.

— Qonun-qoidalari bir tiyinga qimmat!

— Axir, u yerda archasiz bayram bo'ladimi?

Ota-onasining bu kabi hayqiriqlari tinmay turib, Marsga uchadigan raketa sirenasi ham chalindi. Bola ota-onasining ortidan ergashdi. Hamma jim edi.

— Bir nima o'ylab toparman, — dedi nihoyat ota.

— Endi archasiz nima qilamiz, dada?

Raketa dvigateli ishga tushdi, bir silkindi-yu, ortidan olov chiqarib, Yerni tark etdi. Bugun 2052- yil 24- dekabr sanasi edi. Raketa esa vaqt hukm surmagan; na oy, na yil va na soat bo'lgan makonga uchib ketdi.

Birinchi kun ular to‘liq uxlashdi.

Otaning soati Nyu-York vaqtini ko‘rsatib turardi. Bola raketada zerikdimi, otasiga so‘z qotdi:

— Illuminatordan qarashni istayman.

Raketada faqat bitta illuminator oyna bor edi. U yuqori palubada joylashgan juda katta oyna edi.

— Hozir emas, — dedi otasi, — keyinroq hammamiz borib tomosha qilamiz.

— Lekin qayerda uchayotganimiz men uchun qiziq-da.

— Sal kuta qol, o‘g‘lim.

Ota o‘g‘liga atab qo‘ygan sovg‘a va chiroqlar bilan yasatilgan archa Yerda qolib ketganidan xijolat tortardi. Endi unga nima sovg‘a qiladi? O‘yla! Taxminan, u topdi! Axir, Yangi yilni kosmosda kutib olish haqiqiy shodlikka aylanishi kerak.

— O‘g‘lim, yarim soatdan keyin Yangi yil kirib keladi, — jilmaydi ota.

— Oh, — dedi ona. U o‘g‘li zora bayram haqida esidan chiqarsa, deb umid qilgandi.

Bolakay jonlanib qoldi.

— Bilaman, bilaman! Menga Yangi yil sovg‘asini berasizlar-a? Archa ham... va’da bergandingiz.

— Ha, ha, albatta sovg‘am bor, umringda ko‘rmagansan bunaqasini, — dedi otasi.

— Lekin... — ona esa hech nimani tushunmasdi.

— Men o‘ylab qo‘ydim. Bu eng a’lo bayram bo‘ladi. Hozir esa bir joyga borib kelishim kerak.

Otasi yigirma daqiqalardan so‘ng jilmaygancha qaytib keldi.

— Bayramga oz qoldi!

— Soatingizga qarab tursam maylimi? — so‘radi o‘g‘li. Soatni olgach esa undan ko‘zlarini uzmay turdi.

— Ana Yangi yil, Yangi yil keldi! Sovg‘alar vaqti yetdi!

— Yura qol, — ota uni yo‘lak bo‘ylab yetaklab, tepaga olib chiqdi. Ayol ham ularning ketidan odimladi.

— Hozir ko‘rasan, kelib qoldik.

Ular katta yopiq eshik qarshisida to‘xtashdi. Ota uni uch marta taqillatdi. So‘ngra yana ikki marta. Eshik ochildi. Xona zimziyo bo‘lib, qandaydir ovozlar kelib turardi.

— Kir, o‘g‘lim.

— Qorong'i-ku?

— Qo'lingdan ushlab boraman, yur, sen ham, oyisi.

Ular ichkariga kirishdi, eshik yopildi. Ularning qarshisida ulkan oyna. Undan koinot yaqqol ko'rinib turardi. Bolakay tashqariga tikilib qoldi. Xona bo'ylab Yangi yil qo'shig'i tarala boshladi.

— Yangi yil bilan, azizlarim! — dedi ota.

Bola asta oynaga yaqinlashib, yuzini muzdek shishaga bosarkan, kosmosga qarab to'ymas, chunki u yerda haqiqiy Yangi yil bo'layotgandi. Milliard, milliard yulduzlar archani bezab turgan chiroqlar edi go'yo, cheksiz samo esa ko'm-ko'k archa kabi tovlanardi. Bunday ulkan bayram sovg'asini ko'rmagan bolakay esa hayrat dengizida suzardi.

Kiran KUMAR

(Hindiston)

SO'NGGI SOVG'A

Yosh bir yigit kollejni tugatish arafasida turgan edi. U bir necha oydan buyon do'kon ko'rgazmasida turgan sport mashinasidan zavqlanardi. Yigit otasi mashinani olib berishiga ishonar, boisi shu paytgacha o'g'li neki istamasin, bari muhayyo etilardi. Bitiruv kuni yaqinlashgani sayin yigit otasi mashina olib berishini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat, Bitiruv kuni kelganda, erta tongdanoq ota o'g'lini o'z xonasiga chorlabdi. Ota gapni shundoq o'g'li borligidan faxrlanishi va uni juda yaxshi ko'rishidan boshlabdi. So'ng yigitning qo'liga chiroyli qutiga o'ralgan sovg'asini tutqazibdi. Yigit jiddiy tarzda, nimadandir norozi bo'lib kattaroq qutini ochibdi va u yerdan chiroyli muqovali diniy kitobni topibdi. Jahli chiqa boshlagan o'g'il otasiga baland ovozda baqiribdi:

— Shuncha pulingiz bo'la turib, bayramimga shuni ravo ko'rdingizmi?

Yigit shunday deb kitobni tashlagancha, eshikni qars yopib chiqib ketibdi.

Oradan ancha yillar o'tibdi. Yigit tadbirkorlikda katta omadga erishibdi. Uning ajoyib uyi, mehribon oilasi bor edi.

Bir kuni yigit keksa otasini ko'rib kelishga ahd qilibdi. Chunki u o'sha Bitiruv kunidan so'ng otasini boshqa ko'rmagan va ko'rishni istamagan edi. Yo'lga chiqishdan oldin yigitga telegramma kelibdi. Unda otasining vafot etgani va bor davlatini o'g'liga qoldirgani yozilgandi. Yigit darhol ota uyiga boribdi. Borishi bilanoq yuragini nadomat va g'am kemira boshlabdi. U otasining ish stoliga o'tiribdi va o'zi tashlab ketgan diniy kitob hamon o'sha yerda turganiga ko'zi tushibdi. Ko'zida yosh bilan kitobni ochib varaqlay boshlabdi. Kitobning o'rtalariga yetganda, uning ichidan nimadir yerga tap etib tushibdi. Qarasa, bir konvert va mashina kaliti. Konvert ichidagi qog'ozda mashina manzili, ya'ni yigit orzu qilgan o'sha do'kon nomi hamda bitiruv munosabati bilan tabrik bitilgandi. Yigit oh urib, boshini changallab qolibdi.

DO'STLIK

Missionerlar tomonidan kichkina qishloqdagi Mehribonlik uyi bomba bilan portlatib yuborildi. Beshafqat missionerlar bir-ikkita bolani hammaning ko'z oldida otib o'ldirishdi va bir qanchasini garovga olishdi. Ba'zilar esa tan jarohati tufayli ingrab yotardilar. Ularning orasida sakkiz yashar qizaloq ham bor edi.

Qo'shni qishloqdagilar uysiz va oziq-ovqatsiz qolgan birodarlariga yordam qo'lini cho'zdilar. Hindiston armiyasi tez orada ko'makka keldi. Nihoyat, tamillik va malayyalik hamshiralar ham dori-darmonlari bilan qishloqda hozir bo'ldilar. Chunki bu yerdagi qizaloq qattiq jarohatlangan bo'lib, tezda unga tibbiy yordam ko'rsatilmasa, shok va qon yo'qotishdan o'lib qolishi mumkin edi. Qon quyilmasa bo'lmasdi, darhol donor topish shart edi. Tekshirib ko'rilgach, harbiy askarlardan hech birining qon guruhi yetim qizchanikiga to'g'ri kelmadi.

Shifokor va hamshira qishloqdagilar bilan, oz-moz assam tilida gaplashishga harakat qildi. Suhbatdan so'ng ularga ma'lum bo'ldiki, agar qishloqdoshlaridan birortasi qon berib turmasa, qizning o'limi muqarrar ekan. Keyin shifokor ularga qarata „Kim qon bera oladi?" deya hayqirdi.

Odamlar savolga ko'zlarini katta-katta ochgancha javob qaytardilar. Bir necha daqiqadan so'ng kichkina bir qo'l sekinlik bilan bo'shashgancha tepaga ko'tarildi.

— Oh, rahmat, — dedi hamshira ingliz tilida. — Isming nima?

— Dev Kant, — u tibbiy yostiqdan boshini ko'tarib javob berdi.

...Uning qo'lidan spirt hidi anqir, tomiridan qon olishardi. Bola o'zini tinch va jiddiy tutdi. Lekin birozdan keyin ho'ngrab yig'lab yubordi va ko'z yoshlarini sog' qo'li bilan artdi.

— Og'riyaptimi, Dev? — so'radi shifokor.

Dev boshini „yo'q" degandek qimirlatdi, biroq marjondek ko'z yoshlar tinmay yuzlarini yuvardi. Shifokor undan ahvolini so'rab turdi. Bola „Yaxshiman" deb javob qaytarar, ammo ko'z yoshlari qaroqlarida qotib qolgan, endi ovoz chiqarmay yig'lardi.

Hamshiralar guruhi tashvishga tushib qoldi. Nimadir xato bo'ldi. Assam tilini biladigan hamshira tezda mashinaga o'tirib yordamchi guruhni chaqirgani ketdi. Sal o'tib donor bola yig'lashdan to'xtab, hamshiraga savol nazari bilan boqdi.

Hamshira shifokorga pichirladi:

— U o'zini „O'lyapman", deb o'yladi. Bizni tushunmadi. Aytishicha, u „Agar hamma qonimni bersam, qiz tuzaladi", deb o'ylagan va bunga rozi bo'lgan.

Shifokor hayron bo'lib boladan so'radi:

— Unda nega rozi bo'lding?

Hamshira unga savolni tarjima qilgach, bolakay javob berdi:

— Chunki u mening yaqin do'stim...

Rina MILORADOVA

(Rossiya)

CHIPTA

— Assalomu alaykum! Menga bitta chipta bersangiz. Faqat jo'nash uchun.

— Bir tomonlama chipta bo'lmaydi. Qaytish uchun ham olishingiz kerak.

— Ha, mayli, borish-kelish chiptasini bera qoling unda. Bugun uchun!

— Bugungi chiptalar allaqachon sotib bo'lingan.

— Unda qachonga bor? Eng yaqin kunni aytsangiz, judayam zarur edi...

— Eng yaqini... uzr, faqat bir yildan so'ng ekan.

— Mayli jilla qursa bor ekan-u... Kun bo'yiga bera olasizmi?

— Kunlik limitning o'zi yo'q!

— Unday bo'lsa, bir soatga!

— Faqat bir daqiqalik chipta bor.

— Yaxshi. Unda shuni bera qoling!

— To'xtang... ikki yildan keyin uch soatlik chipta bor ekan.

— Yo'q, bir yildan keyingi chiptani beravering.

— Xo'sh. Demak, sizga bitta borish va qaytish chiptasi, bir yildan keyingi muddatga, faqat bir daqiqa uchun, to'g'rimi barchasi? Rasmiylashtiraveraymi?

— Albatta!

— Mana, Bolalikka xarid qilgan chiptangizni oling!

— Katta rahmat!

— Bir narsa so'rasam maylimi?

— Ha, marhamat.

— Atigi bir daqiqa... bolalikka qaytgach, bu vaqt ichida nimaga ulgurasiz?

— Ota-onamni bir vaqtning o'zida qattiq quchoqlab, diydorlariga to'ymoqchiman...

Rozmari BORDER

(Angliya)

PIANINOCHI

„Janob Antoni Evans konsert beradi". Bu so'zlar teatr eshigiga yozib qo'yilgandi. Bino devorida esa janob Antoning pianino bilan tushgan katta surati... yuzlab musiqa shaydolari chiptaxona qarshisida turnaqator tizilib turishibdi. Lekin menda alohida taklifnoma bor, chunki men muxbirman — konsert oldidan mashhur pianinochi bilan suhbatlashi-

shim lozim. Taklifnomani nazoratchiga ko'rsatib, teatr ichkarisiga kirdim. Keyin zinalardan ko'tarilib, pardozxona tomon yo'l oldim. U yerga yetib borgunimga qadar bu mashhur pianinochi haqida o'ylab ketdim. Men hatto biroz cho'chirdim ham. Nihoyat pardozxona qarshisida to'xtadim. Eshikning katta oltin yulduzchasi bor edi. Qo'ng'iroqni chaldim, eshikni uzun bo'yli, ancha keksaygan, malla ko'zlari kulib turuvchi bir kishi ochdi. Ha, bu o'sha ma'lum va mashhur pianinochi Antoni Evans. U qora shim va oq ko'ylak kiygan, sochi silliq qilib taralgan edi.

— Mening ismim Salli Xill, — gap boshladim men.

— Aytishingizning hojati yo'q, — u mening hujjatimni ko'rib jilmaydi, — siz muxbirsiz. Qaysi gazetada ishlaysiz?

— „The Sunday Times"da, janob.

— Juda yaxshi gazeta. Kiring, marhamat! Bemalol savollaringizni beravering. Biz ham qachonlardir yosh bo'lganmiz, axir, to'g'rimi, Linda? — shunday deya u yonidagi ayolga o'girildi. Ayol menga do'stona ko'zlarini tikib jilmaydi. „Bu Evans xonim bo'lsa kerak", o'yladim men va ko'rsatilgan joyga o'tirib daftarimni oc.idim.

— Janob Antoni, menga o'zingiz haqingizda gapirib bersangiz. Siz musiqachilar oilasida tarbiya topganmisiz? Xuddi Motsartga o'xshab pianino chalishni uch yoshdan boshlaganmisiz? — so'radim men.

Pianinochi jilmaydi, so'ng javob berdi:

— Yo'q, yo'q, azizim. Men oilamdan chiqqan ilk pianinochiman va birinchi marta pianino chalganimda o'n to'rt yashar edim. — U mening hayronligimni ko'rib dedi: — konsertgacha oz qoldi, lekin men ungacha sizga o'tmishimni gapirib beraman...

* * *

Toni tez-tez musiqa eshita olmasdi. Uning oilasi kambag'al va bunday odamlarda musiqa tinglash imkoni bo'lmasdi. U paytlarda radio yoki televizor kabi narsalar yo'q, ammo shaharchalarda konsert bo'lib turardi. Biroq kambag'allar u yerga ham borolmasdilar. Ba'zan italyan musiqachi shaharga

kelardi. Uning g'ildirak aravachasida kichik pianinosi bo'lar, pianino ustida esa ozg'ingina maymun o'tirardi. Uning musiqasini eshitish uchun odamlar uylaridan chiqar, shunda maymun konserva bankasini ushlagancha odamlar atrofida aylanardi. Musiqachi esa „Bizga ehson qilinglar", deb qo'shiq aytardi. Lekin maymun qaytib kelganda konserva bankasi doim bo'sh bo'lardi. Musiqachi boshini sarak-sarak qilgancha yo'lida davom etardi. Maktabda esa Toni musiqa darslarini intiqib kutardi. Chunki bu paytda Toni do'stlari bilan xuddi qushlar kabi kuylardi. Musiqa o'qituvchisi Lark xonim soat 12 da pianino qopqog'ini keyingi haftagacha yopar va „Xayr" degancha chiqib ketardi.

Toni maktabni tugatgach, shaharchadan ish topa olmadi. Bir kuni onasi uni erta sahar uyg'otdi. Ular tiqin avtobusga chiqishdi va olis yo'l yurishdi. Avtobusdan tushishgach, „Yura qol, Toni", dedi onasi. Ular quyosh tig'ida ikki chaqirim yo'l bosishdi. Yo'l yoqasida oq va sariq gullar ochilab yotardi. Toni bu yerga qiziqib qoldi. Chunki ularning shaharchasida na daraxt bor, na gul. U adirlardagi sigirlarga qaradi. „Umrimda haqiqiy sigirni ko'rmagandim", dedi o'ziga o'zi. Jo'jalar don izlash bilan ovora. Semiz, oppoq mushuk esa devorda turgancha, uyqusiragan ko'zlari bilan ularni kuzatardi. Ular fermada edilar. Shu payt ro'paradagi uydan bir erkak chiqib keldi. U oilaning eski do'sti janob Vud edi. Toni ilgari bu kishini ko'rmagandi.

— Salom, Betti, seni ko'rganimdan xursandman. Xating uchun rahmat. Ishlaring qalay? — janob Vud xuddi ming yillik qadrdonlardek so'zlashardi. Ular ancha suhbatlashishdi.

Toni eshik yonida turardi. U o'zini negadir noqulay sezar, uyga ketgisi kelardi.

— Bu sening o'g'lingmi, Betti? — so'radi janob Vud.

— Ha, uning ismi Antoni, lekin biz Toni deb ataymiz. U ikki hafta oldin maktabni bitirdi. Toni juda tirishqoq, iltimos, unga ish bering. Bilasiz, oltita farzandimiz bor, biz pulga muhtojmiz.

Janob Vud Toniga o'girildi.

— Xo'sh, yigitcha, fermada ishlashni xohlaysanmi?

Toni shaharchani esladi. Do'konda ishlash shovqin-suron-

li, zavodlar undan battar. Qachon qarasa, u yerdagi ishchilarning yuzlari kasalnikidek oppoq, zaxil bo'ladi. U yuzlari oftobdan qizargancha jilmayib turgan g'ayratli fermerga qaradi.

— Xohlayman!

Antoni chindan ham kuchli, baquvvat va ancha tirishqoq edi.

Janob Vudning Linda ismli yakka-yu yagona qizi bo'lib, ota qizini juda sevar, ammo doimo o'g'li bo'lishini istardi. Toni kechgacha tinim bilmasdi. Kechqurun uning yelkalari, oyoqlari og'rirdi. Shu sababdan yostiqqa bosh qo'yishi bilan qotib uxlab qolardi. Toni ovqatdan qisilmas: janob Vud yetishtirgan mazali meva va sabzavotlardan yer, istagancha sut ichardi. Eski kiyimlarini esa to'plagan puliga qo'shib uyiga — ukalariga yuborardi. Toni uyiga kam borar, shuning uchun uning borishi ham, qaytishi ham bayram bo'lardi.

Janob Vudning oyoq kiyimlar fabrikasiga ega bir do'sti bor edi. U ikki o'spirin o'g'li Pit va Jonni katta biznesmen bo'lishini orzu qilar, shu boisdan o'g'illarining suyagi mehnatda qotsin deb, fermer xo'jaligiga ishlash uchun yuborardi. Bu yilgi maktab ta'tilida ham Pit va Jon fermaga kelishdi.

— Men fermer bo'lmoqchiman, — dedi Pit Toni bilan tanishib olgach.

— Ha, — deb Jon uning gapini ma'qulladi. — Fermerlik dunyodagi eng zo'r kasb!

— Lekin sizlar bu yerga faqat ta'tilda kelasizlar xolos-ku? — Toni hayratini yashirolmadi. — Yoz esa doimiy emas, quyosh hamisha chiqavermaydi. Fermerlar qishda qiynalishadi.

— Lekin bu ish senga yoqadi-ku? — dedi Jon kulimsirab. U haq edi. Toni fermani sevardi.

* * *

Yozning jazirama kunlarida bolalar o't o'rishardi. Quyosh ayamay qizdirar, issiqqa chidab bo'lmasdi. Janob Vud ularning oldiga keldi.

— Bolalar, sizlarga bir ish bor, — dedi u va o'tloq yonidagi omborxona tomon yurdi.

— Uning hamisha bizlarga „bir ishi" bo'ladi, — dedi Pit uning ortidan mug'ambirona ko'z qisib. Toni va Jon kulib qo'yishdi.

Fermer ombor eshiklarini lang ochdi.

— Yanagi hafta mening yangi mashinam bo'ladi, — tushuntirgan bo'ldi janob. — Omborxonani esa garaj qilmoqchiman. Bu yerdagi hamma narsani olib chiqib uloqtirib yuboring. Keyin yaxshilab tozalang. Bu yangi mashinamning uyi.

Janob Vud jo'nab ketdi. Bolalar omborda to'lib-toshgan narsalarga hayron bo'lib qarab qolishdi.

— Bu ish ko'p vaqtni oladi, — dedi Toni omborni aylanarkan.

— Haa, — Jon uning gapini ma'qullagan bo'ldi.

Toni buyumlarga bir-bir qararkan, burchakdagi katta chang quti ostidagi narsa diqqatini tortdi.

— Nima bu? — so'radi Toni.

— Pianino, — Jon buyumga yaqinlashib javob qildi.

— Pianino! — Toni hayajon bilan Jonning so'zlarini qaytardi. So'ng shoshib ko'ylagini yechib, pianinoning changini artdi. Tonininig ko'zi undagi turli xil qushlar, gullar, barglarning suratiga tushdi. Ular qorong'i omborda xuddi charaqlab turgan yulduzlarga o'xshardi. Toni pianino qopqog'ini ochib, klavishlarga havas bilan tikildi.

— Biz buni tashlab yuborolmaymiz! Bunday qilolmaymiz! — dedi so'ng hayajon bilan.

Aka-ukalar bir-biriga qarab yelka qisishdi. Toni eski stulni pianinoning yoniga qo'yib o'tirdi. Barmoqlarini klavishlarga tekkizishi bilan ko'zlarini yumdi. Uning xayolidan yodida qolgan musiqalari bir-bir takrorlana boshladi. Barmoqlari klavishlar uzra o'z-o'zidan harakatlana boshladi.

— Men buni chala olaman, — deb o'ylardi Toni. — Menga hech kim o'rgatmagan bo'lsa-da, miyam barmoqlarimga nima qilishni aytyapti. Men musiqa chalayapman!

Darhaqiqat, pianinodan ajib bir kuy taralardi. Jon va Pit kuy ohangidan mast bo'lganday joylarida qotib turishardi.

— Bu qaysi kuy? — so'radi Pit Toni barmoqlarini klavishlardan olgach.

— Bilmayman, — dedi Toni bo'shashib.

Shu payt eshik tomondan ovoz kelganday bo'ldi. Uchala bolaning ko'zi baravar eshikka qadaldi. Ostonada bo'ychan, ozg'in, uncha chiroyli bo'lmasa-da, istaralikkina Linda Vud uzun, jigarrang sochlarini o'ynab, shirin jilmayib turardi.

Toni ayb ustida qo'lga tushgandek, qizarib yerga qaradi.

— Nega to'xtading? — so'radi qiz ohista.

— Tugatdim, — javob qildi Toni yerdan bosh ko'tarmay.

— Qaranglar, — dedi Linda hech narsa bo'lmaganday shodon qiyofada ichkariga kirarkan, — oyim sizlarga tushlik berib yubordi.

Hammalari ovqatlanishga kirishishdi.

— Chalishni kimdan o'rgangansan, Toni? — Linda pianinoga ishora qilib, Toniga boqdi.

Toni iflos oyoq kiyimlaridan ko'z uzmay javob berdi:

— Hech kimdan. Men chalishni bilmayman.

— Aldama, — qiz kulimsiradi. — Bizning maktabda ham pianino bor. Muallimdan ancha-muncha narsa o'rganishga harakat qilganman, ammo senchalik chalolmayman. Sen chalgan musiqani bilaman. U „Yashil o'tloq" deb nomlanadi. Buni menga o'rgatsang yaxshi bo'lardi.

— Qanday qilib? — Toni hayron bo'ldi. — Men notalarni bilmayman. Bizning maktabda notalarni o'rgatishmasdi, — Tonining yodiga o'qituvchisi Lark xonim tushdi. Uning darslarini eslab jilmaydi, — biz seshanba kunlari qo'shiq kuylardik, xolos.

U o'ychan pianinoning qarshisiga bordi. „Men buni, albatta, o'rganaman", dedi o'ziga o'zi. „Bu haqida janob Vud bilan gaplashib ko'rishim kerak".

Kechki ovqatni Toni xayolchan tanovul qildi. U o'zining idishlarini yuvib, eshik tomon yurdi.

— Yo'l bo'lsin? — so'radi Jon choy ho'plar ekan.

— Janob Vud bilan pianino haqida gaplashishim kerak, — dedi Toni ortiga burilmay.

Xonadon sohiblarining hammalari o'z yumushlari bilan band. Vud xonim Lindaning kiyimini tikib o'tirar, qizi xirgoyi qilgancha, matoga gul rasmini solardi. Janob Vud esa odaticha „Fermerlar haftanomasi"ni o'qish bilan mashg'ul. Eshikning ohista chertilgani ularning diqqatini bo'ldi.

— Kiring, — dedi janob Vud gazetadan boshini ko'tarmay.

Toni eshikdan kirib, xonadagilarga bir-bir ko'z tashlagach, biroz botinmayroq so'z boshladi:

— Janob Vud, omborxonada eski pianino bor ekan.

— Hech narsani eshitishni xohlamayman, — dedi fermer keskin ohangda.

— Eshitishni istamaysiz? — Toni beixtiyor janobning so'zlarini takrorladi. — Axir, pianinoni axlatga tashlab yuborolmaymiz.

— Menga mashinam uchun joy kerak. Shuning uchun pianinoni tashlab yuborasizlar, vassalom, — dedi janob Vud va mayinroq ohangda qo'shib qo'ydi. — Bugun juda og'ir kun bo'ldi, sen ham charchagandirsan, bora qol. Men biroz gazeta o'qimoqchiman.

Vudning ohangidan Toni biroz dadillandi.

— Lekin pianino.

— O'sha almisoqdan qolgan pianino haqida eshitishni istamayman, dedim senga! Bor, jo'na! — dedi Vudning jahli chiqib.

Toni bir so'z demay xonadan chiqdi.

Aka-ukalar Tonining qovoq-tumshug'i osilib qaytganini ko'rib, masalaning ijobiy hal bo'lmaganini tushunishdi.

— Biz senga yordam beramiz, — dedi Pit oldin Toniga, keyin Jonga qarab.

— Qanday qilib?

— Pianinoni janob Vudning yuk mashinasiga joylaymiz, bu albatta vaqtincha, keyin bir gap bo'lar.

Hammaga bu gap jo'yali tuyildi va ular pianinoni bazo'r ko'tarishgancha mashinaga joylashdi. So'ng hammalari tinch uyquga ketishdi.

* * *

Ertasiga ular yana o't o'rish bilan band edilar. Tush payti chanqashib suv idishlariga qo'l cho'zishdi.

— Iye, tugab qolibdi-ku? — dedi Jon hafsalasi pir bo'lib.

— Uyga borgandan ko'ra yaqin-atrofdan qidirib ko'rish kerak. Axir anavi yerda maktab bor-ku, u yerda, albatta, suv bo'ladi, — dedi Pit aqlidan quvonib.

— Men borib kelaman, — Toni shunday deb idishlarni oldi va maktab tomon jo'nadi.

U maktab atrofini aylanib quvurni topolmadi. Maktab eshigining oldiga borib, itarib ko'rgandi, ochilib ketdi. Kichkina oshxona, burchakda artezian suvining jo'mragi ko'zga tashlandi. Toni jo'mrakni burab, qo'lini tutdi. Avvaliga iliq,

so‘ng tanani yayratadigan muzdek suv sharillab tushdi. Toni yutoqib suv ichgach, maktabni aylangisi keldi. Bunga ko‘p vaqt ketmadi. Chunki maktab birgina sinf xonasidan iborat edi. Xonadagi kichik stol-stullar, ta’tilga ketgan bolalarni kutgandek jimgina turardi.

— O‘qish sentabrda boshlanadi, ungacha hali ikki oy bor, — o‘ylay ketdi Toni. — Pianinoni shu yerga qo‘yib tursam bo‘ladi-ku! Maktab boshlanguncha yana bir iloji topilar...

Toni xayoliga kelgan fikrdan quvonib, idishlarni suvga to‘ldirdi-da, bolalar oldiga shoshildi.

— Tolqon yeb, seni suvga yuborish kerak ekan-ku! — kuldi Pit.

— Men pianinoni qo‘yib tursa bo‘ladigan joy topdim! — dedi Toni quvonchini yashirolmay maktab tomon ishora qilarkan.

— Ahmoq bo‘lma, — dedi Jon qo‘l siltab. — O‘qituvchi urishadi.

— Qanday urishadi, axir u ta’tilda-ku? — Toni Pitga o‘girildi. — Sen ham hozir ta’tildasan-ku, to‘g‘rimi?

— To‘g‘ri.

— Maktabning eshigi ochiq, hatto qorovuli ham yo‘q. Sizlar menga yordam bersangiz, pianinoni maktabga olib kirib qo‘yardik.

Aka-ukalar bir-biriga ma’noli qarashdi. So‘ng ma’qul deganday bosh irg‘ashib, yana ishlariga sho‘ng‘ib ketishdi.

Vud xonim yig‘inga ketganligi uchun kechki ovqatni Linda tayyorlagandi.

— Bolalar, — dedi qiz stol ustiga idishlarni qo‘yar ekan, — otamning yuk mashinasi sizlarda ekan...

Bolalar savol nazari bilan bir-biriga qarashdi. Ular pianinoni hali ko‘chirishmagandi. „Nahotki, Linda sezgan bo‘lsa? Otasiga aytsa, hamma urinishlarimiz zoye ketadimi endi?“ degan savollar ularning ko‘ngillaridan o‘tdi. Uchovlon Lindaning yuziga baqrayib qarashdi.

— Meni qishloqqa tashlab qo‘ya olmaysizlarmi? Dugonam Ketrin kasal ekan, ko‘rib kelmoqchi edim...

— Bajon-u dil tashlab qo‘yamiz, lekin...

Toni so‘zini oxiriga yetkazmay, o‘rnidan turdi. Xonani

bemaqsad aylandi. So‘ng Lindaning ko‘zlariga tikilgancha, bor gapni aytib berdi. Linda Tonini diqqat bilan eshitgach, jilmaydi.

— Seni tushundim, Toni. Men ham sizlarga yordam beraman.

Bolalar qizni Ketrinning uyiga tashlab o‘tdilar.

— Soat to‘qqizdan kechikmay uyda bo‘linglar, — dedi Linda ular bilan xayrlashar ekan. — Dadam sezib qolishi mumkin.

Uch o‘spirin tasdiq ishorasini qilib, bosh siltashdi. Pianinoni maktabga joylashtirish og‘ir bo‘ldi. Uni mashinadan tushirib, sinfga olib kirgunlaricha, qora terga botishdi. Pianinoni devor oldiga qo‘yishdi.

— U mana shu yerga yarashadi! — dedi Pit, so‘ng klavishlarni birin-ketin bosib ko‘ra boshladi. Xonani shovqin, g‘alati ovoz bosdi.

— Sen uch yil pianino darsiga qatnagansan, ammo chalgan musiqangni qara, agar shuni musiqa deb atash mumkin bo‘lsa... — der ekan, Jon Toniga yuzlandi. — Bizga biror narsa chalib ber.

Toni stulga o‘tirdi. Qo‘llari klavishlar ustida o‘z-o‘zidan o‘ynay boshladi. Musiqa uning miyasiga quyilib kelardi. U o‘zga olamda uchib yurardi... Do‘stlari esa uni diqqat bilan tinglashardi.

Yoz Toni uchun maroqli kechdi. Har kuni ovqatdan so‘ng Lindaning velosipedini minib maktabga borar, miriqib pianino chalardi. Kech tushishi bilan yana fermaga qaytardi. Ishdan bo‘shagan paytlarda esa Lindadan nota o‘qishni o‘rganardi.

— Bu oson ekan, — dedi u Lindaga. — Notalar barmoqlarga nima qilishni aytarkan.

— To‘g‘ri, — dedi Linda Tonining so‘zlarini yaxshi anglamagan bo‘lsa-da, uni quvvatlab. — Qara, mana bu — italyancha musiqa.

Toni notalarni tez o‘rgandi. Bunda Lindaning yaxshi o‘qituvchi ekanligi ish berdi. Bu darslar Lindaga ham, Toniga ham yoqardi. Toni bora-bora bu darslardan so‘ng yurgan yo‘lida xirgoyi qilib yurishga odatlanib qoldi. Undagi yangi odatni birinchi bo‘lib, Vud xonim payqadi.

— Menimcha, Toni kimnidir sevib qolgan, — dedi u Linda bilan kechki ovqatni hozirlar ekan.

Linda jilmayib qo‘ydi.

* * *

Janob Gorden qishloq maktabining yakka-yu yolg'iz o'qituvchisi edi. U o'z ishini, ayniqsa, bolalarni juda sevardi. Shuning uchun o'zidagi bor bilimni bolalarga berishga harakat qilardi. Maktabda pianino yo'qligi janob Gordenning ko'nglini o'ksitardi. Ammo u bunga ko'p ham parvo qilavermasdi. Pianinosiz ham o'z shogirdlari bilan berilib qo'shiq aytaverishardi.

Yoz kechalarining birida janob Gorden izlagan kitobini uyidan topolmadi.

— Esladim, — dedi u qo'l siltab, — maktabda qolgan. Maktab esa uzoq emas, tezda borib kelsam bo'ladi.

U bog' orqali maktabga kirib bordi. Cho'ntagidan kalitni qidirdi, lekin topolmadi. Qarasa, maktab eshigi ochiq (Toni chiroqni yoqmas, chunki kimdir uni ko'rib qolishidan qo'rqardi).

— Eh, qarilik qursin, — dedi u bosh chayqab, — eshikni qulflashni unutgan ekanman-ku! Ichkarida kimdir borga o'xshaydi... menimcha, u o'g'ri! Endi nima qildim-a?

Janob Gorden turli xayollar bilan eshikdan hatladi. Ichkaridan musiqa ovozi eshitilardi. Janob Gorden seskanib ketdi. Ammo xurofotdan nari odam bo'lgani uchun yana bir-ikki qadam tashladi. Derazadan taralayotgan oyning yog'dusidan xona biroz yorishib turardi. Janob Gordenning ko'zi pianino oldida o'tirgan bolaga tushdi. U bexosdan oyog'i ostidagi stulni turtib yubordi. Stuldan chiqqan tovush yetarli bo'ldi: pianinoning ovozi shu ondayoq tindi.

Toni o'rnidan sakrab turdi va keskin orqasiga burildi.

— Iltimos, politsiyaga aytmang, — dedi u titrab. — Men hech narsa o'g'irlaganim yo'q.

— Xo'p, xo'p, — dedi muallim tutila-tutila. — Ammo sen kimsan? Bu yerda nima qilib yuribsan? — Gorden stolga suyandi.

Toni oldida turgan odamning xayrixohlik bilan gapirayotganini sezdi. Shu sababli uning savollariga batafsil javob berdi.

Janob Gorden fermaga kelib, Vudlar bilan bafurja suhbat qurdi.

— Tonida katta iste'dod bor, — dedi u suhbat poyonida. — Qirq yil o'qituvchilik qilib unga o'xshagan bolani uchratmaganman. U musiqa darslariga qatnashi kerak, keyin

Londonga... Musiqa kollejida ta'lim olishi, kuchli musiqachilar bilan ishlashi lozim.

— Lekin uning oilasi juda nochor yashaydi, — janob Vud tushuntirgan bo'ldi. — Ular Tonining hatto maktabda o'qishi uchun ham pul to'lolmaydilar. Bu yerga ham Toni ishlab, uydagilariga yordam berish uchun kelgan.

— Bular hal bo'ladigan masala, — janob Gorden xush kayfiyat bilan o'rnidan turdi. — O'tgan kecha men maktabga borib, ajoyib bir musiqachi bilan tanishdim. Uning uchun har qancha ko'p mablag' ajratsam, shunchalik xursand bo'lardim.

Bu gaplar janob Vudning izzatiga tegdi.

— Yo'q, — dedi u qizarib, — Toni yaxshi bola. U kabi o'g'lim bo'lishini juda-juda xohlardim. Tonining oilasi kambag'al bo'lsa-da, biz nochor emasmiz.

— To'g'ri, — Vud xonim keskinlikni yumshatish uchun tashabbusni qo'liga oldi. — Biz Tonini o'z hisobimizdan kollejga o'qishga yuboramiz.

— Barakalla, xonim, — deb Gorden yengil ta'zim qildi va Vudga qarab quvnoq ohangda davom etdi. — Demak, musiqa darslari bizdan, kollejda o'qitish sizlardan!

Hayotini butkul o'zgartirib yuborgan bu suhbatdan faqatgina mashina yuvayotgan Tonigina bexabar edi.

— Janob Gorden ertadan boshlab senga musiqadan saboq beradi!

Fermerning bu so'zlarini eshitib, Tonining ko'zlari porlab ketdi. Ammo sal o'tmay bo'shashib bosh chayqadi:

— Menda o'qish uchun pul yo'q.

— Men u bilan gaplashdim, sendan o'qitgani uchun pul olmaydi. Har kuni soat to'rtda maktabga borasan. Ikki soat shug'ullanib, fermaga qaytasan.

— Ishim-chi?

— Men boshqa ishchi toparman, — dedi janob Vud Tonining yelkasiga qoqib. — Evaziga birinchi konsertingdan uchta chipta berasan!

Toni ertalab barvaqt turar, uy yumushlarini bajarar, soat to'rtda mashg'ulotga shoshardi. Janob Gorden unga musiqaga oid kitoblarni mutolaa uchun berardi. Ba'zan Toni ularni o'qiyotib uxlab qolar va tushiga ham musiqa kirib chiqardi.

Daraxtlar bargini to'kib, qish ham yetib keldi. Toni darsdan qaytguncha qorong'i tushar, ba'zan qalin qor yog'ardi. Toni maktabga piyoda qatnasa-da, birorta darsni qoldirmasdi. Janob Vud muallimdan Tonining o'zlashtirishi haqida so'rab turardi. Gorden esa undan nihoyatda mamnun edi.

Daraxtlar yashil libosga burkandi: bahor keldi.

— Yozda musiqachilar tanlovi bo'larkan, — dedi Gorden bir kuni Toniga.

— Biz ham tomosha qilgani boramizmi? — quvondi Toni.

— Yo'q, Toni, men tomosha qilaman, sen esa unda ishtirok etasan. Men sening nomingni ham yozdirib keldim.

— Qanday?! — Tonini hayajon bosdi.

— Shunday. Sen unda qatnashasan. Sen bilan birga dunyoning mashhur musiqachilari ham ishtirok etadi.

Toni o'zi uchun berilgan taklifnomani ko'rdi.

— Hech kim meni Antoni demaydi-ku? Nega ular Toni deb yozishmagan?

— Toni yosh bolaning, Antoni esa kattalar ismi. Toni Evans — ferma bolasi. Antoni Evans esa musiqachi! Bir kun kelib sen juda mashhur musiqachi bo'lasan. Noming dunyoni tutadi. Men seni bugundan boshlab Antoni deb atayman.

* * *

Ular tanlov kuni bir oila bo'lib, janob Vudning mashinasida shaharga borishdi. Vud xonim Tonini do'konga boshladi. Ular jigarrang kastum-shim va oq ko'ylak sotib olishdi. So'ng xonim uni poyabzal do'koniga olib kirdi. Bu do'kon Jon va Pitning otasiga qarashli edi. U Toniga yangi oyoq kiyim sovg'a qildi. Tufli juda bejirim va chiroyli edi, Toniga ham, xonimga ham juda yoqdi. Faqat u Toniga biroz kichik keldi. Ammo u xonimga hech nima demadi. Jonning otasi Tonining yelkasiga qoqarkan, dalda berib qo'ydi:

— Ismingni tanlov dasturida o'qigandim. Antoni Evans — jarangdor ism. Omadingni bersin!

Ular tanlov o'tadigan binoga qarab yo'l olishdi. Bino oldida janob Gorden ularni kutib turardi. Vudlar o'z joylariga o'tirishgach, u Tonini sahna ortiga boshladi. Juda ko'p musiqachilar o'tirgan xonaga olib kirgach, ustozi Antoniga qo'l uzatib:

— Senga omad tilayman! — deya xonani tark etdi.

Antoni o'tirib uzoq kutdi. Tuflisi oyog'ini ayovsiz qisardi. Qo'llari esa muzdek edi. Birozdan so'ng pianinoning ovozi eshitildi. Antoni hamma narsani unutdi: pianinoning sehrli ovoziga berildi. Uning xayolini faqat har o'n-o'n besh daqiqada kirib, kimningdir ismini aytadigan yigitning ovoziga bo'lardi. Nihoyat:

— Janob Evans, sizning navbatingiz! — dedi yigit Antoning oldiga yaqinlashib.

Antoni o'rnidan turdi. „Oh, oyog'im! — deb o'yladi u yigitning ortidan engashib borarkan. — Xuddi Charli Chaplinga o'xshab yuryapman. Hamma ustimdan kulayotgan bo'lsa kerak."

U tomoshabinlarga qaradi. Ustozini ham, Vudlarni ham ko'ra olmadi. Lekin ularning mehri va sevinchini his etdi. Oyog'i og'riqdan, qo'llari muzlashdan to'xtadi. Barmoqlarini pianino klavishlariga ohista qo'ydi. Bu pianino maktabdagidan ancha katta edi. „Men chalishim kerak! Axir bu yerga shuning uchun kelganman", dedi o'ziga o'zi. Barmoqlari klavishlar ustida o'ynab ketdi. Antoni qarshisida o'tirgan minglab odamlarni ham, o'zini ham unutdi. U do'stlari, oilasi uchun chaldi, Vudlar uchun, Linda uchun chaldi. Janob Gorden uchun va albatta, Lark xonim uchun chaldi... „Hozir qayerdasiz, Lark xonim? Toni Evansni eslaysizmi? Menda musiqaga mehr uyg'otdingiz! Siz meni unutsangiz ham, men sizni hech qachon unutmayman. Rahmat, sizga!"

Gulduros qarsaklar yangradi. Antoni shundagina musiqasi tugaganini sezdi.

— Bu hayotimdagi eng baxtli kunim bo'ladi! — dedi u o'zicha.

— U, albatta, shohsupani egallaydi! — Gorden ham o'z hayajonini yashirolmadi.

Antoni ustozi o'ylaganidek g'olib bo'ldi. Buni u ertasi kuni gazetadan o'qidi. Oyog'ining og'rigani tanlovdan esdalik bo'lib uzoq yillar uning yodida qoldi.

* * *

Janob Antoni hikoyasini tugatib, diqqat bilan menga qaradi.

— Shundan so'ng mening musiqiy hayotim boshlandi. Uch yil musiqa kollejida o'qidim. Har yili yozgi ta'tilda fermaga qaytardim.

Yoshim yigirmaga to'lgan kuni Linda Vudga o'zimning eng muhim savolimni berdim: „Hozir senga hech narsa berolmayman, lekin bir kuni men mashhur va badavlat bo'laman. O'shanda menga turmushga chiqishga rozi bo'lasanmi?"

Linda menga mehr bilan uzoq tikildi. So'ng kuldi.

— Oh, Antoni! — dedi u. — Buni kutib o'tirma. Hozir so'ra!

Shunday qilib, men uning qo'lini so'radim: biz turmush qurdik.

— Bunga ham oltmish yil to'ldi, — Linda xonim suhbatga qo'shildi. —Bir oy burun qirolicha bizni Bukingem saroyiga taklif qildi.

— Men u yerga borgunimcha Antoni Evans edim. U yerdan esa „Ser Antoni Evans" bo'lib chiqdim, — deya musiqachi kulimsirab rafiqasining qo'lidan tutdi. — Mening Lindam esa „Ledi Evans" bo'ldi.

Shu payt eshik qo'ng'irog'i chalindi.

— Ikki daqiqadan keyin chiqishingiz lozim, Ser Antoni, — dedi xonaga kirgan yigit.

— Men tayyorman, — dedi ser Antoni va menga o'girildi. — Men hozirgacha ikki mingta, balki uch mingta konsert bergandirman, ammo hamisha ilk marotaba konsert berayotgandek his etaman o'zimni. Siz endi bora qoling, hikoyangizni yozing. O'quvchilarga mening juda baxtli ekanligimni yetkazing.

Anton CHEXOV
(Rossiya)

OQ QANSHAR

Ochiqqan urg'ochi bo'ri o'rnidan turib, ov sari otlandi. Uning uchta bolasi bir-biriga yopishib badanlarini isitgancha qattiq uyquda edilar. Ona bo'ri bo'rivachchalarini yalab qo'ydida nari ketdi.

Bahor faslining mart oyi allaqachon kirib kelgan, ammo tunlari daraxtlar xuddi dekabr oyidagidek sovuqdan charsillar, labingni yalasang sovuq chimdilardi. Ona bo'ri zaif edi, o'ziga ishonmas; arzimas saslarga ham quloq tutar va tinmay inidagi bo'rivachchallariga hech kim ozor yetkazmasmikin, deb

o'ylardi. Nazarida, daraxtlar ortida odamlar yashirinib turgandek va o'rmonning qayeridadir itlar akillagandek tuyilardi.

Bo'ri endi yosh emasdi, u sezgi kuchini yo'qotgan, shu sabab tulki izini itniki deb o'ylab hislarida adashar va hatto soxta sezgilariga tayanib yo'lidan qaytar, bunday holatlar yoshlik paytlari yuz bermasdi. Sog'lig'i zaifligidan u avvalgidek buzoq va katta qo'ylarni ovlamay qo'ygan, toychog'ini ergashtirgan otlardan nari yurar, o'laksaxo'rlik qilar, yangi go'sht bilan kamdan kam oziqlanar, faqat bahor pallasida biror quyonni ovlab, bolalariga olib borar yoki qo'zichoq boqilayotgan molxona sari otlanardi.

Inidan to'rt chaqirim naridagi pochta yo'lida qishlov joy bor edi. Bu yerda yetmish yashar Ignat ismli chol yashar, har doim yo'talib yurar va o'zi bilan o'zi so'zlashardi; odatdagidek u tunda uxlar, kunduzi esa bir stvolli miltig'i bilan o'rmonda izg'ir va quyon ovlardi. Ehtimol, qariya ilgari mexanik bo'lib ishlagandir, sababi har safar u to'xtashdan avval o'ziga o'zi „Stop, mashina!" deb hayqirar, yurishdan oldin bo'lsa „Yo'l ochiq!" derdi. Uning yonida zoti noma'lum bo'lgan Arapka laqabli haybatli qora it birga yurardi. U choldan uzoqlashib oldinga yugursa, egasi qichqirardi:

– Yo'l orqaga!

Ba'zan qariya kuylar, shu asno gandiraklab tez-tez yiqilib tushardi (ona bo'ri buni shamoldan deb o'ylardi) va hayqirardi:

– Relsdan chiqib ketdik!

Ona bo'rining esida, yoz va kuzda qishlov yon atrofida qo'y va ikki qo'zichoq ko'rinardi, o'shanda bo'ri ularni chetlab o'tarkan, unga molxonadan ma'ragan ovoz eshitilgandek bo'lardi. Hozir esa qishlovga yaqinlashar ekan, bo'ri ayni paytda mart ekanini unutib, molxonada biror ko'zichoq bo'lsa kerak deb taxmin qildi. Unga ochlik azob berar, qo'zichoqni ishtaha bilan yeyishni tasavvur qilar, bu xayollardan tishlari g'ichirlab ikki ko'zi olovdek yiltirardi.

Ignatning kulbasi, ombori, molxona va qudug'i baland qor uyumi bilan o'ralgandi. U yerda tinchlik hukm surmoqda edi. Arapka hoynaxoy omborda uxlardi.

Qor uyumidan oshib o'tgan bo'ri molxonaga yaqinlashdi, panjalari va tumshug'i bilan somonsuvoq tomni ochishga urindi.

Somon tom uvadalanib bo'shab qolgandi, shu sabab bo'ri ko'p qiynalmadi; tumshug'iga iliq bug', o'g'it va qo'y sutining isi urildi. Pastdagi qo'zichoq sovuq havoni sezib ma'rab qo'ydi. Darchadan sakragan bo'ri panjasi va ko'ksi bilan qandaydir yumshoq va issiq narsa ustiga tushdi, xoynahoy qo'y bo'lsa kerak, shu lahzada molxonaga kimdir kirdi va ingichka qahrli ovozda akilladi, qo'y-qo'zilar devorga qapishishdi, qo'rqib ketgan ona bo'ri bo'lsa tishiga ilingan o'ljani o'mardi-da, tashqariga otildi...

U bor kuchi bilan chopar, ayni paytda bo'ri isini olgan Arapka shiddat bilan uni quvar, qishlovdagi tovuqlar qaqillar, Ignat bo'lsa ostona zinapoyasiga chiqib baqirardi:

– Tezlik oshirilsin! Xushtak chalinsin!

U shunday deb mashinaga o'xshab xushtagini chaldi, so'ng „go-go-go-go!...“ deya baqira boshladi. Butun shovqin o'rmon ichra aks sado bo'lib qaytdi.

* * *

Asta-sekinlik bilan bari tinchigach, ona bo'ri ham tinchlandi va shuni payqadiki, u og'zida tishlab turgan o'ljasi og'ir va qattiqroq edi, odatda bu vazn ikkita qo'zichoqqa teng kelardi; hidi ham boshqacha bo'lib, g'alati ovoz chiqarardi... Bo'ri dam olish va oziqlanish uchun to'xtab yukini qor ustiga qo'ydi va birdan ijirg'anib sapchib ketdi. Bu qo'zichoq emas, balki qora, xumbosh va uzun oyoqli, yirik parodali, xuddi Arapkaniki kabi peshanasida oq dog'lari bor kuchukbola edi. Ko'rinishidan pachoq, oddiy ko'ppak edi. U g'ijimlangan yarador belini hech nima bo'lmagandek yalab qo'yar, dumini likillatar va bo'riga yaslanardi. U irillab kuchukvachchadan uzoqlashdi, it ham uning ortidan qolmadi. Bo'ri ortiga qayrilib kuchukbolaga tishlarini g'ijirlatdi; u esa bir dam to'xtab o'ylanib qoldi va bo'rini o'zi bilan o'ynayapti deb sanab, tumshug'ini qishlov tarafga burdi va erkalanib akillab qo'ydi. Bu bilan u go'yo onasi Arapkani bo'ri bilan o'ynashga chorlagandek bo'ldi.

Tong yorisha boshlagan, ona bo'ri o'zining qalin o'rmoniga yetib kelganda, bu yerdagi har birdaraxt ko'zga ravshan tashlanib turar, karqurlar uyg'ongan, qomatdor xo'rozlar qichqirishni boshlagan, kuchukbola esa ehtiyotsizlik bilan akillagancha irg'ishlab kelardi.

„Nega u ortimdan kelyapti? – o'yladi ona bo'ri jahli chiqib. – Balki uni yamlab yutishimni istayotgandir?"

U bolalari bilan uncha chuqur bo'lmagan o'rada yashardi; uch yil avval kuchli bo'ron vaqtida katta qarag'ay daraxti ildizi bilan qo'porilib tushgan va mana shu o'yiq hosil bo'lgandi. Bir-biriga juda o'xshab ketadigan bo'ri bolalari allaqachon uyqudan ko'zlarini ochib, o'ralari yonida tizilib turishardi, ular onalarining kelayotganini ko'rib dumlarini likillata boshlashdi. Bo'rivachchalarni ko'rgan kuchukcha to'xtab qoldi va ularga uzoq tikildi; shu asno bo'rivachchalar ham o'ziga tikilib turganini payqadi, keyin begonalarga qarab hurgandek vovulladi.

Kun yorishib, tepaga ko'tarilgan quyosh nurlari qor uyumlarida tovlanardi. Kuchukcha esa hamon uzoqroqda hurib turardi. Bo'ri bolalari onalarining oriq qornini piypaslab ko'krak emishar, ona bo'ri bo'lsa oppoq va qup-quruq ot suyagini g'ajir, unga ochlik azob berardi. Bolalarining chiyillashidan bezor bo'lgan ona bo'ri, kutilmagan mehmonga tashlanib bir zumda uni g'ajib tashlashni istardi.

Nihoyat, kuchukcha toliqqanidan xirillay boshladi va ko'rdiki, uning qo'rqishiga sabab yo'q, hatto unga e'tibor ham berishmayapti, shuning uchun u sekinlik bilan tirkalib, irg'ishlab bo'rilarga yaqinlashdi. Hozir, kun yorug'ligida uni bemalol tomosha qilish mumkin edi. Kuchukning oq qanshari kattagina edi, peshanasi do'ng bo'lib, odatda bu tuzilish esi past itlarga xos edi; ko'zlari kichkina, moviy va nursiz, tumshug'ining ko'rinishi bo'lsa favqulotda tentaknamo edi. U bo'rilar sari qadam tashlarkan, paxmoq panjalarini yerga bosib ustiga tumshug'ini qo'ydi va ingilladi:

– Mnya, mnya... nga nga nga!...

Bo'rilar hech nimani tushunishmadi, lekin dumlarini likillatishdi. Shunda kuchukcha katta boshini bo'ri bolasiga qarab urdi. O'z navbatida bo'rivachcha ham panjasi bilan unga tushirdi. Kuchukcha yonboshi bilan qaragancha uni zimdan kuzatib, dumini likillatdi, so'ng birdan turgan joyida bir necha marta doira bo'lib aylandi. Ona bo'ri uni haydadi, kuchukcha orqasi bilan yiqilib tushdi va tepaga panjasini ko'targanda uch bo'rivachcha uning ustiga otilishdi, hazillashib kuchukchani tishlay boshlashdi, ammo bu og'riqli emasdi. Shodon shovqin eshitilardi.

Odatda, ona bo'ri bolalarini ov qilishga o'rgatadi, o'ljani tutish usullarini ko'rsatadi; hozir ham bo'rivachchalarning kuchuk ortidan quvishlarini va olishuvlarini ko'rib o'yladi: „Mayli, o'rgana qolishsin."

O'ynab charchagan bo'ri bolalari o'raga kirib, uxlashga cho'zildilar. Kuchukcha ham biroz ochiqdi va quyoshda toblanib yerga cho'zildi. Uyg'ongach ular yana o'ynadilar. Kun bo'yi va oqshomda ham ona bo'ri o'tgan tunda molxonada ma'ragan qo'zichoq va qo'y suti isini eslab, ishtahasi ochilar va tishlarini g'ijirlatib, ochko'zlik bilan qoq suyakni shimar, go'yoki uni barra qo'ziga qiyoslardi. Bo'rivachchalar onasini emishdi, kuchuk bola ham och qolib aylana boshladi va qorni iskadi.

„Uni yeb qo'ysammi..." qaror qildi ona bo'ri.

Bo'ri unga yaqinlashdi, kuchuk bola esa uning tumshug'ini yaladi, o'zi bilan o'ynamoqchi deb o'yladi, chog'i. Bir vaqtlar u itlarni ham yerdi, ammo bu kuchukchadan bola hidi kelar, ona bo'ri zaifligidan bu isga toqat qilolmadi; o'z o'ziga qarshi chiqib, kuchukboladan uzoqlashdi...

* * *

Tunda sovuq tushdi. Kuchukbola uyini sog'indi shekilli, ketib qoldi. Bo'rivachchalar qattiq uyquga ketishgach, ona bo'ri yana ovga otlandi. Kechagidek u arzimas shovqindan ham vahimaga tushar, ko'lmakdagi ko'piklar, o'tinlar, qora yakkam-dukkam archa butalarini odam deb o'ylab cho'chirdi. U yo'l chetidan chopib borardi. Birdan qarshisida yo'l ustida qandaydir qora sharpa ko'rindi... U ko'rish va eshitish sezgilarini faollashtirdi: nimadir to'g'riga qarab yurib ketar, hatto bir tekis qadam tovushlari eshitilardi. Bo'rsiqmikin? Bo'ri ehtiyotkorlik bilan sekin nafas olgancha o'zini chetga oldi, qora sharpani aylanib o'tdi, so'ng sharpaga yaxshilab razm soldi va uni tanidi. Sekin yurib ketayotgan oq qansharli kuchukbola qishlovga qaytayotgan edi.

„U yana menga halal bermasaydi", o'yladi ona bo'ri va tezda undan o'zib ketdi. Qishloqqa yaqin qoldi. Bo'ri molxonaga yana qor uyumi ustidan oshib tushdi. Kechagi o'ra yangidan yopilgan, tomda esa ikkita yangi yog'och paydo bo'lgandi. Bo'ri oyoqlari va tumshug'i bilan tez harakat qilar, kuchuk kel-

mayaptimi, deb ortiga alanglardi, birdan iliq bug‘ va o‘g‘itning isi keldi, ortidan esa quvonchli akillash eshitildi. Kuchukbola yetib kelibdi. U bo‘riga ergashib tomga chiqdi, so‘ng o‘raga tushdi, o‘zini issiq uyda his etdi. Qo‘ylarni tanib, yanada kuchli vovulladi... Arapka uyg‘onib ombordan chiqdi va bo‘ri isini payqab akilladi, tovuqlar qag‘illadi, zinapoyada Ignat qo‘lida bir stolkali miltig‘i bilan ko‘ringanda esa ona bo‘ri allaqachon qishlovdan uzoqlashgandi.

– Qochdi! – xushtak chaldi Ignat, – qochdi! Ularning ortidan quv!

Shunday deb u o‘q joyladi, ammo miltiq otilmadi; yana o‘qladi, tag‘in otilmadi; uchinchi marta urindi va bir dasta o‘q stvoldan otilib quloqni qomatga keltirdi: „bu-bu!“ Yelkasi qaqshab, bir qo‘lida miltiq, ikkinchisida boltani olib, nima bo‘lganini bilish uchun molxonaga kirdi... Birozdan so‘ng kulbasiga qaytdi.

– Nima gap? – xirildoq ovozda so‘radi bir kecha uning uyida tunashga qolgan musofir shovqindan uyg‘onib.

– Hech gap... – javob berdi Ignat. – Arzimas narsa. Oq qansharimiz qo‘y-qo‘zilar bilan issiqqina uxlashga qaror qilibdi. Ammo tushunmadim, nega eshikdan emas, tomdan oshib tushdi ekan. O‘tgan kecha tomni buzib sayrga chiqib ketgandi, yaramas, hozir esa qaytibdi va yana tomni buzibdi.

– Ahmoq.

– Ha, tentaklarni o‘lgudek jinim suymaydi! – yengil nafas oldi Ignat – Xay, hurmatli mehmon, barvaqt turish kerak, yoppasiga uxladik...

Ertalab esa u yoniga Oq qansharni chorladi, qulog‘ini og‘ritib buradi, keyin xivchin bilan bir-ikki savalagandek bo‘ldi va buyurdi:

– Eshikdan kir! Eshikdan kir! Eshikdan kir!

MUNDARIJA

Q. YUSUPOVA tarjimasi

Irving Shou *(AQSH)* Yozgi ko‘ylakdagi qizlar.....3
Simona Gabriela Kolett *(Fransiya)* Yaqin-begona ayol 7
Albert Mals *(AQSH)* Dunyodagi eng baxtli odam.....13
Alan Marshal *(Avstraliya)* Quyosh qo‘shig‘i 21
Virjiniya Vulf *(Angliya)* Moviy va yashil 23
Oldes Xaksli *(Angliya)* Pushti rang upa 25
Uilyam Saroyan *(AQSH)* Pianino 27
Anjela Kaflan *(Angliya)* Onaizorim 30
Ernest Xeminguey *(AQSH)* Yomg‘irda qolgan mushuk 34
Oddiy sinov 37
Begona mamlakatda 41
Keyt Shopen *(AQSH)* Sog‘inib kutaman tunlarni 49
Ozodlik 51
O‘kinch 52
Shervud Anderson *(AQSH)* Gung odam 59
Keksalik 61
Ketrin Mensfild *(Yangi Zelandiya)* Oqsoch 65
Mark Tven *(AQSH)* Kuchukcha va uch dollar pul 72
Jon Golsuorsi *(Angliya)* Eskirgan etik 76
Gi de Mopassan *(Fransiya)* Xonadon.....84
Teodor Drayzer *(AQSH)* Qoracha Jef.....93
Toni Morrison *(AQSH)* Nuridiydam 96
Uilyam Demil *(AQSH)* Zolim.....106
O. Genri *(AQSH)* Nomsiz hikoya 108
Ambrus Birs *(AQSH)* Qo‘rquv 121
Kevin Tutchener *(AQSH)* Taqdiri azal 124

N. IBROHIMOVA tarjimasi

Anil Chandra. *(Hindiston)* Baxt keltirgan shabnam 128
Kichkina tabib 131
So'qmoqdagi so'qir sarguzashti 137
Minnatdorlik gullari 142
Iyulning mayin shabbodasi 144
Anju Kotvani *(Hindiston)*
Yaratganning yerdagi farishtasi 149
Alfonso Daudet *(Fransiya)* So'nggi dars 151
Lengston Xyuz (AQSH) Rahmat sizga, oyijon! 154
Jennifer Adams (AQSH) Umid yulduzi 157
Mishela Vot *(Fransiya)* Mening kapalagim 161
Isaah *(Yaponiya)* Kichik xonimning katta o'ylari 162
Feyri *(Angliya)* Yillar armoni 164
Karim Mallesh *(Hindiston)* O'zgargan qaror 167
Ranglar bahsi 169
Sirk 170
Abu Ammar *(Pokiston)* Besh daqiqa 171
Yurakdagi nihollar 172
Bir shisha sut 173
Qalam va Odam 174
Mari Nepiyer *(Avstraliya)*
Muhabbat hamisha barhayot! 176
Karla Fodor (AQSH) Sovg'a 177
A.Keyur (AQSH) Kambag'al, ammo boy oila 177
Sergey Morozov *(Rossiya)* Yulduzga atalgan tilak 178
Mark Tven (AQSH) Hayotning besh tortig'i 182
Boshena Kayzer *(Rossiya)* Tuyg'ular do'konchasi 183
Laura Xorn *(Angliya)* Otamga bormagan maktub 185
Anton Chexov *(Rossiya)* Uyqu istagi 188
Vanka 194
Rey Bredberi (AQSH) Koinot sovg'asi 198
Kiran Kumar *(Hindiston)* So'nggi sovg'a 200
Do'stlik 201
Rina Miloradova *(Rossiya)* Chipta 202
Rozmari Border *(Angliya)* Pianinochi 203
Anton Chexov *(Rossiya)* Oq qanshar 216

84(0)
D 88

Dunyodagi eng baxtli odam [Matn] : jahon hikoyalari/ ingliz va rus tillaridan Q. Yusupova, N. Ibrohimova tarjimasi. – 1- nashr. – Toshkent: O'qituvchi, 2017 – 224 b. (jahon adabiyoti durdonalari).

ISBN 978-9943-22-117-8

UO'K:821(100)-32
KBK 84(0)

DUNYODAGI ENG BAXTLI ODAM

Jahon hikoyalari

«O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2017

Ingliz va rus tillaridan
Qandilat Yusupova va **Nodirabegim Ibrohimovalar**
tarjimasi.

Muharrirlar: *N. Ergashev, M. Nishonboyeva*
Badiiy muharrir *Bahodir Ibrohimov*
Tex.muharrir *Surayyo Nabiyeva*
Musahhih *Malohat Ibrohimova*
Kompyuterda sahifalovchi *Shirin Ahrorova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 291. 04.11.2016. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 08.05.2017. Bichimi 84x108$^{1}/_{32}$. Kegli 10,5 shponli. Garn. Times TAD. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozi. Shartli b. t. 11,76. Hisob-nashriyot t. 10,92. Adadi 2900 nusxa. Buyurtma № 236-17

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 1- uy. Shartnoma № 99-17.

201 7
A1027
Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

Alisher Navoiy
7
1026

Hukmingizga havola etilayotgan ushbu to'plamdan Ernest Xeminguey, Virjiniya Vulf, Irving Shou, Anil Chandra, Alfonso Daudet, Lengston Xyuz, Anton Chexov kabi mashhur mualliflarning asliyatdan tarjima qilingan, bolalar va kattalar uchun mo'ljallangan sara hikoyalari o'rin olgan.

Bolalar o'zgacha olamda yashaydi. Ularning quvonch va qayg'ulari, orzu va armonlari aks etgan hikoyalar o'quvchini befarq qoldirmaydi.

Shuningdek, katta yoshdagi kitobxonlar ham to'plamdan o'zlari uchun qadrli xotiralar topishiga ishonamiz.



© „O'qituvchi" NMIU
100206, Toshkent sh.,
Yangishahar ko'chasi, 1,
Tel.: (+99871) 224-04-12,
E-mail: info@oqituvchi.uz,
Web-site: www. oqituvchi.uz

ISBN 978-9943-22-117-8